

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
MALAKA OSHIRISH INSTITUTI  
KASBIY TAYYORGARLIK FAKULTETI**



**MAXSUS FANLAR SIKLI**

**Ichki ishlar organlari profilaktika inspektori ofitserlik lavozimlariga qabul qilingan xodimlarni boshlang‘ich kasbiy tayyorgarlik o‘quv kursining tasdiqlangan o‘quv dasturi asosida “Profilatika inspektori faoliyati” nomli modulning**

**O‘QUV-USLUBIY MAJMUASI**

**TOSHKENT**

## UDK

Mazkur o'quv-uslubiy majmua "Ichki ishlar organlarining ofitserlik lavozimlariga xizmatga qabul qilingan xodim bilan tashkil etilgan boshlang'ich kasbiy tayyorgarlik o'quv yig'ini"ning o'quv dasturi asosida tayyorlangan.

### Tuzuvchi:

**A.S.Vaxidov** Maxsus fanlar sikli boshlig'i;

### Taqrizchilar:

**S.B.Xo'jakulov** - O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i, yu.f.d., professor

**J.S.Muxtorov** - O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Yuridik fanlar kafedrası dotsenti, yu.f.n., dotsent

O'quv-uslubiy majmua ichki ishlar organlarining ofitserlik lavozimlariga xizmatga qabul qilingan xodim bilan tashkil etilgan boshlang'ich kasbiy tayyorgarlik o'quv yig'ini tinglovchilari uchun "Profilatika inspektori faoliyati" moduli qamrovidagi mavzular yoritib berilgan.

O'quv-uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi IIV ta'lim muassasalari tinglovchi, kursant, doktorant va mustaqil izlanuvchilari, professor-o'qituvchilari, shuningdek ichki ishlar organlarining amaliyot xodimlari uchun mo'ljallangan.

O'quv-uslubiy majmua Malaka oshirish instituti Ilmiy Kengashining 2023 yil "\_\_\_"  
\_\_\_\_\_dagi "\_\_\_"-sonli yig'ilishida muhokama qilingan va ma'qullangan.

UDK \_\_\_\_\_

© O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti, 2023.

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	4
<b>Modul bo'yicha darslar taqsimoti</b> .....	6
1-mavzu: Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari.....	7
2-mavzu: Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari.....	13
3-mavzu: Mahalla huquq-tartibot maskanlarining faoliyatini tashkil etish.....	24
4-mavzu: Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tashkil etish tartibi.....	44
5-mavzu: Profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar umumiy va viktimologik profilaktikasini amalga oshirish faoliyati.....	58
6-mavzu: Profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar maxsus va yakka tartibdagi profilaktikasini amalga oshirish faoliyati.....	73
7-mavzu: Profilaktik hisobga olish asoslari, tartibi, mahalla huquq tartibot maskanida yuritiladigan profilaktik hisoblar va ularning turlari.....	89
8-mavzu: Profilaktika inspektorlarining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaati bilan ishlash faoliyati.....	96
9-mavzu: Profilaktika inspektorlarining ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatlari hamda xujjatlashtirish tartibi.....	105
10-mavzu: Ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etish sabablari va ularga olib kelgan shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan korxonalar, muassasa, tashkilotlarga taqdimnoma kiritish tartibi.....	115
11-mavzu: Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat o'rnatish tartibi.....	121
12-mavzu: Profilaktika inspektorlarining mahallalarda joriy qilingan hokim yordamchilari va yoshlar yetakchilari bilan hamkorlikdagi faoliyati.....	130
13-mavzu: Profilaktika inspektorining voyaga yetmaganlarni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga va ixtisoslashtirilgan o'quv tarbiya muassasasiga joylashtirish faoliyati.....	140
14-mavzu: Profilaktika inspektorining xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'raonlikning oldini olish bo'yicha himoya orderini berish faoliyati.....	154
15-mavzu: Profilaktika inspektorlarining IIO sohaviy xizmatlari, davlat organlari hamda jamoat tuzilmalari bilan o'zaro hamkorligi.....	161
<b>Mavzular bo'yicha taxminiy test savollari</b> .....	176
<b>Glossariy</b> .....	183
<b>Adabiyotlar</b> .....	187

## KIRISH

Mazkur o'quv uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-apreldagi "Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5076-son, 2023-yil 20-yanvardagi "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-10-son qarorlari hamda Ichki ishlar vazirligining 2021-yil 15-maydagi "O'zbekiston Respublikasi IIVning Malaka oshirish instituti Ustavini tasdiqlash to'g'risida"gi 164-son, 2021-yil 19-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish institutining kasbiy tayyorgarlik fakulteti to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 209-son buyruqlariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, ichki ishlar organlarining uzluksiz o'quv-karera jarayoni tizimini amalga oshirish va ichki ishlar organlariga xizmatga yangi qabul qilingan huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati xodimlarini tizimli ravishda maxsus kasbiy tayyorgarlikdan o'tkazishni nazarda tutadi.

Ushbu o'quv uslubiy majmuaga ko'ra, huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati xodimlarini kasbiy tayyorlash o'quv jarayoni blok-modul tizimiga asoslangan bo'lib, mashg'ulotlarda innovatsion pedagogik texnologiya, interfaol metod va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali amalga oshirish, ularning huquqiy va kasbiy bilimlari hamda amaliy ko'nikmalarini yuksaltirishga qaratilgan.

O'quv uslubiy majmuaning **asosiy maqsadi** huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati xodimlarining malakasiga qarab xizmat bo'yicha o'sishini ta'minlash, ularning kasbiy intellektual va professional salohiyatini yanada oshirish, kuch va vositalarni samarali boshqarish, shuningdek, xodimlarda (bundan buyon matnda tinglovchilar deb yuritiladi) xizmat majburiyatlarini samarali bajarishlari uchun kasbiy bilimlarini yangilash, chuqurlashtirish hamda ko'nikma va mahoratlarini oshirishni uzluksiz ta'minlashdan iborat.

O'quv uslubiy majmuaning **asosiy vazifalari** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Hukumati va Ichki ishlar vazirligi tomonidan ichki ishlar organlari xodimlarga qo'yilayotgan bugungi kun talablariga javob beradigan yuksak kasbiy mahoratini rivojlantirish;

tinglovchilarning blok-modul tizimi asosida kasbiy tayyorlashni sifatli va tizimli tashkil etish;

tinglovchilarni xizmat faoliyatida tuziladigan hujjatlar hamda ularning majburiyatlari va vazifalari bilan tanishtirish;

o'qitishning zamonaviy shakl va usullarini mashg'ulotlarida ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash hamda ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish;

xizmat vazifalarni bajarishda, nazariya va amaliyotda uchrayotgan barcha o'zgarishlarga yetarli darajada aniq baho bera olish, mavjud muammolarni tahlil qilish va to'g'ri qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish;

tinglovchilarda tezkor va kriminogen vaziyatni tahlil qilish, prognozlash va baholashning zamonaviy usullarini o'rgatish hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishda ichki ishlar organlarining mavjud kuch, vosita va usullaridan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;

mamlakatimizda jinoyatlarning oldini olish, ularni fosh etish va dastlabki tergovga qadar ishlarni amalga oshirish, huquqbuzarliklar profilaktikasi hamda jamoat xavfsizligi va huquq tartibotni ta'minlash muammolarini hal etish bo'yicha to'plangan ilg'or ish tajribasini o'rgatishdan iborat.

Tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar kasbiy tayyorlash mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari bilan belgilanadi.

### **Tinglovchi:**

"Xalq manfaatlariga xizmat qilish"ni, ya'ni o'z xizmat burchini so'zsiz bajaradigan ijtimoiy yo'naltirilgan professional tuzilmada ekanligini anglashi;

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, unda shaxsning huquqiy maqomi, inson huquqlari, davlat organlari tizimi, ularni tashkil etish, vakolati va faoliyat shakllari, qonunchilik sohasidagi islohotlar talablarini;

xizmat sohasi faoliyatini tartibga soluvchi va muvofiqlashtiruvchi normativ hujjatlar talablarini;

o'z vakolati doirasida respublikada kriminogen vaziyatni tizimli tahlil va prognoz qilish asoslarini;

xizmat faoliyati mobaynida turli toifadagi shaxslar bilan profilaktik ishlarni va maqsadli profilaktik chora-tadbirlarni to'g'ri qo'llashga ko'maklashish;

o'z faoliyati samaradorligini tahlil qilish va baholashni **bilishi** kerak.

**Tinglovchi:**

o'z faoliyatini rejalashtirish;

faoliyatidagi muammo va kamchiliklarni aniqlash va bartaraf qilish;

Huquqbuzarliklar profilaktikasining turlarini amaliyotda qo'llash;

tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderini berish;

Huquqbuzarliklarning kelib chiqish sabablari va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash, hamda ularni bartaraf etish;

Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish;

profilaktik xisob hamda ma'muriy nazoratda turgan shaxslar bilan ishlash;

jinoyat va hodisalarga oid arizalar, xabarlar hamda boshqa ma'lumotlarni ko'rib chiqish;

ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish;

xizmat faoliyatida mavjud bo'lgan texnik vositalardan samarali foydalanish;

ma'muriy hududda kriminogen vaziyatni aniqlash va unga to'g'ri baho berish;

jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash;

doimiy ravishda o'z bilim va kasbiy ko'nikmalarini takomillashtirib borish, malaka va huquqiy madaniyatini oshirish bo'yicha ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

Murakkab sharoitlarga tez moslashish, keskin vaziyatlarda eng maqbul qarorlar qabul qilish;

jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushayotgan ariza va shikoyatlarni mazmunan ko'rib chiqish va qonun doirasida hal qila olish;

fuqarolarning murojaatlariga xolisona va vijdonan yondashish, ayniqsa, bolalar, ayollar, keksalar va nuroniylarga alohida e'tibor qaratish;

ilg'or ish tajribasi va uslubini amaliyotda qo'llash;

faoliyatiga taaluqli huquq normalaridan foydalanish va qo'llash **malakalariga** ega bo'lishi zarur.

**Tinglovchi:**

Shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash;

ichki ishlar organlari faoliyatini rejalashtirish;

huquqbuzarlikdan jabrlanganga, g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdagi yordam ko'rsatish;

jismoniy, ma'naviy yoki mulkiy zarar yetkazilganligi oqibatida huquqbuzarlikdan jabrlangan shaxslar bilan ishlash;

huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek ularning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo'llaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlarini amalga oshirish;

samarali ish yuritish va hujjatlar aylanishini hamda jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash tizimini yo'lga qo'yish **kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim.

**Modul bo'yicha darslar taqsimoti:  
Mavzuiy reja**

T/r	Modullar nomi	O'quv yuklamasi (soatlarda)			
		Auditoriya soati	Ma'ruza	Seminar	Amaliy mashg'ulot
<b>Profilaktika inspektori faoliyati</b>		<b>78</b>	<b>30</b>	<b>30</b>	<b>18</b>
1.	Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari	4	2	2	-
2.	Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari	4	2	2	-
3.	Mahalla huquq-tartibot maskanlarining faoliyatini tashkil etish	4	2	2	-
4.	Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tashkil etish tartibi	4	2	2	-
5.	Profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar umumiy va viktimologik profilaktikasini amalga oshirish faoliyati	6	2	2	2
6.	Profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar maxsus va yakka tartibdagi profilaktikasini amalga oshirish faoliyati	6	2	2	2
7.	Profilaktik hisobga olish asoslari, tartibi, mahalla huquq tartibot maskanida yuritiladigan profilaktik hisoblar va ularning turlari	6	2	2	2
8.	Profilaktika inspektorlarining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaati bilan ishlash faoliyati	6	2	2	2
9.	Profilaktika inspektorlarining ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatlari hamda xujjatlashtirish tartibi	8	2	2	4
10.	Ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etish sabablari va ularga olib kelgan shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan korxonalar, muassasa, tashkilotlarga taqdimnoma kiritish tartibi	4	2	2	-
11.	Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat o'rnatish tartibi	6	2	2	2
12.	Profilaktika inspektorlarining mahallalarda joriy qilingan hokim yordamchilari va yoshlar yetakchilari bilan hamkorlikdagi faoliyati	4	2	2	-
13.	Profilaktika inspektorining voyaga yetmaganlarni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga va ixtisoslashtirilgan o'quv tarbiya muassasasiga joylashtirish faoliyati	6	2	2	2
14.	Profilaktika inspektorining xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlikning oldini olish bo'yicha himoya orderini berish faoliyati	6	2	2	2
15.	Profilaktika inspektorlarining IIO sohaviy xizmatlari, davlat organlari hamda jamoat tuzilmalari bilan o'zaro hamkorligi	4	2	2	-

## 1-mavzu: Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari.

*Ma'ruza mashg'uloti (2 soat)*

### Reja:

1-savol. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi faoliyati.

2-savol. "Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni" amalga oshiriladigan chora-tadbirlar.

### 1-savol. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi faoliyati



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2833-sonli qarori bilan;

- Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi;

- Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha respublika idoralararo

komissiyasi;

- Odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi; (*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 dekabrda PF-5894-sonli Farmoniga asosan chiqarilgan*)

- Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi; (*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi PF-6257-son "Korrupsiyaga qarshi murossasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga asosan chiqarilgan. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi*) tashkil etildi.

***Xozirgi kunda ushbu idoralararo komissiyalarning bittasi o'z faoliyatini olib bormoqda, ular:***

**Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi PQ-2833-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi to'g'risidagi" Nizom tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi ***Ichki ishlar vaziri*** komissiya raisi hisoblanadi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha Respublika idoralararo komissiyasi huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishni bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi organ hisoblanadi.

Komissiya tomonidan qabul qilinadigan qarorlar barcha vazirliklar, idoralar, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan ijro etilishi majburiydir.

Komissiya o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, ushbu Nizom hamda boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

Komissiya o'z faoliyatini davlat organlari, boshqa tashkilotlar hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahrida, tumanlar (shaharlar)da huquqbuzarliklar

profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha hududiy komissiyalar bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

### Komissivaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:



➤ qonuniylik va huquq-tartibotni, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, yuridik shaxslar, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini huquqbuzarliklardan himoya qilishni ta'minlash;

➤ huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida davlat dasturlari va boshqa dasturlar ishlab chiqilishini hamda amalga oshirilishini, shuningdek ularning ijrosi

ustidan nazoratni tashkil etish;

➤ vakolatli organlar va muassasalarning faoliyatini ularning faoliyati samaradorligini, yaqindan hamkorligi va ish uyg'unligini ta'minlash maqsadida muvofiqlashtirish;

➤ huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha ko'rilayotgan choralarni baholash, monitoring qilish va ularning samaradorligini oshirish;

➤ jinoyatlarni fosh etish, tergov qilish, ularning oldini olish va ularga barham berish amaliyotini o'rganish;

➤ jinoyatlar fosh etilishini hamda surishtiruv, tergov va sud organlaridan yashiringan shaxslarning qidiruvini ta'minlash maqsadida tezkor-qidiruv va profilaktika tadbirlarining samaradorligini oshirish;

➤ tizimli kamchiliklarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, tahlil qilish hamda ularni huquqni qo'llash amaliyoti va qonun hujjatlarini takomillashtirish yo'li bilan bartaraf etish;

➤ vakolatli organlar va muassasalarning huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga barham berishdagi o'zaro hamkorligini yaxshilash, shuningdek huquqbuzarliklarni sodir etish sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

➤ huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi ma'lumotlarni to'plash, saqlash, qayta ishlash, tahlil qilish hamda tegishli organlar va muassasalar faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida ulardan foydalanish;

➤ hududiy komissiyalarning faoliyatini muvofiqlashtirish.

### Komissiya quyidagi huquqlarga ega:



❖ vakolatli organlar va muassasalarning faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan qarorlar qabul qilish;

❖ Komissiya vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha vakolatli organlar va muassasalar rahbarlarining hisobotlarini eshitish;

❖ huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish masalalarida qonun hujjatlari va Komissiya qarorlari bajarilmaganligi uchun tegishli davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari,

boshqa tashkilotlarga ularning mansabdor shaxslarini javobgarlikka tortish haqida takliflar kiritish;

❖ Komissiya vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlardan belgilangan tartibda ma'lumotlarni so'rash va olish;

❖ Komissiya a'zosi hisoblanmaydigan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlarning mansabdor shaxslarini Komissiya yig'ilishlariga taklif etish;



❖ huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish ishlari ahvolini o'rganish uchun ishchi komissiyalar va (yoki) ekspert guruhlarini tashkil etish, shuningdek ushbu komissiya va guruhlar ishiga mutaxassislarni jalb qilish;

❖ jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, shuningdek huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishda faol ishtirok etgan shaxslarni rag'batlantirish tashabbusi bilan chiqish.

❖ Komissiya qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

### **Komissiya quyidagilarga majbur:**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish bo'yicha qarorlarini

ijro etish;

➤ Komissiya tomonidan qabul qilingan qarorlarning o'z vaqtida ijro etilishi yuzasidan nazorat va monitoringni amalga oshirish.

➤ Komissiya zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

### **Komissiyaning shaxsiy tarkibi**



**O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.**

Hududiy komissiyalar rais (**ichki ishlar organi rahbari**), rais o'rinbosari va a'zolaridan iborat tarkibda tuziladi. Hududiy komissiyalar tarkibiga, qoida tariqasida, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, shuningdek mehnat, ta'limni davlat tomonidan boshqarish, davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish, tabiatni muhofaza qilish organlari va boshqa davlat boshqaruvi organlari rahbarlari kiritiladi.

Komissiya o'z faoliyatini doimiy asosda amalga oshiradi va majlislarini zaruratga qarab, ammo chorakda kamida bir marta o'tkazadi.

### **Komissiya rais tomonidan boshqarilib, u:**



- Komissiya faoliyatiga rahbarlik qiladi;
- Komissiya yig'ilishlarini chaqiradi va ularga raislik qiladi;
- Komissiya yig'ilishlari kun tartibini tasdiqlaydi;
- Komissiya ish rejalarini tasdiqlaydi.

### **Komissiya ishchi organi funksiyasini O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi bajaradi.**

➤ Vakolatli organlar va muassasalar o'z vakolatlari doirasida Komissiyaga har chorakda:  
➤ jinoyatchilik va huquqbuzarliklar ahvoli to'g'risidagi hisobotlarni;  
➤ huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish to'g'risidagi hisobotlarni;

➤ jinoyatlar va huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etish bo'yicha takliflarni taqdim etishadi.

➤ Komissiya qarorlari Komissiya a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan taqdirda Komissiya raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

Komissiya qarorlari yig'ilishda ishtirok etgan Komissiya a'zolari tomonidan imzolananadigan va Komissiya raisi tomonidan tasdiqlanadigan bayonnoma bilan


rasmiylashtiriladi. Bayonnomani imzolashda Komissiya a'zolari o'zlarining alohida fikrlarini yozma ravishda bildirish huquqiga egadir.

Komissiya qarorlari tegishli vakolatli organlar va muassasalarga, shuningdek manfaatdor davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga, boshqa tashkilotlarga yuboriladi. Ularning rahbarlari Komissiya qarorlarining o'z vaqtida va to'liq ijro etilishi uchun javobgardir.

Komissiya qarorlarini sifatli bajarish maqsadida vakolatli organlar va muassasalar rahbarlari tomonidan ularning ijro etilishi yuzasidan monitoring va nazorat tashkil etiladi.

Komissiya ish rejaları uning a'zolaridan kelib tushgan takliflar asosida har yarim yilga tuziladi, Komissiya yig'ilishida ko'rib chiqiladi va Komissiya raisi tomonidan tasdiqlanadi.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi PQ-2833-sonli qarorining 2-ilovasiga muvofiq Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi tarkibi quyidagicha:**



## 2-savol. "Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni" amalga oshiriladigan chora tadbirlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi PQ-2833-sonli qarori bilan haftaning har payshanba kuni «**Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni**» etib belgilandi va ushbu kunda quyidagi tadbirlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratildi:



➤ huquqbuzarliklarga murosasizlik madaniyatini shakllantirish, huquqiy nigilizmga barham berish va fuqarolarning qonunga itoatkorlik xulq-atvorini ommalashtirishga qaratilgan, shu jumladan ichki ishlar organlari tayanch punktlari, huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat idoralari va tashkilotlarida «**ochiq eshiklar kuni**»ni tashkil etish orqali tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

➤ qonuniylik ahvolini va huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha chora-tadbirlarning samaradorligini atroflicha muhokama qilish uchun joylarda, birinchi navbatda kriminogen

vaziyat nomaqbul bo'lgan hududlarda fuqarolarning sayyor qabullarini hamda davlat idoralari va tashkilotlari vakillarining aholi bilan uchrashuvlarini tashkil etish;

➤ ijtimoiy ahamiyati muhim bo'lgan sud muhokamalari bo'yicha sayyor sud majlislarini o'tkazish;

➤ aholi turmushining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini o'rganish, huquqbuzarlik sodir etishga ko'maklashuvchi shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish maqsadida uyma-uy yurishlarni tashkil etish;


➤ huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar haqida davlat idoralari va tashkilotlari rahbarlarining hisobotlarini eshitish;

➤ maxsus teleko'rsatuv va radioeshittirishlarda davlat idoralari va tashkilotlari vakillari, jamoatchilik ishtirokida joylarda jinoyatchilik ahvoli, huquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlari, jinoyatlarni fosh etish va aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish bo'yicha ishlarning natijalarini muhokama qilish;

➤ huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish masalalari bo'yicha ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan Internet butunjahon axborot tarmog'ida maqolalar, sharhlar va boshqa materiallar chop etilishini tashkil etish.

## HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI KUNI DOIRASIDA TADBIRLARNI TASHKIL ETISH

### SXEMASI




Mustaqil ta'limning mazmunini tinglovchilar ma'ruza va boshqa o'quv mashg'ulotlarda olgan bilimlarini mustaqil ta'lim jarayonida yanada chuqurroq o'zlashtirishlari va navbatdagi mashg'ulotga mo'ljallangan mavzu bo'yicha tayyorgarlik ko'rishlari tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2833-sonli qarorini o'rganish va tegishli bandlarini konspektlashtirish.

### 1-mavzu. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari.

Seminar mashg'uloti (2 savol)

Ushbu o'quv mashg'uloti "*Klaster*" interfaol metodidan foydalanish orqali o'tkaziladi.



#### Mustaqil tayyorgarlik uchun savollar:

1. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasining asosiy vazifalari.
2. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasining huquqlari.

3. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi tarkibi.
4. Voyaga yetmaganlarni joylashtirish chora-tadbirlari.
5. Tuman (shahar) komissiyalarining voyaga yetmaganlarni joylashtirish shakli ko'rsatilgan qarorlarini ijro qilish uchun yuborish.
6. Tuman (shahar) komissiyalari voyaga yetmaganlarga nisbatan ta'sir ko'rsatish choralari sifatida nimalarga haqli?

## **2-mavzu: Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari.**

*Ma'ruza mashg'uloti (2 soat)*

### **Reja:**

- 1-savol.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2896-son Qarorining qabul qilinishi va ahamiyati.
- 2-savol.** "Ichki ishlar organlari tayanch punkti to'g'risida"gi Nizomning mazmuni.
- 3-savol.** Profilaktika inspektorlarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi.

### **1-savol. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2896-son Qarorining qabul qilinishi va ahamiyati.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 aprel kuni "*Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida*"gi PQ-2896-son Qarori tasdiqlandi. **Unga ko'ra:**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 10 apreldagi PF-5005-sonli Farmoniga muvofiq, shuningdek ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar barvaqt profilaktikasi va oldini olish bo'yicha faoliyatini tubdan takomillashtirish maqsadida:

1. Huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirishning quyidagi asosiy yo'nalishlarini amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning hududiy bo'linmalarining eng muhim vazifasi deb hisoblandi:

#### **birinchi**

huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalarining respublika, o'rta va quyi pog'onalari faoliyatining sifat jihatidan yangi tartibini o'rnatish, bunda ularning asosiy vazifalari, funksiyalari hamda javobgarligini aniq belgilash va chegaralash, profilaktika inspektorlari zimmasiga ular faoliyatiga xos bo'lmagan funksiyalar yuklatilishiga yo'l qo'ymaslik;

#### **ikkinchi**

profilaktika ishini aholi, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan yaqin hamkorlikda tashkil etish, ushbu ishni, birinchi navbatda, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishni ta'minlashga, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga, fuqarolarga qonunga hurmat va qonun buzilishining har qanday ko'rinishiga murosasizlik munosabatini singdirishga qaratish;

#### **uchinchi**

voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ishlash tizimini ularni Vatanga muhabbat, vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga, o'sib kelayotgan yosh avlodni terrorizm, diniy ekstremizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoyalashga yo'naltirilgan holda rivojlantirish;

**to‘rtinchi**

profilaktika inspektorlarining zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarning talab darajasida bajarilishi uchun shaxsiy javobgarligini kuchaytirish, shu jumladan o‘zlarining faoliyati haqida jamoatchilik oldida tizimli ravishda hisobot berishlarini yo‘lga qo‘yish, ularning aholini tashvishga solayotgan muammolarga yuzaki munosabatda bo‘lish holatlariga chek qo‘yish;

**beshinchi**

profilaktika inspektorlari faoliyati samaradorligini baholashning ta’sirchan mezonlarini joriy etish, bunda, birinchi navbatda jamoatchilik fikri, ularning faoliyati natijalaridan fuqarolarning qanoatlanishi hamda aholi bilan hamkorlik darajasini hisobga olish;

**oltinchi**

ushbu sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etish, profilaktika inspektorlarining bilim darajasi va kasbiy tayyorgarligini oshirish, ular uchun munosib ish sharoitlarini yaratish, ularni bevosita o‘zlariga biriktirilgan hududda xizmat turar joyi bilan ta’minlash, zimmalariga yuklatilgan vazifalarni bajarish natijadorligi uchun moddiy rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish.

#### **Mazkur qarorga asosan quyidagi tartib joriy etildi:**

➤ profilaktika inspektorlari o‘z lavozimiga tegishli fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari vakillari ishtirokida bo‘lib o‘tadigan muhokamalar natijalariga ko‘ra qabul qilinadigan xalq deputatlari tuman (shahar) **Kengashining qarori bilan tasdiqlanadi;**

➤ fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari **har oyda profilaktika inspektorlarining hisobotlarini eshitadi.**

Belgilab qo‘yilsinki, profilaktika inspektorlarining hisobotlarini eshitish yakunlariga ko‘ra ular zimmasiga yuklatilgan vazifalarning bajarilishi yuzasidan ko‘rilayotgan choralar va ish natijalari **tanqidiy** muhokama qilinadi, ular faoliyatining samaradorligiga alohida baho beriladi hamda egallab turgan lavozimiga loyiq yoki noloyiqligi haqida tavsiyalar qabul qilinadi.

#### **2-savol. “Ichki ishlar organlari tayanch punkti to‘g‘risida”gi Nizomning mazmuni.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi PQ–2896-sonli qarorining 2-ilovasi bilan **“Ichki ishlar organlari tayanch punkti to‘g‘risida NIZOM”** tasdiqlandi.

**Mazkur Nizom asosida, ichki ishlar organlari tayanch punktlari faoliyatining**

- vazifalari va tashkiliy-huquqiy asoslarini;  
- profilaktika inspektorlarining vakolatlari, huquq va majburiyatlarini;  
- ularning davlat organlari va boshqa tashkilotlar;  
- fuqarolik jamiyati institutlari hamda aholi bilan huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida hamkorlik qilish tartibini belgilaydi.

Tayanch punktlari tuman (shahar) ichki ishlar boshqarmalari (bo‘limlari)ning **asosiy quyi bo‘g‘ini hisoblanib**

- ular, ichki ishlar organlarining jamoatchilik bilan hamkorligini ta’minlashni




- qishloqlar, ovullar va mahallalarda jamoat tartibi, fuqarolar xavfsizligi, huquqbuzarliklar profilaktikasi hamda jinoyatchilikka qarshi kurashishni bevosita ta'minlash


maqsadida tashkil etiladi.

Tayanch punktlari o'z faoliyatini profilaktika katta inspektorlari va profilaktika inspektorlari hamda profilaktika (katta) inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha yordamchilari tarkibida amalga oshiradi.

Profilaktika inspektori shtat birliklarining soni tayanch punkti tomonidan xizmat ko'rsatiladigan hudud (mahallalar)ning kriminogen vaziyati, aholi soni va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi me'yorlar asosida belgilanadi. Xususan, IIO **profilaktika (katta) inspektorlari shtat birliklarini kiritiladi:**



## Qo‘shimcha ravishda kriminogen vaziyatdan kelib chiqib ajratiladigan shtat birliklari



Shuningdek, poytaxt hududida aholining zichligi, kriminogen vaziyat, shahar hududiga fuqarolarning kirib-chiqishi hamda chet el fuqarolarining kirib kelishini inobatga olib, Toshkent shahridagi har bir mahallaga kamida ikki nafar profilaktika inspektorlari birlashtirilishi mumkin.

Tayanch punktlari faoliyatini tashkil etish uchun ichki ishlar organlarining boshqa bo‘linmalari ham jalb etilishi mumkin.

### Tayanch punktlarining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

➤ huquqbuzarliklar profilaktikasini, ayniqsa voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida tashkil etish, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini, ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni aniqlash, o‘rganish va bartaraf etish;



➤ jinoyatlarni aniqlash, bartaraf etish va fosh etishda, tergov va suddan yashirinib yurgan shaxslarni, shuningdek bedarak yo‘qolgan fuqarolarni qidirishda ishtirok etish;

➤ voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ularni Vatanga muhabbat, vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga, yosh avlodni terrorizm, diniy ekstremizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoyalashga yo‘naltirilgan ishlarni bevosita amalga oshirish;

➤ aholi bilan uning eng muhim muammolarini hal etish va ijtimoiy keskinlikni yumshatish masalalarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish;

➤ huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning, g‘ayrijtimoiy xulq-atvoriga ega, huquqbuzarlik sodir etishga moyil, shuningdek huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning ijtimoiy rehabilitatsiyasi va moslashuvini ta‘minlash;

➤ huquqbuzarliklar profilaktikasi, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish masalalari bo‘yicha ichki ishlar organlarining boshqa bo‘linmalari, davlat organlari, tashkilotlar, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro hamkorlikni amalga oshirish.

### Profilaktika (katta) inspektori lavozimiga tayinlanadigan shaxslarga qo‘yiladigan talablar.

1

Profilaktika inspektorlari lavozimlariga oliy ma‘lumotga ega, kasbiy, axloqiy-ruhiy va jismoniy jihatdan tayyorgarlik ko‘rgan, huquqbuzarliklar profilaktikasi shakllari va usullarini amalda qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo‘lgan shaxslar tayinlanadilar.

2

Profilaktika katta inspektorlari lavozimlariga ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalarida kamida besh yillik ish stajiga ega bo‘lgan shaxslar tayinlanadilar.

Profilaktika inspektorini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod etish Qoraqalpog‘iston Respublikasi ichki ishlar vaziri, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari hamda viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari boshliqlari tomonidan amalga oshiriladi.



Profilaktika inspektori tegishli xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashi qarori bilan lavozimga tasdiqlanib, uning majlisida quyidagi mazmundagi **qasamyodni qabul qilgan vaqtdan** boshlab lavozimga kirishgan deb hisoblanadi:



«Men, (famiyasi, ismi, otasining ismi), \_\_\_\_\_-sonli tayanch punkti profilaktika inspektori lavozimiga kirishar ekanman, o‘z burchimni va menga ishonib topshirilgan hududda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish, tinchlik, osoyishtalik, xavfsizlik va jamoat tartibini mustahkamlash borasida menga yuklatilgan majburiyatlarni vijdonan, sitqidildan bajarishga qasamyod qilaman».

Profilaktika inspektorlari yuqori darajadagi kasbiy ko‘nikmalari va huquqiy madaniyati, fidokorona mehnati, mardligi va ko‘rsatgan jasorati uchun o‘rnatilgan tartibda **rag‘batlantiriladilar**.

### **Profilaktika inspektorlarining vakolatlari**

Tayanch punktlariga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun profilaktika inspektorlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadigan vazifalarni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi PF-27-son Farmonning 4-ilovasi bilan ichki ishlar organlarining profilaktika inspektorlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarining ro‘yxati tasdiqlandi. **Mazkur vazifalar quyidagilardan iborat:**



1. Biriktirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududida vakolatli davlat organlari va tashkilotlarning huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha faoliyati natijalarini umumlashtirish va yagona axborot-tahlil tizimiga kiritilishini ta‘minlash.

2. Biriktirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududidagi kriminogen vaziyatni muntazam ravishda o‘rganib borish, huquqbuzarliklarni aniqlash va ularga barham berish bo‘yicha qonunchilikda belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish.

3. Biriktirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududida aholi o‘rtasida huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus va viktimologik profilaktikasini amalga oshirish.

4. Huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslarni belgilangan tartibda profilaktik hisobga va ma‘muriy nazoratga olish, ular bilan yakka tartibdagi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiy moslashtirish ishlarini individual dastur tuzgan holda tashkil etish.

5. Yoshlar, ayniqsa ularning uyushmagan qismi bilan manzilli tarbiyaviy va profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali ular orasida huquqbuzarliklarning oldini olish.

6. Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, shu jumladan voyaga yetmaganlar masalalari bo‘yicha inspektor-psixologlarga ko‘maklashish.

7. Voyaga yetmaganlar va yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga, terrorizm, ekstremizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoyalashga yo‘naltirilgan ishlarni bevosita amalga oshirish.

8. Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarga himoya orderini berish va himoya orderi talablarining ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish.

9. Ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risida bayonnomalar tuzish va O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga muvofiq tegishli ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish.

10. Jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish, ularning murojaatlarini belgilangan tartibda ko‘rib chiqish.



11. Vakolatli davlat organlari va tashkilotlar bilan yaqin hamkorlikda biriktirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududida har bir oilani bevosita joyida o‘rgangan holda, fuqarolarning jamoat xavfsizligiga oid va huquqbuzarliklarga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan muammolari va noroziliklarini aniqlash, ularni bartaraf etish bo‘yicha zarur choralarini ko‘rish.

12. Biriktirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududida pasport rejimi qoidalariga rioya etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish.

13. Tajovuzkor ruhiy kasallar, spirtli ichimlikka ruju qo‘yganlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda davlat sog‘liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog‘liqni saqlash muassasalariga ko‘maklashish.

14. Probatsiya nazoratidagilarning xulq-atvorini nazorat qilishda, o‘rnatilgan cheklovlarga rioya etishini tekshirishda, shuningdek, yangi jinoyat sodir etishining oldini olishda probatsiya inspektorlariga ko‘maklashish.

15. Biriktirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududida jamoat tartibini saqlashga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, «Fidokor yoshlar» jamoatchilik patrul guruhlari faoliyatini tashkil etish. Fuqarolarni, ularning roziligi bilan, huquqbuzarliklar profilaktikasi choralari amalga oshirishda ko‘maklashishga jalb etish.

16. Davlat organlari, jamoat va boshqa tashkilotlar rahbarlariga huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari hamda ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf qilish hamda mahalladagi mavjud ijtimoiy muammolarni hal etmaganlik yuzasidan taqdimnomalar kiritish.

17. Biriktirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududida fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan fuqaroviy va xizmat quroli hamda uning o‘q-dorilarini saqlash qoidalariga rioya etilishini nazorat qilishga ko‘maklashish.

18. Biriktirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududida taqiqlangan tashkilotlar hamda terrorchilik, ekstremistik va boshqa g‘ayriqonuniy va buzg‘unchilik yo‘nalishidagi guruhlar faoliyatiga aloqador shaxslarni aniqlashga ko‘maklashish.



19. OIV/OITSning tarqalishini barvaqt oldini olish, axloqsizlik bilan bog‘liq huquqbuzarliklarga qarshi kurashish hamda fohishaxonalarning saqlanishiga chek qo‘yishga ko‘maklashish.

20. Doimiy yashash joyini uzoq muddatga tark etgan shaxslarni aniqlash va hisobini yuritish, ularning chet elda bo‘lish joylari va muddatlarini aniqlash yuzasidan qarindoshlari bilan muntazam ish olib borish, uzoq muddat mobaynida chet elda bo‘lib qaytgan shaxslar bilan profilaktik ishlarni amalga oshirish.

21. Jinoyatlarni aniqlash va fosh etish hamda surishtiruv, tergov va sud organlaridan yashirib yurgan, jazodan bo‘yin tovlayotgan, bedarak yo‘qolgan shaxslarni hamda qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda boshqa shaxslarni qidirish, shuningdek, shaxsi noma‘lum murdalarning shaxsini aniqlash bo‘yicha tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirishga ko‘maklashish.

22. Shaxsni majburiy keltirish to‘g‘risida surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sudning ajrimini belgilangan tartibda ijro etish.

Profilaktika inspektorlari qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham amalga oshirishlari mumkin.

Profilaktika katta inspektori, sanab o‘tilgan vakolatlar bilan birga, ichki ishlar organlari tayanch punkti va profilaktika inspektorlari faoliyatini tashkil etadi va umumiy rahbarlikni amalga oshiradi.

### 3-savol. Profilaktika inspektorlarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi.

#### Profilaktika inspektorlari quyidagi huquqlarga ega:



➤ fuqarolar va mansabdor shaxslardan qonunchilikka rioya etish va g‘ayriqonuniy harakatlarni to‘xtatishni talab qilish;

➤ o‘z vakolatlarini amalga oshirishda fuqarolarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini tekshirish, ularning yonlarida taqiqlangan buyum va vositalar mavjud deb gumon qilishga asoslar bo‘lgan taqdirda, shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazish va ularning ashyolarini ko‘zdan kechirish, huquqbuzarlikning quroli yoki bevosita predmeti bo‘lgan buyum va hujjatlar aniqlangan taqdirda, qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda ularni olib qo‘yish;

➤ ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risida bayonnomalar tuzish va O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga muvofiq o'zlariga taalluqli bo'lgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish;

➤ huquqbuzarliklar to'g'risidagi murojaatlar va xabarlarini o'rnatilgan tartibda tekshirish, davlat organlari va boshqa tashkilotlarga kirish, ulardan tegishli ma'lumotlarni so'rash va olish;

➤ o'z ish yurituvlarida bo'lgan ishlar va materiallar bo'yicha holatlarni aniqlash maqsadida zarur tushuntirishlar, ma'lumotlar va hujjatlarni olish uchun fuqarolar va mansabdor shaxslarni chaqirish;

➤ fuqarolarni, ularning roziligi bilan, huquqbuzarliklar profilaktikasi choralari amalga oshirishda ko'maklashishga jalb etish;

➤ qonunda ko'rsatilgan holatlar va tartibda qurol va maxsus vositalarni qo'llash.

Profilaktika inspektorlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

### Profilaktika inspektorlari quyidagilarga majburdir:



➤ inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, yuridik va jismoniy shaxslarning mulkini himoya qilish, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha o'z vakolatlari doirasida zarur choralar ko'rish;

➤ jinoyat, ma'muriy huquqbuzarlik yoki boshqa hodisa sodir etilgan joyga darhol yetib kelish, g'ayriqonuniy qilmishlarga chek qo'yish, fuqarolarning xavfsizligiga qaratilgan tahdidlarni bartaraf etish, hodisa holatlarini hujjatlashtirish, jinoyat, ma'muriy huquqbuzarlik yoki boshqa hodisa izlarining saqlanishini ta'minlash;

➤ jinoyat, ma'muriy huquqbuzarlik yoki boshqa hodisa sodir etilgan joyda jabrlangan, shuningdek nochor ahvolda qolgan fuqarolarga birinchi tibbiy yoki boshqa turdagi yordam ko'rsatilishini tashkil etish;

➤ o'z xizmat majburiyatlarini bajarish munosabati bilan unga ma'lum bo'lgan fuqarolarning shaxsiy hayoti, sha'ni va qadr-qimmatiga taalluqli ma'lumotlarni ularning rozilgisiz oshkor etmaslik, xizmat ma'lumotlari, shuningdek, tijorat va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa sirlarning maxfiyligi va saqlanishini ta'minlash;

➤ huquqbuzarliklar profilaktikasi tadbirlarini o'tkazishda fuqarolar hayoti va sog'lig'i, yuridik va jismoniy shaxslar mol-mulki xavfsizligini ta'minlash;

➤ chaqiruv bo'yicha kelishdan bo'yin tovlayotgan shaxslarni majburiy keltirish to'g'risidagi sud ajrimlari, prokurorning, tergovchining yoki surishtiruvchining qarorlarini tegishli hududda bajarilishini ta'minlash;

➤ qonun hujjatlari bilan ichki ishlar xodimlari uchun belgilangan cheklov va taqiqlarga rioya etish.

Profilaktika inspektorlariga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklatilishi mumkin.

Profilaktika inspektorlari o'z zimmalariga yuklangan vazifa va funksiyalarning talab darajasida va samarali bajarilishi uchun mas'uldirlar.

### Profilaktika inspektorlarining davlat tashkilotlari, boshqa tashkilotlar va aholi bilan hamkorligi.



Profilaktika inspektorlarining davlat tashkilotlari, boshqa tashkilotlar hamda aholi bilan hamkorligini tashkil etish **quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:**

➤ huquqbuzarliklar profilaktikasi, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish bo'yicha qo'shma tadbirlarini rejalashtirish va o'tkazish;

- kollegial qarorlarni talab qiluvchi vazifalardan kelib chiqib qo'shma yig'ilishlar o'tkazish;
- mahalliy davlat hokimiyati organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati natijalari haqida xabardor qilib borish;
- faoliyatga baho berish va birgalikda amalga oshirilgan ishlar natijalarini hisobga olish;
- hamkorlikni tashkil etishning ilg'or shakllari va usullarini umumlashtirish hamda amaliyotga tatbiq etish.

Hamkorlikning darajasi, doirasi va xususiyatidan kelib chiqib, qonunchilikka muvofiq boshqa tadbirlar ham amalga oshirilishi mumkin.

Davlat organlari va muassasalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat va boshqa tashkilotlar profilaktika inspektorlariga o'z vakolatlari doirasida o'quv-metodik, axborot, maslahat va tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlashlari mumkin.

Axborot almashish yozma so'rovlar asosida amalga oshiriladi. So'rovga, agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, u olingan kundan boshlab o'n besh kundan kechiktirilmay javob berilishi lozim.

Profilaktika inspektorlari mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlarni o'tkazishda, oilaviy-maishiy nizolar masalalarini hal etishda, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda, noqonuniy diniy tashkilotlar faoliyatiga chek qo'yish choralari ko'rishda, fuqarolarning vijdon erkinligi va diniy e'tiqod huquqlariga rioya etilishini, diniy qarashlarning majburan singdirilishiga yo'l qo'yilmasligini ta'minlashda fuqarolar yig'inlari bilan hamkorlik qiladilar.

Profilaktika inspektorlari **har oyda** huquqbuzarliklar profilaktikasi va huquqbuzarliklarni oldini olish holati to'g'risida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga **hisobot taqdim etadilar**.

Profilaktika katta inspektori, ushbu lavozim mavjud bo'lmagan taqdirda **profilaktika inspektori fuqarolar yig'ini raisining huquq-tartibot masalalari bo'yicha o'rinbosari** vazifasini bajaradi.

Profilaktika inspektorlari fuqarolar yig'ini raislari (oqsoqollari) bilan birgalikda quyidagilarga qaratilgan choralarni amalga oshiradilar:

- egasiz turar joylarni aniqlash va ularning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda saqlanishini nazorat qilish;
- vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi;
- oilaviy-maishiy sabablarga ko'ra sodir etilgan huquqbuzarliklar, shu jumladan ayollar, voyaga yetmaganlar va yoshlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar muhokamasini tashkil etish va o'tkazish, mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish choralari ko'rish;
- spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni suiiste'mol qilish natijasida fuqaroning muomala layoqati cheklangan deb topish to'g'risida yoki fuqaroning ruhiy holati buzilganligi (ruhiy kasalligi yoki aqliy zaifligi) tufayli muomalaga layoqatsiz deb topish haqida sudga ariza berish masalalari.

Profilaktika inspektorlari fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) bilan birgalikda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa choralarni ham amalga oshirishlari mumkin.



Profilaktika inspektorlari fuqarolar yig'ini raislarining oila, xotinqizlar va ijtimoiy-ma'naviy masalalar bo'yicha o'rinbosarlari bilan quyidagi masalalarda o'zaro hamkorlik qiladilar:

- aholi, ayniqsa, xotin-qizlar, voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, ma'naviy-axloqiy muhitni sog'lomlashtirish bo'yicha fuqarolarning huquqiy madaniyati va faolligini oshirishga yo'naltirilgan tushuntirish ishlarini tashkil etish;
- xotin-qizlar va voyaga yetmaganlarga nisbatan jismoniy yoki ruhiy zo'rlik ishlatish ehtimoli mavjud oilalarda profilaktik tushuntirish ishlarini olib borish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga ko'maklashish;
- odam savdosi qurboniga aylangan xotin-qizlar va voyaga yetmaganlarga ularning ijtimoiy hayotga moslashishlari uchun har tomonlama ko'mak berish;
- xotin-qizlar va voyaga yetmaganlar o'rtasida erta nikoh, o'z joniga qasd qilish, jinoyatlar va huquqbuzarliklar holatlarining sabab va shart-sharoitlarini o'rganish, shuningdek, ularga yo'l qo'ymaslik bo'yicha profilaktika choralarini, shu jumladan, yakka tartibdagi choralarni ko'rish;
- tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashda fuqarolar ogohligini, xotin-qizlar faolligini oshirish;
- diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish;
- jazoni ijro etish muassasalarida jazoni o'tayotgan xotin-qizlarni fuqarolar yig'inlari kafilligi asosida afv etish to'g'risida takliflar kiritish;
- ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazoni o'tayotgan yoxud jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan, shu jumladan, diniy ekstremistik g'oyalar ta'siriga tushgan shaxslarning yaqin qarindoshlari bilan profilaktika ishlarini olib borish va ularga ko'maklashish.



Profilaktika inspektorlari fuqarolar yig'inining oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyalari bilan quyidagi masalalarda o'zaro hamkorlik qiladi:

- fuqarolarning yot g'oyalar, ichkilikbozlik va giyohvandlik ta'siri ostiga tushib qolishlari, oilaviy kelishmovchiliklar shuningdek, yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsiz munosabatda bo'lish holatlarining oldini olish;
- qo'shnilar va qarindoshlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etish va ularning o'zaro munosabatlarini tiklash bo'yicha choralarni ko'rish;
- ichki ishlar organlari hisobida turgan, ayniqsa, muqaddam sudlangan, huquqbuzarliklar sodir etayotgan va yot g'oyalar ta'siriga tushib qolgan shaxslar bilan profilaktik ishlarni amalga oshirish;
- jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslarni ijtimoiy moslashtirish.

Profilaktika inspektorlari fuqarolar yig'inining xotin-qizlar bilan ishlash bo'yicha komissiyalari bilan quyidagi masalalarda o'zaro hamkorlik qiladilar:

- ayollarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha choralarni ko'rish;
- oilalarning barbod bo'lish holatlarini bartaraf etishga yo'naltirilgan tadbirlarni o'tkazish;
- xorijiy davlatlarga chiqayotgan va u yerdan qaytgan ayollar hisobini yuritish, ular bilan tegishli profilaktika ishlarini amalga oshirish.



**Profilaktika inspektorlari nodavlat notijorat tashkilotlari bilan quyidagi masalalarda o'zaro hamkorlik qiladilar:**

- huquqbuzarliklarning oldini olishga yo'naltirilgan qo'shma dasturlarni ishlab chiqish;

➤ fuqarolarni, ayniqsa, yoshlarni ma'naviy, axloqiy, huquqiy, jismoniy va mehnat tarbiyasini amalga oshirishda ishtirok etish;

➤ jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan yoki ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalaridan qaytgan shaxslarning ijtimoiy rehabilitatsiyasi va ijtimoiy moslashuviga ko'maklashish;

➤ aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish;

➤ millatlararo, madaniyatlararo totuvlik va fuqarolar totuvligi g'oyalarini mustahkamlash, ko'p asrlik, an'anaviy ma'naviy-axloqiy hamda tarixiy-madaniy qadriyatlarni tiklash va saqlash.

Profilaktika inspektorlari fuqarolar yig'ini organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari bilan qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarda ham o'zaro hamkorlik qilishlari mumkin.


Profilaktika inspektorlarining davlat organlari, boshqa tashkilotlar va fuqarolar bilan o'zaro hamkorligi ularning huquqbuzarliklar profilaktikasida ko'maklashish va zaruriy yordam ko'rsatish bilan ishtirok etishlari orqali amalga oshiriladi.

Profilaktika inspektorlari tuman va shahar ichki ishlar organlariga huquqbuzarliklar profilaktikasida faol ishtirok etganligi yoki alohida xizmatlari uchun fuqarolarni rag'batlantirish haqida takliflar kiritishlari mumkin.

Profilaktika inspektorlari qo'shma tadbirlarni, shu jumladan, huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid «davra suhbatlari», seminarlar va ijtimoiy so'rovlar tashkil etish orqali o'tkazishlari mumkin.

### **Tayanch punktlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnik ta'minoti masalalari**

Tayanch punkti kriminogen vaziyat, aholi zichligi va joylarda fuqarolar xavfsizligi hamda jamoat tartibini tegishli tarzda ta'minlash bilan bog'liq boshqa shart-sharoitlar inobatga olingan holda qonun hujjatlari bilan o'rnatilgan tartibda tashkil etiladi va tugatiladi.



Tayanch punktlari uchun yer maydoni va binolarni ajratish, qurilish, ta'mirlash va kapital ta'mirlash, shuningdek mebel bilan jihozlash shahar va tuman hokimliklari tomonidan mahalliy budjetdan ajratiladigan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

Tayanch punkti tuman, shahar hokimliklari balansida bo'ladi va uning binosi O'zbekiston Respublikasi IIVning Huquqbuzarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasi roziligisiz boshqa organlar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga sotilmaydi yoki berilmaydi.

Tayanch punktlarini zaruriy texnik vositalar, ko'rgazmali qo'llanmalar, xizmat hujjatlari va avtotransport vositalari bilan ta'minlash O'zbekiston Respublikasi IIV tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan ajratiladigan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

Jamoat birlashmalari bilan doimiy va samarali hamkorlikni ta'minlash maqsadida tayanch punktlari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan bir binoda yoki unga yaqin joyda joylashadi.

### Mustaqil tayyorgarlik uchun topshiriq:

Mustaqil ta'limning mazmunini tinglovchilar ma'ruza va boshqa o'quv mashg'ulotlarda olgan bilimlarini mustaqil ta'lim jarayonida yanada chuqurroq o'zlashtirishlari va navbatdagi mashg'ulotga mo'ljallangan mavzu bo'yicha tayyorgarlik ko'rishlari tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 aprel kuni "Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2896-son Qarorini o'qib o'rganish va tegishli bandlarini konspektlashtirish.


## 2-mavzu. Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari

### Seminar mashg'uloti (2 soat)

Ushbu seminar mashg'uloti «Blis-so'rov» interfaol metodidan foydalanish orqali o'tkaziladi.

«Blis-so'rov» (inglizcha «blis» – tezkor, bir zumda) metodi berilgan savollarga qisqa, aniq va lo'nda javob qaytarilishini taqozo etadigan metod sanaladi. Ta'lim muassasalarida ushbu metodga muvofiq savollar, asosan, o'qituvchi tomonidan beriladi. Berilgan savollarga javoblar jamoaviy, guruhli, juftlik yoki individual tarzda qaytarilishi mumkin. Javob qaytarish shakli mashg'ulot turi, o'rganilayotgan mavzuning murakkabligi, tinglovchilarning qamrab olinishiga ko'ra belgilanadi.

### Mashg'ulotlarda ushbu metodni qo'llash quyidagicha kechadi:



### Tinglovchilar uchun savollar:

1-savol. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning hududiy bo'linmalarining eng muhim vazifalari.

2-savol. 2017 yilning 1 oktabridan qanday tartib joriy etildi?

3-savol. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga hisobot.

4-savol. Profilaktika inspektorlarining vakolatlari.

### Mustaqil tayyorgarlik uchun savollar:

1. Tayanch punktining asosiy vazifalari va profilaktika inspektorlari faoliyatini tashkil etish

2. Profilaktika inspektorlarining huquqlari.
3. Profilaktika inspektorlarining majburiyatlari.
4. Profilaktika inspektorlarining javobgarligi.
5. Profilaktika inspektorlarining davlat tashkilotlari, boshqa tashkilotlar va aholi bilan hamkorligi.
6. Tayanch punktlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnik ta'minoti masalalari.
7. Ichki ishlar organlari profilaktika (katta) inspektorlari shtat birliklarini kiritish me'yorlari.

### 3-mavzu: Mahalla huquq-tartibot maskanlarining faoliyatini tashkil etish.

*Ma'ruza mashg'uloti (2 soat)*

#### Reja:

**1-savol.** Mahalla huquq-tartibot maskanlarining faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari.

**2-savol.** Mahalla huquq-tartibot maskanlarining faoliyatning asosiy vazifalari va funksiyalari, moddiy-texnik holati hamda namunaviy talablari.

**3-savol.** Ichki ishlar organlarining eng quyi bo'g'inida tashkil etilgan tarkibiy tuzilmaning xizmat vazifalari.

#### 1-savol. Mahalla huquq-tartibot maskanlarining faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishidagi ishlarni «**Xalq manfaatlariga xizmat qilish**» tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o'zaro maqsadli hamkorligi yo'lga qo'yildi.



Shu borada jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha o'rnatilayotgan yangi mexanizmlarning samarali amalga oshirilishini ta'minlashda ichki ishlar organlarining roli va mas'uliyatini yanada oshirish, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshikurashishning yaxlit tizimini shakllantirish, fuqarolarning xavfsizligi va osoyishtaligini ta'minlash borasida ichki ishlar organlari, boshqa huquq-tartibot organlari va jamoat tuzilmalarining mahallalar

kesimida birgalikda ishlashini tashkil etish orqali **har bir mahalla, oila va shaxs kesimida** jinoyatchilikning sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish natijasida huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishni yangi tizimi sifatida **ichki ishlar organlarining eng quyi bo'g'inidagi tarkibiy tuzilmasi mahalla huquq-tartibot maskani** faoliyati tashkil etildi.

Ichki ishlar organlarining mahalla huquq-tartibot maskanlarini tashkil etishdan ko'zlanayotgan maqsad quyidagilar hisoblanadi:

- mahalla huquq-tartibot maskani hududdagi jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning asosiy quyi bo'g'ini hisoblanadi;



- mahalla huquq-tartibot maskani negizida hududdagi ichki ishlar organlarining tegishli sohaviy xizmatlari hamda Milliy gvardiya va boshqa davlat organlarining muvofiqlashtirilgan faoliyati tashkil etiladi;
- mahalla huquq-tartibot maskani tomonidan jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish ishlarini tizimli tashkil etish va muvofiqlashtirish vazifasi profilaktika inspektoriga yuklanadi.

**Ichki ishlar organlarining eng quyi bo'g'inida tashkil etilgan mahalla huquq-tartibot maskanning huquqiy asosi etib quyidagilar belgilandi:**



1. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'RQ-407-son Qonuni;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-son

Farmoni;

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2-apreldagi "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlashva jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5050-son Qarori;
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-sonli Farmoni;
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 23 iyundagi "Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi VMQ-343-sonli qarori;
6. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2021 yil 16 mayda "Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 166-son buyrug'i.

Yuqorida belgilab o'tilgan huquqiy asoslar va normativ hujjatlardan kelib chiqqan holda mahalla huquq-tartibot maskani faoliyatini tashkil etishning huquqiy normalari quyidagilar belgilandi. Jumladan:

❖ **O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 27 oktabrdagi O'RQ-797-sonli qonuniga asosan 2016 yil 16 sentabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'RQ-407-son Qonunning 2-bobi 15<sup>1</sup>-moddasi qo'shimcha kiritilib mahalla huquq-tartibot maskanlari o'z faoliyatini quyidagi tarkibda amalga oshirishi belgilandi:**

- profilaktika katta inspektori, profilaktika inspektori, profilaktika inspektorining jamoat tartibini saqlash bo'yicha yordamchisi (har kunlik asosda);
- mazkur hududda xizmatni o'tash uchun birlashtirilgan tuman (shahar) ichki ishlar organlarining xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektori, probatsiya bo'linmasi inspektori, tezkor vakil, patrul-post xizmati xodimlari;
- jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklar profilaktikasiga ko'maklashish uchun yuborilgan O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya bo'linmasining va boshqa vakolatli davlat organlarining xodimlari, shuningdek jamoat tuzilmalarining vakillari.

❖ **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-son Farmonida ichki ishlar organlari faoliyatini tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizmlari etib quyidagilar belgilansin:**

- har bir mahalla, oila va shaxs kesimida jinoyatchilikning sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish orqali huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishga oid muammolarni bevosita joylarning o'zida hal etish;

➤ hududlarda jinoyatchilik ahvolidan kelib chiqib, har bir tuman, shahar va mahallalarni toifalarga ajratish hamda hokimliklar, sektorlar va jamoatchilik bilan hamkorlikda «jinoyat o'choqlari»ni bartaraf etish uchun barcha zarur kuch va vositalarni jalb qilish;

➤ **«respublika - viloyat - tuman - mahalla»** tizimi asosida yaxlit boshqaruv va uzluksiz nazorat qilish mexanizmlarini joriy etish, ichki ishlar va boshqa davlat organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash borasidagi faoliyatini samarali muvofiqlashtirish orqali mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash;

➤ ichki ishlar organlari xodimlarining zamonaviy qiyofasini yaratish, ularning mas'uliyati va kasbiy salohiyatini oshirish, jinoyatchilikning yangi ko'rinishlariga qarshi kurashish uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirish hamda sohani to'liq raqamlashtirishga erishish.

Yuqoridagi belgilangan yangi mexanizmlar asosida ichki ishlar organlarining tayanch punktlari negizida mahalla huquq-tartibot maskanlari bosqichma-bosqich tashkil etilishi va quyidagilar mahalla huquq-tartibot maskanning maqsadi etib belgilandi:

mahalla huquq-tartibot maskani hududdagi jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning asosiy quyi bo'g'ini hisoblanadi;

❖ mahalla huquq-tartibot maskani negizida hududdagi ichki ishlar organlarining tegishli sohaviy xizmatlari hamda Milliy gvardiya va boshqa davlat organlarining muvofiqlashtirilgan faoliyati tashkil etiladi;

❖ mahalla huquq-tartibot maskani tomonidan jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish ishlarini tizimli tashkil etish va muvofiqlashtirish vazifasi profilaktika inspektoriga yuklanadi.

Mahalla huquq-tartibot maskanni faoliyatini hududlarda tashkil etish borasida **Ichki ishlar vaziri va Milliy gvardiya qo'mondoni** zimmasiga quyidagi vazifalar belgilandi. Xususan:



- Toshkent shahar hokimi bilan birgalikda uch oy muddatda poytaxtda mahalla huquq-tartibot maskanlarining faoliyatini yangi talablarga ko'ra namunaviy tarzda tashkil etish;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi va viloyatlar hokimlari bilan birgalikda joriy yil yakuni bo'yicha Toshkent shahridagi mahalla huquq-tartibot maskanlari

faoliyatidan kelib chiqqan holda respublikaning boshqa hududlarida mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyatini yo'lga qo'yish choralari ko'rish.

❖ **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi PF-6196-sonli farmonida belgilangan umumiy yo'nalishlarni ijrosini ta'minlash maqsadida 2021 yil 2-apreldagi "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlashva jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5050-son Qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan mahalla huquq-tartibot maskani to'g'risidagi nizom tasdiqlansin. Shuningdek, mutasaddi rahbarlarga mahalla huquq-tartibot maskani faoliyatini tashkil etishda quyidagi yangi tartiblar o'rnatildi:**

1. Tuman (shahar) hokimlari har oyda mahalla huquq-tartibot maskaniga rahbarlik qilayotgan profilaktika katta inspektori bilan shaxsan uchrashib, hududda jamoat xavfsizligini ta'minlash borasida aniqlangan muammoli masalalarni hal etish choralari ko'rishi;

2. Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari har yarim yilda mahalla huquq-tartibot maskaniga rahbarlik qilayotgan profilaktika katta inspektorining hududda jamoat xavfsizligini ta'minlash ahvoli bo'yicha hisobotini eshitadi va zarur choralarni belgilashi.


❖ **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-sonli Farmoni asosida quyidagi vazifalari belgilandi:**

- mahalla huquq-tartibot maskanni namunaviy loyihasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- respublika bo'yicha mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyatini to'laqonli yo'lga qo'yish;
- har beshta mahalla uchun bitta mahalla huquq-tartibot maskanini namunaviy loyiha asosida tashkil etish;
- mahalla huquq-tartibot maskanlarida ichki ishlar organlari, boshqa huquq-tartibot organlari va jamoat tuzilmalarining mahallalar kesimida birgalikda ishlash mexanizmlarini belgilash.


❖ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi PF-27-sonli Farmonida belgilangan vazifalarni ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 23 iyundagi "Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi VMQ-343-sonli qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorda ikkita hujjat tasdiqlandi. Xususan:



Shuningdek, mahalliy budjet mablag'lari hisobidan maskanlarni 2023 - 2025 yillarda tashkil etish va joylashtirish, ularni ta'mirlash, mukammal ta'mirlash va mebel bilan jihozlash dasturi tasdiqlandi va maskanlarni belgilangan tartibda Internet jahon axborot tarmog'iga ulash choralari ko'rish vazifasi mutasaddi vazirliklar zimmasiga yuklandi hamda mahalla huquq-tartibot maskanlarida ichki ishlar organlarining boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda jamoat tuzilmalari bilan mahallalar bo'yicha birgalikda faoliyat olib borishi tartibi tasdiqlandi.

❖ O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2021 yil 16 mayda "Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 166-son buyrug'i O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 apreldagi PQ-5050-sonli qarorini ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilingan.



Yuqorida qayt etilgan huquqiy asoslar mahalla huquq-tartibot maskanning tuzulishini, tashkil etish tartibini, uning vazifasini, funksiyasini, hamkorlik yo'nalishlarini, mas'ul xodimlarning vazifa va majburiyatlarini belgilaydi.

## 2-savol. Mahalla huquq-tartibot maskanlarining faoliyatning asosiy vazifalari va funksiyalari, moddiy-texnik holati hamda namunaviy talablari.



Mahalla huquq-tartibot maskani mahalla va qishloqlarda jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini bevosita amalga oshiradigan, shuningdek, fuqarolarning xavfsizligi va osoyishtaligini ta'minlash borasida ichki ishlar organlari, boshqa huquq-tartibot organlari va jamoat tuzilmalarining mahallalar kesimida birgalikda ishlashini tashkil etadigan ichki ishlar organlarining eng quyi bo'g'inidagi tarkibiy

tuzilmasi hisoblanadi.

Mahalla huquq-tartibot maskani O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi qonuni va boshqa qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, Ichki ishlar vazirligining normativ hujjatlariga, shuningdek, Ichki ishlar vazirining 2021 yil 16 mayda 166-son buyrug'i bilan tasdiqlangan **“Mahalla huquq-tartibot maskani to'g'risida”gi nizam** asosida o'z faoliyatini tashkil etadi.

Ichki ishlar organlarining eng quyi bo'g'ini belgilangan hududlarda tashkil etilishi xususan, Toshkent shahri tumanlarida, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar markazlarida, shuningdek, yirik tuman va shaharlarda joylashgan har beshta mahalla uchun bitta mahalla huquq-tartibot maskani o'z faoliyatini tashkil etadi.

**Maskanlar o'z faoliyatini tashkil etishda quyidagi tartiblar o'rnatildi. Jumladan:**

- profilaktika katta inspektori, profilaktika inspektori, profilaktika inspektorining jamoat tartibini saqlash bo'yicha yordamchisi (har kunlik asosida);
- hududda xizmat qilish uchun birlashtirilgan tuman (shahar) ichki ishlar organining xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektori, probatsiya bo'linmasi inspektori, tezkor vakil, patrul-post xizmati xodimlari;
- hududda jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklar profilaktikasiga ko'maklashish uchun yuborilgan Milliy gvardiya bo'linmasi, boshqa vakolatli davlat organlarining xodimlari va jamoat tuzilmalarining vakillari tarkibida faoliyatini amalga oshiradi.

### **Ichki ishlar organlarining eng quyi bo'g'inida tashkil etilgan tarkibiy tuzilmaning asosiy vazifalari hisoblanadi:**

1. Mahallada (qishloqda) jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishni bevosita amalga oshirish;
2. Fuqarolarning xavfsizligi va osoyishtaligini ta'minlash borasida ichki ishlar organlari, boshqa davlat organlari va jamoat tuzilmalarining mahallalar kesimida birgalikda ishlashini tashkil etish;
3. Aholi muammolarini hal etish, shuningdek, huquqbuzarlikdan jabrlangan, g'ayriijtimoiy xulq-atvoriga ega, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni ijtimoiy moslashtirish bilan bog'liq profilaktikan faoliyatni tashkil etish;
4. Mahallaning (qishloqning) kirish-chiqish joylarida va hududdagi boshqa ob'ektlarda o'rnatilgan videokuzatuv moslamalaridan foydalangan holda, yagona markazlashgan elektron kuzatish va monitoringni amalga oshirish orqali huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish, aniqlash va fosh etish.

### **Ichki ishlar organlarining eng quyi bo'g'inida tashkil etilgan tarkibiy tuzilmaning funksiyalari asosiy 4 ta yo'nalishga bo'lingan bo'lib quyidagilar hisoblanadi:**

a) mahallada (qishloqda) jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishni bevosita amalga oshirish sohasida;

b) fuqarolarning xavfsizligi va osoyishtaligini ta'minlash borasida ichki ishlar organlari, boshqa davlat organlari va jamoat tuzilmalarining mahallalar kesimida birgalikda ishlashini tashkil etish sohasida;

v) aholi muammolarini hal etish, shuningdek huquqbuzarlikdan jabrlangan, g'ayriijtimoiy xulq-atvorga ega, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni ijtimoiy moslashtirish ishlarini tashkil etish sohasida;

g) mahallaning (qishloqning) kirish-chiqish joylarida va hududdagi boshqa ob'ektlarda o'rnatilgan videokuzatuv moslamalaridan foydalangan holda, yagona markazlashgan elektron kuzatish va monitoringni amalga oshirish orqali huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, aniqlash va fosh etish sohasida.

Yuqorida belgilangan funksiyalar o'z navbatida har biri alohida yo'nalishlarga taqsimlangan. Xususan:

 **Mahallada (qishloqda) jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishni bevosita amalga oshirish sohasida:**

➤ O'zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi Qonunida nazarda tutilgan profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish;

➤ jamoat joylarida huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyat sodir etilishiga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish;


➤ jinoyatlarni aniqlash va fosh etish, surishtiruv, tergov va sud organlaridan yashirib yurgan, jinoiy jazodan bo'yin tovlayotgan, bedarak yo'qolgan shaxslarni qidirish bo'yicha tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirishga ko'maklashish;

➤ «jinoyat o'choqlari» hisoblangan joylarda piyoda, moto- va avtopatrul yo'nalishlarini tashkil etish;

➤ probatsiya nazoratidagi shaxslarning o'rnatilgan cheklovlarga rioya etishini uzluksiz tekshirish;

➤ sodir etilgan jinoyatlarni «issiq izidan» fosh etish bo'yicha zarur dastlabki tadbirlarni tashkil etish, fuqarolarning shaxslarini aniqlash choralari ko'rish;


➤ «Fidokor yoshlar» jamoatchilik patrul guruhi a'zolaridan iborat patrul yo'nalishlarini tashkil etish;

 **Fuqarolarning xavfsizligi va osoyishtaligini ta'minlash borasida ichki ishlar organlari, boshqa davlat organlari va jamoat tuzilmalarining mahallalar kesimida birgalikda ishlashini tashkil etish sohasida:**

➤ jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish to'g'risida surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning taqdimnomasini, sudning xususiy ajrimini fuqarolar ishtirokida ta'sirchan muhokama qilish, mazkur sabab va shart-sharoitlarni bartaraf qilish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni belgilash;

➤ jinoyatlarning usullari va oqibatlari haqida tushuntirish-targ'ibot ishlarini amalga oshirish, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish;

➤ narkologik kasalliklarga (surunkali alkogolizm, giyohvandlik, zaharvandlikka) chalingan shaxslarni tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiya qilish ishlarini nazorat qilish;

 **Aholi muammolarini hal etish, shuningdek, huquqbuzarlikdan jabrlangan, g'ayriijtimoiy xulq-atvorga ega, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni ijtimoiy moslashtirish ishlarini tashkil etish sohasida:**

➤ aholining eng muhim muammolarini aniqlash va ijtimoiy keskinlikni yumshatish masalalari bo'yicha fuqarolar bilan to'g'ridan-to'g'ri ochiq muloqot qilish yuzasidan zarur choralarni ko'rish;

- fuqarolar tomonidan bildirilgan muammolarning elektron ro'yxatini shakllantirish va ularni mahallada yashovchi har bir shaxs kesimida hal etish choralari ko'rish;
- alohida ko'makka muhtoj (nogiron, og'ir kasal, keksa va nuroniy) fuqarolarning yashash manziliga borgan holda mobil qurilmalar orqali identifikatsiya ID-karta va xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish;
- muammoli oilalar va uzoq muddat mobaynida chet elda bo'lib qaytgan shaxslarning elektron ro'yxatini yuritish, ularga huquqiy, tibbiy va psixologik yordam ko'rsatilishini tashkil etish;
- profilaktik hisob, ma'muriy nazorat va probatsiya nazoratidagi shaxslar bilan ijtimoiy moslashtirish ishlarini ularning elektron ijtimoiy-psixologik portretini tuzgan holda yakka tartibdagi ijtimoiy moslashtirish dasturi asosida amalga oshirilishini tashkil etish.

➔ **Mahallaning (qishloqning) kirish-chiqish joylarida va hududdagi boshqa ob'ektlarda o'rnatilgan videokuzatuv moslamalaridan foydalangan holda, yagona markazlashgan elektron kuzatish va monitoringni amalga oshirish orqali huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, aniqlash va fosh etish sohasida:**

- hududning kirish-chiqish joylariga, shuningdek, ko'p qavatli uylarda zamonaviy videokuzatuv moslamalari o'rnatilishini va uzluksiz ishlashini ta'minlash;
- hududidagi ob'ektlarda o'rnatilgan videokuzatuv moslamalarini Maskanga integratsiya qilinishi yuzasidan zarur tashkiliy choralarni ko'rish;
- videokuzatuv lavhalarini sifatli va uzluksiz tahlil qilib borish orqali huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, aniqlash va fosh etish choralari amalga oshirish.

Maskan qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham profilaktika (katta) inspektorlari amalga oshirishi mumkin.

Shuningdek, maskan xodimlarini ularning vazifa va faoliyat yo'nalishlari bilan bog'liq bo'lmagan tadbirlarga jalb qilish, ularning zimmasiga taalluqli bo'lmagan vazifalarni yuklash, faoliyatiga asossiz aralashish taqiqlanadi.

Huquqiy asosda belgilab o'tilgan vazifalar va funksiyalarni tegishli tartibda amalga oshirish, nazorat qilish hamda hududlarda ishni tashkil etish maqsadida mahalla huquq-tartibot maskaniga birlashtirilgan ichki ishlar organlari profilaktika (katta) inspektorlari bevosita maskan rahbari hisoblanadi va uning zimmasiga mahallada (qishloqda) jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha kunlik ishni samarali tashkil etish mas'uliyati yuklanadi.

**Shuningdek, maskan rahbariga quyidagi tartiblar belgilandi:**

1. Maskan faoliyatiga yuklatilgan vazifalarning lozim darajada bajarilishi uchun shaxsan javobgar bo'ladi;
2. Maskanda faoliyat ko'rsatadigan xodimlarga yuklatilgan vazifalarning bajarilishini nazorat qiladi, hududda patrul yo'nalishlarini belgilaydi va patrullik xizmatini tashkil etadi;
3. Hududda jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklar profilaktikasiga ko'maklashish uchun yuborilgan Milliy gvardiya bo'linmasi, boshqa vakolatli davlat organlarining xodimlari va jamoat tuzilmalari vakillarining faoliyatini muvofiqlashtiradi;
4. Maskanning ish rejalarini tasdiqlaydi;
5. Vazifalarini sidqidildan bajarib kelayotgan profilaktika inspektorining jamoat tartibini saqlash bo'yicha yordamchisiga ichki ishlar organlarida xizmatga belgilangan tartibda qabul qilish uchun tavsiyaviy taqdimnoma kiritadi;
6. Maskanda samarali faoliyat ko'rsatadigan xodimlarni rag'batlantirish to'g'risida hududiy ichki ishlar organi rahbariga to'g'ridan-to'g'ri taklif kiritadi;
7. Maskan vakolatiga kiradigan boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

Bundan tashqari profilaktika katta inspektori yo'qligida uning vakolatlari profilaktika inspektori tomonidan amalga oshiriladi.



Qonuniylikning ta'minlanganligi, mahalladagi (qishloqdagi) kriminogen vaziyatning barqarorligi va huquq-tartibot organlari faoliyati to'g'risida jamoatchilikda ijobiy fikrning shakllanganligi Maskan faoliyati samaradorligini baholashning asosiy mezonlari hisoblanib, ushbu faoliyat bilan tanishish va yordam berish hamda nazorat qilish borasida, ya'ni 2021 yil 2-apreldagi PQ-5050-son Qarori asosida quyidagi mas'ullar

to'monidan amalga oshiradi:

1. **Tuman (shahar) hokimlari** - har oyda mahalla huquq-tartibot maskaniga rahbarlik qilayotgan profilaktika katta inspektori bilan shaxsan uchrashib, hududda jamoat xavfsizligini ta'minlash borasida aniqlangan muammoli masalalarni hal etish choralarini ko'rishligi;

2. **Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari** - har yarim yilda mahalla huquq-tartibot maskaniga rahbarlik qilayotgan profilaktika katta inspektorining hududda jamoat xavfsizligini ta'minlash ahvoli bo'yicha hisobotini eshitadi va zarur choralarni belgilaydi.

### Maskanning moddiy-texnik ta'minoti

Maskanning moddiy-texnik holati ta'minoti masalasi ikkita davlat organlari zimmasiga yuklatilgan bo'lib, xususan:

- Tuman (shahar) hokimliklari tomonidan maskan uchun yer maydoni, binolarni ajratish, qurish, ta'mirlash, kapital ta'mirlash va mebel bilan jihozlash mahalliy budjet mablag'lari hisobidan ta'minlash;

- O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan boshqa moddiy-texnik vositalar bilan ta'minlash budjet va budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan ta'minlanadi.

Ushbu holat yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 23 iyundagi 343-son qaroriga asosan mahalla huquq-tartibot maskanning namunaviy loyihasi tasdiqlandi. **Unga asosan quyidagi talablar o'rnatildi:**

❖ Mahalla huquq-tartibot maskani o'zi joylashgan fuqarolar yig'inidagi ichki ishlar organlari tayanch punkti yoxud kamida yetti xonadan iborat alohida binoda tashkil etiladi;

❖ Maskanda quyidagi xizmat va yordamchi xonalar bo'lishi talab etiladi:

a) maskanga kirishda uning foye (kamida to'rt kishiga mo'ljallangan, divan yoki stullar bilan jihozlangan kutish joyi) qismi;

b) onlayn sud majlislari o'tkaziladigan xona (kamida sakkiz kishi uchun stol, videokonferensaloqa seansini o'tkazish uchun mo'ljallangan qurilmalar bilan ta'minlangan bo'lishi lozim);

v) profilaktika (katta) inspektori xizmat xonasi (tezkor yig'ilish o'tkazish uchun kamida olti kishilik stol va stullar bilan jihozlangan, shuningdek, profilaktik tadbirlarni o'tkazish uchun kelgan shaxslarga mo'ljallangan kamida to'rtga stol, xizmat stoli, bir dona kreslo hamda divan, hujjatlar va kiyim shkaflari hamda seyf bilan jihozlangan bo'lishi lozim);

g) xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektor hamda voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixolog xizmat xonasi (profilaktik tadbirlarni o'tkazish uchun kelgan shaxslarga mo'ljallangan kamida to'rtta stol, xizmat stoli, bir dona kreslo va divan, hujjatlar saqlanadigan javon bilan jihozlangan bo'lishi lozim);

d) ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari xodimlari tomonidan olib kelingan shaxslarga nisbatan tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish uchun mo'ljallangan tezkor vakil va surishtiruvchi xonasi (tergovga qadar tekshiruvlarni o'tkazish uchun kelgan shaxslarga mo'ljallangan kamida to'rtta stol, ikkitadan xizmat stoli va kreslo, hujjatlar saqlanadigan javon bilan jihozlangan bo'lishi lozim);

ye) probatsiya inspektori hamda profilaktika (katta) inspektorining yordamchisi xizmat xonasi (belgilangan tadbirlarni o'tkazish maqsadida chaqirtirilgan shaxslarga mo'ljallangan to'rtta stol, ikkitadan xizmat stoli va kreslo, hujjatlar saqlanadigan javon bilan jihozlangan bo'lishi lozim);

j) dam olish xonasi (kamida to'rt kishiga mo'ljallangan divan va ovqatlanish uchun stol hamda stullardan iborat bo'lgan, televizor, sovitkich, mikroto'lqinli pech bilan ta'minlangan bo'lishi lozim) hamda hojatxona.

❖ Maskan zamonaviy kompyuter to'plami, mebel jihozlari (televizor, divan, stol-stul, kitob javoni, hujjatlar saqlanadigan javon) va temir seyflar bilan jihozlangan, shuningdek, telefon aloqasi va Internet jahon axborot tarmog'iga ulangan hamda tegishli aloqa vositalari bilan ta'minlangan bo'lishi;

❖ Maskan xizmat ko'rsatadigan hududning chegaralari tuman (shahar) ichki ishlar organlari boshlig'i tomonidan mazkur tuman (shahar) hokimi bilan kelishgan holda chegara hududi uzviy bir-biri bilan bog'liq bo'lgan beshta mahalla (qishloq, ovul)ning hududi miqyosida belgilanib, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimligining qarori bilan tasdiqlanadi hamda ularning tartib raqami mazkur qaror bilan belgilanadi;

❖ Maskanda ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari tomonidan birlashtirilgan xodimlar belgilangan tartibda xizmat olib boradi. Hududda xizmat olib borishga birlashtirilgan xodimlar belgilangan tartibda maskanda yuritiladigan daftarda qayddan o'tadi;

❖ Maskanning kirish joyida balandligi **80 sm, eni 60 sm** o'lchamda, to'q ko'k fonga oq rangda yozilgan peshlavha o'rnatiladi;

❖ Peshlavhada ichki ishlar organi nomi, maskan raqami, xizmat ko'rsatadigan mahalla (qishloq, ovul)lar nomlari, profilaktika (katta) inspektorlari va hududiy ichki ishlar organi navbatchilik qismi telefonlarini aks ettiruvchi yozuv bo'ladi;

❖ Maskan foyesida fuqarolar uchun ariza, shikoyat va takliflar yozish namunalari, profilaktika (katta) inspektorlarining faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari normalaridan ko'chirmalar, davlat ramzlariga, huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid plakatlar va eslatmalar joylashtiriladi;

❖ Maskanda profilaktika inspektorining xizmat xonasi devoriga ma'muriy hududning **130 sm x 200 sm** o'lchamli xaritasi osib qo'yiladi.

Ushbu xaritada korxonalar, tashkilotlar va muassasalar joylashgan binolar, shuningdek, ko'chalar, mavzalar, bozorlar, internet-kafelar, umumiy ovqatlanish shoxobchalari, tungi ko'ngilochar (dam olish) joylar, ta'lim, madaniy-ko'ngilochar, sport-sog'lomlashtirish muassasalari, ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan joylar, turar joy binolari raqamlari maxsus belgilar bilan aks ettiriladi. Xaritaning pastki qismida tashkilotlar nomi ko'rsatiladi;

❖ Maskan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan belgilangan tartibda aloqa vositalari, videokuzatuv kameralari uchun monitor, Ichki ishlar vazirligi Huquqiy statistika va tezkor hisob ma'lumotlar markazi bilan bevosita aloqa qilish imkonini beradigan ma'lumotlar bazasining dasturiy ta'minoti, kompyuter texnikasi bilan ta'minlanadi.


### **3-savol. Ichki ishlar organlarining eng quyi bo'g'inida tashkil etilgan tarkibiy tuzilmaning xizmat vazifalari.**



Ichki ishlar organlarining eng quyi bo'g'inida tashkil etilgan tarkibiy tuzilmalarning asosiy vazifalaridan biri bu, mahallalarda jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda ichki ishlar organlari, boshqa huquq-tartibot organlari va jamoat tuzilmalarining faoliyatini muvofiqlashtirish, jamoat xavfsizligini ta'minlash borasida aniqlangan muammoli masalalarni joyida hal etish, har bir oila hamda xonadondagi muhitni, shuningdek, huquqbuzarliklar sodir etilishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy, infratuzilma va boshqa muammolarni o'rganish, bartaraf etish borasida mahalla huquq-tartibot maskani tuzulmasi belgilandi.

Mazkur tuzilma O'z.Res. V.Mning 2022 yil 23 iyundagi 343-son qarori bilan tasdiqlandi.  
Unga ko'ra mahalla huquq-tartibot maskani tuzulmasi tarkibiga quyidagilar kiradi:





Yuqorida keltirib o‘tilgan jadval asosan mahalla huquq-tartibot maskani tuzulmasi quyidagi **uch asosiy tarkibga bo‘linadi**:

1. Kunlik xizmatni bevosita tashkil etuvchi mas’ul xodimlarga;
2. Xizmatni tashkil etishga ko‘maklashuvchi ichki ishlar organlari mas’ul xizmatlariga;
3. Xizmatni hamkorlikda tashkil etishda qatnashuvchi davlat organlari mas’ullariga.

Ushbu tarkibga kiruvchi mas’ul shaxslar mahalla huquq-tartibot maskanida faoliyatni tashkil etish va amalga oshirish borasida vazifalar belgilab berilgan.

Mazkur taqsimlangan vazifalar har bir xodimga alohida belgilangan bo‘lib IIVning 2021 yil 16 maydagi 166-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan. Ushbu yo‘riqnomadan kelib chiqib quyidagilar tashkil etilgan:

### Ichki ishlar organlari profilaktika (katta) inspektori quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

✚ O‘zbekiston Respublikasining **“Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”**gi Qonunida nazarda tutilgan profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish;

✚ jamoat joylarida huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyat sodir etilishiga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish;

✚ jinoyatlarni aniqlash va fosh etish, surishtiruv, tergov va sud organlaridan yashirib yurgan, jinoiy jazodan bo‘yin tovlayotgan, bedarak yo‘qolgan shaxslarni qidirish bo‘yicha tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirishga ko‘maklashish;



✚ **“Jinoyat o‘choqlari”** hisoblangan joylarda piyoda, moto- va avtopatrul yo‘nalishlarini tashkil etish;

✚ **“Fidokor yoshlar”** jamoatchilik patrul guruhi a‘zolaridan iborat patrul yo‘nalishlarini tashkil etish;

✚ jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish to'g'risida surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning taqdimnomasini, sudning xususiy ajrimini fuqarolar ishtirokida ta'sirchan muhokama qilish, mazkur sabab va shart-sharoitlarni bartaraf qilish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni belgilash;

✚ jinoyatlarning usullari va oqibatlari haqida tushuntirish-targ'ibot ishlarini amalga oshirish, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish;

✚ narkologik kasalliklarga (surunkali alkogolizm, giyohvandlik, zaharvandlikka) chalingan shaxslarni tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiya qilish ishlarini nazorat qilish;

✚ aholining eng muhim muammolarini aniqlash va ijtimoiy keskinlikni yumshatish masalalari bo'yicha fuqarolar bilan to'g'ridan-to'g'ri ochiq muloqot kilish yuzasidan zarur choralarni ko'rish;

✚ fuqarolar tomonidan bildirilgan muammolarning elektron ro'yxatini shakllantirish va ularni mahallada yashovchi har bir shaxs kesimida hal etish choralarni ko'rish;

✚ alohida ko'makka muhtoj (nogiron, og'ir kasal, keksa va nuroniy) fuqarolarning yashash manziliga borgan holda mobil qurilmalar orqali identifikatsiya **ID-karta** va xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish bo'yicha hududiy migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmalari bilan hamkorlik qilish;

✚ hududning kirish-chiqish joylariga, shuningdek, kup qavatli uylarda zamonaviy videokuzatuv moslamalari o'rnatilishini va uzluksiz ishlashini ta'minlash;

✚ hududidagi ob'ektlarda o'rnatilgan videokuzatuv moslamalarini Maskanga integratsiya qilinishi yuzasidan zarur tashkiliy choralarni ko'rish.

Bundan tashqari, maskan qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

Shuningdek, profilaktika katta inspektori, qayd etilgan vazifalarni bajarish bilan bir vaqtda, maskanda xizmat olib boruvchi barcha xodimlar ish taqsimotini belgilaydi va umumiy rahbarlikni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilari va xodimlari tomonidan maskanga olib kelingan begona va shubhali shaxslarni belgilangan tartibda qabul qiladi hamda ular bilan profilaktik suhbat o'tkazadi.

Maskanda sutka davomida kunlik tashkil qilingan ishlar buyicha hisobot shaklini yuritadi va shahar (tuman) ichki ishlar organ rahbariga axborot beradi va hisobot shaklini tuman (shahar) huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalariga taqdim etadi.



**Ichki ishlar organlari xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektor quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:**

✚ ilgari sudlangan, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan, ichki ishlar organlarida profilaktik hisobda turgan, ma'muriy nazorat o'rnatilgan, shuningdek probatsiya hisobidagi xotin-qizlar bilan profilaktik tadbirlarni amalga oshiradi;

✚ oila-turmush va axloq-odob doirasida huquqbuzarlik sodir etuvchi hamda boshqa g'ayriijtimoiy xulq-atvoriga ega bo'lgan xotin-qizlar, farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi yoki ular tarbiyasi bilan shug'ullanmaydigan ota-onalar, nosog'lom turmush tarzida hayot kechirayotgan oilalarni aniqlash, ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda ishtirok etadi;

✚ o'z joniga qasd qilishga moyil, o'z joniga qasd qilgan xotin-qizlar bilan profilaktik tadbirlarni o'tkazish, sodir etilgan o'z joniga qasd va suiqaqd buyicha xabarnomalarni hududiy tibbiyot birlashmalariga yuboradi;

✚ oilalarni o'rganishda aniqlangan xotin-qizlarga oid muammolarni bartaraf etish hamda notinch oilalarni yarashtirishda sektorlar, mahalla fuqarolar yig'inlariga ko'maklashadi;

✚ doimiy yashash manzillaridan uzoq muddatga chiqib ketgan xotin- qizlarni yashash manzillariga qaytarishda ishtirok etadi;

✚ “Zo‘rluk ishlatishdan jabr ko‘rgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o‘z joniga qasd qilishning oldini olish markazlari” bilan hamkorlikda og‘ir ijtimoiy ahvolda qolgan, shu jumladan oilaviy muammolari va turmushida zo‘rluk ishlatilishiga duch kelgan shaxslarga shoshilinch tibbiy, ruhiy, ijtimoiy, pedagogik, huquqiy va boshqa yordam kursatishda ishtirok etadi;

✚ ichki ishlar organlari profilaktik hisobda turgan xotin-qizlarning mahallabay ro‘yxatlarini yuritish va ular bilan manzilli ishlarni tashkil etadi;

✚ uyma-uy yurish orqali mahallada kam ta‘minlangan, yakka yolg‘iz, boquvchisini yo‘qotgan, nogiron hamda doimiy mehnat bilan band bo‘lmagan qatlamlarini aniqlash hamda “Ayollar daftari”ga kiritishda ko‘maklashadi;

✚ “Ayollar daftari”ga kiritilgan ehtiyojmand ayollar bilan profilaktik tadbirlarni amalga oshiradi;

✚ tazyiq va (yoki) zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga beriladigan himoya orderlarini qayd etish, ular bo‘yicha hisobotlarni yuritish, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchilar, shuningdek zo‘ravonlik sodir etgan yoki zo‘ravonlik sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslar haqidagi ma‘lumotlarni yagona elektron bazaga jamlab borish hamda bu borada sohaviy xizmatlar va idoralararo axborot almashish borasidagi tadbirlarni amalga oshiradi;

✚ tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderini berishda ichki ishlar organlarining navbatchilik qismlarga oilaviy zo‘ravonliklar bo‘yicha kelib tushgan xabarlarni o‘rganib chiqib, himoya orderini rasmiylashtirish bo‘yicha profilaktika inspektorini xabardor qiladi;

✚ odam savdosi qurboniga aylangan xotin-qizlar va voyaga yetmaganlarga ularning ijtimoiy hayotga moslashishlari uchun ko‘maklashadi;

✚ xotin-qizlarni turli ekstremistik oqimlar ta‘siridan saqlashda mahallalarda, korxonalar va tashkilotlarda hamda ta‘lim muassasalarida huquqiy targ‘ibot ishlarini olib boradi;

✚ xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bog‘liq jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqadi;

✚ maskanda xizmat olib borishi davomida kunlik amalga oshirgan ishlari bo‘yicha hisobot shaklini tuzadi va profilaktika katta inspektorga jamlash uchun taqdim etadi.



### **Ichki ishlar organlari probatsiya xizmati (katta) inspektori quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:**

✚ probatsiya hisobidagi shaxslar to‘g‘risida qishloq, ovul va mahalla kesimidagi ro‘yxatlarini shakllantirib, ular ustidan nazoratni mahallabay amalga oshiradi;

✚ ichki ishlar organlarining ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarni ijro etish bo‘yicha faoliyatini boshqa davlat organlari va tashkilotlari, shuningdek, jamoat tuzilmalari bilan o‘zaro hamkorlikda samarali tashkil etadi;

✚ shartli hukm qilingan va jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslarning xulq-atvori ustidan profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikda ta‘sirchan nazoratni amalga oshiradi;

✚ boshqa joylarda o‘taladigan axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslarni ishga jo‘natadi;

✚ ozodlikni cheklash jazosiga hukm qilingan mahkumlarning turar joylari buyicha sud tomonidan belgilangan taqiqlar va yuklatilgan majburiyatlarning bajarilishi hamda ularning xulq-atvori ustidan nazoratni profilaktika inspektorlari, tezkor vakillar, patrul-post, yo‘l- patrul, migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘limlari va ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari bilan hamkorlikda amalga oshiradi;

✚ mahkumlar tomonidan jazoni o‘tash shartlariga rioya etilishini tekshiradi;

✚ nazorat ostidagilar, shuningdek, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan voyaga yetmaganlarning ijtimoiy moslashuvi va ishga joylashishiga, shu jumladan, ularning kasbiy tayyorgarligi bo‘yicha tadbirlarni tashkil etish orqali har tomonlama amaliy ko‘maklashadi;

✚ nazorat ostidagilarning qayta jinoyat sodir etish xavfini aniqlash va bunga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish, ularning shaxsini ijtimoiy-psixologik portretni tuzgan holda o‘rganib boradi;

✚ maskanda xizmat olib borishi davomida kunlik amalga oshirgan ishlari buyicha hisobot shaklini tuzadi va profilaktika katta inspektorga jamlash uchun taqdim etadi.



### **Ichki ishlar organlari patrul-post xizmati xodimlari quyidagi vazifalarni amalga oshiradilar:**

✚ belgilangan patrullik yo‘nalishda va unga chegaradosh hududlarda jamoat tartibini saqlaydi, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, ularning mol-mulki, hayoti va sog‘lig‘ini jinoiy hamda boshqa tajovuzlardan himoya qiladi, jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha tegishli choralarni ko‘radi;

✚ patrullik yo‘nalishida bezorilik, mayda bezorilik, daydilik va tilamchilik, giyohvand moddalarni iste‘mol qilish va boshqa shu kabi jamoat tartibi hamda xavfsizligiga qarshi qaratilgan g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar aniqlanganda qonuniy chora ko‘rish uchun ushbu fuqarolarni maskanga olib keladi;

✚ jamoat tartibi va xavfsizlikka zarar yetkazmaydigan mayda tartibbuzarlik holatlari uchun ushlangan fuqarolarga nisbatan voqea joyida profilaktik suhbat o‘tkazish orqali ta‘sir choralarni o‘tkazadi;

✚ patrullik yo‘nalishidagi joylarida jamoat xavfsizligini ta‘minlashda kanalizatsiya, gaz quvurlari, ko‘cha chiroqlarining nosoz holatdaligi va fuqarolar hayotiga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan boshqa holatlar aniqlanganda avariya xizmatini chaqirishi, navbatchiga xabar berishi va texnik yordam kelgunga qadar avariya joyiga begona shaxslarni qo‘ymaslik choralarni ko‘radi;

✚ jinoyat sodir etilayotgan yoki sodir etilgan joyga tezkorlik bilan yetib kelish, jinoyatni sodir etgan shaxslarni aniqlash va ushlab choralari ko‘radi;

✚ huquqbuzarlik sodir etilgan joyda yoki hodisa joyida jabrlangan shaxslarga, shuningdek nochor ahvolda qolgan fuqarolarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish choralari ko‘radi;

✚ patrullik yo‘nalishida yashovchi ilgari sudlangan, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan, ichki ishlar organlarida profilaktik hisobda turgan, ma‘muriy nazorat o‘rnatilgan, shuningdek probatsiya hisobidagi shaxslar bilan profilaktik tadbirlarni amalga oshirishga ko‘maklashadi.



### **Ichki ishlar organlari davlat yo‘l-harakati xavfsizligi xizmati xodimi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:**

✚ biriktirilgan hududda yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash, transport vositalari tirbandligining, yo‘l-transport hodisalari va yo‘l harakati qoidalarini buzilishining oldini olish choralarni ko‘radi, qoidabuzarlik sodir etgan shaxslarga vakolati doirasida ma‘muriy hujjatlar rasmiylashtiradi;

✚ yo‘l harakati qatnashchilariga huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishda yordam ko‘rsatadi;

✚ yo‘llarda harakatlanishni tartibga solish, ommaviy tadbirlar va favqulodda vaziyatlarda zarur bo‘lgan yo‘l uchastkalarini yopish (to‘shish), transport vositalari va piyodalarning harakatini cheklash yoki to‘xtatish buyicha shoshilinch choralarni ko‘radi;

✚ qishloqlar, ovullar va mahallalardagi kucha va yo‘llarda ta‘mirlash- qurish hamda boshqa ishlar olib borilishida yo‘l harakati xavfsizligi talablari bajarilishini nazoratini amalga oshiradi;

✚ mahalladagi ko‘cha va yo‘llarda uzoq muddat qarovsiz qoldirilgan avtomobillarning egalarni aniqlash va ogohlantirish ishlarini amalga oshiradi;

✚ qishloqlar, ovullar va mahallalarda hamda ta'lim muassasalari aholi o'rtasida yo'l harakati qoidalariga rioya qilish madaniyatini oshirishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlarini, shu jumladan ommaviy axborot vositalarini keng jalb qilgan holda tashkil qiladi;

✚ aholi bilan yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash masalalari bo'yicha ochiq muloqotlar olib boradi.



### **Ichki ishlar organlari jinoyat qidiruv bo'limlari tezkor xodimi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:**

- sodir etilgan jinoyatlarni fosh etish va javobgarlikning muqarrarligini ta'minlashda profilaktika inspektori, tergovchi va surishtiruvchilar bilan yaqindan hamkorlik o'rnatadi;

- giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning noqonuniy aylanishi va iste'mol qilinishi, alkogol va tamaki mahsulotlarining noqonuniy ishlab chiqarilishi va sotilishining oldini olish bo'yicha tadbirlarni amalga oshiradi;

- jinoyatlarni aniqlash, shu jumladan pornografik mazmundagi mahsulotlar, fohishabozlik hamda fohishaxonalarning saqlanishiga chek quyshn va ularning oldini olish bo'yicha tezkor tadbirlar o'tkazadi;

- profilaktika inspektorlariga hududda yashovchi o'ta xavfli residivist, ma'muriy nazorat o'rnatilgan, probatsiya hisobidagi shaxslar bilan profilaktik tadbirlarni amalga oshirishda ko'maklashadi;

- hududda yashovchi huquqbuzarlik sodir etishga moyil, tergov va suddan yashirib yurgan shaxslar to'g'risida profilaktika inspektori bilan muntazam ravishda axborot almashib turadi;

- biriktirilgan hududda yashovchi va boshqa hududdan kelib yashayotgan tergov va suddan yashirib yurgan shaxslarni ushlab, shuningdek bedarak yo'qolganlarni aniqlash choralari ko'radi;

- maskanda xizmat olib borishi davomida kunlik amalga oshirgan ishlari bo'yicha hisobot shaklini tuzadi va profilaktika katta inspektorlarga jamlash uchun takdim etadi.

### **Ichki ishlar organlari terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashshn bo'linmalari tezkor xodimi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:**

- tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi qaratilgan, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 229<sup>2</sup>, 244<sup>1</sup>, 244<sup>2</sup>, 244<sup>3</sup>- moddalarida hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 184<sup>2</sup>, 184<sup>3</sup>, 240, 241-moddalarida nazarda tutilgan jinoyat va huquqbuzarliklarni sodir etganligi uchun profilaktik hisobda turuvchi shaxslarning yashash muhiti, ijtimoiy ahvoli bilan tanishish va profilaktik suhbatlar o'tkazishda profilaktika inspektoriga ko'maklashadi;

- ushbu toifa shaxslarga davlat organlari bilan hamkorlikda huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdagi yordamlarni ko'rsatish, ularga jamiyatda qabul qilingan hulk-atvor normalari va qoidalarini singdirishga qaratilgan choralarni amalga oshiradi;

- terrorizm va ekstremizm jinoyatlarini oldini olish, ularni aniqlash, barham berish va fosh etish, shuningdek jinoyatlarni tayyorlash va sodir etishga daxldor shaxslarni aniqlash hamda topish choralari ko'radi;

- taqiqlangan tashkilotlar hamda terrorchilik, ekstremistik guruhlar faoliyatiga aloqador shaxslarni aniqlash va tegishli choralari ko'rish, ular tarkibida jinoyat sodir etib, tergov va sud organlaridan yashirib yurgan shaxslarni aniqlash va ushlab choralari ko'radi;

- profilaktika inspektorlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda diniy ekstremizm, fundamentalizm va missionerlik sabablarini o'rganish, ularning salbiy oqibatlarini tushuntirish, shuningdek ularni bartaraf etishga va aholini ogohlikka chaqirishga yo'naltirilgan choralarni amalga oshiradi;

- doimiy yashash joyini uzoq muddatga tark etgan shaxslarni aniqlash va hisobini yuritishda profilaktika inspektorlari bilan yaqindan hamkorlik qiladi, ularning chet elda bo'lish joylari va muddatlarini aniqlash yuzasidan qarindoshlari bilan muntazam ish olib boradi hamda uzoq muddat mobaynida chet-elda bo'lib qaytgan shaxslar bilan profilaktik ishlarni amalga oshiradi;

- maskanda xizmat olib borishi davomida kunlik amalga oshirgan ishlari bo'yicha hisobot shaklini tuzadi va profilaktika katta inspektorga jamlash uchun taqdim etadi.



### **Ichki ishlar organlari huzuridagi tergov bo'linmalari tergovchi va surishtiruvchisi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:**

- ish yurituvida materiallar bo'yicha tergovga qadar tekshiruv o'tkazishda mahallada yashovchi ishga aloqador shaxslardan tushuntirishlar talab qilib olish, shaxsni ushlab turish, shaxsiy tintuv va olib qo'yish, hodisa sodir bulgan joyni ko'zdan kechirish;

- o'z yurituviga qabul qilgan ishlar bo'yicha maskanga biriktirilgan jinoyat qidiruv bo'linmalari tezkor xodimlariga tezkor-qidiruv tadbirlarini bajarish haqida yozma topshiriqlar berish;

- jinoyat sodir etishda gumon qilnayotgan shaxslarni ushlab va so'roq qilish, guvohlarni so'roq qilish;

- tergovga qadar tekshiruv va jinoyat ishlari bo'yicha ayrim tergov harakatlarini maskandagi xizmat xonasida tashkil etish;

- profilaktika inspektorlari ish yurituvidagi materiallar bo'yicha tergovga qadar tekshiruv o'tkazilishida ularga huquqiy yordam ko'rsatish;

Maskanda xizmat olib borishi davomida kunlik amalga oshirgan ishlari buyicha hisobot shaklini tuzadi va profilaktika katta inspektorga jamlash uchun taqdim etadi.

### **Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari va xodimlari tomoidan bevosita javobgarlik hududida quyidagi vazifalarni amalga oshiradilar:**

- biriktirilgan hududlaridagi mahallalarda jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi amalga oshirishda profilaktika inspektorlari hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan yaqindan hamkorlik qilish;

- mahalladagi davlat ob'ektlari, o'ta muhim, toifalangan va boshqa ob'ektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini, shuningdek, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlarning diplomatik, konsullik va boshqa vakolatxonalarini shartnoma asosida qo'riqlash ishlarini amalga oshirish;

- yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkini himoya qilish va daxlsizligini ta'minlashda hududdagi xonadon, savdo shahobchalari va boshqa ob'ektlarni texnik qo'riqlash markaziga ulash, videokuzatuv vositalarini o'rnatish va jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan shu kabi boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha targ'ibot-tashviqot tadbirlarini o'tkazish;

- jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash maqsadida ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan joylar, istirohat bog'lari va hiyobonlar hamda bozorlarda patrullikni amalga oshirish;

- javobgarlik hududlarida g'ayrihuquqiy qilmishlarga chek qo'yish, fuqarolarning xavfsizligiga tahdidlarni bartaraf etish, jinoyat, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilganligi holatlarini, hodisa holatlarini hujjatlashtirish, jinoyat, ma'muriy huquqbuzarlik, hodisa izlari saqlanishini ta'minlash;

- huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etgan yoki sodir etganlikda gumon qilinayotgan shaxslarni, shuningdek begona va shubhali shaxslarni maskanga olib boradi va bu haqda zudlik bilan profilaktika (katta) inspektorga xabar beradi;

- jinoyat, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan joyda yoki hodisa joyida jabrlangan fuqarolarga, shuningdek nochor ahvolda qolgan fuqarolarga birinchi tibbiy yordam yoki boshqa yordam ko'rsatilishini tashkil etish;

- maskanda xizmat olib borishi davomida kunlik amalga oshirgan ishlari buyicha hisobot shaklini tuzadi va profilaktika katta inspektorga jamlash uchun taqdim etadi.



### **Profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha yordamchisi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:**

- hududda xavfsizlikni va jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning ogohligini oshirish, tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda ichki ishlar organlariga ko'maklashish;

- g'ayriijtimoiy xulq-atvorga ega, huquqbuzarlik sodir etishga moyil, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning, shuningdek huquqbuzarliklardan jabrlanganlarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirishda ishtirok etish;

- profilaktika inspektorlariga maxsus profilaktik chora-tadbirlarni, shuningdek huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslar bilan profilaktika ishlarini amalga oshirishda ko'maklashish;

- ilgari sudlangan, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan, ichki ishlar organlari profilaktik hisobida turuvchi shaxslar, probatsiya nazoratidagi shaxslar, shu jumladan voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan aniq maqsadli profilaktik tadbirlarni o'tkazishda ishtirok etish;

- fuqarolar, ayniqsa, voyaga yetmaganlar va yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish, huquqiy targ'ibot ishlarini o'tkazishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlik qilish;

- voyaga yetmaganlar hamda yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, ongi va qalbida mustaqillik g'oyalari sodiqlik, milliy o'zlikni anglash, Vatanga muhabbat va uning taqdiriga daxldorlik, fidoyilik hissini qaror toptirish va rivojlantirish, turli mafkuraviy tahdidlardan asrashga qaratilgan tadbirlarni o'tkazishda ishtirok etish;

- "Fidokor yoshlar" jamoatchilik patrul guruhlari hamda "Jamoatchilik nazorati maskanlari" faoliyatini kunlik nazorat qiladi va muvofiqlashtirish;

- maskanda xizmat olib borishi davomida kunlik amalga oshirgan ishlari bo'yicha hisobot shaklini tuzadi va profilaktika katta inspektorga jamlash uchun taqdim etish;

Profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha yordamchilari zimmasiga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalar ham yuklanishi mumkin.



### **Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlari quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:**

- oilalarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, oilalarda sog'lom ma'naviy muhitni yaratish, oila sha'nini saqlashda ota-ona va farzandlar mas'uliyati hamda burchlari, or-nomus, qadr-qimmat, sharm-hayo kabi axloqiy me'yorlarni yetkazib borish, oilalarning ijtimoiy ahvoli, ehtiyojlari va muammolarini tizimli o'rganib borishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish;

- maskanga oilaviy kelishmovchilik tufayli murojaat qilib kelgan fuqarolarni qabul qilish va ularga profilaktika (katta) inspektori ishtirokida huquqiy maslahat berish;

- notinch oilalarda sodir bo'lgan har qanday noxush holat bo'yicha ichki ishlar organlari xodimlari ishtirokida hodisa joyiga chiqish;

- maskanga mahalla faoliyatiga doir taklif va muloxazalar bilan kelgan fuqarolarni qabul qilish, ularning taklif va mulohazalariga nisbatan munosabat bildirish;

- mahallalarda sodir etilgan jinoyatchilik muhokamasiga fuqarolar yig'ini raisining yoshlar masalari, keksalar va faxriylar ishlari bo'yicha maslahatchilar, "Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash", "Xotin-qizlar bilan ishlash" komissiyalar, "Ota-onalar universiteti" jamoatchilik tuzilmasining vakillarini jalb qilgan holda ishtirokini ta'minlash;

- mahallada hududida yashovchi aholi orasida yot g'oyalarga qarshi kurash, yoshlarni turli oqimlarga kirib ketishini oldini olish maqsadida maskan xodimlari ishtirokida din ulamolarini taklif qilgan holda uchrashuvlar tashkil qilish;

- maskanda faoliyat olib boradigan Ichki ishlar organi va Milliy gvardiya xodimlariga mahalla hududida huquqbuzarliklarning har qanday ko'rinishlarini oldini olish borasida ko'maklashish;

- mahalla hududida tashkil etiladigan ommaviy tadbirlar, ma'rifiy uchrashuvlar va boshqa tadbirlar haqida maskan xodimlarini kamida 2 kun oldin ogohlantirish.

Mahalla raislari o'z xizmat vaziflari doirasida boshqa vaziflarni ham bajarishlari mumkin.

**“Fidokor yoshlar” jamoatchilik guruhi a'zolari quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:**



- ko'chalar va boshqa jamoat joylarida huquqbuzarliklarni oldini olish, jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlashga ko'maklashish;

- ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ommaviy va boshqa tadbirlarni o'tkazish mobaynida fuqarolar xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etish;

- patrullik yo'nalishlarida huquqbuzarlik sodir etgan yoki shubhali shaxslarni hamda nazoratsiz va qarovsiz qolgan voyaga yetmaganlarni aniqlash, ularni ichki ishlar organlariga olib borishga ko'maklashish;

- huquqbuzarlik va baxtsiz hodisalardan jabrlangan fuqarolarga yordam ko'rsatish hamda ularni hayoti va sog'lig'iga xavf solayotgan tahdidlarni bartaraf etishda huquqni muhofaza qilish organlariga ko'maklashish;

- “Fidokor yoshlar” jamoatchilik guruhlarini a'zolariga jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta'minlashda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalar ham yuklatilishi mumkin.

**Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2-apreldagi “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlashva jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-5050-son qarorning 1-ilovasini o'zlashtirish;


2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 23 iyundagi “Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi VMQ-343-sonli qarori o'rganish va o'zlashtirish.



### 3-mavzu: Mahalla huquq-tartibot maskanlarining faoliyatini tashkil etish.

Seminar mashg'uloti ( 2 soat)

Ushbu o'quv mashg'uloti tinglovchilar tomonidan «Esse» yozish orqali o'tkaziladi. «Esse» erkin bayon usuliga ega bo'lib, o'rganilayotgan muammo yoki tahlil qilinayotgan masala yuzasidan shaxsiy taassurot, tasavvurlarni ifodalashga xizmat qiladi. U tinglovchilar tomonidan o'rganilgan mavzu, muhokama qilinayotgan masala bo'yicha erkin fikr bildirish, mazmun-mohiyatini qayta bayon qilish imkonini beradi. Esseni yaratishda tinglovchilar mavzu g'oyalari umumlashtirish, tizimlashtirish, turkumlashtirish, xulosalarni bayon etish imkoniga ega bo'ladi.



#### Esseni yaratish uchun masalalar:

**Savol:** Mazkur jadvalda mahalla huquq-tartibot maskani faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy normalarning raqamini aniqlang?

**Savol:** Mahalla huquq-tartibot maskani faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy asoslar sanab o'ting?

**Savol:** O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'RQ-407-son Qonunning qaysi moddasida mahalla huquq-tartibot maskanlari tushunchasi, tarkibi to'g'risida qayt etilgan?

**Savol:** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-son Farmonida ichki ishlar organlarining tayanch punktlari negizida mahalla huquq-tartibot maskanlari bosqichma-bosqich tashkil etilishi va qaysi maqsadlar asosida mahalla huquq-tartibot maskani hududlarda faoliyat yuritishi belgilandi?

**Savol:** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2-apreldagi "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5050-son Qarori asosida mutasaddi rahbarlarga mahalla huquq-tartibot maskani faoliyatini tashkil etishda qanday tartiblar o'rnatildi?

**Savol:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-sonli Farmoni asosida mahalla huquq-tartibot maskani faoliyatini tartibga solish maqsadida qanday vazifalar belgilandi?

**Savol:** Qaysi hujjat bilan mahalla huquq-tartibot maskani tuzilmasi va mahalla huquq-tartibot maskanning namunaviy loyihasi tasdiqlangan?


**Javob:** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 23 iyundagi “Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi VMQ-343-sonli qarori bilan mazkur hujjatlar qabul qilingan.

**Savol:** IIVning qaysi buyrug‘i asosida mahalla huquq-tartibot maskani to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi?

### Ushbu o‘quv mashg‘uloti «**SXEMA**» interfaol metodidan foydalanish orqali o‘tkaziladi.

«**SXEMA**» - metodi o‘rganilayotgan mavzu, muhokama qilinayotgan masala mohiyatining asosiy xususiyati yoki belgilarini sxema, tasvir yoki rasm orqali ifodalanishini ta’minlaydi. Uni qo‘llashda tinglovchidan masalaga ijodiy yondashish taqozo etiladi. Topshiriqni bajarish jarayonida tinglovchilar o‘rganilayotgan mavzu, muhokama qilinayotgan masala bo‘yicha o‘zlash-tirgan nazariy bilimlarini yodga oladi, eng muhim xususiyati, belgilarini aniqlaydi, ularni umumlashtiradi yoki tarkibiy qismlarga ajratgan holda sxema yaratadi. Tinglovchilarda fikrlash, ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, rivojlantirishga xizmat qiluvchi ushbu strategiya g‘oyaning qisqa, aniq ifodala-nishi uchun sharoit yaratadi.

#### Mashg‘ulotlarda «Sxema»



#### MASHG‘ULOTGA OID SAVOLLAR:

**1-savol:** Mahalla huquq-tartibot maskani tushunchasi, qaysi hududlarda tashkil etiladi, maskanga qo‘yiladigan tartiblar?

**2-savol:** Ichki ishlar organlarining eng quyi bo‘g‘inida tashkil etilgan tarkibiy tuzilmaning asosiy vazifalari va funksiyalari?

**3-savol:** Ichki ishlar organlarining eng quyi bo'g'inida tashkil etilgan tarkibiy tuzilmaning asosiy funksiyalarning har biriga alohida yo'nalishlarning chora-tadbirlarni aytib o'ting?

**4-savol:** Mahalla huquq-tartibot maskani faoliyatini tashkil etish bo'yicha rahbar (profilaktika katta inspektori)ga qanday talablar belgilangan?

**5-savol:** Maskan faoliyati samaradorligini baholashning asosiy mezonlari hisoblanishini va ushbu faoliyat bilan tanishish va yordam berish hamda nazorat qilish borasida qanday talablar belgilandi?

**6-savol:** Mahalla huquq-tartib maskanning moddiy-texnik ta'minoti bo'yicha masalasi qaysi bavlal organlari zimmasiga yuklangan va qaysi yo'nalishlarni qamrab olingan?

**7-savol:** Mahalla huquq-tartibot maskanning namunaviy loyhasiga kiruvchi talablarni ko'rsatib o'ting?

### **Rolli o'yinlar usuli:**

Har bir tinglovchiga muayyan mas'ul shaxsning vazifasi taqsimlab beriladi va taqsimlangan vazifalarni mahalla huquq-tartibot maskanida qanday bajarishini aytib o'tadi.

Mazkur shaxslarning vazifasi tinglovchilar o'rtasida taqsimlanadi. Jumladan:

1. Ichki ishlar organlari profilaktika (katta) inspektori quyidagi vazifalarni amalga oshiradi.  
2. Ichki ishlar organlari xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektor quyidagi vazifalarni amalga oshiradi.

3. Ichki ishlar organlari probatsiya xizmati (katta) inspektori quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

4. Ichki ishlar organlari patrul-post xizmati xodimlari quyidagi vazifalarni amalga oshiradilar.

5. Ichki ishlar organlari davlat yo'l-harakati xavfsizligi xizmati xodimi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi.

6. Ichki ishlar organlari jinoyat qidiruv bo'limlari tezkor xodimi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi.

7. Ichki ishlar organlari terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish bo'limlari tezkor xodimi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi.

8. Ichki ishlar organlari huzuridagi tergov bo'limlari tergovchi va surishtiruvchisi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi.

9. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari va xodimlari tomoidan bevosita javobgarlik hududida quyidagi vazifalarni amalga oshiradilar.

10. Profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha yordamchisi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi.

11. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlari quyidagi vazifalarni amalga oshiradi.

12. "Fidokor yoshlar" jamoatchilik guruhi a'zolari quyidagi vazifalarni amalga oshiradi.

### **Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2-apreldagi "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlashva jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5050-son Qarorni o'zlashtirish;

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-sonli Farmoni o'zlashtirish;

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 23 iyundagi "Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi VMQ-343-sonli qarorni o'zlashtirish.

#### 4-mavzu: Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalari faoliyatini tashkil etish tartibi.

*Ma’ruza mashg‘uloti (2 soat)*

##### Reja:

1-savol. Asosiy tushunchalar. Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatmalari faoliyatini tashkil etish.

2-savol. Tayanch punktlari va profilaktika inspektorlari faoliyatini tashkil etish.

3-savol. TSh IIB HPXlari hamda tayanch punktlarida yuritiladigan kitoblar, ularni yuritish tartibi.

##### 1-savol. Asosiy tushunchalar. Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatmalari faoliyatini tashkil etish.

O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2017 yil 12 iyuldagi «Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 151-sonli buyrug‘i tasdiqlandi.



Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**xavfli guruh** – o‘zining g‘ayriijtimoiy xulq-atvori tufayli o‘zga shaxslarga jinsiy aloqa yo‘li orqali yuquvchi kasalliklarni (OIV, zaxm, so‘zak va boshqalar) yuqtirish xavfi yuqori bo‘lgan fohishalar, besoqolbozlar va tanosil kasalligiga chalingan shaxslar;

**axloqqa qarshi huquqbuzarliklar profilaktikasi** – O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 189, 189<sup>1</sup>, 190, 191-moddalarida va Jinoyat kodeksi 128, 129, 130, 130<sup>1</sup>, 131 va 278-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo‘llaniladigan huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasi tizimi.

##### Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari faoliyatini tashkil etish.



Ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamentining huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati;

IIV Transport va turizim ob‘ektlarini xavfsizligini ta‘minlash departamentining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘limi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalarining huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatmalari;

ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazlari;

tuman (shahar) ichki ishlar boshqarmalari (bo‘limlari), transportda jamoat xavfsizligini ta‘minlash bo‘limlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘limlari, xizmatlari, guruhlari;

ichki ishlar organlarining qishloq, ovul va mahallalarda joylashgan tayanch punktlari.

IIV, viloyat, tuman, shahar HPX hamda tayanch punktlarining asosiy vazifalari, funksiyalari, majburiyatlari, huquqlari va javobgarligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi PQ-2896-son «Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorida belgilab berilgan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

IIV Transportda jamoat xavfsizligini ta‘minlash boshqarmasining huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati, IIV-IIBB-IIB HPX, Markazlar, TSH IIB HPX hamda tayanch punktlari faoliyati markazining

Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini tashkil etish xizmati tomonidan muvofiqlashtirib boriladi.

Quyidagilar IIV–IIBB–IIB HPXlarining asosiy vazifalari hisoblanadi:



hududdagi kriminogen vaziyat to'g'risidagi axborotni kompleks va tizimli tahlil qilish, huquqbuzarliklar profilaktikasida mavjud kuch va vositalardan foydalanish samaradorligini baholash, shuningdek huquqbuzarlikning sodir etilishiga olib keluvchi sabablar va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish bartaraf etish;

huquqbuzarliklar profilaktikasi, shu jumladan voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish va uslubiy ta'minlash, kadrlar salohiyatini doimiy ravishda mustahkamlash;

huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlarida muayyan huquqdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari va ozodlikni cheklash tariqasidagi jazolarning ijrosini tashkil etish hamda shartli hukm qilingan shaxslar ustidan nazoratni amalga oshirish jazolarni ijro etish inspeksiyalari faoliyatini, shuningdek qamoqqa olish bilan bog'liq bo'lmagan ehtiyot choralarini ijro etish bo'yicha faoliyatni belgilangan tartibda nazorat qilish;

transportda jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'limlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limlari (xizmatlari, guruhlari) faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish va uslubiy ta'minlash, kadrlar salohiyatini doimiy ravishda mustahkamlash; va hakoza.



IIV–IIBB–IIB HPXlari o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

hududdagi kriminogen vaziyat to'g'risidagi axborotni kompleks va tizimli tahlil qilish, huquqbuzarliklar profilaktikasida mavjud kuch va vositalardan foydalanish samaradorligini baholash, shuningdek huquqbuzarlikni sodir etish sabablarini hamda uni sodir etishga olib keluvchi shart–sharoitlarni bartaraf etish sohasida:

ichki ishlar organlarining quyi va boshqa xizmatlaridan qishloq, ovul, mahallalar hamda tuman va shaharlar bo'yicha kriminogen vaziyat haqidagi axborotni talab qilib olish va umumlashtirish;

kriminogen vaziyat haqida olinayotgan axborotni tizimli ravishda o'rganishni amalga oshirish, ichki ishlar organlarining mavjud kuch va vositalarini joylashtirishda yo'l qo'yilgan kamchilik va nuqsonlarni, shuningdek huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkon beruvchi omillarni aniqlash;

huquqbuzarliklar profilaktikasiga, ularning sodir etilishi sabablari va ularga imkon beruvchi shart–sharoitlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan, shu jumladan davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari bilan birgalikda o'tkaziladigan tadbirlarning istiqbolli va joriy rejalashtirilishini tashkil etish;

IIV–IIBB–IIB rahbariyatiga huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish, kuch va vositalarni oqilona joylashtirish va qayta taqsimlash bo'yicha takliflar taqdim etish;

davlat organlari, jamoat tashkilotlari va boshqa tashkilotlar rahbarlariga huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablarini va ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish, shu jumladan tegishli infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha taqdimnomalar kiritish;

huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida ma'lumot–axborot fondini shakllantirish, statistik hisobotni yuritish; va hakoza

IIV–IIBB–IIB HPXlari o'ziga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bajarishda quyidagi huquqlarga ega:

ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari, boshqa davlat organlari va tashkilotlardan axborot–tahliliy va hisobot ma'lumotlarini tayyorlash uchun zarur bo'lgan hujjatlar (ularning nusxalari), ma'lumotlar va boshqa materiallarni so'rash hamda olish;

TSH IIB HPXlarning hujjatlari va materiallari bilan tanishish, ularning ijrosi haqida zarur ma'lumotlarni olish;

IIV–IIBB–IIB rahbariyatiga davlat organlari va boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslarga huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha taqdimnomalar yo'llash haqida takliflar kiritish;

ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlaridan ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari zimmasiga yuklatilgan tadbirlarni amalga oshirishda

ko'maklashishni talab qilish;

TSH IIB HPXlarda qonuniylik va xizmat intizomiga rioya etilishi ahvolini o'rganish;

ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari xodimlari tomonidan qonuniylik va xizmat intizomini buzishga oid aniqlangan holatlar bo'yicha xizmat tekshiruvlari o'tkazish;

TSH IIB HPXlarning moddiy-texnika ta'minotini yaxshilash, xodimlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo'yicha takliflar kiritish.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

IIV-IIBB-IIB HPXlariga quyidagi majburiyatlar yuklanadi:

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini himoya qilish bo'yicha o'z vakolatlari doirasida zarur choralar ko'rish;

ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari ish faoliyati haqida zarur ma'lumotlarni tayyorlash va IIV-IIBB-IIB rahbariyatiga taqdim etish.

IIV-IIBB-IIB HPXlarga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

IIV-IIBB-IIB HPXlari o'zlariga yuklatilgan vazifa, funksiya va majburiyatlarni samarali bajarilishi uchun javobgardir.



#### **Quyidagilar TSH IIB HPXlarning asosiy vazifalari hisoblanadi:**

- hududdagi kriminogen vaziyat to'g'risidagi axborotni kompleks va tizimli tahlil qilish;
- huquqbuzarliklar profilaktikasida mavjud kuch va vositalardan foydalanish samaradorligini baholash;
- huquqbuzarliklar sodir etilish sabablarini va ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish;
- voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha faoliyatini tashkil etish, uslubiy ta'minlash;
- ichki ishlar organlari tayanch punktlari profilaktika inspektorlari hamda transportda jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'limlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limlari (xizmatlari, guruhlari), jazoni ijro etish inspeksiyasi faoliyatiga rahbarlik qilish, ularning faoliyatini nazorat qilish, muvofiqlashtirish;
- muayyan huquqdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari va ozodlikni cheklash tariqasidagi jazolarning ijrosini tashkil etish hamda shartli hukm qilingan shaxslar ustidan nazoratni amalga oshirish, qamoqqa olish bilan bog'liq bo'lmagan ehtiyot choralari qo'llanilgan shaxslarning xulq-atvorini nazorat qilish;
- qonunchilikni, huquqni qo'llash amaliyotini, huquqbuzarliklar profilaktikasi shakllari va usullarini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;
- huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari, davlat organlari va boshqa tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligini tashkil etish;
- axloqqa qarshi huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish.
- TSH IIB HPXlarga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalar ham yuklanishi mumkin.
- TSH IIB HPXlari o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:
  - tayanch punktlaridan qishloq, ovul va mahallalardagi, transportda jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'limlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limlari (xizmatlari, guruhlari)dan temir va havo yo'llari obek'tlaridagi kriminogen vaziyat haqidagi axborotni talab qilib olish va umumlashtirish;
  - kriminogen vaziyat haqida olinayotgan axborotni tizimli ravishda o'rganishni amalga oshirish, ichki ishlar organlarining mavjud kuch va vositalarini joylashtirishda yo'l qo'yilgan

kamchilik va nuqsonlarni, shuningdek huquqbuzarliklar sodir etishga imkon beruvchi omillarni aniqlash;

- huquqbuzarlikning sodir etilishiga olib keluvchi sabablar va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga yo'naltirilgan, shu jumladan davlat organlari va boshqa tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda o'tkaziladigan tadbirlarning istiqbolli va joriy rejalashtirilishini tashkil etish;

- IIB boshliqlariga huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish, kuch va vositalarni oqilona joylashtirish va qayta taqsimlash bo'yicha takliflar taqdim etish;

- davlat organlari, jamoat tashkilotlari va boshqa tashkilotlar rahbarlariga huquqbuzarlikning sodir etilishiga olib keluvchi sabablar va sharoitlarni bartaraf etish, shu jumladan tegishli infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha taqdimnomalar kiritish;

- huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida ma'lumot–axborot fondini shakllantirish, statistik hisobotni yuritish;

- tayanch punktlari faoliyatini o'rganishni tashkil etish;

- tayanch punktlari va transportda jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'limlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limlari (xizmatlari, guruhlari)ga amaliy yordam ko'rsatish, ularning ishini samarali tashkil etish uchun uslubiy va boshqa materiallar ishlab chiqish;

#### **TSH IIB HPXlari quyidagi huquqlarga ega:**

Ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari, davlat organlari va boshqa tashkilotlardan axborot–tahliliy va hisobot ma'lumotlarini tayyorlash uchun zarur bo'lgan hujjatlar (ularning nusxalari), ma'lumotlar va boshqa materiallarni so'rab olish;

tayanch punktlari va transportda jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'limlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limlari (xizmatlari, guruhlari) faoliyatiga rahbarlik qilish, ularda yuritilayotgan hujjatlar va materiallar bilan tanishish, ijrosi haqida zarur ma'lumotlarni olish;

IIB boshliqlariga davlat organlari va boshqa tashkilotlar hamda mansabdor shaxslarga huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha, taqdimnomalar yo'llash haqida takliflar kiritish;

ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlaridan ichki ishlar organlari HPXlari zimmasiga yuklatilgan tadbirlarni amalga oshirishda ko'maklashishni talab qilish;

tayanch punktlari hamda transportda jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'limlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limlari (xizmatlari, guruhlari)da qonuniylik va xizmat intizomiga rioya etilishi ahvolini o'rganish;

tayanch punktlarida faoliyat olib borayotgan profilaktika inspektorlari hamda transportda jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'limlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limlari (xizmatlari, guruhlari) xodimlari tomonidan qonunbuzilishi yoki xizmat intizomini buzishga oid holatlar bo'yicha xizmat tekshiruvlari o'tkazish;

tayanch punktlari hamda hamda transportda jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'limlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limlari (xizmatlari, guruhlari)ning moddiy–texnika ta'minotini yaxshilash, profilaktika inspektorlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo'yicha takliflar kiritish.

TSH IIB HPXlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Quyidagilar TSH IIB HPXlarining majburiyatlari hisoblanadi:

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mol–mulkini, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini himoya qilish bo'yicha o'z vakolatlari doirasida choralar ko'rish;

tayanch punktlarining ish faoliyati haqida zarur ma'lumotlarni tayyorlash va IIB boshlig'iga taqdim etish.

TSH IIB HPXlariga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklatilishi mumkin.

Shahar – qo'rg'on ichki ishlar bo'lim (xizmat)lari boshliqlari TSH IIB HPX boshliqlari

funksiyasi, vazifasi hamda huquqlaridan foydalanib, ular bilan kelishgan holda birlashtirilgan ma'muriy hududdagi ichki ishlar organlarining tayanch punktlari faoliyati ustidan rahbarlikni amalga oshiradi. Bu borada amalga oshirilgan ishlari yuzasidan TSH IIB HPB boshliqlariga axborot taqdim etib boradi.

TSH IIB HPXlarining faoliyati ustidan nazorat ichki ishlar organlari boshliqlari tomonidan amalga oshiriladi.

## **2-savol. Tayanch punktlari va profilaktika inspektorlari faoliyatini tashkil etish**

Tayanch punktlari imkon qadar ularga birlashtirilgan hududning markazida, aholi uchun qulay joyda tashkil etilishi lozim.



Tayanch punktlari xizmat ko'rsatadigan hududning chegaralari tumanlar va shaharlar ichki ishlar boshqarmalari (bo'limlari) boshlig'i tomonidan mazkur shahar yoki tuman hokimi bilan kelishgan holda ular joylashgan mahalla, shaharcha, qishloq va ovulning hududi miqyosida belgilanib, IIV-IIBB-IIB HPXlariga hudud chizmasi bilan taqdim etiladi.

Tumanlar va shaharlar ichki ishlar boshqarmalari (bo'limlari) boshlig'ining tavsiyasiga ko'ra IIV-IIBB-IIB boshliqlarining buyruqlari bilan tayanch punktlari xizmat ko'rsatadigan hudud tasdiqlanadi va tartib raqami beriladi.

Tayanch punktlarida ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari xodimlari belgilangan tartibda xizmat olib borishi mumkin. Tayanch punkti hududida xizmat olib borayotgan ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari xodimlari belgilangan tartibda tayanch punktida yuritiladigan kitobga qayddan o'tadi.

Tayanch punktlari uchun yer maydoni va binolarni ajratish, qurilish, ta'mirlash va kapital ta'mirlash, shuningdek mebel bilan jihozlash shahar va tuman hokimliklari tomonidan amalga oshiriladi.

Belgilangan vazifalarni samarali bajarish va uzluksiz hamkorlikni ta'minlash maqsadida, tayanch punktlari fuqarolar yig'inlari bilan bir binoda joylashishi mumkin.

Tayanch punktlarining kirish joyida shahar-tuman bo'yicha bir xil namunadagi balandligi 80 sm, eni 60 sm o'lchamda, to'q ko'k fonga oq rangda yozilgan peshlavhalar o'rnatiladi. Peshlavhada ichki ishlar organlarining nomlari, profilaktika inspektorlari va hududiy ichki ishlar organining xizmat telefonlarini aks ettiruvchi yozuv bo'ladi.

Tayanch punktlari fuqarolar uchun ariza, shikoyat va takliflar yozish namunalari, profilaktika inspektorlarining faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari normalaridan ko'chirmalar, qidiruvdagi shaxslar, shaxsi noma'lum murdalar, yong'in xavfsizligiga, davlat ramzlariga, huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid plakatlar va eslatmalar bilan jihozlanadi.

Tayanch punktlarida profilaktika inspektorining xizmat xonasi devoriga ma'muriy hududning 130 sm x 200 sm o'lchamli xaritasi osib qo'yiladi.

Ushbu xaritada korxonalar, tashkilotlar va muassasalar joylashgan binolar, shuningdek ko'chalar, mavzalar, bozorlar, internet kafelar, umumiy ovqatlanish shoxobchalari, tungi ko'ngil ochish (dam olish) joylari, ta'lim, madaniy-ko'ngilochar, sport sog'lomlashtirish muassasalari, ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan joylar, turar-joy binolari raqamlar va maxsus belgilar bilan aks ettiriladi. Xaritaning pastki qismida korxonalar, tashkilot va muassasalar nomi ko'rsatiladi.

Tayanch punktlari IIV tomonidan belgilangan tartibda radio va telefon aloqasi vositalari, videokuzatuv kameralari uchun monitor, axborot markazi bilan bevosita aloqa qilish imkonini beradigan ma'lumotlar bazasining dasturiy ta'minoti, kompyuter texnikasi, shuningdek xizmat avtotransporti bilan ta'minlanadi.

### **Profilaktika inspektorlarida xizmat faoliyatini amalga oshirish vaqtida quyidagilar bo'lishi shart:**

- ❖ xizmat guvohnomasi;
- ❖ shaxsiy raqamli maxsus jeton;
- ❖ tabel quroli va ikkita o'qdon o'qlari bilan;
- ❖ tabel quroli g'ilofi, tozalash moslamasi va himoya tasmasi bilan;



- ❖ rezina tayoq;
- ❖ elektroshoker;
- ❖ qo'l kishani;
- ❖ aloqa vositasi (telefon, planshet, ratsiya);
- ❖ hushtak va fonar;
- ❖ xizmat sumkasi;
- ❖ faoliyat natijalarini rasmiylashtirish uchun zaruriy hujjat blankalari;
- ❖ tikilgan, raqamlangan va ichki ishlar organining kanselyariyasidan ro'yxatdan o'tkazilgan ish daftari;
- ❖ ichki ishlar organlari xodimlarining odob-ahloq qoidalari.

Profilaktika inspektori xizmat zarurati bo'lgan holatlarda boshqa maxsus va texnik vositalarni amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda olib yurishi va ulardan foydalanishi mumkin.

Profilaktika inspektori xizmat faoliyatini ichki ishlar organlari xodimlari uchun belgilangan maxsus xizmat kiyimida olib boradi, alohida hollarda (tezkor-qidiruv yoki maxsus tadbirlar tashkil etish va o'tkazish davrida) fuqarolik kiyimida xizmatni o'tashi mumkin. Fuqarolik kiyimida tadbirni o'tkazishi yoki unda ishtirok etishi, tadbirning maqsadi va shartlari haqida bildirgi orqali ichki ishlar organi rahbariyati yoki huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati boshlig'iga murojaat qiladi va uning ruxsati bilan amalga oshiradi.

Profilaktika inspektori xizmat faoliyati ichki ishlar organi huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari boshliqlari tomonidan belgilab beriladi. Profilaktika inspektori faoliyatini belgilashda uning xizmat va dam olish kunlari, mehnat ta'tiliga chiqish vaqti, shuningdek ma'muriy hududda xizmat olib borish vaqti va yo'riqnoma o'tkaziladigan joy, ichki ishlar organi tezkor navbatchisiga aloqaga chiqish vaqtlari belgilab beriladi. Kunlik yo'riqnoma, xizmat yig'ilishlari, o'quv va o'q otish mashg'ulotlariga qatnashish vaqti va tartibi ichki ishlar organlari boshliqlari tomonidan tasdiqlab beriladi.

Profilaktika inspektori ma'naviyat va ma'rifat, jismoniy, xizmat va jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarida IIVning amaldagi idoraviy normativ-huquqiy hujjatlari talablari asosida ishtirok etadi va belgilangan tartibda hamda muddatlarda sinovlar topshiradi.

Olis qishloq va ovullar (ichki ishlar organi joylashgan joydan 20 km. dan ortiq masofadagi) va borish qiyin bo'lgan joylarda xizmat olib boradigan profilaktika inspektorlari jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarida belgilangan normativlarni ichki ishlar organi boshlig'i ruxsati bilan o'zi mustaqil ravishda ma'muriy hududda joylashgan sport maydonlarida bajarishi hamda IIVning amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari talablari asosida sinovlar topshirishi mumkin.

Profilaktika inspektori ma'muriy hududni profilaktik ko'zdan kechirishni har kuni amalga oshiradi, yil davomida barcha turar-joylarga kamida ikki marotaba tashrif buyurishi lozim.

Profilaktika inspektori huquqbuzarlik sodir etilishi ehtimoli yuqori bo'lgan joylar, internet kafelar, tungi ko'ngil ochish (dam olish) joylarini hamda ma'muriy nazorat o'rnatilgan, profilaktik hisobga olingan, ov quroliga ega bo'lgan, huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslar yashaydigan turar-joylarni doimiy ravishda nazorat qilib boradi.

Profilaktika inspektori turar-joylarga (xonadon, uy, xona) va ob'ektlarga tashrifi vaqtida lavozimini, unvonini, familiyasini aytgan holda o'zini tanishtiradi. Fuqaroning talabi bo'yicha xizmat guvohnomasini ochiq holda ko'rsatadi, tashrifining maqsadini ma'lum qiladi.

Profilaktika inspektori xizmat qilayotgan hududdagi barcha ma'lumotlarga ega bo'lish maqsadida fuqarolar yig'ini raisi, diniy ma'rifat va ma'naviy axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchi, posbonlar imkoniyatidan unumli foydalangan holda aholining turmush tarzini o'rganadi, tezkor qiziqish uyg'otuvchi ma'lumotlar olingan taqdirda ularni zudlik bilan bildirgi orqali IIB boshlig'iga taqdim etib boradi.

Ma'muriy hududda yoki unga chegaradosh bo'lgan joylarda ijtmoyi-siyosiy vaziyat barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarning kuchayishi yoki murakkablashishi

holatlarida profilaktika inspektori zudlik bilan ichki ishlar organi navbatchilik qismiga yoki ichki ishlar organi boshlig'iga axborot beradi hamda qo'shimcha kuchlarga bo'lgan ehtiyojni ma'lum qiladi.

Tayanch punkti profilaktika inspektorlari faoliyatini baholash qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Profilaktika inspektorlarini bir hududda kamida besh yil ishlamasdan turib, boshqa hududga o'tkazish qat'iy taqiqlanadi (yuqori lavozimga tayinlanayotgan, chegara hududlarda xizmat olib boruvchi profilaktika inspektorlari bundan mustasno).

### **Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlarining voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ishlash faoliyati.**

Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ishlash faoliyatini ichki ishlar organlarining barcha sohaviy xizmatlari, huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ va muassasalar, tuman va viloyat hokimliklari, nodavlat notijorat tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyatining barcha institutlari bilan hamkorlikda tashkil etadi.



Voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan bevosita ishlash tayanch punktlari profilaktika inspektorlari hamda transportda jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'limlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limlari (xizmatlari, guruhlari) voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlari tomonidan amalga oshiriladi.

Toshkent shahrida esa ushbu faoliyat voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlari va ichki ishlar organlarining tayanch punktlari profilaktika inspektorlari tomonidan o'zaro hamkorlikda amalga oshiriladi.

Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlar va oilalar bilan yakka tartibdagi profilaktika ishi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etiladi.

Voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida sodir etilayotgan huquqbuzarliklar, g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar tahlillaridan kelib chiqib, ular orasida «O'quvchi», «Davomat», «O'smir», «G'amxo'rlik» kabi huquqbuzarliklarning maxsus profilaktik tadbirlari idoraviy normativ hujjatlar asosida ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

Huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etgan, shuningdek nazoratsiz va qarovsiz qolgan voyaga yetmaganlar bilan O'zbekiston Respublikasining «Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida»gi qonunining «Yakka tartibdagi profilaktika ishini tashkil etish» bobi talablari asosida yakka tartibda profilaktika ishi tashkil etiladi.

Ushbu holatda yakka tartibda profilaktika ishi olib borilayotgan shaxslarga nisbatan profilaktika ishi yuritiladi.

O'ziga nisbatan yakka tartibdagi profilaktika ishi olib boriladigan voyaga yetmaganlar O'zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonunni 35-moddasi ta'siri ostiga tushsa, ularga nisbatan profilaktika ishi ochiladi va Ichki ishlar vazirining boshqa idoraviy normativ-huquqiy hujjatlari asosida yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida ta'limning uzluksizligi, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limning majburiylik haqida voyaga yetmaganlar va ota-onalar o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlari olib boriladi. Majburiy ta'limdan bosh tortgan voyaga yetmaganlar aniqlanib, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyalari orqali o'qishga qaytarish choralari ko'riladi.

### **Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlarining yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlari:**

yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir faoliyatda ishtirok etadi;

yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiradi, shu jumladan huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni

aniqlaydi, bartaraf etadi;

yosh fuqarolarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish chora-tadbirlarini ko'radi;

yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda ishtirok etuvchi boshqa organlar va muassasalar bilan hamkorlik qiladi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

**Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlarining voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi sohasidagi vakolatlari:**



voyaga yetmaganlar bilan huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktika ishini olib boradi;

qidiruv e'lon qilingan voyaga yetmaganlarni, shuningdek ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlarni aniqlashga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi hamda belgilangan tartibda ularni voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi tegishli organlarga yoki muassasalarga yuboradi;

voyaga yetmaganlarning yashash, o'qish (ish) joyidagi ta'lim, madaniy-ko'ngilochar, sport-sog'lomlashtirish muassasalarida, boshqa tashkilotlarda, to'garaklar va klublarda voyaga yetmaganlar bilan olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning ahvolini o'rganadi;

voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishiga imkon berayotgan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf qilish to'g'risida tegishli davlat organlariga hamda boshqa tashkilotlarga takliflar kiritadi;

voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklari yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlari to'g'risidagi materiallarning tegishli organlar va muassasalar tomonidan ko'rib chiqilishida ishtirok etadi;

voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar va boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarning, voyaga yetmaganlarni ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yoxud ularning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan yoki ular bilan shafqatsiz muomalada bo'layotgan ota-onalar yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarning hisobini yuritadi, shuningdek statistika hisobotini tuzish uchun zarur bo'lgan axborotni yig'adi va umumlashtiradi;

yetim bolalar hamda ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirishda vasiylik va homiylik organlariga ko'maklashadi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.



**Alkogolni suiiste'mol qiluvchi yoki giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalarni va aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qiluvchi shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora-tadbirlarini tashkil etish faoliyati.**

giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishining, ular iste'mol qilinishining, shuningdek alkogol va tamaki mahsulotlari qonunga xilof ravishda ishlab chiqarilishi hamda o'tkazilishining oldini olish bo'yicha profilaktika tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

mastlik holatida, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalar ta'siri ostida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash hamda bartaraf etish bo'yicha profilaktika tadbirlarini o'tkazish;

giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalarni va aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni saqlash, tashish, o'tkazish va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish.

Surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka muhtalo bo'lgan bemorlarni O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi maxsus davolash-oldini olish

muassasalariga majburiy davolashga yuborish normativ-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

### **Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlarining ma'muriy amaliyot faoliyati**

Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari xodimlari ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni qonun hujjatlariga muvofiq ko'rib chiqadi va yuritadi.

Ma'muriy huquqbuzarlik uchun ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llash chog'ida qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi vakolatli yuqori turuvchi organlar va mansabdor shaxslar tomonidan muntazam ravishda nazorat qilib turilishi, prokuror nazorati hamda shikoyat berish huquqi bilan ta'minlanadi.

### **Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish:**

har bir ishning holatini o'z vaqtida, har tomonlama, to'la va ob'ektiv ravishda aniqlab chiqish;

ishni qonun hujjatlariga muvofiq holda hal etish, chiqarilgan qarorning ijrosini ta'minlash;

ma'muriy huquqbuzarlikning sodir etilishiga olib keluvchi sabablar va sharoitlarni aniqlash;

huquqbuzarliklarning oldini olish va qonuniylikni mustahkamlash, ayb uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash vazifalaridan iborat.

Ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqaradigan qoidalarga rioya etilishini tekshirish va nazorat qilish qonun hujjati bilan zimmasiga yuklatilgan huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati xodimlari vakolatlari doirasida huquqbuzarga nisbatan ma'muriy bayonnoma rasmiylashtiradi.

Ma'muriy bayonnoma uch qismdan iborat bo'lib, quyidagi tartibda rasmiylashtiriladi:

birinchi qismi to'ldirilgandan so'ng TSH IIB HPXlariga bir sutka ichida topshiriladi va bir yil davomida saqlanadi;

ikkinchi qismi boshqa hujjatlar va ish bo'yicha ashyoviy dalillar bilan birga bir sutkadan kechiktirmay ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan organ (mansabdor shaxs)ga yuboriladi;

huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari xodimlari tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan vakolat doirasida bevosita ko'rib chiqiladigan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar yuzasidan rasmiylashtirilgan ma'muriy bayonnomalarning ikkinchi qismi MJtK 305-moddasida ko'rsatilgan muddatlarda jarima undirilganligi haqidagi kvitansiya bilan birga TSH IIB HPXlariga topshiriladi;

bayonnomaning uchinchi qismi ma'muriy bayonnoma tuzilgan vaqtda huquqbuzarga beriladi.

Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritishda (zarur hollarda) huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati xodimi quyidagi hujjatlarni to'playdi:

❖ huquqbuzarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar nusxasini;

❖ huquqbuzarlikka oid dalillar, ashyo va hujjatlarni olib qo'yish haqida rasmiylashtirilgan bayonnomalarni;

❖ huquqbuzarlik bo'yicha aniqlangan guvohlar bilan suhbatlashib, ulardan olingan tushuntirish xatlarini;

❖ ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qaror hamda ekspertning xulosasini;

❖ moddiy zarar miqdorini hamda huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash haqidagi hujjatlarni;

❖ huquqbuzarni muqaddam ma'muriy javobgarlikka tortilganligini tekshirish haqidagi talabnomani;

❖ qonun hujjatlariga muvofiq ish holatiga aniqlik kiritishga doir boshqa hujjatlarni.

### **Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlarining axloqqa qarshi huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish faoliyati.**

**Axloqqa qarshi huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy maqsadi** – ushbu huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasini samarali tashkil etish, mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilishiga imkon berayotgan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish choralarini ko'rish, ushbu

huquqbuzarliklarni sodir etgan (sodir etishga moyil bo'lgan) shaxslarni aniqlash va ular bilan profilaktik ishlarni tizimli ravishda olib borilishini ta'minlashdan iborat.

Axloqqa qarshi huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish Bosh boshqarma boshlig'ining farmoyishi bilan profilaktika inspektorlari faoliyatini nazorat qilish bo'limining bir nafar muhim topshiriqlar bo'yicha inspektori va bir nafar katta inspektori tomonidan amalga oshiriladi.



### **Axloqqa qarshi huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirishga mas'ul xodimlarga quyidagi vazifalar yuklanadi:**

profilaktika inspektorlariga mazkur yo'nalishdagi faoliyatini amalga oshirish, tahlil qilish, umumlashtirish borasidagi ishlariga amaliy-uslubiy yordam ko'rsatish;

tahlillar asosida axloqqa qarshi huquqbuzarliklarni aniqlashga, ularning sodir etilishiga imkon berayotgan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha takliflar kiritish;

axloqqa qarshi huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat, nodavlat va jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlikni mustahkamlash choralari ko'rish;

qonun hujjatlariga muvofiq tezkor-profilaktik tadbirlarni belgilash hamda sohaviy xizmatlar bilan hamkorlikda amalga oshirish;

xavfli guruhga mansub bo'lgan shaxslarning hisobini yuritish;

aholi o'rtasida axloqiy-ma'naviy buzuvchilikni targ'ib etuvchi, zo'rovonlik va shafqatsizlikka o'rgatuvchi, keng ommaning fikrini zaharlovchi barcha omillarni o'rganish, ularning manbalarini, kimlar tomonidan va qaerlarda tarqatilyotganligini aniqlash, bunday holatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rish;

kriminogen va «xavfli guruh»ga mansub shaxslar ko'proq to'planadigan joylarda, tungi ko'ngilochar muassasalarda, kafe, barlarda, restoran va boshqa joylarda maxsus (boshqa huquqni muhofaza qiluvchi idorlar hamda manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda) tadbirlar o'tkazish, aniqlangan qonun buzilishi holatlari bo'yicha tergovga qadar tekshiruv natijalariga ko'ra to'plangan hujjatlarni tegishliligi bo'yicha tergovga yoki manfaatdor idoralarga yuborish;

hammom va saunalar, massajxonalar, oromgoh, sanatoriy va profilaktoriy, dala hovli, mehmonxona hamda yotoqxonalar, ijaraga berilgan xususiy uylarning faoliyatini qonun hujjatlariga talablariga qat'iy amal qilgan holda nazorat ostiga olish, ularda sodir etilishi mumkin bo'lgan turli noqonuniy xatti-harakatlarni, xususan axloqqa qarshi huquqbuzarliklarni aniqlash yuzasidan sohaviy xizmatlar hamda boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda maxsus tadbirlar o'tkazib borish.

### **Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlarining transportda jamoat tartibini saqlash hamda huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini tashkil etish.**



Transport infratuzilmasi hamda temir yo'l va havo transportida huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish IIV Transport va turizim ob'ektlarini xavfsizligini ta'minlash departamentining huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari hamda TSh IIB transport va turizim ob'ektlari xavfsizligini ta'minlash departamentining hududiy bo'limlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari va guruhlari tomonidan amalga oshiriladi.

IIV Transport va turizim ob'ektlarini xavfsizligini ta'minlash departamentining huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari IIVning markaziy aparati bilan kelishilgan holda va boshliqning taqdimnomasiga ko'ra Ichki ishlar vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadigan boshliq rahbarlik qiladi.

IIV Transport va turizim ob'ektlarini xavfsizligini ta'minlash departamentining huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkillashtirish guruhi

katta inspektori hamda yoshlar va voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkillashtirish guruhi katta inspektori IIV Transport va turizim ob'ektlarini xavfsizligini ta'minlash departamentining huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati boshlig'i tavsiyasi bilan IIV Transport va turizim ob'ektlarini xavfsizligini ta'minlash departamenti boshlig'i taqdimnomasiga ko'ra Ichki ishlar vazirining o'rinbosari tomonidan lavozimga tayinlanadi.

TSH IIB Transport va turizim ob'ektlarini xavfsizligini ta'minlash bo'limlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari boshliqlari, guruhleri inspektorlari TSh IIB boshliqlari taqdimnomasiga ko'ra IIV-IIBB-IIB boshliqlari tomonidan lavozimga tayinlanadi.

TSH IIB Transport va turizim ob'ektlarini xavfsizligini ta'minlash bo'limlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari (guruhleri) faoliyati IIV Transport va turizim ob'ektlarini xavfsizligini ta'minlash boshqarmasining huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati tomonidan nazorat qilinadi va muvofiqlashtiriladi.

IIV Transport va turizim ob'ektlarini xavfsizligini ta'minlash boshqarmasining huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati faoliyati departament tomonidan nazorat qilinadi va muvofiqlashtiriladi.

Quyidagilar IIV Transport va turizim ob'ektlarini xavfsizligini ta'minlash boshqarmasining huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati hamda TSh IIB Transport va turizim ob'ektlarini xavfsizligini ta'minlash bo'limlari huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari (guruhleri)ning asosiy vazifalari hisoblanadi:

transport infratuzilmasi va uning hududidagi kriminogen vaziyatni o'rganish, tahlil qilish, mavjud kuch va vositalardan unumli foydalangan holda huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish;

transport infratuzilmasi hamda temir yo'l va xavo transportida sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni va ayrim toifadagi shaxslarni aniqlash hamda ularga profilaktik ta'sir ko'rsatishga qaratilgan maxsus profilaktik tadbirlarni ishlab chiqish, uni amalga oshirish yuzasidan Bosh boshqarmaga takliflar kiritish;

har oyda, o'tkazilgan profilaktika suhbatlari, rasmiy ogohlantirishlar, amalga oshirilgan umumiy, maxsus, yakka tartibdagi hamda viktimologik profilaktikalari yuzasidan umumlashgan ma'lumotlarni huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlariga taqdim etib borish;

huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda muassasalar, shuningdek boshqa sohaviy xizmatlar bilan o'zaro hamkorlik qilish.

IIV Transport va turizim ob'ektlarini xavfsizligini ta'minlash boshqarmasining huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati hamda TSH IIB Transport va turizim ob'ektlarini xavfsizligini ta'minlash bo'limlari huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari (guruhleri) qonun hujjatlarida belgilangan boshqa vazifalarni ham amalga oshirishi mumkin.

TSH IIB Transport va turizim ob'ektlarini xavfsizligini ta'minlash bo'limlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari (guruhleri) amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har oyning oxiriga sanasida IIV Transport va turizim ob'ektlarini xavfsizligini ta'minlash boshqarmasining huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatiga belgilangan tartibda hisobotlarni taqdim etib boradi. IIV Transport va turizim ob'ektlarini xavfsizligini ta'minlash departamentining huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati esa, keyingi oyning 3 sanasiga qadar umumlashgan hisobotlarni taqdim etib boradi.

### **3-savol. TSH IIB HPXlari hamda tayanch punktlarida yuritiladigan kitoblar, ularni yuritish tartibi.**

#### **TSH IIB HPXlarida quyidagi kitoblar yuritiladi:**



- ❖ ma'muriy bayonnoma blankalarini kirim qilish va tarqatish kitobi;
- ❖ ma'muriy nazoratga olinganlarni qayd qilish kitobi;

- ❖ profilaktika ishini qayd etish kitobi;
  - ❖ profilaktika inspektorlari tomonidan tayyorlangan chiqish hujjatlarini qayd etish kitobi.
- Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa kitoblar ham yuritilishi mumkin.

**Tayanch punktlarida quyidagi kitoblar yuritiladi:**

- ✓ tayanch punktining ma'muriy hudud pasporti;
- ✓ fuqarolarni qabul qilish kitobi;
- ✓ profilaktika suhbatini qayd etish kitobi;
- ✓ tayanch punktiga xizmatga kelgan xodimlarni qayd etish kitobi;
- ✓ tayanch punktlariga keltirilganlarni qayd qilish kitobi.

Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa kitoblar ham yuritilishi mumkin.

Xizmat hududini va uning o'ziga xos xususiyatlarini ta'riflovchi ma'lumotlar «Tayanch punktining ma'muriy hudud pasporti» kitob belgilangan tartibda va muddatlarda kiritib boriladi.

Yuritiladigan fuqarolarni qabul qilish kitobiga ma'lumotlar fuqarolarni qabul qilgan vaqtda kiritiladi.

Ma'muriy hududga xizmatga kelgan sohaviy xizmat xodimlari va ular tomonidan amalga oshirilgan ish natijalari haqidagi ma'lumotlar tayanch punktiga xizmatga kelgan xodimlarni qayd etish kitobiga yozib boriladi.

Huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etganlar, shaxsi noaniq bo'lganlar, nazoratsiz va qarovsiz qolgan voyaga yetmaganlar tayanch punktiga olib kelinganda ushbu shaxs haqidagi ma'lumotlar, olib kelingan sana, vaqti, sababi, ko'rilgan chora hamda qo'yib yuborilgan sana, vaqti yuritiladigan kitobga shu vaqtning o'zida qayd etiladi.

Tayanch punktlarida hujjatlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish, ko'rib chiqish, rasmiylashtirish, ularning ijrosini nazorat qilish, jo'natish, profilaktika ishlarini yuritish, arxivga topshirish va saqlash borasidagi ishlar profilaktika inspektorlari tomonidan amalga oshiriladi.

Hujjatning matni mazmunan aniq, sodda, to'liq va shaklan ixcham hamda «O'zbekiston Respublikasining Davlat tili to'g'risida»gi Qonun talablariga rioya qilingan holda tuziladi, hujjat tuzuvchi xodim ma'lumotlarning haqqoniyligi, to'liqligi, hujjatning mazmuni va o'z vaqtida ijro etilishi uchun shaxsan mas'ul hisoblanadi.

Bosh boshqarma, IIV-IIBB-IIB HPX, TSh IIB HPX va tayanch punktlarda tayyorlangan chiqish hujjatlari «O'zbekiston Respublikasining Davlat tili to'g'risida»gi qonun talablariga rioya qilingan holda rasmiy ish qog'ozi hisoblangan tegishli blankalarga yoziladi.

Blankalar, chiqish hujjatlarida qo'llaniladi. Belgilangan shakldagi blanka – Davlat gerbi tasviri tushirilgan, IIV-IIBB-IIB HPX, TSh IIB HPX va tayanch punktlarining nomi, joylashgan manzil, hujjatning chiqish raqami va sana ko'rsatilgan rasmiy ish qog'ozi hisoblanadi.

Tayyorlangan hujjat vakolatga ega bo'lgan mansabdor shaxs tomonidan imzolanadi va imzolangan paytdan boshlab yuridik kuchga ega bo'ladi.

TSH IIB HPXlarida chiqish hujjatlari tuman (shahar) ichki ishlar boshqarmalari (bo'lim, xizmat)lari blankasidan foydalangan holda tayyorlanadi. Tayanch punktlari profilaktika inspektorlari tomonidan tayyorlangan chiqish hujjatlari TSh IIB HPXlarida yuritiladigan «Profilaktika inspektorlarining chiqish hujjatlarini qayd qilish» kitobida qayd etib boriladi hamda har bir tayanch punktiga alohida indeks raqami beriladi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlarida ijro etilgan hujjatlar ularning turi va mazmuniga qarab nomenklaturada belgilangan tartibda guruhlanadi hamda tegishli yig'ma jildga joylanadi.

Tayanch punktlarida hujjatlar yig'ma jildi nomenklaturasi ishlab chiqiladi. Yig'ma jild nomenklaturasida tayanch punktlarining barcha ish hujjatlari va kitoblari o'z ifodasini topishi lozim.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlarida yig'ma jildlar nomenklaturasi kanselyariya boshlig'i tomonidan tuzilib, idoraviy arxiv mudiri bilan kelishilgandan so'ng Bosh boshqarma, IIV-IIBB-IIB HPX, TSh IIB HPX boshliqlari tomonidan tasdiqlanadi. Tayanch punktlarining yig'ma jildlar nomenklaturasi TSH IIB HPX boshliqlari tomonidan tasdiqlanadi.

Yig'ma jildlar nomenklaturasini tuzishda hujjatlarni saqlash muddatiga rioya qilinadi.

Yig‘ma jildlarning nomlanishi nomenklaturaga mos kelishi kerak.

Yig‘ma jildlar nomenklaturasi har yili tuziladi va hisobot yilining 1 yanvar kundan boshlab amalga kiradi.

Yig‘ma jildlar nomenklaturasi uch nusxada tuzilib, uning asli tegishli yig‘ma jildda saqlanadi, ikkinchisidan ish nusxasi sifatida foydalaniladi, uchinchisi – idoraviy arxivda saqlanadi.

Bir yildan ortiq muddatda hal bo‘ladigan masalalar yuzasidan ishlar har yilgi nomenklaturaga kiritiladi. Nomenklaturaga kiritilgan har bir yig‘ma jildga indeks raqami beriladi.

### **Hujjatlar yig‘ma jildini yuritishda quyidagilarga rioya qilish lozim:**



yig‘ma jildga faqat ijro etilgan, to‘g‘ri rasmiylashtirilgan hujjatlarni joylashtirish;  
bitta masalaning hal qilinishiga taalluqli barcha hujjatlarni hamda ilovalarni asosiy hujjatlar bilan birgalikda joylashtirish;

yig‘ma jildda bir kalendar yiliga oid hujjatlarni guruhlash (yildan–yilga o‘tuvchi hujjatlar yig‘ma jildlari bundan mustasno);

yig‘ma jildlarda doimiy va vaqtinchalik saqlanadigan hujjatlarni alohida guruhlash;

yig‘ma jildga qaytarilishi lozim bo‘lgan hujjatlar, ortiqcha nusxalar, fakstdan kelgan hujjatlarni, qo‘lyozmalarni joylamaslik;

yig‘ma jild jami 250 varaqdan oshmasligi kerak, agar undan ortsa, mazkur yig‘ma jildning ikkinchi jildi yuritiladi.

Hujjatlar turlari bo‘yicha va ilovalar bilan xronologik tartibda guruhlanadi.

Yozishmalar, qoidaga ko‘ra, kalendar yil davri bo‘yicha guruhlanadi va xronologik tartibda ketma–ket turkumlanadi, javob hujjati so‘rov hujjatidan keyin joylashtiriladi.

O‘tgan yilda boshlangan muayyan masala bo‘yicha yozishmalar qayta boshlanganida, o‘tgan yilgi indeksi ko‘rsatilgani holda, joriy yilning yig‘ma jildiga kiritiladi.

Hisobot yili tugagach, yig‘ma jildlar naryadlardan bo‘shatiladi va ularning har biri alohida, o‘rnatilgan tartibga muvofiq holda tikiladi. Bunda yig‘ma jildlar muqovalanadi va ularning nomlari yoziladi, varaqlariga tartib raqamlari beriladi hamda hujjatlarning ichki ro‘yxati tuziladi.

Yig‘ma jildlar sahifalari qora qalamda varaqning yuqori o‘ng burchagiga tartib raqami bilan belgilanadi. Varaq buklangan va o‘rtasidan tikilgan bo‘lsa, u ikkita varaq sifatida tartib raqami bilan belgilanadi.

Alohida varaqqa yozilgan rezolyusiya tegishli hujjatga yelimlanadi va unga alohida tartib raqami beriladi.

Doimiy va uzoq vaqt saqlanadigan yig‘ma jild muqovasidagi sana hujjatlar yig‘ma jildining yuritish boshlangan va tugallangan kun, oy va yiliga muvofiq bo‘lishi kerak.

Idoraviy arxivga ijro qilingan hujjatlar, murojaatlar, nazorat ishlari va ro‘yxatdan o‘tkazish kitoblari hamda boshqa hujjatlar topshiriladi.

Hujjatlarni idoraviy arxivga topshirishdan oldin birma-bir tekshirilib, saralanadi va tartib bilan tikiladi.

Hujjatlar idoraviy arxivga topshirish uchun tayyor bo‘lganidan so‘ng ularning ro‘yxati tuziladi. Qabul qilish-topshirishni amalga oshiruvchi xodimlar tomonidan ro‘yxatning barcha nusxalariga hujjatlarning soni, qabul qilish sanasi va familiyalari ko‘rsatilib, imzo qo‘yilishi kerak.

Ushbu ro‘yxatning birinchi nusxasi arxivda qoladi, ikkinchisi esa mas‘ul xodimga qaytariladi.

Zarurat sababli hujjatlarning arxivdan olinishiga IIV JXD HPX, IIV-IIBB-IIB HPX, TSh IIB HPX boshliqlarining ruxsati bilan yo‘l qo‘yiladi.



Arxivdan olingan hujjatlarga biror–bir belgi qo‘yish yoki yozuvlar kiritish taqiqlanadi. Arxivdan olingan hujjatlar, zarurat tugashi bilanoq, biroq 15 kundan kechiktirmasdan arxivga qaytarilishi kerak.

Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda qonun hujjatlariga muvofiq ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari, boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar, davlat va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikni amalga oshiradi.

Profilaktika inspektorlari davlat organlari, jamoat va boshqa tashkilotlar rahbarlariga huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari hamda ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish bo‘yicha taqdimnomalar kiritadi.

### **Mustaqil tayyorgarlik uchun topshiriq:**

Mustaqil ta‘limning mazmunini tinglovchilar ma‘ruza va boshqa o‘quv mashg‘ulotlarda olgan bilimlarini mustaqil ta‘lim jarayonida yanada chuqurroq o‘zlashtirishlari va navbatdagi mashg‘ulotga mo‘ljallangan mavzu bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rishlari tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2017 yil 12 iyuldagi «Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 151-sonli buyrug‘ini o‘qib o‘rganish va tegishli bandlarini konspektlashtirish.

#### **4-mavzu: Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari faoliyatini tashkil etish tartibi.**

*Seminar mashg‘uloti (2 soat)*

Ushbu o‘quv mashg‘uloti “*Savol-javob*” interfaol metodidan foydalanish orqali o‘tkaziladi.

«Savol-javob» metodi mavzuning o‘quvchi (tinglovchi va kursant)lar tomonidan o‘zlashtirilish darajasini aniqlashga yordam beradi. Uni qo‘llashning samaradorligi savol-javoblarning aniq, qisqa va tushunarli tarzda ifoda etilishi, aynan mavzuga doir bo‘lishiga bog‘liq.

Ta‘lim jarayonida metodni qo‘llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

O‘qituvchi mohiyati yoritilgan mavzuyuzasidan savollar tayyorlaydi

O‘qituvchi savollarni o‘quvchi (tinglovchi va kursant)lar e‘tiboriga havola etadi

O‘quvchi (tinglovchi va kursant)lar berilgan savollarga javob qaytarish orqali mavzuni o‘zlashtirganlik darajasini namoyish etadi

O‘qituvchi o‘quvchi (tinglovchi va kursant)larning savol-javobdagi ishtiroklarini tahlil qilib, baholaydi va mashg‘ulotga yakun yasaydi

#### **O‘quv mashg‘uloti savollari:**

- 1-savol. Ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari tizimi.
- 2-savol. IIV–IIBB–IIB HPXlarining asosiy vazifalari.
- 3-savol. Tayanch punktlari va profilaktika inspektorlari faoliyatini tashkil etish.
- 4-savol. Profilaktika inspektorlarida xizmat faoliyatini amalga oshirish vaqtida yonida nimalar bo‘lishi shart?

5-savol. Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlarining voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ishlash faoliyati.

6-savol. Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlarining yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlari.

7-savol. Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish.

8-savol. Axloqqa qarshi huquqbuzarliklar profilaktikasi.

#### Mustaqil tayyorgarlik uchun savollar:

1. Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlarining transportda jamoat tartibini saqlash hamda huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini tashkil etish.
2. TSh IIB HPXlarida qanday kitoblar yuritiladi?
3. Tayanch punktlarida qanday kitoblar yuritiladi va ularni yuritish tartibi.
4. Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlarida yig'ma jildlar nomenklaturasi.
5. Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritishda (zarur hollarda) huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati xodimi tomonidan to'planadigan hujjatlar.

### 5-mavzu: Profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar umumiy va viktimologik profilaktikasini amalga oshirish faoliyati.

*Ma'ruza mashg'uloti (2 soat)*

#### Reja:

1-savol. Huquqbuzarliklar umumiy va viktimologik profilaktikasini huquqiy asoslari.

2-savol. Profilaktika inspektorining umumiy va viktimologik profilaktik faoliyatining asosiy yo'nalishlari va chora-tadbirlari.


3-savol. Profilaktika inspektorining umumiy va viktimologik profilaktik faoliyatini tashkil etish.

#### 1-savol. Profilaktika inspektorining umumiy profilaktik faoliyatining huquqiy asoslari.



O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonunining qabul qilinishi huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi munosabatlarni kompleks tartibga solgani bilan bir qatorda bu boradagi islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi.

**Qonun 7 ta bob, 51 ta moddadan iborat bo'lib, unda umumiy qoidalar, huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy vazifalari, asosiy prinsiplari, turlari, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda muassasalar, ularning vakolatlari, yakuniy qoidalar belgilab berilgan.**



Mazkur faoliyatning asosiy prinsiplari voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasiga doirligi bilan uning o'ziga xos xususiyatlarga egaligini ko'rsatadi.

Qonunning 3-bob 22-moddasi **huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi** – huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalarning huquqbuzarliklarning oldini olish, huquqbuzarliklarning sodir etilishi

sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish bo'yicha faoliyati huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasidir

Qonunning **8-moddasida** voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar tizimi sifatida quyidagilar belgilangan:

- voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar;
- ichki ishlar organlari;
- ta'limni boshqarish organlari va ta'lim muassasalari;
- vasiylik va homiylik organlari;
- sog'liqni saqlashni boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari;
- mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari.

Ushbu organlar voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasini amalga oshiradilar.

Huquqbuzarliklarning umumiy profilaktik faoliyatini belgilab beruvchi yana bir huquqiy asosi sifatida O'zbekiston Respublikasining «Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida»gi 2008 yil 17 apreldagi qonunni ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Qonunning **5-moddasida** odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari tizimi quyidagicha belgilab berilgan:

- O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;
- O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati;
- O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari;
- O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi.

Qonunning **7-moddasida** esa odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlarining vakolatlari sifatida odam savdosi bilan shug'ullanuvchi shaxslar, uyushgan guruhlar va jinoiy uyushmalarning faoliyatiga chek qo'yish bo'yicha xalqaro tashkilotlar hamda boshqa davlatlarning huquqni muhofaza qiluvchi organlari bilan hamkorlikni amalga oshirishlari, odam savdosi bilan shug'ullanuvchi shaxslar, uyushgan guruhlar va jinoiy uyushmalar haqida tegishli davlat hokimiyati hamda boshqaruv organlariga axborot taqdim etishlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik qiladi, ommaviy axborot vositalarini jalb etgan holda aholi o'rtasida keng miqyosda ogohlantirish-profilaktika ishlarini o'tkazishlari kabi umumiy profilaktik chora-tadbirlari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi (2013 yil 7 oktabr) qarorining qabul qilinishi mahalla, shaharcha, qishloq va ovullarda huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashda ichki ishlar organlari profilaktika xizmatlari, shu jumladan hududiy profilaktika (katta) inspektorlari bilan doimiy ravishda hamkorlikda ish olib boruvchi jamoat tuzilmalarining faoliyatini yanada takomillashtirishga xizmat qildi.

Profilaktika inspektorining umumiy profilaktik faoliyati qonun va qonun osti hujjatlari asosida fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya filishga qaratilgan holda amalga oshirilishi maqsadga muvafiq.

Ma'muriy hududlarda aholi haqidagi demografik ma'lumotlarni tahlil qilish, ularni toifalarga ajratishni tabaqalash emas balki ular bilan amalga oshirilishi rejalashtirish lozim bo'lgan chora-tadbirlarni belgilab olishni ta'minlaydi.

Shu jumladan fuqarolarning alohida toifalari bilan viktimologik profilaktikani amalga oshirish zarurati aniqlanadi. Huquqbuzarliklar sodir etilishida ko'p hollarda jabrlanuvchilarning aybdorligini aniqlash mumkin. Shu sababli huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi haqida fikr yuritishdan oldin «viktimologiya» so'zining mazmun-mohiyatini tushunib olish maqsadga muvofiqdir, ensiklopedik va izohli lug'atlarda «viktimologiya» lotincha «victima» jabrlangan,

jabrlanuvchi va yunoncha «logos» – ta’limot ya’ni, jabrlanuvchilar haqidagi ta’limot, degan ma’noni anglatadi.

Shu bilan bir qatorda ilmiy tadqiqotlarda viktimlik degan tushunchalar ham kiritilgan bo’lib, bu insonning huquqbuzarlikdan jabrlanish imkoniyati emas, balki insonning huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoli yuqori bo’lgan holati hisoblanadi hamda viktimlikning aybli va aybsiz turlari ajratilgan.

**Aybli viktimlik** - potensial qurbonning salbiy, huquq va axloq nuqtai nazaridan nomunosib xulqidan iborat bo’lib, u jinoyat sodir etilishiga imkon beradigan omil hisoblanadi. Masalan, yo’l-transport hodisalaridan fuqarolarning ko’pgina qismi yo’l qoidalariga rioya qilmaganliklari oqibatida jabrlanadilar.

**Aybsiz viktimlik** - umuman hayotda, xususan, jinoyatdan avvalgi vaziyatda ijtimoiy ma’qul axloqqa ega bo’lgan muayyan shaxsning (masalan, inkassator, mahalla posboni) mehnat yoki jamoat faoliyatining xususiyati yoxud psixofiziologik jihatlari (masalan, bola, qariya, bemorligi kabilar) bilan bog’liq.

Shu o’rinda viktimlik darajalari mavjudligini bilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada viktimlikning quyidagi **uch darajasi** mavjudligi ko’zga tashlanadi:

1) **viktimlik darajasi kam bo’lgan shaxslar** – jismonan baquvvat, voqelikka to’g’ri yondashuvchi va boshqalar;

2) **viktimlik darajasi o’rtacha bo’lgan shaxslar** – neytral shaxslar, ya’ni o’zi nizoli holatni keltirib chiqarmaydigan, lekin nohaqlikka chidolmaydigan shaxslar;

3) **viktimlik darajasi yuqori bo’lgan shaxslar** – kasbi, ijtimoiy maqomi, biofiziologik xususiyati, moddiy ahvoli, ma’naviy-ruhiy belgilari kabilar bilan bog’liq holda huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimoli mavjud bo’lgan shaxslardir.

Viktimlikni kelib chiqish manbaiga ko’ra ob’ektiv va sub’ektiv omillarga ajratish mumkin, ya’ni:

**ob’ektiv omillar** – ma’naviy va jismoniy jihatdan ojizlar, ayollar, qariyalar, yosh bolalar, nogironlar, passiv xarakterga ega bo’lganlar (qo’rqoqlar, jur’atsizlar);

**sub’ektiv omillar** – ishonuvchilar, bee’tiborlar, maqtanchoqlar (boyligini, o’zini ko’z-ko’z qiluvchilar), urushqoqlar.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 54-moddasida ham «jabrlanuvchi» tushunchasi o‘z ifodasini topgan bo‘lib, unga asosan, «yetarlicha dalillarga asoslangan hamda jinoyat oqibatida moddiy, ma’naviy, jismoniy zarar yetkazilgan shaxs» tushuniladi deb bayon etilgan bo‘lsa, Ma’muriy javobgarlik kodeksining 295-moddasida “Ma’muriy huquqbuzarlik yo‘li bilan ma’naviy, jismoniy yoki muldkiy zarar yetkazilgan shaxs jabrlanuvchi deb topiladi” deb ta’rif berilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi «Huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonunining 3-moddasida “**Huquqbuzarlikdan jabrlanuvchi – jismoniy, ma’naviy yoki mulkiy zarar yetkazilganligi oqibatida huquqbuzarlikdan jabrlangan shaxs**” deb bayon etilgan.

**Mazkur qonunning 43-moddasida** “Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ va muassasaning muayyan shaxsning huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirishga qaratilgan profilaktika chora-tadbirlarini qo‘llashga doir faoliyati huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi” deb tushunchasiga ta’rif berib o‘tilgan.

**Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi** – huquqbuzarlik larning viktimologik profilaktikasini amalga oshirish jarayonida ma’muriy hududda fuqarolarning yoki muayyan shaxslarning huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimolini kamaytirish maqsadida huquqbuzarliklarni sodir etilishida jabrlanuvchilarning tutgan o‘rnini hamda jabrlanishning sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish hamda aholiga va uning alohida toifalariga jabrlanish xavfini tug‘dirayotgan omillar va huquqbuzarliklar haqida ma’lumotlar berish, bu borada ularni ogohlikka va hushyorlikka chaqirish hamda xavfsizlik qoidalariga rioya etishga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot ishlaridan iborat.

## 2-savol. Profilaktika inspektorining umumiy va viktimologik profilaktik faoliyatining asosiy yo'nalishlari va chora-tadbirlari.

Huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasining chora-tadbirlari va usullarining ko'pligi hamda turli-tumanligi ularni to'liq tasniflash, sanab o'tish va tahlil qilish imkonini bermaydi.

Bu o'rinda huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasining o'ziga xos xususiyatlariga baho berish ahamiyatlidir, bunda ushbu turdagi profilaktikaning ob'ektlarining o'ziga xosligiga e'tibor qaratiladi.



Xususan, huquqbuzarliklarning **umumiy profilaktikasining ob'ekti - keng jamoatchilikdir** va bunda alohida shaxslar tanlab olinmaydi. Masalan, mahalla aholisi, mehnat jamoalari (korxonalar, muassasalar, tashkilotlar xodimlari), voyaga yetmaganlar jamoasi (maktab, kollej va akademik litseylar), yoshlar jamoasi va boshqalar. Bunda huquqbuzarliklar profilaktikasi barchaga bir hil ravishda yetkazib beriladi va ta'sir doirasi kengroqligi bilan ajralib turadi.

Huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasining quyidagi asosiy ikkita yo'nalishi mavjud:

**Birinchi**, huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va unga imkon bergan sharoitlarni aniqlashga qaratilgan usullar tashkil qiladi. Ushbu usullarning xususiyati shundaki, ular bevosita profilaktik samara bermaydi (va berishi ham kerak emas). Shunga qaramay, ushbu usullarning huquqbuzarliklarni oldini olish faoliyatining pirovard maqsadlariga erishishdagi o'rni va ahamiyatini qadrlamaslik xato bo'ladi. Chunki bu jarayonda hududdagi yoki ma'lum bir guruhlar o'rtasidagi muammolar, nizolar va huquqbuzarliklarning umumiy ko'rinishi tahlil etiladi.

**Ikkinchi**, huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va unga imkon bergan sharoitlarni bartaraf etishga bevosita qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish kiradi, masalan uchrashuv, ma'ruza, targ'ibot-tashviqot va shu kabi chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Profilaktika inspektorining huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasining boshqa turlaridan farqiga e'tibor qaratish lozim. Masalan, boshqa profilaktikaning boshqa turlari chora-tadbirlari aniq bir huquqbuzarliklarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lsa, huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi chora-tadbirlari ko'p maqsadli xususiyatga ega bo'ladi, masalan fuqarolarning ma'naviy-huquqiy tarbiyasini shakllantirish, ularni qonun va qonun osti hujjatlariga rioya qilish borasidagi tushunchalarini oshirish hamda ularning faolligini oshirish orqali kelgusidagi ijtimoiy muhim natijalarga erishish mo'ljallanadi.

Profilaktika inspektorining huquqbuzarliklarning umumiy profilaktik faoliyati bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan ijtimoiy vazifalardan tashkil topgan.

Xususan, huquqbuzarliklarning yo'nalishiga, tuzilishiga, darajasiga, sabab va sharoitlariga to'liq ta'sir qilishdan iboratdir. Huquqbuzarliklarning oldini olish faoliyati sub'ektlari tomonidan ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi huquqbuzarlikning sabab-sharoitlari, boshqa determinantlarini aniqlash va ularni bartaraf qilish, ta'sirini yo'qotish, kuchsizlantirish bo'yicha usul va shakllarni amalga oshirishdir.

Profilaktika inspektorining umumiy profilaktik faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- huquqbuzarliklar profilaktikasining hududiy dasturlarini ishlab chiqish yuzasidan tegishli takliflar kiritish;

- huquqbuzarliklarning umumiy profilaktik chora-tadbirlarini tashkillashtirish va o'tkazish jarayoniga, ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari, huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi boshqa organ va muassasalar hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari vakillarini, fuqarolarni jalb etish;

- huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasini ommaviy axborot vositalarida chiqishlar qilish, joylarda ma'ruzalar o'qish, davra suhbatlari, uchrashuvlar tashkil etish, aholi g'ayim joylarda huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir plakatlar, e'lonlar joylashtirish, video roliklar namoyish qilish, ogohlikka chaqiruvchi ovozi matnini eshittirish, shuningdek aholi g'ayim joylarda hamda

piyodalarning faol harakatlanish yo‘nalishlarida patrullik yo‘nalishlarini tashkil etish, ma‘muriy hududni profilaktik ko‘zdan kechirish kabi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali tashkil etilishini ta‘minlash;

- huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasining qabul qilingan yangi qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari mazmun-mohiyatini aholiga yetkazish chora-tadbirlarini amalga oshirish va bu jarayonga huquqni muhofaza qilish organlari, ma‘naviy-huquqiy targ‘ibot markazlari, ta‘lim muassasalarining vakillarini, shuningdek olimlarni, shoirlarni va deputatlarni jalb etilishini ta‘minlash;

- ma‘muriy hududda g‘ayriijtimoiy xulq-atvorning shakllanishiga yoki alohida turdagi huquqbuzarliklarning sodir etilishini taqozo etayotgan sabablarni va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlaganda ularni bartaraf etish yuzasidan korxonalar, muassasa, tashkilot hamda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga hududiy ichki ishlar organi boshlig‘i orqali, vazirliklar va qo‘mitalarga esa Ichki ishlar vazirligi tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqdimnoma kiritilishini ta‘minlaydi.

2014 yil 14 maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi Qonunining **44-moddasida** huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi chora-tadbirlari quyidagilardan iborat ekanligi belgilab berildi:

- huquqbuzarliklardan jabrlanganlarga nisbatan shaxsning individual va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari hisobga olingan holda profilaktika tadbirlarini o‘tkazish;

- aholiga, shu jumladan huquqbuzarlikdan jabrlanganlarga shaxslar o‘rtasidagi nizolarni hal etish usullarini o‘rgatish;

- huquqbuzarlikdan jabrlanganlarni aniqlash va himoya qilish chora-tadbirlarini ko‘rish;

- huquqbuzarlikdan jabrlanganlarga professional huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdagi yordam ko‘rsatadigan rehabilitatsiya markazlarini tashkil etish;

- huquqbuzarlikdan jabrlanganning jismoniy va psixologik xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan maxsus keng ko‘lamli chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, uni qonunda nazarda tutilgan o‘zini o‘zi mudofaa qilish usullari va vositalari to‘g‘risida xabardor qilish;

- g‘ayriijtimoiy xulq-atvor nisbatan tez-tez kuzatiladigan yoki huquqbuzarliklar tez-tez sodir bo‘lib turadigan joylarni (hududlarni) muntazam ravishda nazorat qilish;

- g‘ayriijtimoiy xulq-atvor, tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan huquqbuzarliklar to‘g‘risida axborot olish maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasa huzurida ishonch, tezkor aloqa telefonlarini, qutqaruv xizmatlarini tashkil etish;

- profilaktika dasturlari va tadbirlari loyihalarining ommaviy muhokamalarini tashkil etish, ularni amalga oshirish jarayonida muammolar va kamchiliklarni aniqlash hamda bartaraf etish maqsadida jahon internet axborot tarmog‘ida veb-saytlar, bloglar, chatlar tashkil qilish;

- huquqbuzarliklar profilaktikasining zamonaviy usullari to‘g‘risida elektron adabiyotlarni tarqatish.

huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi chora-tadbirlarini amalga oshirish tartibini batafsilroq ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

### ***1. Huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga nisbatan shaxsning individual va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari hisobga olingan holda profilaktika tadbirlarini o‘tkazish.***

Huquqbuzarliklardan jabrlanishga moyil bo‘lgan, jabrlanish ehtimoli yuqori bo‘lgan va jabrlangan shaxslarni aniqlashi, ularning individual va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganishi, shaxsning xarakteri, temperamenti, ruhiy kechinma va holatlari, hodisalarga va tevarak-atrofdagilarga munosabati, salbiy xususiyatlari, irodasi, motivlari, dunyoqarashi va boshqalar aniqlanadi. Bundan tashqari, jabrlanuvchiga profilaktik ta‘sir etish jarayonida unga xos bo‘lgan alohida xususiyatlari, xususan, intellektual, irodaviy, axloqiy sifatning hisobga olinishi, shaxsning

ko'tarinki (optimistik) yoki tushkun (pessimistik) kayfiyatiga qarab bir xil vaziyatni turli shaxslar turlicha talqinda (yaxshi va yomon taassurotlar asosida) eslab qolishi mumkinligini inobatga olishi zarur.

**2. Aholiga, shu jumladan huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga shaxslar o'rtasidagi nizolarni hal etish usullarini o'rgatish.** Huquqbuzarliklardan jabrlanishiga olib keluvchi nizolar va nizoli vaziyatlarni aniqlaydi va o'rganadi. Ushbu jarayonda shaxslar o'rtasida vujudga kelgan nizolarning sabab va sharoitlarining tahlillariga asosan ularni hal etishning:

a) o'zaro kelishuv yoki bir-biridan kechirim so'rash;  
b) yetkazilgan mulkiy yoki ma'naviy zararni bartaraf etish;  
v) taraflarning yaqinlari ta'siri imkoniyatidan foydalanish;  
g) amaldagi qonunlarda belgilangan tartibda vakolatli organ va muassasaga murojaat qilish va boshqa usullarni tushuntiradilar.

**3. Huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarni aniqlash va himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rish.**

Huquqbuzarliklardan jabrlangan shaxslar to'g'risida olingan axborotlarni tahlil qilinadi, bu yo'nalishda jabrlanuvchilarni himoya qilish choralarni amalga oshiradi. Jabrlanuvchilarni himoya qilish quyidagilarni, jumladan, shaxsning huquqlarini himoya qilishni, tibbiy, psixologik, pedagogik yordam berishni, yaqinlari va boshqalar bilan aloqalarni yaxshilashni, jabrlanuvchilarning buzilgan huquqlarini tiklashni, o'zini o'zi himoya qilish usullarini o'rgatishni nazarda tutadi.

**4. Huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatuvchi ixtisoslashtirilgan muassasalarni tashkil etish.**

O'zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi 2014 yil 14 may qonunining 45-moddasida belgilangan tartibda davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari qonun hujjatlariga muvofiq huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatuvchi ixtisoslashtirilgan muassasalar tuzishi mumkin. Ushbu ixtisoslashtirilgan muassasalar huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdagi yordam ko'rsatadi. Mazkur norma talablariga asosan ixtisoslashtirilgan muassasalar:

a) huquqbuzarliklardan jabrlangan shaxslarni aniqlaydi;  
b) ularga kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy, psixologik, ijtimoiy, yuridik va boshqa yordam ko'rsatadi;  
v) ularning xavfsizligini ta'minlaydi;  
g) yaqinlari va boshqalar bilan muloqot o'rnatishida ko'maklashadi;  
d) huquqbuzarlikdan jabrlanuvchilarga, ularning qarindoshlariga va vasiylariga huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilar huquqlari va qonuniy manfaatlari to'g'risida tushuntiradi; huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarni ijtimoiy reabilitatsiyasini amalga oshiradi.

**5. Huquqbuzarlikdan jabrlanuvchining jismoniy va psixologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan maxsus kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, uni qonunda nazarda tutilgan o'zini o'zi mudofaa qilish usullari va vositalari to'g'risida xabardor qilish.**

Fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan «Yong'in xavfsizligi oyli», «Harakat xavfsizligi oyli», «Diqqat piyoda», «Diqqat bolalar», «Diqqat temir yo'l», «Mast haydovchi» kabi maxsus hamda tezkor profilaktik tadbirlar o'tkaziladi, jabrlanuvchilarning psixologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan boshqa maxsus chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

**6. G'ayriijtimoiy xulq-atvor nisbatan tez-tez kuzatiladigan yoki huquqbuzarliklar tez-tez sodir bo'lib turadigan joylarni (hududlarni) muntazam ravishda nazorat qilish.**

**birinchidan**, ma'muriy hududdagi g'ayriijtimoiy xulq-atvor nisbatan tez-tez kuzatiladigan yoki huquqbuzarliklar tez-tez sodir bo'lib turadigan joylar, jumladan kafe, bar, restoran, aholi gavjum joylar, tashlandiq yoki qarovsiz binolar kabilarni aniqlaydi,

**ikkinchidan**, ushbu joylarni (hududlarni) muntazam ravishda nazorat qilishni tashkil etish bo'yicha qo'shimcha patrul naryadlari joriy etadi yoki ularning yo'nalishlariga tegishli o'zgartishlar kiritadi,

**uchinchidan**, mazkur joylarda fuqarolarning huquqbuzarliklardan jabrlanishiga olib keluvchi sabab va sharoitlarni aniqlaydi hamda ularni bartaraf etish choralarni ko'radi,

*to'rtinchidan*, ushbu joylarda odamlarning jabrlanishiga olib keluvchi omillarni bartaraf etishni so'rab, tegishli hokimliklarga, mutasaddi tashkilotlarga asoslantirilgan taklif va taqdimnomalar kiritadi.

**7. Hujum qilingan taqdirda zaruriy mudofaa va oxirgi zarurat haqidagi ma'lumotlarni keng tarqatish yo'li bilan aholiga huquqiy tarbiya va ta'lim berish.**

Aholi o'rtasida targ'ibot ishlarini olib borish, sport to'garaklarida o'zini himoya qilish uchun kuch ishlatishni o'rgatish, ommaviy axborot vositalarida himoyalaniş usullarini qo'llashni namoyish etishni tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon fuqarolarga hujum qilingan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 37-moddasiga asosan «Zaruriy mudofaa», 38-moddasiga asosan «Oxirgi zarurat» doirasida kuch ishlatib o'zlarini himoya qilishlari haqidagi ma'lumotlarni keng tarqatish yo'li bilan ularning huquqiy bilimlarini oshirishni ham nazarda tutadi.

**8. G'ayriijtimoiy xulq-atvor, tayyorlanayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan huquqbuzarliklar to'g'risida axborot olish maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasa huzurida ishonch, tezkor aloqa telefonlarini, qutqaruv xizmatlarini tashkil etish.**

Bugungi kunda huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasa huzurida g'ayriijtimoiy xulq-atvor, tayyorlanayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan huquqbuzarliklar to'g'risida axborot olish maqsadida ishonch telefonlari tashkil etilgan. Bugungi kunda ilg'or tajribalarni o'rgangan holda huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi tegishli organ yoki muassasalar huzurida qutqaruv xizmatlarini tashkil etish va faoliyat yuritishini ta'minlashning huquqiy mexanizmini yaratish eng dolzarb vazifalardan biridir.

**9. Profilaktika dasturlari va tadbirlari loyihalarining ommaviy muhokamalarini tashkil etish, ularni amalga oshirish jarayonida muammolar va kamchiliklarni aniqlash hamda bartaraf etish maqsadida jahon Internet axborot tarmog'ida veb-saytlar, bloglar, chatlar tashkil qilish.**

Jahon Internet axborot tarmog'ida veb-saytlar, bloglar, chatlarni:

- a) huquqbuzarlikdan jarblanuvchi bo'lishga olib keladigan sabab va sharoitlar;
- b) huquqbuzar tomonidan qo'llaniladigan qurol va usullar haqida ogoh etish;
- v) huquqbuzarlardan himoyalaniş usullari va ularni qo'llash taktikasini o'rgatish;
- g) huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasiga doir dasturlarni hamda unga kiritilayotgan chora-tadbirlarni muhokama qilish;
- d) ushbu dasturlarini amalga oshirish jarayonida yuzaga kelayotgan muammo, xato va kamchiliklarni aniqlash;
- ye) ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni hamkorlikda ishlab chiqish hamda samarali amalga oshirishni ta'minlash maqsadida tashkil etadi.

**10. Huquqbuzarliklar profilaktikasining zamonaviy usullari to'g'risida elektron adabiyotlarni tarqatish.**

Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini ta'minlashga xizmat qiluvchi, jumladan, fuqarolarni huquqbuzarlikdan himoyalaniş, o'zini o'zi mudofaa qilish usullari, vositalari va shakllarini o'rgatuvchi maxsus milliy elektron adabiyotlarni tayyorlash, ko'paytirish, tarqatish va undan foydalanishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish bugungi kunda huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ va muassasalar oldida turgan dolzarb vazifalardandir.

Profilaktika inspektorlarining huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi chora-tadbirlarini o'z vaqtida amalga oshirish kelgusida ushbu faoliyatni samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshirilayotgan profilaktik tadbirlar asosan huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish maqsadida targ'ibot-tushuntiruv ishlarini olib borish hamda g'ayriijtimoiy salbiy xulq-atvorga ega bo'lgan shaxslarni aniqlash va ularga nisbatan tarbiyaviy profilaktik ishlarni tashkil etishga qaratilgan.

**Buning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:**

– fuqarolarni turli ko'rinisdagi jinoyatlarning qurboni bo'lishining oldini olish (misol uchun, odam savdosi, diniy ekstremizm va terrorizm va boshqalar);



- jinoyat qurboni bo‘lishi mumkin bo‘lgan toifadagi (ishonuvchan, qiziquvchan, huquqiy darajasi yuqori bo‘lmagan) shaxslarni aniqlash va ularning huquqiy ongi va madaniyati oshirish;
- kasbi jinoyat qurboniga aylanishiga olib keluvchi shaxslar (haydovchilar, inkasatorlar)ning hushyorligini oshirish bo‘yicha maslahatlar berish;
- muayyan hatti-harakatlari bilan boshqalarning e‘tiborini o‘ziga jalb etuvchi (har xil turdagi taqinchoq va qimmatli buyumlarni yonida olib yuruvchi kriminogen xususiyatga ega bo‘lgan shaxslar)ga viktimologik profilaktikaning mazmuni va mohiyatini tushuntirish.

Ichki ishlar organlarining viktimologik profilaktika faoliyatini masarali tashkil etilishi jinoyatlardan jabrlanishi mumkin bo‘lgan muayyan toifadagi shaxslarni o‘rganish va o‘z vaqtida hamda ushbu yo‘nalishdagi kompleks profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

### 3-savol. Profilaktika inspektorining umumiy va viktimologik profilaktik faoliyatini tashkil etish.



Huquqbuzarliklarning umumiy profilaktik faoliyatini tashkil etish jarayonida ularning nimaga qaratilganligiga e‘tibor qaratilishi lozim. Xususan, muayyan hududlarda salbiy xususiyatga ega bo‘lgan hodisa, voqea va jarayonlarning ko‘payishi aholi o‘rtasida tushuntirish ishlarini tashkil etilishi va amalga oshirilishi talab etadi.

Huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasining tub mazmun va mohiyati bu aholini davlatda o‘rnatilgan tartib qoidalarga rioya qilish, qonunlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, keng miqyosda huquqbuzarliklarning sabab-sharoitlarini aniqlash va ularni bartaraf etish faoliyatidir.

Profilaktika inspektorining umumiy tartibdagi profilaktik faoliyatini tashkil etishda hamkorlikdagi amalga oshiriladigan ishlarga e‘tiborni kuchaytirish talab etiladi. Ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari, davlat organlari va jamoat tuzilmalari bilan huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasini hamkorlikda amalga oshirishlari samaradorligi yuqoridir.

Profilaktika inspektorining umumiy profilaktik faoliyatidagi hamkorlikning samaradorligi **birinchidan**, bu jarayonda ishtirok etuvchi sub’ektlarning bu sohadagi vakolatlarining amaldagi qonunlarda qanchalik aniq belgilanganiga, **ikkinchidan**, ularning bu yo‘nalishdagi faoliyati uchun huquqiy asos qanchalik darajada ishlab chiqilganiga, **uchinchidan**, ular o‘rtasidagi hamkorlikni tashkil etishning huquqiy mexanizmi qanday darajadiligiga, **to‘rtinchidan**, ushbu hamkorlikni tashkil etuvchi kadrlarning tayyorgarlik darajasiga bog‘liq.

Masalan, profilaktika xizmatlari diniy ekstremizm va terrorizmning salbiy oqibatlarini borasida targ‘ibot-tashviqot ishlarida diniy qo‘mita vakillari bilan hamkorlik qilsalar, bu boradagi tushuntirish ishlari fuqarolarga yetarli darajada yetib boradi, giyohvandlik va surunkali ichkilikbozlikni oldini olish yuzasidan o‘tkaziladigan davra suhbatlari yoki targ‘ibot-tashviqot ishlarida sog‘liqni saqlash organlari xodimlarining ishtiroki samaraliroq bo‘ladi.

Shu boisdan, Profilaktika inspektorining faoliyatini rejalashtirishda huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasining chora-tadbirlarini o‘tkazilishini va ularda hamkorlikda ishtirok etuvchi sub’ektlarni aniq keltirib o‘tilishi hamda ular bilan kelishilgan holda tuzilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Profilaktika inspektorining umumiy profilaktik faoliyatini tashkil etish jarayonida quyidagilarga e‘tibor qaratish muhim ahamiyatga ega:

- hududlardagi kriminogen va operativ vaziyatlar tahliliga;
- ma‘lum bir makonda yoki joylarda qaysi turdagi huquqbuzarliklarning sodir etilishining ko‘pligiga;
- II O‘lariga fuqarolardan qaysi turdagi huquq va erkinliklari buzilganligi haqida kelib tushgan ariza va shikoyatlarga;

- ma'lum bir hudud yoki joylarda fuqarolarning ayrim qonun va qonun osti hujjatlarini bilmasliklari va boshqalar.

**Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi** – bu muayyan shaxsning huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirishga qaratilgan profilaktika chora-tadbirlarini qo'llashga doir faoliyat ekanligidan kelib chiqib, uni tashkil etish jarayoni ham boshqa profilaktikani turlarini tashkil etishdan farqlanadi.

Amaliyotda bugungi kungacha rejalarda jabrlanuvchilar bilan ishlash yoki jabrlanuvchi bo'lib qolish ehtimoli bo'lgan shaxslar bilan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar o'z aksini topmagan. Ammo, xodimlarning, jumladan profilaktika inspektorlarining ayrim harakatlari viktimologik profilaktikaning elementlarini o'z ichiga oladi. Masalan, tungi vaqtlarda qo'riqlanadigan ob'ektlar qorovullari xizmatini nazorat qilish, jamoat joylarida nazorat ishlarini amalga oshirish, korxonalar, tashkilot va muassasalarda, aholi yashash punktlarida pasport-viza, yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish, nazorat-litsenziya faoliyati ob'ektlarini tekshirish, fuqarolar bilan ogohlantiruv tarzidagi ishlarni amalga oshirilishi kabilar.

Viktimogen omillarni aniqlash, bartaraf etish, zararsizlantirish va ularning ta'sirini kamaytirishga hamda viktimlik darajasi yuqori bo'lgan shaxslarni aniqlash, ulardagi viktimlik darajasini pasaytirish va ularning jinoiy va boshqa har qanday ko'rinishdagi tajovuzlar qurboni bo'lish xavfini kamaytirishga qaratilgan kompleks himoya-tarbiya chora-tadbirlari amalga oshiriladi. E'tiborli tomoni shundaki, huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasida ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha faoliyat huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxsga emas, balki huquqbuzarlikdan jabrlanishga moyil bo'lgan shaxslarga hamda ulardagi bunday moyillikni shakllantiruvchi omillarni bartaraf etishga qaratiladi.

**Amaliyot tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasi chora-tadbirlari qo'llashda quyidagilarni hisobga olishni talab etadi:**

*birinchidan*, «odam savdosi», «ekstremizm», «terrorizm», «ommaviy madaniyat» xavfi kabi boshqa ijtimoiy xavfli qilmishlar tahdidlaridan ogoh etish, yong'in, yo'l-transport hodisalari, baxtsiz hodisalarga olib keladigan huquqbuzarliklar tahdididan ogoh etish maqsadida aholining barcha qatlamiga yetkazishni;

*ikkinchidan*, ijtimoiy-ruhiy, jismoniy-fiziologik, kasbi, ijtimoiy-moddiy ahvoli va boshqa xususiyatlari bilan mulkka qarshi jinoyatlar jabrlanuvchisiga aylanish xavfi mavjud bo'lgan, o'zining g'ayriijtimoiy xulq-atvori xavfliligi tufayli shaxsga va mulkka qarshi huquqbuzarliklar jabrlanuvchisiga aylanish moyilligi bo'lgan fuqarlarga nisbatan tushuntirish-ogohlantiruv ishlarini amalga oshirishni;

*uchinchidan*, oila-turmush va maishiy sohada tez-tez nizolar, kelishmovchiliklar keltirib chiqaruvchi va boshqa salbiy xususiyatlarga ega toifadagi shaxslarga nisbatan profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi.

Profilaktika inspektori fuqarolarni diniy ekstremizm, terrorizm, separatizm, giyohvandlik, odam savdosi ijtimoiy xavfi yuqori bo'lgan jinoyatlarning sodir etilishidan ehtiyot bo'lish, saqlanish va uning salbiy oqibatlarini tushuntirish, shuningdek, jabrlanishi ehtimoli mavjud bo'lgan shaxslar bilan individual ravishda viktimologik profilaktik faoliyatni amalga oshiradi.

Profilaktika inspektori viktimologik profilaktikani hududda ko'p sodir etilayotgan yoki ijtimoiy xavfi oshib borayotgan huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan ma'lum bir toifadagi shaxslar xususiyatidan kelib chiqib, targ'ibot-tashviqot yoki boshqa turdagi profilaktik chora-tadbirlar asosida fuqarolarni ogohlikka, hushyorlikka va xavfsizlik qoidalariga to'liq rioya etishga chorlash maqsadida amalga oshiriladi.



**Profilaktika inspektorlari viktimologik profilaktikani quyidagi yo'nalishlarda tashkil etishi kerak:**

– ma'muriy hududni profilaktik ko'zdan kechirish va kriminogen vaziyatni tahlil qilish hamda huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasini tashkil etish va amalga oshirish;

– huquqbuzarlik yoki jinoyatlardan jabrlanishga moyil shaxslarni aniqlash va ularning jinoyatdan jabrlanish ehtimolini kamaytirish bo'yicha tegishli choralar ko'rish;

– jamiyatda o‘rnatilgan axloq-odob va qonun hujjatlari talablariga to‘liq rioya etmaydigan fuqarolarni aniqlash hamda ularga ushbu salbiy xatti-harakati oqibatida jinoyat qurboni bo‘lishi mumkinligi haqida tushintirish;

– fuqarolarning shaxsiy, turar-joy, mulk daxlsizligini ta‘minlash hamda ularning mol-mulkiga tajovuz bo‘lishi ehtimoli haqida tushintirish va ularning ushbu o‘g‘irlik jinoyatlari qurboni bo‘lishini oldini olish;

– ma‘muriy hududda g‘ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo‘lgan, huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslarni aniqlash, ularning hisobini yuritish va ularga tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatish;

– ijtimoiy mavqei, fiziologik holati, xulq-atvori, hayot tarzi bilan bog‘liq holda huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfi mavjud bo‘lgan shaxslarni aniqlash va ularga nisbatan viktimologik profilaktika chora-tadbirlarini qo‘llash;

– fuqarolarga alohida toifdagi jabrlanish xavfini tug‘dirayotgan omillar va huquqbuzarliklar haqida ma‘lumotlar berish, bu borada ularni ogohlikka va hushyorlikka chaqirish hamda xavfsizlik qoidalariga rioya etishga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish;

– huquqbuzarlik yoki jinoyatlar qurboni bo‘lgan shaxslar huquqbuzarlik sodir etilishidagi o‘rni va rolini, jabrlanishning sababi va unga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

– huquqbuzarlikdan jabrlanuvchining jismoniy va psixologik xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan maxsus kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish, ularni takomillashtirib borish va amaliyotga joriy etish;

– g‘ayriijtimoiy xulq-atvor nisbatan tez-tez kuzatiladigan yoki huquqbuzarliklar tez-tez sodir bo‘lib turadigan joylarga patrul-post naryadlarini jalb etish;

– hujum qilingan taqdirda zaruriy mudofaa va oxirgi zarurat chegaralari haqidagi ma‘lumotlarni targ‘ibot-tashviqot qilish orqali fuqarolarda qilingan hujumni bartaraf etish ko‘nikmalarini shakllantirish;

– g‘ayriijtimoiy xulq-atvor, tayyorlanayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan huquqbuzarliklar to‘g‘risida tezkor axborotlar olish va ulardan profilaktik faoliyatda foydalanish;

– jismoniy va yuridik shaxslarga o‘zlarining xavfsizligi hamda mulklarini qo‘riqlash bo‘yicha texnik vositalar imkoniyatlaridan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar va huquqiy maslahatlar beradi hamda boshqa chora-tadbirlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Mamlakatimizda bugungi kunda odam savdosi jinoyatidan jabrlanayotgan shaxslar ko‘pchilikni tashkil etmoqda. Hattoki jabrlangan shaxslar ichida voyaga yetmaganlar ham mavjud. Eng achinarlisi shuki, odam savdosi jinoyati qurbonlarining asosiy qismini ayollar tashkil etadi. Mazkur jinoyatdan jabrlangan shaxslar o‘zlarining hulq-atvorlari, yetarli darajada huquqiy jihatdan bilimga ega bo‘lmaganliklari hamda ishonuvchanligi oqibatida yo‘l qo‘ygan xatolari tufayli turli mamlakatlarda jinoiy guruhlarining qo‘lida sarson-sargardon bo‘lishiga olib kelgan.

Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini amalga oshirish usullari va shakllarining turli-tumanligi sababli ularni alohida-alohida tahlil qilish zarurati tug‘iladi. Viktimologik profilaktikaning shakllari og‘zaki, yozma va ko‘rgazmali tartibda tashkil etiladi.

Huquqiy targ‘ibotning keng tarqalgan shakllaridan biri og‘zaki targ‘ibotdir. Og‘zaki targ‘ibotning ta‘siri keng bo‘lib, bir martalik ma‘ruza o‘qish bilan olib borilmaydi balki uning bir qancha ko‘rinishlarini qo‘llash bilan amalga oshirilishini talab etadi.

Profilaktika inspektorlari tomonidan viktimologik profilaktik faoliyatni tashkil etishda viktimogen omillarni bartaraf etish hamda viktimligi yuqori bo‘lgan muayyan toifadagi shaxslarni aniqlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishda kriminologik profilaktikaning an‘anaviy usullaridan foydalaniladi, ammo ular potensial jinoyatchiga emas, balki potensial jabrlanuvchiga (jinoiy tajovuzning qurboniga aylanmasligi uchun) qaratiladi.

Ta‘kidlash joizki, o‘zlarining xulq-atvori tufayli jinoyatchilik qurboniga aylangan shaxslar haqidagi ma‘lumotlardan foydalanib, fuqarolar o‘rtasida targ‘ibot-tushuntiruv ishlarini olib

borish viktimologik profilaktikada juda yaxshi samara berish bilan birga fuqarolarning ogohligini oshiradi, ularning o'z xatti-harakatlari va ular muloqotga kirishadigan shaxslarning xulq-atvoriga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lishlariga yordam beradi.

Huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va ularga imkon berayotgan sharoitlarni aniqlash davomida viktimogen xususiyatga ega bo'lgan holatlarga e'tibor berishlari kerak. Bular asosida fuqarolar uchun *maxsus eslatmalar, varaqalar, plakatlar* ishlab chiqiladi. Ularda u yoki bu jinoyat qurboniga aylanmaslik uchun foydali maslahatlar beriladi (masalan, avtomobil haylovchisiga avtomashina olib qochilishiga yo'l qo'ymaslik choralari haqidagi eslatma; fuqarolarga kvartira o'g'riliklari sodir etilishiga imkon beruvchi sharoitlarni bartaraf etish uchun eslatma; odam savdosi jinoyati qurboni bo'lishga olib keluvchi omillar haqida eslatma va.x.k.).

#### **Mustaqil tayyorgarlik uchun topshiriq:**


Mustaqil ta'limning mazmunini tinglovchilar ma'ruza va boshqa o'quv mashg'ulotlarda olgan bilimlarini mustaqil ta'lim jarayonida yanada chuqurroq o'zlashtirishlari va navbatdagi mashg'ulotga mo'ljallangan mavzu bo'yicha tayyorgarlik ko'rishlari tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonunining 3 va 6 boblarini o'rganish va tegishli bandlarini konspektlashtirish.

## 5-mavzu: Profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar umumiy va viktimologik profilaktikasini amalga oshirish faoliyati.

*Seminar mashg'uloti (2 soat)*

Ushbu o'quv mashg'uloti **"Klaster"** interfaol metodidan foydalanish orqali o'tkaziladi.



### Mustaqil tayyorgarlik uchun savollar:

1. Profilaktika inspektorining umumiy profilaktik faoliyatining asosiy yo'nalishlari.
2. Huquqbuzarliklardan jabrlanganlarga nisbatan shaxsning individual va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari hisobga olingan holda profilaktika tadbirlarini o'tkazish
3. Huquqbuzarliklarning umumiy profilaktik chora-tadbirlarini tashkillashtirish va o'tkazish.
4. Huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasini ommaviy axborot vositalarida chiqishlar qilish, joylarda ma'ruzalar o'qish, davra suhbat, uchrashuvlar tashkil etish, aholi gavjum joylarda huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir plakatlar, e'lonlar joylashtirish, video roliklar namoyish qilish, ogohlikka chaqiruvchi ovozli matnni eshittirish.
5. Aholiga, shu jumladan huquqbuzarlikdan jabrlanganlarga shaxslar o'rtasidagi nizolarni

hal etish usullarini o'rgatish.

6. Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi chora-tadbirlarini amalga oshirish tartibi.

## **5-mavzu: Profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar umumiy va viktimologik profilaktikasini amalga oshirish faoliyati.**

*Amaliy mashg'uloti (2 soat)*

Amaliy mashg'ulot davomida tinglovchilar berilgan masalani yechishlari va hal etishlari, shuningdek profilaktika xizmatlari tomonidan profilaktika inspektorlarining umumiy va viktimologik profilaktik faoliyatini tashkil etish bo'yicha berilgan topshiriqlarni amalga oshirishda lozim bo'lgan vazifalarini ketma-ketlikda ko'rsatib berishlari lozim.

### **Umumiy profilaktik faoliyat bo'yicha amaliy topshiriq:**

**Masala:** 2022 yilning 28 oktabr kuni Yunusobod tuman IIB HPX boshlig'i, kapitan Sh.Mirzaev profilaktika inspektorlari bilan yo'riqnoma o'tkazish jarayonida har bir profilaktika inspektori 2022 yilning noyabr oyida o'zlariga birlashtirilgan ma'muriy hudud bo'yicha umumiy tartibdagi profilaktik ishlarni to'g'ri tashkil etishlari bo'yicha ko'rsatma berdi va ularning har biriga 3 kun ichida oylik reja tuzishlari va tasdiqlatishi lozimligi haqida ko'rsatma berdi.

#### **Topshiriq:**

1. Profilaktika inspektorlarining harakatlari nimadan iborat?

**Masala:** 2022 yilning 10 noyabr kuni Mirzo Ulug'bek tuman IIB boshlig'i shaxsiy tarkib bilan o'tkazilgan yo'riqnomada tuman hududi bo'yicha voyaga yetmagan qizlarni tilla taqinchoqlarini ochiq-ochiq talon-toroj qilish hamda ularni aldash yo'li bilan firibgarlik jinoyatlarini sodir etilish holati oshib ketganligi, ushbu jinoyatlarning sodir etilishida jabrlanuvchi shaxslarning o'zlari shart-sharoit yaratib berganligini ta'kidlab, joriy yilning 30 oktabr kuni voyaga yetmagan tibbiyot kolleji talabasi 15 yoshli Aziza Rustamovaning qulog'i va bilagida bo'lgan qiymati S1200 AQSh dollari miqdoridagi taqinchoqlarini 2 ta noma'lum shaxs bosqinchilik sodir etish orqali egallab voqe'a joyidan qochib ketishganligini ma'lum qildi.

Shundan so'ng, IIB boshlig'i mazkur turdagi jinoyatlarning sodir etilishida otionalarning ham, kollej ma'muriyatining hamda jabrlanayotgan o'quvchi qizlarning ham ayblari borligini aytib, profilaktika inspektorlariga o'zlariga birlashtirilgan hududda umumiy, yakka va viktimologik profilaktikani kuchaytirish hamda ta'lim muassasalarida ushbu mavzularda ma'ruza-suhbatlar o'tkazishlari haqida topshiriq berdi.

#### **Topshiriq:**

1. Mazkur holat bo'yicha profilaktika (katta) inspektorlarining ketma-ketlikdagi harakatlari nimadan iborat ekanligini aniqlash va viktimologik profilaktik faoliyatni tashkil etish suhbat-senariysini tuzish.

2. Ma'muriy hududda joylashgan olim ta'lim muassasalarida sodir etilgan jinoyatlarda jabrlanuvchining hulq-atvori, viktimlik darajasi va uning viktimologik profilaktikasi bo'yicha ma'ruza tayyorlash.

**Masala:** 2022 yilning 5 noyabr kuni taxminan soat 14:30da Mirzo Ulug'bek tumani IIB navbatchilik qismiga shu tumanning Feruza dahasi 1-uy 45-xonadonida yolg'iz o'zi yashovchi nafaqaxo'r, 1948 yilda tug'ilgan fuqaro Ivanova Nadejda Mixaylovna telefon qilib, 30-35 yoshdalgari erkakning eshigini taqillatib tuman issiq suvdan ekanligi aytib, hisoblagichni ko'rishini aytganligi natijasida eshigini ochganligini, shundan so'ng notanish erkak uyida bo'lgan barcha pul va qimmatbaho buyumlarini berishini so'raganligi, aks holda uni o'ldirish bilan qo'rqitganligi, u yashirib qo'ygan qo'ygan 500 ming so'm pul va S700 AQSh dollarini berib yuborganligi, agar ushbu haqida ichki ishlar organlariga xabar bersa uni o'ldirib yuborishini aytib uyidan chiqib ketganligini ma'lum qilib, ushbu holat yuzasidan amaliy yordam so'rab murojaat qilgan.

### **Topshiriq:**

1. Mazkur holat bo'yicha profilaktika (katta) inspektorlarining ketma-ketlikdagi harakatlari nimadan iborat ekanligini aniqlash va viktimologik profilaktik faoliyatni tashkil etish suhbat-ssenariysini tuzish.

2. Ma'muriy hududda fuqarolar o'rtasida sodir etilgan ushbu turdagi jinoyatlarda jabrlanuvchining hulq-atvori, viktimlik darajasi va uning viktimologik profilaktikasi bo'yicha ma'ruza tayyorlash.

**Masala:** Mirzo Ulug'bek tumani IIBga 2022 yilning 5 noyabr kuni shu tumanning Qorasu-1 dahasi 12-uy 32-xonadonda yashovchi 1986 yilda tug'ilgan fuqaro Salimov Botir Azimovich azira bilan murojaat qilib, o'z arizasida tanishi 1978 yilda tug'ilgan, muqaddam sudlangan fuqaro Qosimov Akmal Mirzaevich bundan 7 oy avval uni Rossiya federatsiyasiga ishga taklif etib unga oyiga \$800 AQSh dollari miqdorida maosh va'da qilib uni Rossiya federatsiyasining Leningard shahriga olib borganligi, u yerda ularni Sasha ismli Rossiya federatsiyasi fuqarosi kutib olganligini, shundan so'ng ular vaz-2107 avtomashinasiga o'tirib qurilishi tugallanmagan joyga borib joylashganligini, Sasha ismli shaxs undan vaqtinchalik ro'yxatdan o'tishi uchun uning fuqarolik pasportini olib qo'yganligi va qaytib bermaganligini, shuning so'ng u ushbu qurilish ob'ektida ertalab soat 6:00dan kechki soat 19:00gacha g'isht teruvchi bo'lib ishlaganligini, maoshini so'rganida "men seni sotib olganman" qaerga borsang bor, hujjating mening qo'limda deb qo'rqitganligini, shuncha vaqt maoshini bermasdan qiynaganligini, tanishi Akmal Qosimovga telefon qilib, bu haqida xabar berganida men hech nimani bilmayman, muammoni o'zing hal qilib olgin deb unga baqirganligini, bir amallab O'zbekistonga yetib kelganligi aytib mazkur holat bo'yicha amaliy yordam so'rab murojaat etgan.

### **Topshiriq:**

1. Mazkur holat bo'yicha profilaktika (katta) inspektorlarining ketma-ketlikdagi harakatlari nimadan iborat ekanligini aniqlash va viktimologik profilaktik faoliyatni tashkil etish suhbat-ssenariysini tuzish.

2. Ma'muriy hududda fuqarolar o'rtasida sodir etilgan ushbu turdagi jinoyatlarda jabrlanuvchining hulq-atvori, viktimlik darajasi va uning viktimologik profilaktikasi bo'yicha ma'ruza tayyorlash.

### **Viktimalogik profilaktik faoliyat bo'yicha topshiriq:**

**Masala:** 2022 yilning 10 noyabr kuni Mirzo Ulug'bek tuman IIB boshlig'i shaxsiy tarkib bilan o'tkazilgan yo'riqnomada tuman hududi bo'yicha voyaga yetmagan qizlarni tilla taqinchoqlarini ochiqlan-ochiq talon-toroj qilish hamda ularni aldash yo'li bilan firibgarlik jinyatlarini sodir etilish holati oshib ketganligi, ushbu jinoyatlarning sodir etilishida jabrlanuvchi shaxslarning o'zlari shart-sharoit yaratib berganligini ta'kidlab, joriy yilning 30 oktabr kuni voyaga yetmagan tibbiyot kolleji talabasi 15 yoshli Aziza Rustamovaning qulog'i va bilagida bo'lgan qiymati \$1200 AQSh dollari miqdoridagi taqinchoqlarini 2 ta noma'lum shaxs bosqinchilik sodir etish orqali egallab voqe'a joyidan qochib ketishganligini ma'lum qildi.

Shundan so'ng, IIB boshlig'i mazkur turdagi jinoyatlarning sodir etilishida otionalarning ham, kollej ma'muriyatining hamda jabrlanayotgan o'quvchi qizlarning ham ayblari borligini aytib, profilaktika inspektorlariga o'zlariga biriktirilgan hududda umumiy, yakka va viktimologik profilaktikani kuchaytirish hamda ta'lim muassasalarida ushbu mavzularda ma'ruza-suhbatlar o'tkazishlari haqida topshiriq berdi.

### **Topshiriq:**

1. Mazkur holat bo'yicha profilaktika (katta) inspektorlarining ketma-ketlikdagi harakatlari nimadan iborat ekanligini aniqlash va viktimologik profilaktik faoliyatni tashkil etish suhbat-ssenariysini tuzish.

2. Ma'muriy hududda joylashgan olim ta'lim muassasalarida sodir etilgan jinoyatlarda jabrlanuvchining hulq-atvori, viktimlik darajasi va uning viktimologik profilaktikasi bo'yicha ma'ruza tayyorlash.

**Masala:** 2015 yilning 5 noyabr kuni taxminan soat 14:30da Mirzo Ulug‘bek tumani IIB navbatchilik qismiga shu tumanning Feruza dahasi 1-uy 45-xonadonda yolg‘iz o‘zi yashovchi nafaqaxo‘r, 1948 yilda tug‘ilgan fuqaro Ivanova Nadejda Mixaylovna telefon qilib, 30-35 yoshdalgari erkakning eshigini taqillatib tuman issiq suvdan ekanligi aytib, hisoblagichni ko‘rishini aytganligi natijasida eshigini ochganligini, shundan so‘ng notanish erkak uyida bo‘lgan barcha pul va qimmatbaho buyumlarini berishini so‘raganligi, aks holda uni o‘ldirish bilan qo‘rqitganligi, u yashirib qo‘ygan qo‘ygan 500 ming so‘m pul va S700 AQSh dollarini berib yuborganligi, agar ushbu haqida ichki ishlar organlariga xabar bersa uni o‘ldirib yuborishini aytib uyidan chiqib ketganligini ma‘lum qilib, ushbu holat yuzasidan amaliy yordam so‘rab murojaat qilgan.

**Topshiriq:**

1. Mazkur holat bo‘yicha profilaktika (katta) inspektorlarining ketma-ketlikdagi harakatlari nimadan iborat ekanligini aniqlash va viktimologik profilaktik faoliyatni tashkil etish suhbat-ssenariysini tuzish.

2. Ma‘muriy hududda fuqarolar o‘rtasida sodir etilgan ushbu turdagi jinoyatlarda jabrlanuvchining hulq-atvori, viktimlik darajasi va uning viktimologik profilaktikasi bo‘yicha ma‘ruza tayyorlash.

**Masala:** Mirzo Ulug‘bek tumani IIBga 2015 yilning 5 noyabr kuni shu tumanning Qorasu-1 dahasi 12-uy 32-xonadonda yashovchi 1986 yilda tug‘ilgan fuqaro Salimov Botir Azimovich azira bilan murojaat qilib, o‘z arizasida tanishi 1978 yilda tug‘ilgan, muqaddam sudlangan fuqaro Qosimov Akmal Mirzaevich bundan 7 oy avval uni Rossiya federatsiyasiga ishga taklif etib unga oyiga S800 AQSh dollari miqdorida maosh va‘da qilib uni Rossiya federatsiyasining Leningard shahriga olib borganligi, u yerda ularni Sasha ismli Rossiya federatsiyasi fuqarosi kutib olganligini, shundan so‘ng ular vaz-2107 avtomashinasiga o‘tirib qurilishi tugallanmagan joyga borib joylashganligini, Sasha ismli shaxs undan vaqtinchalik ro‘yxatdan o‘tishi uchun uning fuqarolik pasportini olib qo‘yanligi va qaytib bermaganligini, shuning so‘ng u ushbu qurilish ob‘ektida ertalab soat 6:00dan kechki soat 19:00gacha g‘isht teruvchi bo‘lib ishlaganligini, maoshini so‘raganida “men seni sotib olganman” qaerga borsang bor, hujjating mening qo‘limda deb qo‘rqitganligini, shuncha vaqt maoshini bermasdan qiynaganligini, tanishi Akmal Qosimovga telefon qilib, bu haqida xabar berganida men hech nimani bilmayman, muammoni o‘zing hal qilib olgin deb unga baqirganligini, bir amallab O‘zbekistonga yetib kelganligi aytib mazkur holat bo‘yicha amaliy yordam so‘rab murojaat etgan.

**Topshiriq:**

1. Mazkur holat bo‘yicha profilaktika (katta) inspektorlarining ketma-ketlikdagi harakatlari nimadan iborat ekanligini aniqlash va viktimologik profilaktik faoliyatni tashkil etish suhbat-ssenariysini tuzish.

2. Ma‘muriy hududda fuqarolar o‘rtasida sodir etilgan ushbu turdagi jinoyatlarda jabrlanuvchining hulq-atvori, viktimlik darajasi va uning viktimologik profilaktikasi bo‘yicha ma‘ruza tayyorlash.

**Mustaqil tayyorgarlik uchun topshiriq:**

O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonunining 6-bobi 43,44,45-moddalari normalarni daftarlarga konspektlashtirish.

Huquqbuzarliklarning oldini olishning umumiy profilaktikasi sifatida yuqori davlat hokimiyati organlarining faoliyati;

Huquqbuzarliklarning oldini olishning umumiy profilaktikasi sifatida mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyati;

Huquqbuzarliklarning oldini olishning umumiy profilaktikasi sifatida ommaviy axborot vositalarining faoliyati;

Huquqbuzarliklarning oldini olishning umumiy profilaktikasi sifatida fuqarolarning faoliyati;



## 6-mavzu: Profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar maxsus va yakka tartibdagi profilaktikasini amalga oshirish faoliyati.

*Ma'ruza mashg'uloti (2 soat)*

### Reja:

**1-savol.** Ichki ishlar organlari profilaktika xizmatining maxsus va yakka tartibdagi profilaktik faoliyatining o'ziga xos xususiyati va huquqiy asoslari.

**2-savol.** Ichki ishlar organlari profilaktika xizmatining maxsus va yakka tartibdagi profilaktik faoliyatining asosiy yo'nalishlari hamda chora-tadbirlari.

**3-savol.** Ichki ishlar organlari profilaktika xizmatining maxsus va yakka tartibdagi profilaktik faoliyati tashkil etish.

**1-savol.** Ichki ishlar organlari profilaktika xizmatining maxsus va yakka tartibdagi profilaktik faoliyatining o'ziga xos xususiyati va huquqiy asoslari.



Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning ayrim turdagi huquqbuzarliklar profilaktikasiga, bu turdagi huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishga, ayrim toifadagi shaxslarni aniqlash va ularga profilaktik ta'sir ko'rsatishga qaratilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishga doir faoliyati **huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi**dir.

– ilgari sudlangan shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora-tadbirlari;

– alkogolni suiiste'mol qiluvchi yoki giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalarni va aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qiluvchi shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora-tadbirlari;

– voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi.

Profilaktika (katta) inspektori o'ziga birlashtirilgan ma'muriy hududda ilgari sudlangan shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora-tadbirlarini IIVning va hududiy ichki ishlar boshqarma va bo'limlarining normativ huquqiy hujjatlari asosida **“Nazorat”, “Ijro”, “Tozalash-Antiterror”** va boshqa maxsus va tezkor profilaktik tadbirlar doirasida amalga oshiradi.

Ilgari sudlangan shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora-tadbirlarini manzilli, har bir shaxsning ijtimoiy xavflilik holati, u muqaddam sodir etgan jinoyat tasnifi, turi hisobga olingan holda samarali amalga oshirish uchun profilaktika (katta) inspektori o'ziga birlashtirilgan ma'muriy hududda yashaydigan ilgari sudlangan shaxslar ro'yxatini **O'zbekiston Respublikasi JKning 13, 34, 78, 79, 80-moddalari** asosida toifalarga ajratgan holda yuritishi kerak. Jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini hamda shart-sharoitlarini aniqlash, bartaraf etish maqsadida profilaktika (katta) inspektori IIV HPX va uning quyi tizimlari tomonidan ishlab chiqilgan maxsus tadbirlarni birlashtirilgan hududda berilgan vakolat doirasida amalga oshirishni ta'minlaydi. Ushbu tadbirlarni amalga oshirishda jazoni ijro etish muassasalari, ichki ishlar organi sohaviy xizmatlari, jazoni o'tash joylaridan ozod qilingan shaxslarga ijtimoiy-maishiy jihatdan va ishga joylashishda yordam ko'rsatish bo'yicha ijtimoiy ko'nikma markazi, hokimliklar huzuridagi maxsus komissiya va fuqarolar yig'ini bilan hamkorlik qiladi. Ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazoga hukm qilingan shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini hamda shart-sharoitlarini aniqlash, bartaraf etish maqsadida profilaktika (katta) inspektori IIV HPX va uning quyi tizimlari tomonidan ishlab chiqilgan maxsus tadbirlarni o'ziga birlashtirilgan ma'muriy hududida vakolat doirasida amalga oshirilishini ta'minlaydi. Ushbu tadbirlar profilaktika (katta) inspektori tomonidan ma'muriy hududda yashovchi ozodlikdan mahrum

etish bilan bog'liq bo'lmagan jazoga hukm qilingan shaxslar hisobda turuvchi jazoni ijro etish inspeksiyasi, ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari va fuqarolar yig'ini bilan hamkorlikda amalga oshiradi va hisobotini yuritadi. Profilaktika (katta) inspektori o'ziga birlashtirilgan ma'muriy hududda Jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan va ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazoga hukm qilingan shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha maxsus tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish bo'yicha ichki ishlar organi HPX xizmatiga takliflar kiritadi. Profilaktika (katta) inspektori o'ziga birlashtirilgan ma'muriy hududda yashagan va ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni o'tayotgan shaxslarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilishga va ijtimoiy moslashtirishga tayyorlash bo'yicha chora-tadbirlarni ichki ishlar organi HPX xizmati tomonidan ishlab chiqilgan maxsus tadbirlar, shuningdek jazoni ijro etish muassasalaridan yuborilgan ma'lumotlar (*xabarnomalar*) asosida ichki ishlar organi sohaviy xizmatlari, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslarga ijtimoiy-maishiy jihatdan va ishga joylashishda yordam ko'rsatish bo'yicha ijtimoiy ko'nikma markazi, hokimliklar huzuridagi maxsus komissiya, fuqarolar yig'ini bilan hamkorlikda amalga oshiradi. Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni profilaktika (katta) inspektori jazoni o'tash joylaridan ozod qilingan shaxslarga ijtimoiy-maishiy jihatdan va ishga joylashishda yordam ko'rsatish bo'yicha hokimliklar huzuridagi maxsus komissiya qarori, shuningdek ichki ishlar organi HPX tomonidan ishlab chiqilgan maxsus topshiriq, rejalar va boshqa boshqaruv qarorlari asosida hududiy ichki ishlar organining sohaviy xizmatlari va fuqarolar yig'ini bilan hamkorlikda amalga oshiradi. Profilaktika (katta) inspektori jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish, shuningdek bu toifadagi shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini tashkil etayotgan tashkilotlar faoliyatidagi ijobiy natijalar va salbiy ta'sir qilayotgan omillar haqida ichki ishlar organi HPX xizmatiga belgilangan tartibda takliflar kiritishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonunining 28-moddasida huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi, uni qo'llash shartlari va asoslari batafsil belgilab berilgan.

**Yakka tartibdagi profilaktika** – fuqarolarni tarbiyalash tizimining elementlaridan biri bo'lib, inson g'ayriijtimoiy xulqning eng oxirgi darajasigacha yetishiga, ya'ni jinoyat qonuni bilan taqiqlangan qilmishlarni sodir etishga yo'l qo'ymaslikdan iborat cheklangan vazifani hal qiladi.

Yakka tartibdagi profilaktik faoliyatini tashkil etishning maqsadi, jinoyat va huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarni aniqlash, ularni o'rganish, ta'sir etish, ularning hulq-atvorini ijobiy tomonga o'zgartirish hamda ularga salbiy ta'sir etuvchi shart-sharoitlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan faoliyatdir.

Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni aniqlash, ularning hisobini yuritish va ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga doir faoliyati huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasini amalga oshiradi.

**Huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi** – shaxsning, uning ijtimoiy muhitining o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy-maishiy sharoitlari va turmush tarzi, shaxsning g'ayriijtimoiy xulq-atvorini, huquqbuzarlik sodir etishga moyilligini, shuningdek sodir etilgan huquqbuzarlikning ijtimoiy xavflilik darajasini tavsiflovchi boshqa omillar hisobga olingan holda belgilanadi.

Huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasini qo'llash uchun shaxsning g'ayriijtimoiy xulq-atvoridan, uning huquqbuzarlik sodir etishga moyilligidan yoxud u huquqbuzarlik sodir etganligidan dalolat beruvchi ishonchli ma'lumotlarning mavjudligi asos bo'ladi.

Huquqbuzarliklarning majburlovchi va cheklovchi xususiyatdagi yakka tartibdagi profilaktikasi qonunda nazarda tutilgan asoslarda qo'llaniladi.

Yakka profilaktikani amalga oshirish jarayonida huquqbuzarning hulq-atvorini o'rganish, kerakli profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida profilaktika suhbatlari o'tkaziladi.

Profilaktika suhbatlari shaxsni jamiyatda qabul qilingan hulq-atvor normalari va qoidalariga rioya etishga ishontirishdan, g'ayriijtimoiy hulq-atvorning ijtimoiy va huquqiy oqibatlarini hamda huquqbuzarlik sodir etganlik uchun qonunda belgilangan javobgarlikni tushuntirishdan iborat bo'ladi.

Profilaktika suhbatlari shaxsni profilaktik hisobga qo'yish chog'ida ham o'tkaziladi.

Profilaktika suhbatlari huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi, huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasini amalga oshirishga mas'ul bo'lgan organ yoki muassasaning vakili tomonidan o'tkaziladi.

Profilaktika suhbatlari huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasa joylashgan yerda, shuningdek shaxsning yashash, o'qish, ishlash joyida yoxud bevosita g'ayriijtimoiy hulq-atvor yoki huquqbuzarlik aniqlangan joyda o'tkaziladi.

Profilaktika suhbatlari davomida shaxsning o'ziga xos xususiyatlari, uning turmush tarzi va ijtimoiy-maishiy yashash sharoitlari, shuningdek g'ayriijtimoiy hulq-atvorning yoki sodir etilgan huquqbuzarlikning sabablari va shart-sharoitlari aniqlanadi.

Ilgari o'tkazilgan profilaktika suhbatlari ijobiy natija bermagan va shaxs g'ayriijtimoiy hulq-atvorni yoki huquqbuzarlik sodir etishga moyillikni davom ettirgan hollarda, unga nisbatan rasmiy ogohlantirish qo'llaniladi.

Rasmiy ogohlantirish shaxsga uning g'ayriijtimoiy hulq-atvorni davom ettirishiga yo'l qo'yib bo'lmasligi to'g'risida yozma ravishda tushuntirishdan, shuningdek huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxsni huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlik haqida ogohlantirishdan iborat bo'ladi.

Rasmiy ogohlantirish huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi, huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasini amalga oshirishga mas'ul bo'lgan organ yoki muassasaning mansabdor shaxsi tomonidan chiqariladi hamda shaxsga imzo qo'ydirib e'lon qilinadi, u imzo qo'yishdan bosh tortgan taqdirda esa, rasmiy ogohlantirishga bu haqda yozib qo'yiladi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi, huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasini amalga oshirishga mas'ul bo'lgan organ yoki muassasaning mansabdor shaxsi rasmiy ogohlantirish chiqarilganligi to'g'risida u qaysi shaxsga e'lon qilingan bo'lsa, o'sha shaxsning ish, o'qish joyidagi ish beruvchiga (ma'muriyatga) yoki yashash joyidagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga xabar qilishga haqlidir.

Rasmiy ogohlantirishning shakli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi yoki unda ishtirok etuvchi organ va muassasa, o'z vakolatlari doirasida, g'ayriijtimoiy hulq-atvorli shaxslar, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar haqida ish, o'qish joyidagi ish beruvchini (ma'muriyatni), yashash joyidagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organini g'ayriijtimoiy hulq-atvorning va sodir etilgan huquqbuzarlik holatlarini, shuningdek ularga imkon berayotgan sabablar va shart-sharoitlarni ko'rsatgan holda xabardor qilish vakolatiga egadir.

**Ichki ishlar organlari profilaktika xizmatining yakka tartibdagi profilaktik faoliyatining huquqiy asoslariga quyidagilarni kiritish mumkin:**

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
- O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 apreldagi "Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat to'g'risida"gi qonuni.
- O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 27 oktabrda "Narkologik kasalliklar profilaktikasi va ularni davolash to'g'risida"gi qonuni.
- O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 11 sentabrdagi «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi yangi taxrirdagi qonuni.

- O‘zbekiston Respublikasining 2010 yil 30 sentabrdagi «Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonuni.
- O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonuni.

## 2-savol. Ichki ishlar organlari profilaktika xizmatining maxsus va yakka tartibdagi profilaktik faoliyatining asosiy yo‘nalishlari hamda chora-tadbirlari.



O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi “Huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunining 26-moddasi asosida giyohvandlik, surunkali ichkilikbozlik va psixotrop moddalarni va aql-iroda faoliyatiga ta’sir etuvchi boshqa moddalarni iste’mol qiluvchi shaxslar o‘rtasida quyidagi huquqbuzarliklarning **maxsus profilaktikasi chora-tadbirlari amalga oshiriladi:**

- giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalada bo‘lishining, ular iste’mol qilinishining, shuningdek alkogol va tamaki mahsulotlari qonunga xilof ravishda ishlab chiqarilishi hamda realizatsiya qilinishining oldini olish bo‘yicha profilaktika tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- mastlik holatida, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va aql-iroda faoliyatiga ta’sir etuvchi boshqa moddalar ta’siri ostida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning sabablari va shart-sharoitlarining oldini olish, ularni aniqlash hamda bartaraf etish bo‘yicha profilaktika tadbirlarini o‘tkazish;

- giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalarni va aql-iroda faoliyatiga ta’sir etuvchi boshqa moddalarni saqlash, tashish, realizatsiya qilish va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish.

Ichki ishlar organlarining profilaktik faoliyatining ayrim sub’ektlari faqat umumiy profilaktika, boshqalari esa faqat yakka tartibdagi profilaktika bilan shug‘ullanishlari jinoyatlar umumiy va yakka profilaktikasining birligi prinsipiga aslo zid kelmaydi. Birinchi guruh sub’ektlarining faoliyati ularga bo‘ysunuvchi organlar va tashkilotlar jinoyatlarning yakka tartibdagi profilaktikasini samarali amalga oshirishlari uchun asos yaratadi, ikkinchi guruh (jamoat tarbiyachilari, otaliqqa olganlar, murabbiylar va sh. k.)ning faoliyati jinoyatlarning oldini olishning yagona dasturi doirasida kechadi hamda ob’ektiv kriminogen omillarga ta’sirni shaxsga ko‘rsatiladigan ta’sir bilan to‘ldirib, ushbu dasturning umumprofilaktik tadbirlariga to‘liq mos keladi. Jinoyatlarning oldini olish kompleksligining eng muhim jihatlaridan biri aynan mana shunda namoyon bo‘ladi.

Shaxsni tarbiyalashda uni jamoada va jamoa orqali tarbiyalash, tarbiya jarayonining maqsadga muvofiqligi va doimiyliigi, ishontirish va tarbiyalash usullarini oqilona qo‘llashdan iborat. Bu esa tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshirishga, olib boriladigan profilaktik tadbirlarning tarbiyaviy jarayonga aylanishiga imkon yaratadi.

Shaxsning jinoyat sodir etishiga sababchi bo‘lib, bevosita ularning huquqiy bilimsizligi, ishsizlik, iqtisodiy yetishmovchilik, oiladagi ziddiyat va kelishmovchiliklar, oiladagi nosog‘lom muhit, oilaviy tarbiyada bolaga ota va onaning ko‘rsatadigan ta’sirining ziddiyatli bo‘lishi hisoblanadi. Agarda biz o‘z harakatimizni jinoyatlar sodir etilishining sabab va sharoitlarini o‘rganishga hamda ularni bartaraf etishga qaratsak, yakka tartibdagi jinoyatlar profilaktikasini maqsadli ravishda amalga oshirsak jinoyatlarning oldini olishda samaraga erishamiz.

Jinoyatlarning oldini olish faoliyatida jinoyatga nisbatan jazoning og‘irligiga emas, balki jazoning muqarrarligini ta’minlash katta o‘rin tutadi. Chunki muayyan holatlarda shaxs sodir etilgan jinoyat yoki huquqbuzarliklar uchun uni jazolanishdan saqlab qolish jamoada salbiy muhitni vujudga keltiradi.

O‘zbekiston Respublikasi IIVning alohida rejasi va ko‘rsatmasi asosida yilda ikki mavsum davomida, Respublika bo‘yicha “**Qora-dori**” talbiri e’lon qilinadi va o‘tkaziladi. Tadbirni o‘tkazish uchun ichki ishlar organlari xodimlari boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar

DXX, bojxona, mudoffaa, FVVlari bilan birgalikda kelishilgan reja ishlab chiqiladi. “Qora-tadbiri” tadbiri davomida tarkibida giyohvandlik moddalari bo‘lgan o‘simliklarni noqonuniy yetishtirayotgan shaxslarni aniqlash maqsadida aholi yer tomorqalari, dala maydonlari, tog‘li hududlar va boshqa shunga o‘xshash joylarda tekshiruv nazorat ishlarini amalga oshiradi, shu bilan birga yovvoyi holda o‘sayotgan nasha va shunga o‘xshash tarkibida giyohvandlik vositalari mavjud bo‘lgan o‘simliklarni yo‘q qilish choralari ko‘rmaganlik holatlarini aniqlaydi, aybdorlarga nisbatan ma‘muriy yoki boshqa ta‘sir choralari qo‘llash choralari ko‘radi.

Shu bilan birga tadbir davomida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarini g‘ayriqonuniy ravishda tayyorlash, tashish, olish, saqlash, o‘tkazish yohud biror joyga jo‘natish bilan bog‘liq huquqbuzarliklarni aniqlaydi va aybdolarni tegishli javobgarlikka tortish choralari ko‘riladi.

Ushbu yo‘nalishdagi maxsus profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish faoliyati bir qancha qonun va qonun osti hujjatlari bilan tartibga solingan.



**Profilaktika xizmatlari tomonidan muntazam ravishda spirtli ichimlik yoki giyohvand moddalarni iste‘mol qiluvchi shaxslar quvidagi tartibda aniqlanadi va zarurat tug‘ilganda majburiy davolash muassasasiga yuborish choralari ko‘riladi:**



❖ aholi bilan ishlash, o‘tkazilgan tezkor-profilaktik tadbirlar jarayonida olingan axborotlar;

❖ sohaviy xizmat xodimlarining axborotlari;

❖ voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalarning qarorlari;

❖ O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligiga qarashli bo‘lgan maxsus davolash-oldini olish muassasalarining xabarlari;

❖ fuqarolarning arizalari, tashkilot va o‘quv muassasalarining xabarlari;

❖ mehnat jamoalari, shuningdek fuqaroning yashash joyidagi jamoatchilik tashkilotlarining ma‘lumotlari.

Surunkali ravishda spirtli ichimlik yoki giyohvand moddalarni iste‘mol qiluvchi shaxslar tomonidan spirtli ichimlik yoki giyohvand moddalarni iste‘mol qilgan holda jamoat tartibini, fuqarolar huquqlarini buzish, havfsizliklariga, sog‘ligi va ahloqiga rahna soluvchi shaxslarni surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlik kasalligiga chalinishdan ogohlantirish, ushbu kasallikdan davolash maqsadida tibbiy kuzatuvga olishni taqozo etadigan shaxslar.

Surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka muhtalo bo‘lgan doimiy yashash joyi aniq bo‘lgan shaxslarni maxsus davolash-oldini olish muassasalariga joylashtirish borasidagi hujatlarni tayyorlash hududiy profilaktika inspektorlari zimmasiga yuklatiladi va quyidagilarni amalga oshiradi:

- ixtiyoriy ravishda tibbiy ko‘rikdan o‘tishdan bosh tortayotgan shaxslar to‘g‘risida narkologiya muassasalaridan tushgan xabarga asosida shahar-tuman ichki ishlar idoralari rahbarlarining ko‘rsatmasiga binoan bunday shaxslar davolash muassasalariga majburiy ravishda keltiriladi.

- to‘plangan hujjatlarni sudga jo‘natish uchun asoslantiruvchi xulosa tayyorlaydi, bunda tibbiy komissiyaning fikri va xulosalariga asoslangan holda shaxsning Sog‘liqni saqlash vazirligining maxsus davolash-oldini olish muassasasida majburiy davolanishga muhtojligi, uning ixtiyoriy davolanishdan bosh tortayotganligi aks ettirilgan bo‘lishi lozim.

- surunkali ravishda spirtli ichimlik yoki narkotik moddalarni iste‘mol qiluvchi shaxsni majburiy davolashga yuborilishi tavsiya etilgan yo‘llanma bilan birga tibbiy xulosa, shuningdek bunday shaxsning davolanishdan bosh tortganligini yoinki davolash kursini o‘tab chiqqandan so‘ng spirtli ichimlik yoki giyohvand moddalarni iste‘mol qilishni davom ettirayotganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar bilan birgalikda sudga shahar-tuman ichki ishlar idorasi boshlig‘i tomonidan tasdiqlangan xulosa bilan birgalikda taqdim etadi. Alkogolni suiiste‘mol qiluvchi yoki giyohvandlik vositalarini, psixotrop-moddalarni va aql-iroda faoliyatiga ta‘sir etuvchi boshqa-moddalarni iste‘mol qiluvchi shaxslar o‘rtasida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora-tadbirlarini profilaktika (katta) inspektori o‘ziga birlashtirilgan ma‘muriy

hududda IIVning va hududiy ichki ishlar organining normativ-huquqiy hujjatlari asosida “Qoradori”, “Tozalash-Antiterror” va boshqa maxsus va tezkor tadbirlar doirasida amalga oshiradi.

Sogʻliqni saqlash idoralari tomonidan toifalarga ajratilgan holda shahar (tuman) ichki ishlar organi HPXga taqdim etilgan roʻyxat asosida alkogolni suiisteʼmol qiluvchi yoki giyohvandlik vositalarini, psixotrop-moddalarni va aql-iroda faoliyatiga taʼsir etuvchi boshqa-moddalarni isteʼmol qiluvchi shaxslar oʻrtasida oʻrtasida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora-tadbirlarini manzilli, har bir shaxsning ijtimoiy xavflilik holatini, u sodir etgan huquqbuzarlik turini hisobga olgan holda samarali amalga oshiradi. Profilaktika (katta) inspektori giyohvandlik vositalari, psixotrop-moddalar va perekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalada boʻlishini, ularni isteʼmol qilinishini, shuningdek alkogol va tamaki mahsulotlari qonunga xilof ravishda ishlab chiqarilishini hamda noqonuniy aylanishini (*realizatsiya qilinishi*) oldini olish boʻyicha profilaktika tadbirlarini IIV HPX va TQD hamda ularning quyi organlari tomonidan ishlab chiqilgan maxsus topshiriq, reja hamda boshqa turdagi boshqaruv qarorlari asosida amalga oshiradi. Maʼmuriy hududda mastlik holatida, giyohvandlik vositalari, psixotrop-moddalar va aql-iroda faoliyatiga taʼsir etuvchi boshqa-moddalar taʼsiri ostida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash hamda bartaraf etish boʻyicha maxsus profilaktika tadbirlarini hududiy ichki ishlar organi yoki huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ va muassasalar bilan birgalikda ishlab chiqilgan maxsus reja, dastur va boshqa boshqaruv qarorlari asosida ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari, shuningdek huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora tadbirlarini amalga oshirish vakolatiga ega boʻlgan subʼektlar bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

Profilaktika (katta) inspektori maʼmuriy hududda hududiy ichki ishlar organlarining Jinoyat-qidiruv xizmati (*bundan buyon matnda TQD deb yuritiladi*), shuningdek huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ va muassasalarning vakolatli xodimlari tomonidan giyohvandlik vositalarini, psixotrop-moddalarni va aql-iroda faoliyatiga taʼsir etuvchi boshqa-moddalarni saqlash, tashish, realizatsiya qilish va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishi ustidan nazoratni taʼminlash boʻyicha maxsus chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etishi mumkin. Profilaktika (katta) inspektori oʻziga biriktirilgan maʼmuriy hududda alkogolni suiisteʼmol qiluvchi yoki giyohvandlik vositalarini, psixotrop-moddalarni va aql-iroda faoliyatiga taʼsir etuvchi boshqa-moddalarni isteʼmol qiluvchi shaxslar oʻrtasida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasiga oid boshqa chora-tadbirlarni tegishli qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi. Profilaktika (katta) inspektori oʻziga biriktirilgan maʼmuriy hududda voyaga yetmaganlar oʻrtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi boʻyicha chora-tadbirlarni Oʻzbekiston Respublikasining “Voyaga yetmaganlar oʻrtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi toʻgʻrisida”gi, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi toʻgʻrisida”gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

Voyaga yetmaganlar oʻrtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi boʻyicha huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora-tadbirlarini profilaktika (katta) inspektori oʻziga biriktirilgan maʼmuriy hududda IIVning va hududiy ichki ishlar organining normativ-huquqiy hujjatlari asosida “Oʻsmir”, “Gʻamxoʻrlilik”, “Oyna”, “Oriyat” va boshqa maxsus hamda tezkor tadbirlar doirasida amalga oshiradi. Profilaktika (katta) inspektori oʻziga biriktirilgan maʼmuriy hududda huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi organ va muassasalar tomonidan oʻtkaziladigan huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora-tadbirlarini amalga oshirish jarayonida amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlari doirasida ishtirok etadi.

Ichki ishlar organlarining yakka tartibdagi profilaktik faoliyatini tashkil etishda Oʻzbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi toʻgʻrisida»gi qonunining 35-moddasiga asosan yakka tartibdagi profilaktika obʼektining toifalari koʻrsatib berilgan.

#### **Unga asosan profilaktik hisob quyidagi shaxslarga nisbatan yuritiladi:**

– ilgari sudlanganlarga ular jinoiy jazoni oʻtaganidan soʻng, bundan oʻziga nisbatan maʼmuriy nazorat oʻrnatilgan shaxslar mustasno;

- o‘ziga nisbatan sudning jazo tayinlanmagan ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan shaxslarga;
  - O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 84-moddasiga muvofiq aybdorlik to‘g‘risidagi masala hal qilinmasdan turib o‘ziga nisbatan jinoyat ishi tugatilgan shaxslarga;
  - o‘ziga nisbatan qamoqqa olish bilan bog‘liq bo‘lmagan ehtiyot chorasi tanlangan jinoyat sodir etishda ayblanuvchilarga;
  - O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 40, 41, 45, 47, 52, 56, 58, 61, 106, 131, 165<sup>1</sup>, 183, 184, 184<sup>1</sup>, 184<sup>2</sup>, 184<sup>3</sup>, 187, 188, 188<sup>1</sup>, 189, 189<sup>1</sup>, 190, 191, 201, 202, 202<sup>1</sup>, 240, 241-moddalarida nazarda tutilgan ma‘muriy huquqbuzarliklarni sodir etganlarga;
  - ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalaridan qaytganlarga.
- Shaxsni profilaktik hisobga qo‘yishga quyidagilar asos bo‘ladi:
- vakolatli organning yoki mansabdor shaxsning ushbu Qonun 35-moddasining oltinchi xatboshisida nazarda tutilgan ma‘muriy huquqbuzarliklar bo‘yicha ma‘muriy jazo qo‘llanilishi to‘g‘risidagi qarori;
  - vakolatli organning yoki mansabdor shaxsning jinoyat ishini tugatish to‘g‘risidagi yoxud reabilitatsiya qilmaydigan asoslar bo‘yicha jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad etish to‘g‘risidagi qarori;
  - o‘ziga nisbatan qamoqqa olish bilan bog‘liq bo‘lmagan ehtiyot chorasi tanlangan ayblanuvchi sifatida ishda ishtirok etishga jalb qilish to‘g‘risidagi tergovchining yoki prokurorning qarori;
  - sudning qonuniy kuchga kirgan ayblov hukmi;
  - shaxsning jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilinganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotnoma;
  - voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyaning qarori.

Bir shaxsni profilaktik hisobga qo‘yish uchun bir qancha asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda, asoslarning har biri bo‘yicha alohida-alohida profilaktik hisobga qo‘yish amalga oshiriladi.

Profilaktik hisobga olishni amalga oshirish uchun mas‘ul bo‘lgan shaxs shaxsni profilaktik hisobga qo‘yish to‘g‘risida tuman, shahar ichki ishlar bo‘limining, boshqarmasining boshlig‘i tomonidan tasdiqlanadigan qaror chiqaradi. Mazkur qaror shaxsni profilaktik hisobga qo‘yish uchun asoslar mavjudligidan dalolat beruvchi hujjatlar ushbu shaxs tomonidan olingan kundan e‘tiboran o‘n kun ichida chiqariladi. Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarga nisbatan shaxsni profilaktik hisobga qo‘yish to‘g‘risidagi qaror ular yashash joyiga yetib kelgan kundan e‘tiboran uch kun ichida chiqariladi.

Shaxsni profilaktik hisobga qo‘yish to‘g‘risidagi qarorda qarorni chiqargan shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi va otasi ismining bosh harflari, qaror chiqarilgan sana va joy, u qaysi shaxsga nisbatan chiqarilgan bo‘lsa, o‘sha shaxs to‘g‘risidagi ma‘lumotlar (familiyasi, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan sanasi, yashash, ish, o‘qish joyi) va profilaktik hisobga qo‘yish asoslari ko‘rsatiladi. Shaxsni profilaktik hisobga qo‘yish to‘g‘risidagi qaror mazkur qarorni chiqargan shaxs tomonidan imzolanadi.

Shaxsni profilaktik hisobga qo‘yish to‘g‘risidagi qaror profilaktik hisobga qo‘yilgan shaxsga imzo qo‘ydirib e‘lon qilingan paytdan e‘tiboran kuchga kiradi. Qaror ushbu shaxsga tasdiqlangan paytdan e‘tiboran uch kun ichida, u yashash joyida bo‘lmagan hollarda esa, uning turgan joyi aniqlangan paytdan e‘tiboran uch kun ichida e‘lon qilinishi kerak. Qaror e‘lon qilinganda shaxsga uning huquq va majburiyatlari tushuntirilib, bu haqda qarorga belgi qo‘yiladi.

Shaxsning xulq-atvorini nazorat qilish va unga nisbatan huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi chora-tadbirlari o‘z vaqtida qo‘llanilishini ta‘minlash maqsadida shaxs profilaktik hisobga qo‘yilgan kunda ichki ishlar organlari tomonidan profilaktika ishi ochiladi.

Shaxsni profilaktik hisobga olish u profilaktik hisobga qo‘yilgan paytdan e‘tiboran bir yil mobaynida amalga oshiriladi.

Agar profilaktik hisobga olishni amalga oshirish davrida ushbu Qonun 36-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan yangi asoslar vujudga kelsa, profilaktik hisobga olishni hisoblash muddati ushbu asoslar vujudga kelgan kundan e'tiboran amalga oshiriladi.



**Shaxsni profilaktik hisobdan chiqarish quyidagi asoslardan biri mavjud bo'lganda amalga oshiriladi:**

- profilaktik hisobga olish muddatining tugashi;
- reabilitatsiya qiluvchi asoslarga ko'ra jinoyat ishini tugatish to'g'risida tergovchi yoki prokuror tomonidan qaror qabul qilinishi yoki sudning oqlov hukmining qonuniy kuchga kirishi;
- sudning shaxsni ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazoga hukm qilish to'g'risidagi ayblov hukmining yoki tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash to'g'risidagi sud ajrimining qonuniy kuchga kirishi;
- qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini tanlash to'g'risida sud tomonidan ajrim chiqarilishi;
- shaxsning muddatidan oldin to'liq tuzalganligi to'g'risida dalolat beruvchi ma'lumotlarning mavjudligi;
- profilaktik hisobda turgan shaxs O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga doimiy yashash joyiga qonunda belgilangan tartibda chiqib ketgan taqdirda;
- profilaktik hisobda turgan shaxsning vafot etishi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan asoslardan biri mavjud bo'lganda, profilaktik hisobni amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan shaxs shaxsni profilaktik hisobdan chiqarish to'g'risida tuman, shahar ichki ishlar bo'limining, boshqarmasining rahbari tomonidan tasdiqlanadigan qaror chiqaradi.

Profilaktik hisobda turgan shaxs ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoga hukm qilingan taqdirda, uning xususida to'plangan materiallar sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan kundan e'tiboran besh kun ichida huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi chora-tadbirlarini qo'llash uchun tegishli jazoni ijro etish muassasasiga yuboriladi.

Profilaktik hisobda turgan shaxs doimiy yashash joyini o'zgartirgan taqdirda, uni hisobga olish yangi doimiy yashash joyi bo'yicha amalga oshiriladi.

Surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka chalingan shaxs tomonidan jamoat tartibi, boshqa shaxslarning huquqlari buzilgan yoxud u aholining xavfsizligi, sog'lig'i va axloqiga tahdid solgan taqdirda ichki ishlar organlari «Surunkali alkogolizm yoki giyohvandlikka muhtalo bo'lgan bemorlarni majburiy davolash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq uni majburiy davolanishga yuborish chora-tadbirlarini ko'radi.

Ichki ishlar organlarining jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar ustidan ma'muriy nazorati tarbiyaviy-profilaktik ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari majmuidan iborat bo'ladi va nazorat ostidagilarga nisbatan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan cheklovlarni qo'llashda o'z ifodasini topadi.

Ma'muriy nazoratni o'rnatish, amalga oshirish va tugatish tartibi, shuningdek qo'llaniladigan cheklovlar ro'yxati ichki ishlar organlarining jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar ustidan ma'muriy nazorati to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilanadi.

**O'ziga nisbatan huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi chora-tadbirlari qo'llanilayotgan shaxslar:**

- o'ziga nisbatan qo'llanilayotgan huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi chora-tadbirlarining asoslari va huquqiy oqibatlarini bilishga;
- o'zi xususida to'plangan hujjatlar va boshqa materiallar bilan tanishishga;
- iltimoslar qilishga;
- yuridik yordam olishga;
- huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organing yoki muassasaning qarorlari, mansabdor shaxslarning harakatlari (harakatsizligi) ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilishga haqli.



O‘ziga nisbatan huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi chora-tadbirlari qo‘llanilayotgan shaxslar huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar yoki muassasalar mansabdor shaxslarining qonuniy talablarini bajarishi shart.

O‘ziga nisbatan huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi chora-tadbirlari qo‘llanilayotgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi va ularning zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

### **3-savol. Ichki ishlar organlari profilaktika xizmatining maxsus va yakka tartibdagi profilaktik faoliyati tashkil etish.**

Profilaktika (katta) inspektori kriminogen vaziyat tahlili natijalariga asosan ma‘muriy hududda yoki u yerda joylashgan alohida ob‘ektda ayrim turdagi huquqbuzarliklarning, ularni sodir etuvchi shaxslar toifalarining ko‘payishi, shuningdek jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga qarshi qaratilgan havf-xatarlar va tahdidlarning yuzaga kelishi kuchayganda ushbu turdagi huquqbuzarliklarning profilaktikasi, bu turdagi huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablarini va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etishga, g‘ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo‘lgan, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni aniqlash hamda ularga profilaktik ta‘sir ko‘rsatish maqsadida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora-tadbirlarini amalga oshirish bo‘yicha ichki ishlar organi HPX xizmatiga taklif kiritadi.



Profilaktika (katta) inspektori ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladigan “Antiterror”, “Arsenal”, “Avtopatrul”, “Avtobus”, “Velosiped”, “Diqqat piyoda”, “Diqqat bolalar”, “Diqqat temir yo‘l”, “Yong‘in xavfsizligi oyligi”, “Ijro”, “Mast haydovchi”, “Nazorat”, “Oriyat”, “Oyna”, “Pasport-viza”, “Spitamen”, “Turmush”, “Tozalash”, “Traktor”, “Ustaxona”, “Qoradori”, “Qidiruv”, “G‘amxo‘rlik”, “Xonadon”, “Harakat xavfsizligi oyligi” kabi maxsus hamda tezkor profilaktik tadbirlarda ishtirok etadi va huquqbuzarliklarning maxsus profilaktik chora-tadbirlarini o‘ziga berilgan vakolat doirasida amalga oshiradi.

Profilaktika (katta) inspektori huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasini amalga oshirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi IIV va hududiy ichki ishlar organlarining yuqorida ko‘rsatilgan maxsus va tezkor profilaktik tadbirlari to‘g‘risidagi normativ huquqiy hujjatlarni mazmun-mohiyatini, talablarini bilishi hamda o‘ziga birlashtirilgan hududda berilgan vakolat doirasida ijrosini ta‘minlashi lozim.

Profilaktika (katta) inspektori birlashtirilgan hududda IIV yoki hududiy ichki ishlar boshqarma va bo‘limlarining normativ huquqiy hujjatlarida belgilangan tartibda va talablar asosida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora-tadbirlarini o‘tkazishi haqida fuqarolar yig‘inini xabardor qilishi hamda ushbu tadbirlarni amalga oshirishga ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari, huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va ishtirok etuvchi organ hamda muassasalarni xodimlarini ham jalb etishi mumkin.

Profilaktika (katta) inspektori o‘ziga birlashtirilgan ma‘muriy hududda ilgari sudlangan shaxslar o‘rtasida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora-tadbirlarini IIVning va hududiy ichki ishlar boshqarma va bo‘limlarining normativ huquqiy hujjatlari asosida “Nazorat”, “Ijro”, “Tozalash-Antiterror” va boshqa maxsus va tezkor profilaktik tadbirlar doirasida amalga oshiradi.

Ilgari sudlangan shaxslar o‘rtasida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora-tadbirlarini manzilli, har bir shaxsning ijtimoiy xavflilik holati, u muqaddam sodir etgan jinoyat tasnifi, turi hisobga olingan holda samarali amalga oshirish uchun profilaktika (katta) inspektori o‘ziga birlashtirilgan ma‘muriy hududda yashaydigan ilgari sudlangan shaxslar ro‘yxatini O‘zbekiston Respublikasi JKning 13, 34, 78, 79, 80-moddalari asosida toifalarga ajratgan holda yuritishi kerak.

Jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini hamda shart-sharoitlarini aniqlash, bartaraf etish maqsadida profilaktika (katta) inspektori IIV HPX va uning quyi tizimlari tomonidan ishlab chiqilgan maxsus tadbirlarni biriktirilgan hududda berilgan vakolat doirasida amalga oshirishni ta'minlaydi. Ushbu tadbirlarni amalga oshirishda jazoni ijro etish muassasalari, ichki ishlar organi sohaviy xizmatlari, jazoni o'tash joylaridan ozod qilingan shaxslarga ijtimoiy-maishiy jihatdan va ishga joylashishda yordam ko'rsatish bo'yicha ijtimoiy ko'nikma markazi, hokimliklar huzuridagi maxsus komissiya va fuqarolar yig'ini bilan hamkorlik qiladi.

Ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazoga hukm qilingan shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini hamda shart-sharoitlarini aniqlash, bartaraf etish maqsadida profilaktika (katta) inspektori IIV HPX va uning quyi tizimlari tomonidan ishlab chiqilgan maxsus tadbirlarni o'ziga biriktirilgan ma'muriy hududida vakolat doirasida amalga oshirilishini ta'minlaydi. Ushbu tadbirlar profilaktika (katta) inspektori tomonidan ma'muriy hududda yashovchi ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazoga hukm qilingan shaxslar hisobda turuvchi jazoni ijro etish inspeksiyasi, ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari va fuqarolar yig'ini bilan hamkorlikda amalga oshiradi va hisobotini yuritadi.

Profilaktika (katta) inspektori o'ziga biriktirilgan ma'muriy hududda Jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan va ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazoga hukm qilingan shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha maxsus tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish bo'yicha ichki ishlar organi HPXga takliflar kiritadi.

Profilaktika (katta) inspektori o'ziga biriktirilgan ma'muriy hududda yashagan va ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni o'tayotgan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilishga va ijtimoiy moslashtirishga tayyorlash bo'yicha chora-tadbirlarni ichki ishlar organi HPX tomonidan ishlab chiqilgan maxsus tadbirlar, shuningdek jazoni ijro etish muassasalaridan yuborilgan ma'lumotlar (*xabarnomalar*) asosida ichki ishlar organi sohaviy xizmatlari, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslarga ijtimoiy-maishiy jihatdan va ishga joylashishda yordam ko'rsatish bo'yicha ijtimoiy ko'nikma markazi, hokimliklar huzuridagi maxsus komissiya, fuqarolar yig'ini bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni profilaktika (katta) inspektori jazoni o'tash joylaridan ozod qilingan shaxslarga ijtimoiy-maishiy jihatdan va ishga joylashishda yordam ko'rsatish bo'yicha hokimliklar huzuridagi maxsus komissiya qarori, shuningdek ichki ishlar organi HPX tomonidan ishlab chiqilgan maxsus topshiriq, rejalar va boshqa boshqaruv qarorlari asosida hududiy ichki ishlar organining sohaviy xizmatlari va fuqarolar yig'ini bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

Profilaktika (katta) inspektori jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish, shuningdek bu toifadagi shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini tashkil etayotgan tashkilotlar faoliyatidagi ijobiy natijalar va salbiy ta'sir qilayotgan omillar haqida ichki ishlar organi HPXga belgilangan tartibda takliflar kiritishi mumkin.

Alkogolni suiiste'mol qiluvchi yoki giyohvandlik vositalarini, psixotrop-moddalarni va aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qiluvchi shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora-tadbirlarini profilaktika (katta) inspektori o'ziga biriktirilgan ma'muriy hududda IIVning va hududiy ichki ishlar organining normativ-huquqiy hujjatlari asosida "Qoradori", "Tozalash-Antiterror" va boshqa maxsus va tezkor tadbirlar doirasida amalga oshiradi.

Sog'liqni saqlash idoralari tomonidan toifalarga ajratilgan holda shahar (tuman) ichki ishlar organi HPXga taqdim etilgan ro'yxat asosida alkogolni suiiste'mol qiluvchi yoki giyohvandlik vositalarini, psixotrop-moddalarni va aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa-moddalarni iste'mol qiluvchi shaxslar o'rtasida o'rtasida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora-tadbirlarini manzilli, har bir shaxsning ijtimoiy xavflilik holatini, u sodir etgan huquqbuzarlik turini hisobga olgan holda samarali amalga oshiradi.

Profilaktika (katta) inspektori giyohvandlik vositalari, psixotrop-moddalar va perekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishini, ularni iste'mol qilinishini, shuningdek alkogol va tamaki mahsulotlari qonunga xilof ravishda ishlab chiqarilishini hamda noqonuniy aylanishini (*realizatsiya qilinishi*) oldini olish bo'yicha profilaktika tadbirlarini IIV HPX va JQD hamda ularning quyi organlari tomonidan ishlab chiqilgan maxsus topshiriq, reja hamda boshqa turdagi boshqaruv qarorlari asosida amalga oshiradi.

Ma'muriy hududda mastlik holatida, giyohvandlik vositalari, psixotrop-moddalar va aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa-moddalar ta'siri ostida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash hamda bartaraf etish bo'yicha maxsus profilaktika tadbirlarini hududiy ichki ishlar organi yoki huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ va muassasalar bilan birgalikda ishlab chiqilgan maxsus reja, dastur va boshqa boshqaruv qarorlari asosida ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari, shuningdek huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora tadbirlarini amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan sub'ektlar bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

**Yakka tartibdagi profilaktikaning ta'sir usullari quyidagicha tashkil etiladi:**

- ishontirish;
- rag'batlantirish;
- majburlash.

**Ishontirish** – profilaktika qilinuvchiga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning asosiy metodi. Tarbiyalash-ishontirishdir. Ishontirish ish va so'z orqali amalga oshiriladi. Ishontirish usuli sof tarbiyaviy xususiyatga ega bo'lib, ular profilaktika qilinayotgan shaxsning ququqlarini aslo cheklamaydi. Jinoyatlarning yakka tartibdagi profilaktikasida qo'llaniladigan odatdagi ishontirish choralariga suhbatlar, jamoat tashkilotlari va mehnat jamoalaridagi muhokamalar, jamoat tarbiyachilari, murabbiylar kabilarni tayinlash kiradi.

**Rag'batlantirish** – profilaktik ta'sirning muxim metodlaridan bo'lib shaxsning ijobiy qarashlari, xizmatlarini takomillashtirish va mustaxkamlashga xizmat qiladi. Rag'batlantirish moddiy-ma'naviy bo'lishi mumkin. Rag'batlantirishdan ko'zlangan asosiy maqsad profilaktika qilinayotgan shaxsning ijtimoiy muqit bilan munosabatini to'g'ri yo'lga qo'yishdan va jinoiy niyatlardan qaytarishdan iborat. Masalan. Profilaktika qilinayotgan shaxsni ishga joylashtirishning o'zi yetarli emas, unga jamoa bilan til topishida, uning to'la huquqli a'zosiga aylanishida ko'maklashish zarur. Profilaktika qilinayotgan shaxsni guruqning salbiy ta'siridan saqlab qolish uchun uni nafaqat uni guruhdan jratib olish, balki unga ijobiy ta'sir ko'rsata oladigan guruhga kirishishiga imkoniyatlar yaratish zarur bo'ladi.

**Majburlash** – profilaktika qilinuvchiga tarbiyaviy ta'sirning yordamchi istisno tariqasidagi usulidir. U faqat boshqa usullar samara bermaganda qo'llaniladi.

**Yakka tartibdagi profilaktika ta'siri ostiga tushuvchi shaxsga nisbatan ta'kidlab o'tilgan usullarni qo'llashda quyidagilarni inobatga olinishi lozim:**

- birinchi navbatda huquqbuzarliklar va jinoyatlar sodir etishi mumkin bo'lgan, shuningdek salbiy hulq-atvori va odatlarga ega shaxslarni aniqlash;
- aniqlangan shaxslarni profilaktik hisobga qo'yish;
- profilaktika qilinayotgan shaxsning ijtimoiy-demografik, axloq normalarini buzilishi, tarbiyaviy jarayoni, boshqa shaxslar bilan munosabati, ma'naviy xususiyatlari, psixologik jihatlarni har tomonlama o'rganish.

**Yakka tartibdagi profilaktikaning shakllari quyidagilar:**

– Bevosita shakli – profilaktika inspektorlari ijtimoiy ta'sirga muhtoj bo'lgan shaxslarga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan profilaktik ta'sir choralari. (ma'muriy nazoratda turuvchi muqaddam sudlanganlar).

– Ilk profilaktik shakl – jamiyatda o'rnatilgan axloq normalariga bepisand bo'lib, jamoa uchun xavfli bo'lmagan hatti-xarakatlarni sodir etayotgan shaxsga ilk profilaktik ta'sir choralarini ko'rsatish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Misol tariqasida o'smirning o'qishni tashlab ketishi, uyidan qochib boshqa joylarda tunashi, katta yoshlardagilarning muntazam ravishda spirtli ichimlik iste'mol qilishini keltirish mumkin.



Jinoyat odatda tasodifan, ayniqsa qasddan amalga oshiriladigan jinoyatlar tasodifan sodir etilmaydi, aksincha, bunday jinoyat sodir etuvchilarning ilgari ko'p hollarda uzoq davom etadigan g'ayri-ijtimoiy xulq-atvori, qonunlarni hurmat qilmasligi, unga nisbatan olib borilgan tarbiyaviy ishlarning samarasizligi va axloqan tuzalish yo'liga o'tmasligi oqibatida sodir etiladi.

Yakka tartibdagi jinoyatlar profilaktikasining bevosita va ilk profilaktik shaklida ishni tashkil etish uchun profilaktika inspektorlari hamkorlikda jamoatchilik, maxalla o'zini-o'zi boshqarish organlari, mehnat jamoalarining imkoniyatlaridan foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Yakka tartibdagi profilaktik ta'sir shaxsning o'ziga emas, balki ijtimoiy mikro muhitga ham bog'liq, chunki xulq-atvorning shakllanishida miqromuhitning o'rni nihoyatda katta. Masalan, salbiy hulq-atvorga ega bo'lgan shaxs ikkinchisi bir shaxsga o'zining muayyan hatti-harakati bilan uning g'ayriijtimoiy salbiy illatlar domiga tushib qolishiga sababchi bo'lishi mumkin.

Jinoyatlarning yakka tartibdagi profilaktikasi umumiy profilaktika bilan bir qatorda jinoyatlarning oldini olish faoliyatining alohida turi sifatida ajratish bilan birga, ayni paytda umumiy va yakka tartibdagi profilaktika o'rtasida chambarchas aloqa mavjudligini inobatga olish lozim. Jinoyatlarning oldini olish faoliyatining asosiga umumiy va yakka tartibdagi profilaktikaning birligi prinsipi qo'yilishi kerak. Mazkur prinsip jinoyatlarning oldini olish faoliyati sub'ektlarining asosiy ko'pchiligi ikkala turdagi jinoyatlar profilaktikasini amalga oshirishida o'zining tashkiliy ifodasini topadi. Jinoyatlarning oldini olishda keng qamrovlilik katta ahamiyatga ega ekanligini unutmasligimiz lozim.

Yakka tartibdagi profilaktika choralarini qo'llashning asoslanganligi talabi ham chambarchas bog'liqdir. Profilaktika inspektorlari yakka tartibdagi profilaktik tadbirlarni reja asosida vaziyatdan kelib chiqib, ularga ijodiy yondoshib, tashabbuskorlik bilan bajarishi lozim. Masalan, mahallaning ma'rifiy, diniy, ahloqiy, tarbiyaviy ishlar bo'yicha maslahatchisi bilan profilaktika inspektorining hamkorlikda aholining tarbiyaviy ta'sirga muhtoj qatlami bilan profilaktik tarbiyaviy ishlar olib borish rejasini tuzadi. Amaliyotdagi ilg'or tajriba IIOTPda shu yo'nalishlarda amalga oshirilgan ishlar xaqidagi yig'ma jild qilinib hujjatlar tikib boriladi.

**Suhbat o'tkazish** – profilaktika qilayotgan shaxs bilan o'tkazilgan suhbatning samarasi unga nisbatan ruhiy, pedagogik usullarni qo'llash va ularga bu usullarni qay darajada (ijobiy yoki salbiy) ta'sir etishiga bog'liq bo'ladi.



Suhbat o'tkazuvchi xodim profilaktika qilayotgan shaxsning avvalgi va hozirgi hayoti, ijobiy va salbiy tomonlari, uning qiziqishlarini inobatga olgan holda reja tuzib, uni qachon, qaerda o'tkazishni belgilab olishi shart. Suhbatning asosiy talablardan biri profilaktika qilinayotgan shaxs bilan doimiy ravishda uni o'tkazib borishni ta'minlashdir. Suhbat mavzusi profilaktika qilinayotgan shaxsning hulq-atvori, ijobiy harakatlari, ish va o'qishdagi natijalari haqida bo'lishi mumkin.

Suhbatga jamoatchi tarbiyachilar, homiylar, otaliqqa olgan shaxslar, murabbiylar ham taklif etilishi, voyaga yetmaganlar bilan o'tkazilgan suhbatda esa o'qituvchilar, ota-onalar, mahalla faollari, hotin-qizlar qo'mitasining raisalari taklif etiladi.

**Murabbiylik** – profilaktika qilinayotgan shaxs mehnat qilayotgan ishlab chiqarish korxonalarida ko'proq qo'llaniladi. Bunda profilaktika qilinayotgan shaxsni mehnat va ma'naviy tarbiyaviy tadbirlar an'analari, kasb-hunarga o'rgatish orqali tarbiyalashga e'tibor qaratiladi.

**Jamoatchilik fikridan foydalanish** – jamoatchilik fikridan foydalanish rasmiy ravishda profilaktika ta'siriga tushuvchi shaxs mehnat qilayotgan mehnat jamoasida yoki yashash joyidagi mahallada bo'lib o'tadigan yig'ilishlarda uning hulq-atvorini muhokama etish, devoriy ro'znoma yoki ommaviy axborot vositalari orqali muhokama qilish orqali amalga oshiriladi. Jamoatchilik fikridan norasmiy ravishda foydalanganda, ya'ni profilaktika qilinayotgan shaxs mehnat qilayotgan jamodoshlari, qarindosh-urug'lari, yaqinlarining fikri yanada samaraliroq bo'lishi mumkin. Ta'kidlash lozimki, yakka tartibli profilaktikada jamoatchilik fikridan

foydalanish “qonunchilikning ijtimoiy voqelik talablariga javob berishi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi hamda muayyan amaliy ahamiyat kasb etadi”.

**Yordam ko‘rsatish** – profilaktika qilinayotgan shaxsni ish bilan ta‘minlash, maishiy muammolarini hal etish, o‘qishga kirib olish, bo‘sh vaqtlarini band etish, ijtimoiy-foydali aloqalarni tiklab olishda yordam ko‘rsatishdan iborat.

Bu masalada ayniqsa jazoni o‘tash joylaridan qaytgan shaxslarni ish va maishiy turmushda o‘rnashib olishlari qiyin kechadi, profilaktika xodimi bunday shaxslarga korxonalar va muassasalar tomonidan ishga qabul qilishda asosiz ravishda rad etilganda ularga nisbatan ta‘sir choralarini ko‘radi.

## 6-mavzu: Profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar maxsus va yakka tartibdagi profilaktikasini amalga oshirish faoliyati

### *Seminar mashg‘uloti (2 soat)*


Ushbu o‘quv mashg‘uloti “*Baliq skeleti*” interfaol metodidan foydalanish orqali o‘tkaziladi.

«Baliq skeleti» grafik organayzer (GO) tinglovchilarda mavzu yuzasidan muayyan masala mohiyatini tasvirlash va yechish qobiliyatini shakllantiradi. Uni qo‘llashda tinglovchilarda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushunchalar, ma‘lumotlarni muayyan tizimga keltirish, ularni tahlil qilish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Undan foydalanish quyidagicha amalga oshiriladi:

- 1) o‘qituvchi tinglovchilarni GOni qo‘llash sharti bilan tanishtiradi;
- 2) tinglovchilar kichik guruhlariga biriktiriladi;
- 3) guruhlar topshiriqlarni bajaradi;
- 4) guruhlar o‘z yechimlarini jamoaga taqdim etadi;
- 5) jamoa guruhlarining yechimlari yuzasidan muhokama uyushtiradi

**Tinglovchilar topshiriqlarni quyidagi tasvir asosida bajaradi:**



**Tahlil qilinadigan muammolar:** Huquqbuzarliklarning maxsus pro-filaktikasini amalga oshirishda ayrim muammolar.


**1-muammo.** Huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasini amalga oshirishda ichki ishlar organalarining boshqa sohaviy xizmatlari, huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ va muassasalar bilan hamkorligi.

**2-muammo.** Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish, shuningdek bu toifadagi shaxslarni ishga joylashtirishda salbiy ta‘sir qilayotgan omillar.

**3-muammo.** Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalada bo‘lishining, ular iste‘mol qilinishining, shuningdek alkogol va tamaki mahsulotlari qonunga xilof ravishda ishlab chiqarilishi hamda realizatsiya qilinishining oldini olish bo‘yicha profilaktika tadbirlarini amalga oshirishdagi muammolar.

## Huquqbuzarliklar yakka tartibdagi profilaktikasini amalga oshirish faoliyati

Ushbu o'quv mashg'uloti "**Klaster**" interfaol metodidan foydalanish orqali o'tkaziladi.



### Mustaqil tayyorgarlik uchun savollar:

1. Profilaktika inspektorining maxsus profilaktik faoliyatini tashkil etish.
2. Ilgari sudlangan shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora-tadbirlari.
3. Huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasini tartibga soluvchi qonun va qonun osti hujjatlari.
4. Giyohvandlik, surunkali ichkilikbozlik kabi salbiy ijtimoiy illatlarning oldini olish hamda ularga muhtalo bo'lgan shaxslar bilan maxsus profilaktik chora-tadbirlarning amalga oshirilishi.
5. Profilaktika inspektori xizmat ko'rsatadigan ma'muriy hududida «Antiterror», «Arsenal», «Yong'in xavfsizligi oyligi», «Ijro», «Nazorat», «Oriyat», «Oyna», «Pasport-viza», «Turmush», «Spitamen», «Tozalash», «Qoradori», «G'amxo'rlik», «Xonadon», «Harakat xavfsizligi oyligi» kabi maxsus profilaktik tadbirlarning o'tkazilishi.
6. Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasining «O'smir», «G'amxo'rlik», «Oyna», «Oriyat» va boshqa tadbirlari amalga oshirilishi.
7. Yakka tartibdagi jinoyatlar profilaktikasining ob'ektlari.

8. Profilaktik ta'sir usullari.
9. Yakka tartibdagi profilaktikaning sube'ktlari va ob'ektlari.
10. Huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi, uni qo'llash shartlari va asoslari.
11. Huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar to'g'risida xabardor qilish.
12. O'ziga nisbatan huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi chora-tadbirlari qo'llanilayotgan shaxslarning huquq va majburiyatlari.

## **6-mavzu: Profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar maxsus va yakka tartibdagi profilaktikasini amalga oshirish faoliyati**

### *Amaliy mashg'uloti (2 soat)*

Amaliy mashg'ulot davomida tinglovchilar berilgan masalani yechishlari va hal etishlari, shuningdek profilaktika xizmatlari tomonidan profilaktika inspektorlarining maxsus va yakka tartibdagi profilaktik faoliyatini tashkil etish bo'yicha berilgan topshiriqlarni amalga oshirishda lozim bo'lgan vazifalarini ketma-ketlikda ko'rsatib berishlari lozim.

### **Maxsus profilaktik faoliyat bo'yicha topshiriq:**

**Masala:** 2022 yilning avgust oyida Toshkent shahar IIB boshlig'ining alohida ko'rsatmasi asosida shahar bo'yicha keng qamrovli "Tozalash" profilaktik tadbiri o'tkazildi. Shu munosabat bilan 2015 yilning 30 avgust kuniga har bir profilaktika inspektori o'zi xizmat ko'rsatayotgan ma'muriy hudud bo'yicha tadbirning natijalari yuzasidan hisobotlar tayyorlashi va IIB HPXga taqdim etishlari lozimligi haqida rahbariyat tomonidan topshiriq berildi.

*Tinglovchilar, profilaktika inspektori sifatida ma'muriy hududda o'tkazilgan "Tozalash" keng qamrovli profilaktik tadbirning natijalari yuzasidan hisobot namunasini tayyorlashlari lozim.*

**Masala:** 2023 yilning 7 may kuni Toshkent shahar IIBda shahar miqyosida «Arsenal» tadbiri o'tkazish jarayonida Mirzo Ulug'bek tumani 84-sonli profilaktika inspektori kapitan A.A. Axmedovga tuman IIB JXX boshlig'i, mayor F.I. Qodirov tomonidan ov miltig'i egasi sifatida ro'yxatda turuvchi Alisher Navoiy ko'chasi, 25-xonadonda yashovchi Muhiddinov Mirza Miralievichning ov miltig'ini saqlash sharoitini tekshirish haqida maxsus topshiriq berildi. Topshiriqqa binoan profilaktika inspektori kapitan A.A. Axmedov tekshirish vaqtida TOZ-34 rusumli, 12 kalibrli, qo'sh og'izli, zavod raqami 90-55533 sonli o'qotar qurol, begonalar ko'zidan yiroqda, eshigi yaxshi qulflanadigan metall qutida, jangovar o'q-dorilardan alohida, bo'laklarga ajratilgan holda g'ilofda saqlanayotganligi, o'qotar qurol Mirzo Ulug'bek tuman IIBga ro'yxatga qo'yilgan va uni saqlashga M-20 sonli ruxsatnoma berilganligi, lekin uning muddati tugaganligini va M.M. Muhiddinov miltig'ini qayta ro'yxatdan o'tkazish qoidasini buzib O'zbekiston Respublikasi MJtKning 221-moddasida ko'rsatilgan huquqbuzarlikni sodir etganligini aniqladi.

*Tinglovchilar, profilaktika inspektori sifatida o'tkazilgan huquqbuzarliklarning maxsus profilaktik tadbiri jarayonida aniqlangan ma'muriy huquqbuzarlik yuzasidan tegishli ma'muriy protsessual hujjatlarning maketini tayyorlashi lozim.*

### **Profilaktika inspektorining harakatlarini aniqlang?**

### **Yakka tartibdagi profilaktik faoliyat bo'yicha topshiriq:**

**Masala:** Mirzo Ulug'bek tumani Qorasu-1 daxasi 26-uy 22-xonadaonda yashovchi 1964 yilda tug'ilgan, uylanmagan, hech qaerda ishlamaydigan, muqaddam 2 marotaba jinoiy javobgarlikka tortilib sudlangan fuqaro Muxammadiev Albert Alievich, o'g'rilik jinoyatini sodir etganligi uchun O'z.R. JKning 169 moddasi 3-qismi bilan 2018 yil 25 yanvar kuni Mirzo Ulug'bek tuman jinoyat ishlari bo'yicha sudi tomonidan jinoiy javobgarlikka tortilib 6 yilga ozodlikdan maxrum etilgan. Muqaddam sudlangan fuqaro A.A.Muxammadiev o'ziga berilgan 6 yil ozodlikdan mahrum etish jazosini to'liq o'tab 2020 yil 30 dekabr kuni doimiy yashab

kelgan joyiga qaytib keldi va tuman IIB HPX 106-sonli TP profilaktika inspektori kapitan Sh.Rasulovga kelib uchrashdi.

**Topshiriq:** Mirzo Ulug‘bek tuman IIB HPX profilaktika inspektori kapitan Sh.Rasulovning muqaddam sudlangan fuqaro A.A.Muxammadiev tomonidan takror jinoyat sodir etilishining oldini olish, unda ijobiy ijtimoiy yo‘lga kirib olishni shakllantirish bilan bog‘liq yakka tartibdagi profilaktik faoliyatini suhbat ssenariysini tuzish.

**Masala:** Mirzo Ulug‘bek tuman IIB HPX profilaktika inspektori letenant Sh.Rasulovning muqaddam sudlangan fuqaro A.A.Muxammadiev tomonidan takror jinoyat sodir etilishining oldini olish, unda ijobiy ijtimoiy yo‘lga kirib olishni shakllantirish bilan bog‘liq yakka tartibdagi profilaktik faoliyatini suhbat.

Mirzo Ulug‘bek tumani Qorasuv mavzesi, Qorasuv 1-dahasida sodir etilgan odam savdosi fakti bo‘yicha hudud profilaktika inspektori, mayor Sh.A.Toshev surishtirish ishlarini olib borish jarayonida Mirzo Ulug‘bek tuman sudining 2019 yil 12 fevraldagi hukmiga asosan O‘zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining 135-moddasining 2-qismi b-bandida ko‘rsatilgan jinoyatni sodir etganligi uchun 8 yil muddatga ozodlikdan mahrum etilib, 2022 yilning 14 fevral kuni 68/89-sonli jazoni ijro etish muassasasidan jazo muddatini o‘tab qaytib kelgan 1977 yilda tug‘ilgan M.Ulug‘bek tuman Qora-su-1, 28/15 xonadonda yashovchi, fuqaro A.A. Adashev qaytib kelganligini aniqladi va undan qachon kelganligini so‘raganda bugun kirib kelganligi, o‘zi profilaktika inspektoriga uchrashmoqchi bo‘lib turganligini bildirdi.

*Tinglovchilar profilaktika inspektori sifatida ilgari sudlangan shaxsni profilaktik hisobga olish uchun unga nisbatan hisob profilaktika ishining hujjatlarini rasmiylashtirishlari lozim.*

**Tinglovchilar profilaktika inspektori rolini aniqlang?**

#### **Mustaqil tayyorgarlik uchun topshiriq:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonunini o‘qish va konspektlashtirish.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2010 yil 29 avgustdagi “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunini o‘qish va konspektlashtirish.

3. Huquqbuzarliklarning yakka tartidagi profilaktikasi kimlarga nisbatan o‘tkaziladi?

4. Huquqbuzarliklarning yakka tartidagi profilaktikasi ob‘ektlari qanday toifalarga bo‘linadi?

5. Huquqbuzarliklarning yakka tartidagi profilaktikasining qanday chora-tadbirlari mavjud?



## 7-mavzu: Profilaktik hisobga olish asoslari, tartibi, mahalla huquq tartibot maskanida yuritiladigan profilaktik hisoblar va ularning turlari.

*Ma'ruza mashg'uloti (2 soat)*

### Reja:

**1-savol.** Profilaktik hisobga olish asoslari va tartibi.

**2-savol.** Shaxsni profilaktik hisobga olish muddati va hisobdan chiqarish asoslari.

### 1-savol. Profilaktik hisobga olish asoslari va tartibi.



Profilaktik hisobga olish O'zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi Qonunning 35-moddasida nazarda tutilgan shaxslarga nisbatan ularning tuzalishi va takroran huquqbuzarlik sodir etishining oldini olish maqsadida ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladigan profilaktika tadbirlari majmuidir.

**Profilaktik hisob** – bu jamiyatda yurish turish qoidalarini buzib, g'ayriijtimoiy harakat yoki harakatsizlik sodir etgan shaxslarni kelgusida qayta huquqbuzarliklar sodir etmasligini nazorat qilish hamda ularga ijtimoiy rehabilitatsiya va ijtimoiy moslashtirish choralarini qo'llashni ta'minlash maqsadida yuritiladigan hujjat hisoblanadi.

Profilaktik hisob hujjatida hisobda turuvchi shaxslarning turmush-tarzi, yaqinlari va qarindoshlari bilan munosabati, oila va jamiyatda yurish-turishi haqidagi ma'lumotlar to'planib boriladi.

**O'zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi qonunning 35-moddasiga asosan quyidagi shaxslarga nisbatan profilaktik hisoblar yuritiladi:**

– ilgari sudlanganlarga ular jinoiy jazoni o'taganidan so'ng, o'ziga nisbatan ma'muriy nazorat o'rnatilgan shaxslar bundan mustasno;

– o'ziga nisbatan sudning jazo tayinlanmagan ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan shaxslarga;

– O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 84-moddasiga muvofiq aybdorlik to'g'risidagi masala hal qilinmasdan turib o'ziga nisbatan jinoyat ishi tugatilgan yoxud rehabilitatsiya qilmaydigan asoslar bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish to'g'risidagi qaror chiqarilgan shaxslarga;

– o'ziga nisbatan qamoqqa olish bilan bog'liq bo'lmagan ehtiyot chorasi tanlangan jinoyat sodir etishda ayblanuvchilarga;

– O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 40, 41, 45, 47, 52, 56, 58, 61, 106, 131, 165<sup>1</sup>, 183, 184, 184<sup>1</sup>, 184<sup>2</sup>, 184<sup>3</sup>, 187, 188, 188<sup>1</sup>, 189, 189<sup>1</sup>, 190, 191, 201, 202, 202<sup>1</sup>, 240, 241-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etganlarga;

– ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalaridan qaytganlarga.

Voyaga yetmaganlar va ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oiladagi ota-onalarga nisbatan voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlari tomonidan profilaktik hisoblar yuritiladi, ushbu lavozim mavjud bo'lmagan hududiy ichki ishlar organlarida bu toifadagi shaxslarga nisbatan profilaktik hisoblar profilaktika inspektorlari tomonidan yuritiladi.

Profilaktika inspektori profilaktik hisobga olingan shaxslar bilan yakka tartibda profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishda shaxsning yoshi, jinsi, ruhiy holati, ijtimoiy ahvoli, ma'lumoti va mutaxassisligi, ehtiyojlari, qiziqishlari, qobiliyatlari kabi shaxsiy xususiyatlarini e'tiborga olishi lozim.

Mahalla huquq-tartibot maskanlarida yuritiladigan profilaktik hisob hujjatlarida hisobda turuvchi shaxslar bilan amalga oshirilgan profilaktik ishlar haqidagi ma'lumotlar, ularning

tushuntirish xatlari tikib boriladi, shuningdek profilaktik hisoblar bo'yicha oylik tahliliy ma'lumotlar tayyorlanib tegishli ravishda tuman IIB HPBga taqdim etib borilishi profilaktika inspektorlarining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. **Profilaktik hisoblarning yuritilishi maqsadi quyidagilardan iborat:**

***birinchidan***, ushbu toifadagi shaxslarni normal turmush tarziga qaytarish;

***ikkinchidan***, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;

***uchinchidan***, jinoyatga moyil bo'lgan shaxslarni nazoratini amalga oshirish va ular tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarning oldini olish.

Yuqoridagi toifadagi shaxslarni profilaktik hisobga olish bilan bir qatorda ular bilan tegishli ravishda yakka tartidagi tarbiyaviy profilaktik ishlarni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi, mazkur toifadagi shaxslar ma'lum bir ma'noda jamiyatda yurish-turish qoidalarini buzgan hamda jinoyat sodir etishga moyil shaxs sifatida o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Ular bilan olib boriladigan yakka tartidagi profilaktik ishlar Qonunning 29-moddasi ko'rsatilgan huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi chora-tadbirlarini qo'llash orqali amalga oshiriladi, ushbu chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

- profilaktika suhbatlari o'tkazish;
- rasmiy ogohlantirish;
- huquqbuzarlikning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar haqida xabardor qilish;
- ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish;
- profilaktik hisobga olish;
- majburiy davolanishga yuborish;
- ma'muriy nazorat.

Har bir ichki ishlar organlarining tayanch punktlarida profilaktik hisobga olingan shaxslarning hisobi olib boriladi va har oyning 30 sanasiga qadar tuman (shahar) ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarma (bo'lim va bo'linmalari)lariga taqdim etib boriladi.

Tuman (shahar) ichki ishlar organlari mas'ul xodimlari mahalla huquq-tartibot maskanlarida profilaktika inspektorlari tomonidan taqdim etgan hisobotlarni umumlashtirib, **har oyning 30 sanasiga** qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi va viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari Huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmasiga taqdim etadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi va viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari Huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmalari keyingi oyning 3 sanasiga qadar umumlashtirilgan hisobotini vazirlik Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatiga taqdim etadi.



**Ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalarida hamda mahalla huquq-tartibot maskanlarida quyidagi huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarning ro'yxati yuritiladi:**

- surunkali alkogolizmga muhtal bo'lgan shaxslar;
- giyohvandlikka chalingan shaxslar;
- zaharvandlikka chalingan shaxslar;
- ruhiy kasallar;
- tanosil kasalliklariga chalingan shaxslar;
- doimiy yashash joyidan uzoq muddatga chiqib ketgan shaxslar;
- jazoni ijro etish inspeksiyalari hisobida turgan hamda ichki ishlar organlari profilaktik hisobida turish muddati tugaganligi sababli profilaktik hisobdan chiqarilgan, ammo O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 78-moddasida ko'rsatilgan sudlanganlik holati tugallanmagan ilgari sudlangan shaxslar.

Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari tomonidan har chorak yakuni bo'yicha surunkali alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlikka

mubtalo bo'lgan, tanosil kasalliklariga chalingan shaxslar hamda ruhiy kasallar ro'yxatlari sog'liqni saqlash muassasalaridan alohida so'rov xati orqali rasman olib boriladi.

Sog'liqni saqlash muassasalaridan olingan ro'yxatlar ichki ishlar organlari tayanch punktlariga taqdim etilib, sog'liqni saqlash idoralari mutaxassislari bilan hamkorlikda profilaktik tadbirlar olib boriladi.

#### **Shaxsni profilaktik hisobga qo'yishga quyidagilar asos bo'ladi:**

- vakolatli organning yoki mansabdor shaxsning "Huquqbuzarlik profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunning 35-moddasi oltinchi xatboshisida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qarori;

- vakolatli organning yoki mansabdor shaxsning jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi yoxud rehabilitatsiya qilmaydigan asoslar bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish to'g'risidagi qarori;

- o'ziga nisbatan qamoqqa olish bilan bog'liq bo'lmagan ehtiyot chorasi tanlangan ayblanuvchi sifatida ishda ishtirok etishga jalb qilish to'g'risidagi tergovchining yoki prokurorning qarori;

- sudning qonuniy kuchga kirgan ayblov hukmi;

- shaxsning jazoni ijro etish muassasasidan ozod qilinganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma;

- voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyaning qarori.

Bir shaxsni profilaktik hisobga qo'yish uchun bir qancha asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, asoslarning har biri bo'yicha alohida-alohida profilaktik hisobga olish amalga oshiriladi.

#### **Shaxsni profilaktik hisobga qo'yish tartibi**

"Huquqbuzarlik profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunning 36-moddasi birinchi qismida ko'rsatilgan asoslardan biri mavjud bo'lganda, profilaktik hisobga olishni amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan shaxs shaxsni profilaktik

hisobga qo'yish to'g'risida ichki ishlar tuman, shahar bo'limining, boshqarmasining boshlig'i tomonidan tasdiqlanadigan qaror chiqaradi. Mazkur qaror shaxsni profilaktik hisobga qo'yish uchun asoslar mavjudligidan dalolat beruvchi hujjatlar mansabdor shaxs tomonidan olingan kundan e'tiboran o'n kun ichida chiqariladi. Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarga nisbatan shaxsni profilaktik hisobga qo'yish to'g'risidagi qaror ular yashash joyiga yetib kelgan kundan e'tiboran uch kun ichida chiqariladi.

Shaxsni profilaktik hisobga qo'yish to'g'risidagi qarorda qarorni chiqargan shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi, u chiqarilgan sana va joy, u qaysi shaxsga nisbatan chiqarilgan bo'lsa, o'sha shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar (familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi, yashash, ish, o'qish joyi) va profilaktik hisobga qo'yish asoslari ko'rsatiladi. Shaxsni profilaktik hisobga qo'yish to'g'risidagi qaror mazkur qarorni chiqargan shaxs tomonidan imzolanadi.

Shaxsni profilaktik hisobga qo'yish to'g'risidagi qaror profilaktik hisobga qo'yilgan shaxsga imzo qo'ydirib e'lon qilingan paytdan e'tiboran kuchga kiradi. Qaror ushbu shaxsga tasdiqlangan paytdan e'tiboran uch kun ichida, u yashash joyida bo'lmagan hollarda esa, uning turgan joyi aniqlangan paytdan e'tiboran uch kun ichida e'lon qilinishi kerak. Qaror e'lon qilinganda shaxsga uning huquq va majburiyatlari tushuntirilib, bu haqda qarorda qayd qilinadi.

Shaxsning xulq-atvorini nazorat qilish va unga nisbatan huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi chora-tadbirlari o'z vaqtida qo'llanilishini ta'minlash maqsadida shaxs profilaktik hisobga qo'yilgan kunda ichki ishlar organlari tomonidan profilaktika ishi ochiladi.

Shaxsni profilaktik hisobga olish u profilaktik hisobga qo'yilgan paytdan e'tiboran bir yil mobaynida amalga oshiriladi.

Profilaktika inspektori profilaktik hisob ishini yuritish chog'ida quyidagilarni amalga oshiradi:

- profilaktik hisobga olingan shaxsni g'ayriijtimoiy xulq-atvorni davom ettirmaslik haqida ogohlantiradi;
- profilaktik hisobga olingan shaxsni uning ish (o'qish) va yashash joyidan tekshiradi, uning xulq-atvori haqida ma'lumotlar oladi;
- yakka tartibdagi barcha chora-tadbirlar belgilangan ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlarini farqlash va yakka tartibdagi yondashish tamoyiliga qat'iy amal qilgan holda olib boradi;
- jazoni ijro etish muassasasidan bo'shatilgan shaxslarning oilasiga, shuningdek jamiyatga moslashishida ko'mak beradi;
- profilaktik hisobga olingan shaxsni o'qish yoki ishga joylashtirilishida, shuningdek vaqtincha yashash joyi bilan ta'minlanishida, ijtimoiy hayotga moslashishi uchun moddiy ko'mak olishida yordam ko'rsatadi;
- profilaktik hisobdagi shaxslardan axloqan tuzalayotgan va o'zida ijtimoiy ijobiy xulq-atvorni shakllantira boshlaganlarini rag'batlantirish yoki aksincha g'ayriijtimoiy xulq-atvorini davom ettirgan shaxslarga nisbatan esa, qonunda belgilangan tartibda majburlash choralari qo'llaydi.

Profilaktika ishlarining yuritilishi ichki ishlar organi boshlig'i hamda huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari boshlig'i, mas'ul xodimlari tomonidan yilning har choragida kamida bir marotaba tekshirilib, aniqlangan kamchiliklar bartaraf etib boriladi.

## **2-savol. Shaxsni profilaktik hisobga olish muddati va hisobdan chiqarish asoslari.**

Shaxsni profilaktik hisobga olish u profilaktik hisobga qo'yilgan paytdan e'tiboran **bir yil mobaynida** amalga oshiriladi.

Agar profilaktik hisobga olishni amalga oshirish davrida "Huquqbuzarlik profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunning 36-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan yangi asoslar vujudga kelsa, shaxsni profilaktik hisobga olish muddatini hisoblash shaxs yangi vujudga kelgan asoslar bo'yicha profilaktik hisobga qo'yilgan paytdan e'tiboran amalga oshiriladi.

**Shaxsni profilaktik hisobdan chiqarish quyidagi asoslardan biri mavjud bo'lganda amalga oshiriladi:**

- profilaktik hisobga olish muddatining tugashi;
- reabilitatsiya qiluvchi asoslarga ko'ra jinoyat ishini tugatish to'g'risida tergovchi yoki prokuror tomonidan qaror qabul qilinishi yoki sudning oqlov hukmining qonuniy kuchga kirishi;
- sudning shaxsni ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazoga hukm qilish to'g'risidagi ayblov hukmining yoki tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash to'g'risidagi sud ajrimining qonuniy kuchga kirishi;
- qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini tanlash to'g'risida sud tomonidan ajrim chiqarilishi;
- shaxsning muddatidan oldin to'liq tuzalganligi to'g'risida dalolat beruvchi ma'lumotlarning mavjudligi;
- profilaktik hisobda turgan shaxs O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga doimiy yashash joyiga qonunda belgilangan tartibda chiqib ketgan taqdirda;
- profilaktik hisobda turgan shaxsning vafot etishi.



Yuqorida ko'rsatilgan asoslardan biri mavjud bo'lganda, profilaktik hisobni amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan shaxs shaxsni profilaktik hisobdan chiqarish to'g'risida ichki ishlar tuman, shahar bo'limining, boshqarmasining rahbari tomonidan tasdiqlanadigan qaror chiqaradi.

Profilaktik hisobda turgan shaxs ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoga hukm qilingan taqdirda, unga nisbatan to'plangan materiallar sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan

kundan e'tiboran besh kun ichida huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi chora-tadbirlarini qo'llash uchun tegishli jazoni ijro etish muassasasiga yuboriladi.

Profilaktik hisobda turgan shaxs doimiy yashash joyini o'zgartirgan taqdirda, uni hisobga olish yangi doimiy yashash joyi bo'yicha amalga oshiriladi.

Profilaktik hisobda turgan shaxs ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoga hukm qilingan taqdirda, unga nisbatan yuritilayotgan profilaktika ishi sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan kundan e'tiboran besh kun ichida jazoni ijro etish bosh boshqarmasiga yuboriladi. Jazoni ijro etish bosh boshqarmasi ushbu profilaktika ishini mahkum jazo o'tayotgan muassasaga yuborilishini tashkil etadi.

Profilaktik hisobda turgan shaxs doimiy yoki vaqtincha yashash joyini o'zgartirgan taqdirda, ushbu shaxsga nisbatan yuritilayotgan profilaktika ishi shaxsning yangi doimiy yoki vaqtincha yashash joyida amalga oshiriladi.

Buning uchun profilaktika ishini yuritayotgan mas'ul xodim profilaktik hisobda turgan shaxsning o'zgargan doimiy yoki vaqtincha yashash joyini aniqlab, profilaktika ishini ushbu manzilga yuborish uchun ichki ishlar organi rahbariyati nomidan xat tayyorlab, profilaktik hisobda turgan shaxsning o'zgargan doimiy yoki vaqtincha yashash joyidagi ichki ishlar organiga yuboradi.

Shaxsni profilaktik hisobdan chiqarish to'g'risidagi qaror ichki ishlar organi boshlig'i tomonidan tasdiqlangan kundan kuchga kiradi va **3 kun ichida profilaktik hisobdan chiqarilgan shaxsga e'lon** qilinadi.

Shaxs profilaktik hisobdan chiqarilganida ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati tomonidan yuritiladigan maxsus kitobga tegishli belgi yozib qo'yiladi.

Profilaktik hisobdan chiqarilgan shaxslarga nisbatan yuritilgan profilaktika ishlari ichki ishlar organlari tayanch punktida 3 yil davomida saqlanadi, so'ngra dalolatnoma asosida yo'q qilinadi.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan yakka tartibdagi profilaktika ishini yuritish «Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida»gi qonunning 3-bobi «Yakka tartibdagi profilaktika ishini tashkil etish» talablari asosida amalga oshiriladi.

Shaxsni ichki ishlar organlari profilaktik hisobiga olish va profilaktik hisobdan chiqarish asoslari bo'lgan vakolatli organning yoki mansabdor shaxsning qarorlari shu kunning o'zida, sudning hukmlari, qarorlari va ajrimlari esa, ular qonuniy kuchga kirgan kuni shaxs doimiy yoki vaqtincha yashayotgan hududdagi ichki ishlar organiga aloqa xati orqali taqdim etib boriladi. Shaxsning doimiy yoki vaqtincha yashash joyi bo'lmagan hollarda profilaktik hisobga olish va profilaktik hisobdan chiqarish asoslari ushbu shaxs mahalliy hokimliklar hamda manfaatdor tashkilotlar tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda doimiy yoki vaqtincha yashash uchun joylashtirilgan nogironlar uylari, yotoqxonalar joylashgan hududga xizmat ko'rsatuvchi ichki ishlar organiga taqdim etiladi.

Profilaktik hisobda turgan barcha toifadagi shaxslarning ro'yxatlari ichki ishlar organi navbatchilik qismidagi kompyuterning alohida faylida saqlanadi va ushbu ma'lumotlardan xizmatda foydalaniladi. Ro'yxat xisobot oyining yakuni bo'yicha ichki ishlar organi hisobni qayd etish inspektori tomonidan Axborot markazidan olingan ma'lumotlar asosida yangilab boriladi.

Davlat tomonidan bu idoralarning vakolat doiralari ishlab chiqilib, ularning har birining oldiga, o'ziga xos vazifalar qo'yildi. Ichki ishlar organlari davlat boshqaruvining tarkibiy qismi sifatida jamiyat hayotida asosiy o'rin tutadi. Ichki ishlar organlarining asosiy vazifasi o'z mohiyati mazmuniga ko'ra Respublikada huquqni muxofaza qilishga, qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi sub'ektlarining faoliyatini tashkil etishda Ichki ishlar organlarining tayanch punktlarining faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi, shu jumladan profilaktik hisoblarni yuritish va profilaktik hisobda turgan shaxslarni nazorat qilish, ular bilan yakka tartibdagi tarbiyaviy profilaktik ishlarni tashkil etish, ijtimoiy rehabilitatsiya va ijtimoiy moslashtirish choralari qo'llashda tayanch punktlarida hamkorlikdagi ishlarni tashkil etilishi yanada samarali hisoblanadi.

Shuningdek profilaktik hisobda turgan shaxslarning mavjud muammolarini yechimlarini topish, ularni qonunlarga rioya etish va unga amal qilish ruhida tarbiyalash borasida hamda huquqiy madaniyatini shakllantirish mexanizmi sifatida namoyon bo'ladim. Ichki ishlar xodimlarining davlat organlari, jamoat tuzilmalari va fuqarolar bilan hamkorligini ta'minlab, huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi.

### **Mustaqil tayyorgarlik uchun topshiriq:**

Mustaqil ta'limning mazmunini tinglovchilar ma'ruza va boshqa o'quv mashg'ulotlarda olgan bilimlarini mustaqil ta'lim jarayonida yanada chuqurroq o'zlashtirishlari va navbatdagi mashg'ulotga mo'ljallangan mavzu bo'yicha tayyorgarlik ko'rishlari tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonunining 35-39 moddalarini o'rganish va tegishli bandlarini konspektlashtirish.

### **7-mavzu: Profilaktik hisobga olish asoslari, tartibi, mahalla huquq tartibot maskanida yuritiladigan profilaktik hisoblar va ularning turlari**

*Seminar mashg'uloti (2 soat)*

Ushbu o'quv mashg'uloti **“Aqliy hujum”** metodidan foydalanish orqali o'tkaziladi.

Mavzu yuzasidan tinglovchilarga savol tashlanadi. “Aqliy hujum” metodi orqali ularning mavzu bo'yicha bilimlari aniqlanadi.

“Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat: xodimlarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo'yicha o'z javoblarini (fikr, g'oya va mulohaza) bildirishlarini so'raladi; xodimlarlar savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi; xodimlarning fikr-g'oyalari (diktofonga, videotasmaga, rangli qog'ozlarga yoki doskaga) to'planadi; fikr-g'oyalar ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi; yuqorida qo'yilgan savolga aniq va to'g'ri javob tanlab olinadi.

### **O'quv mashg'ulotning savollari:**

- 1-savol. Profilaktik hisob deganda nimani tushunasiz?
- 2-savol. O'zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi qonunning 35-moddasiga asosan qanday shaxslarga nisbatan profilaktik hisoblar yuritiladi?
- 3-savol. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining qaysi moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etganlarga nisbatan profilaktik hisoblar yuritiladi?
- 4-savol. Huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi chora-tadbirlari.
- 5-savol. Ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalarida hamda mahalla huquq-tartibot maskanlarida qanday huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarning ro'yxati yuritiladi?
- 6-savol. Shaxsni profilaktik hisobga qo'yish asoslarini ayting.

### **Mustaqil tayyorgarlik uchun savollar:**

1. Shaxsni profilaktik hisobga qo'yish tartibi.
2. Profilaktika inspektori profilaktik hisob ishini yuritish chog'ida qanday xarakterlarni amalga oshiradi.
3. Shaxsni profilaktik hisobdan chiqarish asoslari.
4. Shaxsni profilaktik hisobga qo'yish to'g'risidagi qaror.
5. Qaror e'lon qilinganda shaxsga uning huquq va majburiyatlari tushuntirish.
6. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 78-moddasida ko'rsatilgan sudlanganlik holati tugallanmagan ilgari sudlangan shaxslar.

## **7-mavzu: Profilaktik hisobga olish asoslari, tartibi, mahalla huquq tartibot maskanida yuritiladigan profilaktik hisoblar va ularning turlari.**

### *Amaliy mashg'uloti (2 soat)*

Amaliy mashg'ulot davomida tinglovchilar berilgan masalani yechishlari va hal etishlari, shuningdek profilaktika xizmatlari tomonidan profilaktika inspektorlarining profilaktik hisobga olish va mahalla huquq tartibot maskani faoliyatini tashkil etish bo'yicha berilgan topshiriqlarni amalga oshirishda lozim bo'lgan vazifalarini ketma-ketlikda ko'rsatib berishlari lozim.

**Masala:** 2022 yilning 10 mart kuni Sergeli tuman IIB boshlig'ining Jamoat xavfsizligi xizmati bo'yicha o'rinbosari, mayor M.Umarov profilaktika inspektorlari bilan yo'riqnoma o'tkazish jarayonida ularga o'zlari xizmat ko'rsatayotgan ma'muriy hududning bir haftalik kreminogen vaziyati to'g'risida joriy yilning 16 mart kuni jamoat tuzilmalari oldida ma'lumot berilishligi va tuman IIB HPXga taqdim etishlari haqida ko'rsatma berdi.

### **Profilaktika inspektorlarining harakatlarining ketma-ketligini aniqlang?**

**Masala:** Mirzo Ulug'bek tumani, Farobiy kuchasi 25-uyda yashovchi, 2000 yilda tug'ilgan fuqaro Sulaymonov Bekzod Araqulovich 2022 yilning 10 noyabr kuni mast holda janjal ko'targanligi sababli O'zbekiston Respublikasi MJtKning 183-moddasida ko'rsatilgan «mayda bezorilik» xatti-harakatlarini sodir etganligi sababli Mirzo Ulug'bek tuman Jinoyat ishlari bo'yicha sudi tomonidan ma'muriy jazo chorasi qo'llanildi. Shundan so'ng mazkur qarorning bir nusxasi tuman IIBga yuborildi.

### **Ushbu holatda profilaktika inspektorining harakatlarini ketma-ketlikda ko'rsating?**

**Masala:** M.Ulug'bek tumani "Yulduz" mahallasida joylashgan 12-sonli MHTM profilaktika katta inspektori mayor B.Alimovga IIB navbatchilik qism tomonidan jamoat tartibini saqlash va kriminagen vaziyati og'ir bo'lgan hududlarni nazoratga olish to'g'risida topshiriq berildi.

### **Ushbu holatda profilaktika katta inspektorining harakatlarini ketma-ketlikda ko'rsating?**

**Masala:** Mirzo Ulug'bek tuman, Qorasuv-1 dahasi, 40-uy, 15-xonadonda yashovchi, 1966 yilda tug'ilgan, fuqaro Raximov Parpi Voxidovich 2019 yilning 5 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi JKning 135-moddasi 1-qismi bilan jinoyat ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tuman sudining hukmiga ko'ra besh yil muddatga ozodlikdan maxrum qilish jazosiga tortildi. Fuqaro P.Rahimov berilgan jazoni UYa/48-17-sonli jazoni ijro ietish muassasasida to'liq o'tab, 2022 yilning 12 noyabr kuni o'zining doimiy yashash joyiga qaytib keldi va JIEM ma'lumoti bilan profilaktika inspektori kapitan B.Murodovga uchrashdi.

*Tinglovchilar profilaktika inspektori sifatida JIEMdan qaytib kelgan ilgari sudlangan shaxsni profilaktik hisobga olish uchun "Hisob profilaktika ishi"ning hujjatlarini rasmiylashtiradi va maketini tayyorlaydilar.*

### **Mustaqil ta'lim savollari:**

1. Qaysi toifadagi shaxslarga nisbatan profilaktik hisoblar yuritiladi?
2. Profilaktika suhbatlari kimlar bilan o'tkaziladi?
3. Rasmiy ogohlantirish nima?
4. Ma'muriy nazorat qaysi toifadagi shaxslarga nisbatan o'rnatiladi?
5. Qaysi toifadagi shaxslar ilgari sudlangan hisoblanadi?
6. Ilgari sudlangan shaxslar bilan qaychi turdagi profilaktik ishlar amalga oshiriladi?
7. Ilgari sudlangan shaxslar nechta toifaga bo'linadi?
8. Ilgari sudlangan shaxs qancha muddatga profilaktik hisobga olinadi?
9. Ilgari sudlangan shaxslarga qanday ijtimoiy-huquqiy yordam turlari ko'rsatiladi?
10. Ilgari sudlangan shaxslar bilan ishlash bo'yicha profilaktika inspektorining asosiy vazifalari nimadan iborat?

## 8-mavzu: Profilaktika inspektorlarining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaati bilan ishlash faoliyati.

*Ma'ruza mashg'uloti (2 soat)*

### Reja:

**1-savol.** Profilaktika inspektorining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish faoliyatining tushunchasi va ahamiyati.

**2-savol.** Profilaktika inspektorining jismoniy va yuridik shaxslarning og'zaki murojaatlarini ko'rib chiqish faoliyati.

**3-savol.** Profilaktika inspektorining jismoniy va yuridik shaxslarning yozma shakldagi murojaatlarini ko'rib chiqish va hal etish faoliyati.

### 1-savol. Profilaktika inspektorining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish faoliyatining tushunchasi va ahamiyati



Mamlakatimiz inson huquqlari oliy qadriyat hisoblanib, ular davlat tomonidan qo'riqlanadi va kafolatlanadi. Shu bois ularning davlat organlari va mansabdor shaxslarga murojaat etish huquqlari himoya qilinadi va ta'minlanadi.

Fuqarolar fuqarolarning o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishda, buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini tiklash, davlat va jamiyat faoliyatini takomil-lashtirishga doir tavsiyalari bilan davlat va vakillik organlariga murojaat etish huquqlariga egadir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 35-moddasida: "Har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega. Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqilishi shart"<sup>1</sup>, 44-moddasida - "Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi" deb fuqarolarning bu boradagi huquqlari kafolatlab qo'yilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingan bo'lib, ushbu qonunda fuqarolarning murojaat etish va o'z navbatida murojaatlarni davlat va vakillik organlari tomonidan ko'rib chiqilishi hamda hal etilishi tartibi, davlat organlarining bu boradagi majburiyatlari belgilab berilgan.

Fuqarolar qandaydir zarurat tug'ilganda davlat organlari yoki mansabdor shaxslarga murojaat qiladi va uladan yordam kutadi. Fuqarolar turli masalalar bilan murojaat etishlari mumkin, masalan, maishiy-turmush yoki ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi muammolarini hal etish yohud ularga nisbatan moddiy, ma'naviy va sog'ligiga yetkazilgan zararlar uchun aybdorlarga nisbatan chora ko'rishlikni so'rab, shaxsiy huquqlaridan foydalanishga yohud buzilgan huquqlarini tiklashga yordam berishlarini hamda davlat organlari va korxonalar, muassasa, tashkilotlarning, jamoat tuzilmalarining faoliyatini takomillashtirishga doir tavsiyalar kiritish borasidagi takliflari bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonun asosida murojaatlar shaklan yozma yoki og'zaki, berish tartibiga ko'ra jamoa yoki bir shaxs tomonidan, turlariga ko'ra ariza, shikoyat va takliflar ko'rinishida bo'ladi.

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Конституцияси., "Ўзбекистон", НМИУ, Т.: 2012., 9-б.



## Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarining turlari:

**Ariza** - fuqarolarning o'z huquqlari erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishda yordam ko'rsatish to'g'risidagi iltimosidir.

**Shikoyat** - fuqarolarning buzilgan huquqlari va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini tiklash to'g'risidagi talabidir.

**Taklif** - fuqarolarning davlat va jamiyat faoliyatini takomillashtirishga doir tavsiyasi hisoblanadi.

Fuqarolarning murojaatlari kelib tushgan vaqtdan boshlab qonunda belgilangan tartibda, muddatlarda ko'rib chiqilishi shart. Buning uchun murojaatlar birinchi navbatda qayd etilishi lozim. Shu bilan birga murojaatlarga qo'yilgan talablar ham mavjud bo'lib, ularda murojaat etgan shaxsning familiyasi, ismi, sharifi, yashash joyi, ish joyi, tug'ilgan yili ko'rsatilgan bo'lishi va o'zi tomonidan imzolangan bo'lishi lozim. Ushbu ma'lumotlar ko'rsatilmagan murojaatlar "anonim" hisoblanadi va ko'rib chiqilmaydi.

**Qonunning 3-moddasida** fuqarolarning murojaat etish huquqlari belgilab berilgan. Ushbu moddaga asosan fuqarolarning murojaat etish huquqidan foydalanishlari boshqa shaxslarning, jamiyat va davlatning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi kerak. Shuningdek, xorijiy davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ham O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kabi belgilangan tartibda murojaat etishlari mumkin.

Fuqarolarning murojaatlari davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan ko'rib chiqilishi va tegishli qarorlar qabul qilinishi hamda hal etilishi, shuningdek chiqarilgan qaror haqida murojaat etgan shaxsga rasmiy ravishda xabar berilishi lozim. Shuningdek, davlat organi yoki mansabdor shaxslar fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqishdan asossiz bo'yicha tovlashsa yoki murojaatlarini ko'rib chiqishga oid belgilangan tartib-qoidani buzgan hollarda ma'muriy va jinoiy javobgarliklar keltirib chiqarishi qonunlarimizda belgilab berilgan.

Misol uchun, fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqishni g'ayrihuquqiy tarzda rad etganlik, murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzganlik, asossiz, qonunga zid qaror qabul qilganlik, shuningdek fuqaroning buzilgan huquqlarini tiklashni, shikoyat munosabati bilan qabul qilingan qarorni real bajarishni ta'minlamaganlik uchun mansabdor shaxslarga MJTKning "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish" deb nomlangan 43-moddasida belgilangan tartibda eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, fuqarolarning o'z huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish huquqlari ham mavjud bo'lib, bu kabi huquqlar mansabdor shaxslar tomonidan asossiz ravishda rad etilgan hollarda mansabdor shaxslarga MJTKning "Hujjatlar bilan tanishib chiqishni asossiz ravishda rad etish" deb nomlangan 44-moddasida belgilangan tartibda eng kam ish haqining bir baravaridan ikki baravarigacha miqdorda jarima jazosi belgilanishiga asos yaratiladi.

Bordi-yu, yuqorida aytib o'tilgan qilmishlar natijasida fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga jiddiy zarar yetkazilsa, u holda JKning "Fuqarolarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish" deb nomlangan 144-moddasi 1-qismi bilan jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos vujudga keladi. "Jiddiy zarar" O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998 yil 17 apreldagi "Iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo'yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to'g'risida"gi 11-sonli qarori bilan moddiy zarar tarzida ham, boy berilgan foyda tarzida ham,

shuningdek, turli xil manfaatlarga boshqacha zarar yetkazishda, hokimiyat organlarining obro'siga putur yetkazishda, oqir jinoyatlarni yashirishda va hokazolarda ifodalanishi mumkinligi aytib o'tilgan. Moddiy zarar ko'rinishidagi jiddiy zarar "ko'p miqdordagi zarar" bilan tenglashtirilgan. "Ko'p miqdordagi zarar" esa amaldagi Jinoyat kodeksi bilan eng kam oylik ish haqining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha bo'lgan miqdordagi zarar deb belgilab qo'yilgan.

Profilaktika inspektorlari fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqishga vakolatli mansabdor shaxs sifatida murojaatlarni ko'rib chiqish jarayonida salbiy ijtimoiy voqea-hodisalar, huquqbuzarliklar yoki jinoyatlar haqidagi axborotlarga ega bo'ladi hamda ushbu ma'lumotlar asosida kelgusida bajarilishi lozim bo'lgan ishlarni rejalashtirib oladi va sodir etilishi ehtimoli bo'lgan huquqbuzarlik va jinoyatlarning o'z vaqtida oldini olinishini, ularning sabab va sharoitlarini aniqlab, bartaraf etish choralari amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Shu bilan birga profilaktika inspektorlarining murojaatlarni ko'rib chiqish faoliyati axborot olish vositasi bir qatorda aholi bilan aloqani mustaxkamlash, ularning ishonchini qozonish hamda keng jamoatchilik bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishning yo'llaridan biri hisoblanadi. Profilaktika inspektorlari murojaatlarni ko'rib chiqish jarayonida ularni mazmunan to'liq o'rganishi, sub'ektiv va ob'ektiv holatlarni tahlil etishi, qonun doirasida qaror qabul qilishi va o'z vaqtida hal etishi maqsadga muvofiq. Aksincha murojaatlarni ko'rib chiqishda befarqlik qilish, ularga panja orasidan qarash salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

## **2-savol. Profilaktika inspektorining jismoniy va yuridik shaxslarning og'zaki murojaatlarini ko'rib chiqish faoliyati**



O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi Qonunining 8-moddasida davlat organlarida fuqarolarni qabul qilish hamda ularning og'zaki murojaatlarini hal etish tartibi belgilangan.

Profilaktika inspektorlarining Ichki ishlar organlari tayanch punktida fuqarolarni qabul qilish faoliyati shahar yoki tuman IIB boshlig'i tomonidan tasdiqlangan alohida jadval asosida amalga oshiriladi. Ushbu jadval Ichki ishlar organlari tayanch punktining kirish joyida peshlavha sifatida osib qo'yiladi. Ushbu jadvalda profilaktika inspektori, Ichki ishlar organlari tayanch punkti va tuman-shahar IIBning telefon raqami, qabul qiluvchi xodimning lavozimi unvoni, familiyasi, ismi va sharifi, qabul kunlari va vaqti yozib qo'yiladi. Fuqarolarni qabul qilish kuni va vaqti ular uchun qulay bo'lishi lozim. Bunday qabul kunlari haftasiga ikki kundan kam bo'lmasligi lozim.

Fuqarolarning og'zaki murojaatlarini bo'yicha profilaktika inspektorlarining faoliyatini tizimlashtirish va tartibga solish uchun har bir Ichki ishlar organlari tayanch punktida **"Fuqarolarni qabul qilish kitobi"** yuritiladi. Ushbu kitobda murojaat etgan shaxsning familiyasi, ismi va sharifi, yashash joyi, tug'ilgan yili, murojaat etgan sanasi, murojaatning qisqacha mazmuni hamda mazkur murojaat bo'yicha amalga oshirilgan ishlar haqida yozib qo'yilishi kerak. Masalan, fuqaroga murojaati bo'yicha sudga murojaat etishi lozimligi haqida maslahat berilsa shu haqda yozib qo'yiladi.

Shuningdek, fuqaro og'zaki murojaati jarayonida jinoyat haqidagi xabarni yetkazgan taqdirda, undan yozma ravishda ariza olish choralari ko'riladi va shu kunning o'zida olingan ariza tuman-shahar IIB navbatchilik qismidagi "Shakl-1" kitobidan qayd ettiriladi. Jinoyatga oid bo'lmagan ariza va shikoyatlardan boshqa barcha shakldagi yozma murojaatlari ichki ishlar organi kotibiyatida alfavit ("Shakl-3) kitobidan shu kunning o'zida qayd qilinishi shart.

Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilganligi haqidagi axborot aniqlanicha u holda fuqaroning roziligi asosida bu holatda ham yozma ravishda ariza olinishi mumkin hamda bu ariza ham shu kunning o'zida kotibiyatdagi Profilaktika inspektorlari tomonidan fuqarolarni qabul qilish jadvalda ko'rsatilgan kun va vaqtlarda amalga oshirilishi shart, agar ma'lum bir sabablarga

ko'ra u bo'lmaganda tuman-shahar IIB boshlig'ining ko'rsatmasi bilan hududga vaqtinchalik biriktirilgan profilaktika inspektori fuqarolarni qabul qilishi mumkin.

Korxonalar, tashkilot va muassasalar yoki fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlarida qabul amalga oshirilishi uchun ularning rahbarlari tomonidan alohida ajratilgan va jihozlangan xonalarda o'tkazilishi kerak. Shuningdek, bu joylarda qabul kunlarini korxonalar, tashkilot va muassasalar ma'muriyati bilan kelishib tuziladi. Fuqarolarni qabul qilishda navbatga alohida e'tibor qaratilishi va ba'zi hollarda qabulga oldindan yozib qo'yishni amalga oshirish mumkin. Profilaktika inspektorlari fuqarolarni qabul qilish jarayonida O'zbekiston Respublikasi qaxramonlari, Oliy Majlisning qonunchilik palatasi deputatlari va Senati senatorlari, mahalliy davlat hokimiyati kengashlarining deputatlari, ikkinchi jahon urushi nogironlari hamda ularga tenglashtirilgan shaxslar, homilador ayollar va yosh bolaliklar navbatsiz qabul qilinishini tashkil qilishlari kerak.

Islohotlar jarayonida Ichki ishlar organlari tayanch punktlari infratuzilmasi takomillashtirilganligi, unda profilaktika inspektorlari bilan mahalla fuqarolar yig'ini, mahalla posbonlari jamoat tuzilmasi vakillari, yarashtirish komissiyalari, diniy-ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilarning bir binoda birgalikda faoliyat yuritishi tashkil etilishi fuqarolarni qabul qilish jarayonida huquqshunoslarning, mahalla faollari, diniy-ma'rifat va ma'naviy-ahloqiy tarbiyaviy masalalar buyicha maslahatchilarni jalb etilishi fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish va ularni hal etish imkoniyatlarini oshirdi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, fuqarolar o'zlarining mavjud muammolarini hal etishda yordam so'rab, birinchi navbatda Ichki ishlar organlari tayanch punktiga kelib profilaktika inspektorlariga murojaat etishadi va ulardan yordam kutadi. Bu holatlar profilaktika inspektorlaridan yuksak salohiyat, kasbiy bilim va ko'nikmalar tatalb etadi, eng asosiysi ulardan pedagogik va psixologik bilimlar ham talab etiladi. Chunki, murojaat etgan fuqaroga muammosi bo'yicha to'g'ri tushuntira olish, uning mavjud masalani hal etishda ma'lum bir ma'noda yordam ko'rsatilganidan dalolat beradi. Bunda profilaktika inspektori fuqaroning ko'ngliga yo'l to'pa olishi, uning ko'rsatgan yo'l yo'rig'ini to'g'ri deb tan olishi muhim ahamiyatga ega.

### **3-savol. Profilaktika inspektorining jismoniy va yuridik shaxslarning yozma shakldagi murojaatlarini ko'rib chiqish va hal etish faoliyati**

Profilaktika inspektorlariga fuqarolardan kelib tushgan yozma shakldagi murojaatlar mazmuniga ko'ra tuman-shahar IIB kotibiyatdagi alfavit kitobidan (Shakl-3), navbatchilik qismidagi Shakl-1 va Shakl-2 kitoblaridan shu kunning o'zida tegishli ro'yxatdan o'tkaziladi.

Fuqarolarning murojaati mazmuni bo'yicha ichki ishlar organlariga taalluqli bo'lmagan hollarda mazkur ariza va shikoyat 5 kunlik muddat ichida tegishlilik bo'yicha vakolatli organ (mansabdor shaxs)ga yuborish choralari ko'radi.



Profilaktika (katta) inspektoriga fuqarolar jinoyat haqidagi ariza va shikoyatlar bilan murojaat qilganda, bu haqda u zudlik bilan ichki ishlar organi navbatchilik qismiga telefon orqali, xabarlar tafsiloti yozib olinadigan telefon aloqalari o'rnatilgan organlarda esa shunday telefon raqamiga qo'ng'iroq qilib xabar beradi. Profilaktika (katta) inspektori ma'muriy hududda sodir etilgan jinoyatlar va bedarak yo'qolgan shaxslar haqidagi ariza va xabarlarini O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi va tegishli boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vakolat doirasida va tartibda qabul qiladi.

Profilaktika (katta) inspektorlariga fuqarolar ma'muriy hududda sodir etilgan jinoyatlar va bedarak yo'qolgan shaxslar haqida ariza va xabarlar bilan murojaat etganda O'zbekiston Respublikasining JPK va tegishli boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vakolat doirasida va tartibida qabul qiladi.

Profilaktika (katta) inspektoriga fuqarolarning jinoyatga oid bo'lmagan boshqa barcha shakldagi yozma murojaatlari ichki ishlar organi kotibiyatdagi alfavit kitobidan (Shakl-3) shu kunning o'zida qayd qilinishi shart.

Qayd etilgan murojaatning bo'sh qolgan joyiga ichki ishlar organlarining to'rtburchak muhri bosiladi va murojaat kelgan kun, qayd qilish raqami yozib qo'yiladi. Shuningdek, ularga IIB boshlig'ining siporishi qo'yilib, ko'rib chiqishi belgilangan xodimga beriladi. Profilaktika inspektorlariga ko'rib chiqishlari va tegishli hal qiluv qarorini qabul qilishlari uchun ijroga berilgan murojaatni imzo qo'ygan holda oladi.

Fuqaroning familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilmagan yoki u haqda soxta ma'lumotlar ko'rsatilgan, shuningdek, imzo qo'yilmagan yozma murojaatlar anonim hisoblanib, profilaktika (katta) inspektori tomonidan ko'rib chiqilmaydi (***tezkor qiziqish uyg'otadigan ma'lumotlar mavjud bo'lgan bunday (anonim) murojaatlar tezkor yo'llar bilan tekshirib ko'rilishi mumkin***).

Profilaktika (katta) inspektori tomonidan fuqaroni qabul qilish, agar uning bir necha bor qilgan murojaati asossiz, qonunga xilof xususiyatda bo'lsa yoki uning murojaati bo'yicha qaror qabul qilib bo'lingan bo'lsa, rad etilishi mumkin.

Profilaktika (katta) inspektori tomonidan fuqarolarning murojaatlari bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risidagi barcha ma'lumotlar va javoblar, yozishmalar kotibiyatda alohida yuritiladigan kitoblarda ro'yxatdan o'tkaziladi.

Profilaktika (katta) inspektori tomonidan fuqarolarning ariza va shikoyatlari ichki ishlar organlariga kelgan kundan boshlab bir oygacha bo'lgan muddatda, qo'shimcha o'rganish va tekshirishni talab etmaydiganlari esa o'n besh kundan kechiktirmay ko'rib chiqiladi. Ayrim hollarda ichki ishlar organi rahbarining ko'rsatmasiga binoan ko'rib chiqish muddatlari qisqartirilishi ham mumkin.

Profilaktika (katta) inspektori tomonidan ariza yoki shikoyatni hal etish uchun maxsus tekshiruv o'tkazish, qo'shimcha materiallar talab qilib olish yoki boshqa chora-tadbirlar ko'rish zarur bo'lgan hollarda (*O'zbekiston Respublikasining JPKni 329-moddasida nazarda tutilgan holatlardan biri mavjud bo'lganda*) ariza va shikoyatni ko'rib chiqish muddatini uzaytirishni so'rab prokurorga murojaat qilinadi, ko'rib chiqish muddati uzog'i bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin va bu haqida ariza yoki shikoyat qilgan shaxsga xabar qilinadi.

Profilaktika (katta) inspektori fuqarolarning ariza, taklif va shikoyatlarini ko'rib chiqish va qabul qilish jarayonida fuqarolar bilan yuksak muomala madaniyati bilan suhbatlashishi, ularning so'rovlari va fikrlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishi kerak.

Profilaktika (katta) inspektori fuqarolarning yozma va og'zaki murojaatlaridagi ma'lumotlardan ma'muriy hududda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, jinoyatlarni fosh etish, qidiruvdagi va ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni aniqlash, huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshirish va o'z xizmat faoliyatini takomillashtirishda foydalanadi.

Nazoratga olingan ariza, shikoyatlarga ikki nusxada kartochka to'ldiriladi va xatdagi masalalar bo'yicha barcha yozishmalarga uni qayd qilish raqami qo'yiladi. Xatlarga profilaktika inspektorlari IIB boshlig'ining yoki boshqa vakolatli mansabdor shaxsning imzosi bilan javob yozishi mumkin. Murojaatlar bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risidagi barcha ma'lumotlar va javoblar, yozishmalar alohida yuritiladigan kotibiyatdagi kitoblarga ro'yxatdan o'tkaziladi.

Profilaktika inspektorlari fuqarolarning yozma shakldagi ariza, shikoyat va xabarlarini ko'rib chiqish chog'ida ularning mazmunini diqqat bilan o'rganib chiqishlari, ularni har tomonlama xolisona o'rganishi va tegishli ravishda axborotlar, ma'lumotlar to'plashi, ularda bayon etilgan holatlarni tekshirish uchun joylarga borishlari, shikoyatning sabab va sharoitlarini aniqlash va bartaraf etish uchun chora-tadbirlar ko'rish shart. Bu jarayonga mahalla posbonlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa jamoat birlashmalarining vakillari jalb etilishi mumkin.

Murojaatlar bo'yicha profilaktika inspektorlari tekshirish natijalari yuzasidan to'plangan hujjatlarning ob'ktiv tahlil etib xulosa qilishi kerak. Profilaktika inspektorlari tekshiruv natijalari bo'yicha xulosalari qarorida fuqarolarning huquqlari va qonun bilan himoyalangan manfaatlari buzilganligi aniqlansa, xulosada fuqarolarning buzilgan huquqlari va qonun bilan himoya qilinadigan manfaatlarini tiklash, kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish bo'yicha, hamda



aybdor shaxslarga nisbatan qanday choralar ko'rilgani ko'rsatilishi kerak. Chiqarilgan har qanday xulosa IIB boshlig'i yoki vakolatli rahbar tomonidan tasdiqlanishi talab etiladi. Profilaktika inspektorlari bajarilishi shart bo'lgan yakuniy qarorlarning o'z vaqtida va to'g'ri bajarilishini ta'minlashi shart.

Davlat va hukumat idoralari, radio, televidenie, gazeta va jurnallar tahririyatlariga javob berilishi lozim bo'lgan ariza, shikoyatlar yoki xabarlar alohida nazoratga olinadi.

Profilaktika inspektorlari tomonidan yozma shakldagi fuqarolarning ariza va shikoyatlarini ichki ishlar idoralariga kelgan kundan boshlab 15 kun, qo'shimcha o'rganishni talab etsa bir oygacha bo'lgan muddatdan kechiktirmay ko'rib chiqilishi kerak. Ba'zi hollarda IIBning rahbarining ko'rsatmasiga binoan ko'rib chiqish muddatlari qisqartirilishi ham mumkin.

Yozma shakldagi murojaatlarni ko'rib chiqishda xo'jalik faoliyatini tekshirish zarurati yuzaga kelsa qonun xujjatlariga asosan amalga oshiriladi. Profilaktika inspektorlarining yozma shakldagi murojaatlarni ko'rib chiqishi jarayoni ichki ishlar organiga kelib tushgan kundan boshlab yakuniy qaror qabul qilinguncha hal etilib, egasiga xabar berilgunga qadar hisoblanadi.

Ariza, shikoyat va xabarlar bo'yicha profilaktika inspektorlari quyidagicha yakuniy xulosa qilib javob berishlari mumkin:

1). O'zining vakolatiga kirgan masalalarni ijobiy hal etish uchun choralar ko'rilganligi haqidagi.

2). Murojaatlardagi masalalarni ko'rib chiqishni boshqa davlat organi yoki mansabdor shaxning vakolatiga kirishi haqida;

3). Agar avval xuddi shu mazmundagi murojaat etilgan bo'lib undagi masalalar hal etilgan bo'lsa va yana takror bir shaxsdan shu mazmunda qayta ariza va shikoyat kelib tushsa, oldingi ko'rilgan choralarning to'g'riligi haqida.

Murojaat etgan fuqaroga profilaktika inspektorlari o'zlari chiqargan qaroridan norozi bo'lgan holatlarida yuqori organ yoki mansabdor shaxsga shikoyat berishi tartibi tushuntirishlari ham lozim. Fuqarolar tomonidan murojaatlar bo'yicha qarorlarning ijrosini nazorat qilishi agar fuqaroning qonuniy manfaatlari va huquqiy erkinliklari buzilgan bo'lsa yoki ma'naviy va moddiy zarar yetkazilganligi aniqlansa qonunda belgilangan tartibda zararni qoplash chora-tadbirlarini ko'rishi lozim.

Shuningdek, fuqarolarning jamaotchilik ahamiyatiga molik ariza va shikoyatlari bo'lsa, bunday holda profilaktika inspektorlari ishtirokida uning natijalari mehnat jamoalarida muhokama qilinadi.

Profilaktika inspektorlari tomonidan turli mazmundagi ariza, shikoyat va xabarlarini ko'rib chiqish va ularni o'z vaqtida, qonun doirasida hal etishlarida boshqa davlat organlari, jamoat birlashmalari va ichki ishlar organlarining boshqa xizmat xodimlari bilan hamkorlikning o'rni beqiyosdir. Buning asosiy sabablaridan biri shuki, fuqarolarning murojaatlarining mazmuni turlicha bo'lishi, ba'zi hollarda murojaatlarda bayon etilgan masalalarda boshqa organlarning ko'magi zarurligini keltirishimiz mumkin.

Profilaktika inspektorlariga beriladigan ariza, shikoyatlarning ko'p qismida fuqarolarning o'zaro janjallarini bayon etilishi ba'zi hollarda turli ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etilganligi oqibatida kelib tushadigan murojaatlarni profilaktika inspektorlari ichki ishlar organlari va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlari bilan hamkorlikda ko'rib chiqishlarini sharoit taqazo etadi. Masalan, biror bir fuqaroning xududda joylashgan savdo shahobchalarida o'rnatilgan savdo-sotiq qoidalarini buzilganligi ustidan yozgan shikoyati bo'yicha profilaktika inspektorlari soliq organlari xodimlari ko'magidan foydalanishlari kerak bo'ladi.

Fuqarolarga yetkazilgan tan jarohati bo'yicha ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqishda, profilaktika inspektorlari tan jarohatining darajasini aniqlashda "sud-tibbiy-ekspertiza", tibbiy muassasalarning xodimlari bilan hamkorlikda aniqlaydi va tegishli qaror qabul qiladi.

Profilaktika inspektorlari fuqarolarning ariza va shikoyatlarini kurib chiqish jarayonida quyidagi xizmat vakillari va jamoat tuzilmalari bilan hamkorlikda ishlashlarini taqozo etishi mumkin.

Oila-turmush, qo'ni-qo'shnichilik, qarindosh-urug'chilik doirasidagi kelishmovchilik mazmunidagi ariza shikoyatlarni hal etishda.

- Mahalla fuqarolar yig'ini faollari.
- MFY tashkil etilgan komissiyasi.
- Hududdagi baland qavatli uy-joylarga xizmat ko'rsatuvchi Shirkat vakillari.

Fuqarolarning ariza, shikoyatlari yuzasidan joylarda surishtirish davomida mahalla fuqarolar yig'ini faollari bilan hamkorlikga ularning maslahatlariga ko'proq e'tibor berish joyizdir, chunki mahalla xududida istiqomat qiluvchi fuqaroning kimligini, qanday tavsifga egaligini ko'proq maxalla oqsoqollari, jamoatchilik yaxshiroq biladi. Fuqarolarning maishiy-turmush sohasida sodir bo'lgan qo'ni-qo'shnilar, ota-ona va farzandlar, qaynona-kelin, aka-ukalar, yaqin-qarindoshlar o'rtsadagi turli ziddiyatlar mazmunidagi murojaatlarini ko'rib chiqish jarayonida, ularning sabab-sharoitlarini aniqlash hamda bartaraf etishda fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari qoshidagi "Yarashtirish" komissiyalari bilan hamkorlikda amalga oshiradilar va tegishli qarorlarni qabul qiladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan esa, turli ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bilan bog'liq murojaatlarni ko'rib chiqishda hamkorlik qiladilar. Masalan, muqaddam sudlangan shaxslar tomonidan uy-joysizligi, ishsizligini ko'satib yozilgan ariza va shikoyatlar bo'yicha ularni ishga joylashtirish, doimiy ro'yxatdan o'tkazish va yashash joylari bilan ta'minlashda, shuningdek, ularning oila a'zolari va o'zlariga ijtimoiy ta'minot yordamlarini ko'rsatish borasidagi masalalari bo'yicha murojaatlarni ko'rib chiqishda hamkorlik qiladi. Fuqarolarning xaq-xuquqlari paymol qilinishi uni tiklash, fuqarolarning sog'ligiga, tanasiga tan jarohati yetkazish bilan bog'liq xolatlar bayon etilgan ariza shikoyatlarni ko'rib chiqishda esa II Oning tergov, jinoyat qidiruv xodimlari bilan shuningdek sud-tibbiy-ekspertiza va tibbiyot muassasalarining ko'magi orqali hal etilishi mumkin.

Murojaatlarda ko'rsatilgan masalalar mazmunidan kelib chiqib, turli huquqbuzarliklar sodir etilganligini bayon etgan holatlarni aniqlash jarayonida uning tarkibida jinoyat alomatlari borligi aniqlansa, xulosa asosida ichki ishlar organlari tergov xizmati xodimlariga yuborilishi va murojaatni hal etilishi chora-tadbirlarini ko'rishlari mumkin. Shuningdek, tarkibida jinoyat alomatlari bo'lmagan huquqbuzarliklarni ko'rib chiqish jarayonida agar jinoiy ishni rad etish to'g'risidagi yakuniy qaror qabul qilish lozim bo'lgan holatlarda profilaktika inspektorlari prokuratura va tergov xizmati xodimlari bilan maslahatlashgan holda amalga oshirishlari murojaatlarni qonun doirasida, adolatli hal etilishini ta'minlovchi vosita bo'ladi.

Profilaktika inspektorlari ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi arizalarni ko'rib chiqish jarayonida hamda aniqlangan huquqbuzarlik uchun belgilanadigan ma'muriy choralarni ko'rib chiqish vakolati bo'lmagan holatda ular ushbu huquqbuzarlik uchun ma'muriy jazo choralarni qo'llashga vakolatli davlat organlari bilan hamkorlik qiladilar. Masalan, **MJTKning 40, 41, 52, 61, 64, 101, 104, 110, 115, 183, 190, 191, 194-moddalari** bo'yicha ma'muriy huquqbuzarlik masalalariga taalluqli bo'lsa huquqbuzarlarga nisbatan sud organlari orqali javobgarlikka tortish chora-tadbirlarini ko'radi, MJTKning 47, 188-moddalarida ko'rsatilgan ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha murojaatlarni ko'rib chiqishda mahalliy davlat hokimiyati organlari qoshidagi "Voyaga yetmaganlar bilan ishlash komissiyalari" orqali huquqbuzarlarga nisbatan tegishli choralar ko'rish masalalarni hal etadi.

O'z navbatida profilaktika inspektorlari ichki ishlar organlarining boshqa xizmatlari bilan ham ma'muriy huquqbuzarliklar masalalarini bayon etuvchi ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish va hal etishda hamkorlikni amalga oshiradi. Masalan, XChK va FRB xizmati bilan 223-moddaning 2, 3 bandleri, 225-moddalarinida ko'zda tutilgan huquqbuzarliklar, YoXB bilan esa 84, 124, 211-moddalaridagi huquqbuzarliklar, **YHXX bilan 125, 126, 127, 128, 129, 131, 135-moddalaridagi huquqbuzarliklar.**

O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunining 35-moddasiga muvofiq profilaktika inspektorlarining O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining **40, 41, 45, 47, 52, 56, 58, 61, 106, 131, 165<sup>1</sup>, 183, 184, 184<sup>1</sup>, 184<sup>2</sup>, 184<sup>3</sup>, 187, 188, 188<sup>1</sup>, 189, 189<sup>1</sup>, 190, 191, 201, 202, 202<sup>1</sup>, 240,**

**241-moddalarida** nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etganlarga nisbatan profilaktik hisobga olishi belgilandi. Ushbu normadan kelib chiqib, profilaktika inspektorlari yuqoridagi ko'rsatilgan moddalarda ko'rsatilgan huquqbuzarlik sodir etilganligi haqidagi ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqishda o'ta e'tibor bilan yondoshishlari talab etiladi, chunki shaxsni profilaktik hisobga olinishi uning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishini inkor etib bo'lmaydi.

Shuningdek, hozirgi davrda eng dolzarb masalalardan biri ayollar va voyaga yetmaganlar va ahloq-odob doirasida sodir etilgan huquqbuzarliklar mazmunidagi murojaatlarni ko'rib chiqishda mahallalardagi diniy-ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiyaviy masalalar bo'yicha maslahatchilar bilan hamkorlikdagi faoliyat samarali natijalarni beradi.

#### Mustaqil ta'lim uchun topshiriq

O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 11 sentabrda "Jismoniy va yuridki shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonunini o'qish va konspektlashtirish.

#### Nazorat uchun savollarga javob topishi kerak:


1. Murojaatlarning qanday turlari mavjud?
2. Murojaatlarning qanday shakllari mavjud?
3. Profilaktika inspektori jinoyatga oid ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqishga vakolatlimi?
4. Profilaktika inspektori murojaatlarni qancha muddatda ko'rib chiqishi lozim?
5. Profilaktika inspektori murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha qanday qarorlar qabul qiladi?

### 8-mavzu: Profilaktika inspektorlarining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaati bilan ishlash faoliyati.

*Seminar mashg'uloti (2 soat)*

Ushbu o'quv mashg'uloti "*Kichik guruhlarda ishlash*" interfaol metodidan foydalanish orqali o'tkaziladi.

"Kichik guruhlarda ishlash" metodining bosqichlari



### ***Guruhlarga topshiriqlar:***

- 1-guruhga topshiriq. Profilaktika inspektorining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari turlari ?
- 2-guruhga topshiriq. Profilaktika inspektorining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish muddatlari ?
- 3-guruhga topshiriq. Profilaktika inspektorining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari yuzasidan hal qiluv qarorlarini qabul qilish tartibi ?
- 4-guruhga topshiriq. Takroriy xatlar deb nimaga aytiladi?
- 5-guruhga topshiriq. *Fuqarolarning murojaatlari tushunchasi va turlari*
- 6-guruhga topshiriq. Fuqarolarning murojaatlari shakllari?
- 7-guruhga topshiriq. Fuqarolarning murojaatlariga qo'yiladigan talablar?
- 8-guruhga topshiriq. Profilaktika inspektorlarining fuqarolarning murojaatlari bo'yicha ish yuritish faoliyati qanday amalga oshiriladi?

### **Nazorat uchun savollarga javob topishi kerak:**

1. Profilaktika inspektorlari tomonidan fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish qanday tartibda amalga oshiriladi?
2. Fuqarolardan, ichki ishlar idoralari xodimlaridan kelgan xatlar qanday rasmiylashtiriladi?
3. Fuqarolarning murojaatlari takroriy bo'lsa qanday chora ko'rilishi mumkin?
4. Aynan bir shaxsning xati bir masala buyicha bir nechta joyga yuborilgan bo'lsa qanday chora ko'rilishi mumkin?
5. IIIlariga kelgan xatlar qanday tartibda ko'rib chiqiladi?
6. Fukarolrning ariza va shikoyatlari qancha muddatda ko'rib chiqilishi kerak?

## **8-mavzu: Profilaktika inspektorlarining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaati bilan ishlash faoliyati.**

### ***Amaliy mashg'uloti (2 soat)***

Amaliy mashg'ulot davomida tinglovchilar berilgan masalani yechishlari va hal etishlari, shuningdek profilaktika xizmatlari tomonidan profilaktika inspektorlarining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaati bilan ishlash bo'yicha berilgan topshiriqlarni amalga oshirishda lozim bo'lgan vazifalarini ketma-ketlikda ko'rsatib berishlari lozim.

**Masala:** 2022yilning 25 may kuni Mirzo Ulug'bek tuman IIB HPX 106-sonli ichki ishlar organlari tayanch punkti profilaktika inspektori, kapitan B.Murodovga Qorasuv-2, dahasi, 3-uy, 44-xonadonda yashovchi, 1959 yilda tug'ilgan fuqaro Solieva Nasiba Valievna ichki ishlar organlari tayanch punktiga kelib, o'zi yolg'iz yashashi, boquvchisi yo'qligi, pensiyasi kamligi, shu sababli uyini tepasidan chakka o'tayotganligi, uni tamirlashga puli yetmasligi shu sababli unga moddiy yordam olishiga ko'mak berishini so'radi.

**Ushbu holatda profilaktika inspektorining ketma-ketlikdagi harakatlarini ko'rsating?**

#### **Topshiriq:**

1. Profilaktika inspektorining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish faoliyatini tartibga soluvchi normalarni sharhlash.
2. Profilaktika inspektorining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish faoliyati jarayonida rasmiylashtiriladigan hujjatlar loyihalarini tayyorlash.
3. Profilaktika inspektorining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish faoliyati bo'yicha muammoli vaziyatli masalalarni tanqidiy baholash va hal etish (keys-stadi).
4. Profilaktika inspektorining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish faoliyatiga doir statistik ma'lumotlarni tahlil qilish.



### **Topshiriq:**

Tinglovchilar tuman IIOFMB navbatchilik qismiga telefon orqali kelib tushgan janjal bo'layotganligi haqidagi yolg'on xabar yuzasidan "Jinoyat ishini qo'zgatishni rad etish to'g'risida" qaror tayyorlashlari lozim.

### **Mustaqil ta'lim savollari:**

O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 11 sentabrdagi "Jismoniy va yuridki shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonunini o'qish va konspektlashtirish.

Tinglovchilar quyidagi savollarga javob topishi kerak:

1. Murojaatlarning qanday turlari mavjud?
2. Murojaatlarning qanday shakllari mavjud?
3. Profilaktika inspektori jinoyatga oid ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqishga vakolatlimi?
4. Profilaktika inspektori murojaatlarni qancha muddatda ko'rib chiqishi lozim?
5. Profilaktika inspektori murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha qanday qarorlar qabul qiladi?

### **9-mavzu: Profilaktika inspektorlarining ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatlari hamda xujjatlashtirish tartibi.**

*Ma'ruza mashg'uloti (2 soat)*

#### **Reja:**

**1-savol.** Profilaktika inspektorlarining ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatlari.

**2-savol.** Profilaktika inspektorlarining ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni xujjatlashtirish tartibi.

#### **1-savol. Profilaktika inspektorlarining ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatlari.**



Profilaktika inspektorlarining ma'muriy huquqbuzarliklarni aniqlash faoliyati ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritishning muhim va eng asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun, profilaktika inspektorlari ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritishni ta'minlash faoliyatida eng avvalo ma'muriy huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish va sodir etilgan bu turdagi g'ayrihuquqiy qilmishni aniqlashga e'tibor qaratishi muhimdir.

Profilaktika inspektorining ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish faoliyati bu, profilaktika inspektorining qonunda belgilangan maxsus vakolati doirasida ma'muriy hududda sodir etilgan g'ayrihuquqiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik)da ma'muriy huquqbuzarlik alomatlarini bor-yo'qligini aniqlash, huquqbuzar shaxsning aybdorligini isbotlash uchun dalillar to'plash, ma'muriy huquqbuzarlikning sabab va sharoitlarini aniqlash va bartaraf etish choralarini ko'rish, shuningdek huquqbuzar shaxsning qilmishiga yarasha jazoning muqarrarligini ta'minlashga qaratilgan ma'muriy protsessual jarayonidir.

***Darhaqiqat, ushbu faoliyatni samaradorligini oshirish o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, quyidagilarda namoyon bo'ladi:***

- ma'muriy hududda ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta'minlanishiga xizmat qiladi;
- davlat, jamiyat va inson farovonligini ta'minlaydi;
- davlat va jamoat tartibini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mulkchilikni, tabiiy muhitni turli g'ayrihuquqiy tajovuzlardan himoya qiladi;
- ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarning o'z vaqtida va ob'ektiv ko'rib chiqilishini ta'minlaydi;

- sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarlik uchun jazoning muqarrarligini ta'minlashga xizmat qiladi;
- ma'muriy huquqbuzarlik va jinoyatlarning barvaqt oldini olishni nazarda tutadi;
- fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalaydi.

### Ma'muriy huquqbuzarlik deganda

- qonunchilikka binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayrihuquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi.

MJKda nazarda tutilgan huquqbuzarlik uchun ma'muriy javobgarlik, basharti bu huquqbuzarlik o'z xususiyatiga ko'ra jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'lmagan taqdirda, amalga oshiriladi.



**Profilaktika inspektorlarining ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatlari** O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 248-moddasi 4 bandida belgilangan.  
**Ya'ni;**

- 47-moddasi birinchi qismida, *(Bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik)*
- 47<sup>3</sup>- moddasida, *(Nikoh yoshi to'g'risidagi qonunchilikni buzish)*
- 54- moddasida, *(Epidemiyalarga qarshi kurash qoidalarini buzish)*
- 56<sup>1</sup> - moddalarida, *(Jamoat joylarida tamaki mahsulotini iste'mol qilish)*
- 110 – moddasining birinchi qismida (fuqarolarga nisbatan), *(It va mushuk boqish qoidalarini buzish)*
- 111-moddasining birinchi qismida, *(Hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish)*
- 113-moddasining birinchi, ikkinchi, to'rtinchi va beshinchi qismlarida, *(Temir yo'l transportida harakat xavfsizligi qoidalarini buzish)*
- 114-moddasida, *(Temir yo'l transporti vositalaridan foydalanish qoidalarini buzish)*
- 122-moddasida, *(Tamaki mahsulotini transportda belgilanmagan joylarda iste'mol qilish)*
- 123-moddasida, *(Transport vositalaridan axlat yoki boshqa narsalarni tashlab yuborish)*
- 127-moddasida (tovush signalini sababsiz berishga doir qismida), *(Transport vositalarining tovush chiqaruvchi, yorituvchi va boshqa qurilmalaridan foydalanish, ularni o'rnatish qoidalarini buzish)*
- 128<sup>6</sup>-moddasida, *(Transport vositalari haydovchilarining to'xtash yoki to'xtab turish qoidalarini buzishi)*
- 147-moddasining birinchi qismida (avtomobil yo'llarini o'zboshimchalik bilan qazish, ularda sun'iy notekisliklar va to'siqlar yaratganlik, avtomobil yo'lida ishlarni amalga oshirish uchun berilgan ruxsatnoma talablarini bajarmaganlik, shuningdek yo'llarni saqlash qoidalarini buzganlik uchun), *(Yo'llarga, yo'l inshootlariga, yo'l harakatini tartibga solib turuvchi texnik vositalarga shikast yetkazish, ularni saqlash qoidalarini buzish)*
- 148-moddasida (ajratilgan mintaqalarda va yog'och ko'priklardan 100 metrgacha bo'lgan masofada olov yoqqanlik, taxta to'shamali ko'priklarda chekkanlik uchun), *(Temir yo'llar va avtomobil yo'llari uchun ajratilgan mintaqalarni muhofaza qilish qoidalarini buzish)*
- 161-moddasida (fuqarolarga nisbatan), *(Shaharlarni va boshqa aholi punktlarini obodonlashtirish qoidalarini buzish)*
- 187-moddasining birinchi qismida, *(Jamoat joylarida alkogol mahsulotini iste'mol qilish)*
- 188-moddasida, *(Voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish)*

- 188<sup>2</sup>-moddasida, *(Voyaga yetmagan shaxsning ko'ngil ochish (dam olish) joylarida tungi vaqtda bo'lishiga yo'l qo'yish)*
- 192-moddasida, *(Maishiy shovqinga qarshi kurash talablarini buzish)*
- 221-moddasida, *(Qurolni ro'yxatdan o'tkazish (qayta ro'yxatdan o'tkazish) qoidalarini yoki uning muomalasi sohasidagi ruxsatnomalarning amal qilish muddatini uzaytirish qoidalarini buzish)*
- 223-moddasining birinchi qismida, *(Pasport tizimi qoidalarini buzish)*
- 223<sup>1</sup>-moddasida, *( Pasportdan yoki identifikatsiyalovchi ID-kartadan g'ayriqonuniy ravishda foydalanish)*
- 223<sup>3</sup>-moddasida, *(Pasportni yoki identifikatsiyalovchi ID-kartani qonunga xilof ravishda olib qo'yish yoxud pasportni yoki identifikatsiyalovchi ID-kartani garovga olish)*
- 224-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar uchun *(Chegara zonasiga, shuningdek fuqarolarning kirishi va bo'lishiga vaqtincha cheklov belgilangan joylarga kirish hamda ularda yashash qoidalarini buzish)* - ichki ishlar organlari tayanch punktlarining profilaktika katta inspektorlari va inspektorlari qo'llashga haqlidir.

Ichki ishlar organlari tayanch punktlarining profilaktika katta inspektorlari va inspektorlari MJtKning 101-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklarni aniqlagan taqdirda, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzadi.


Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma ko'rib chiqish uchun ushbu Kodeksning 282-moddasida belgilangan tartibda sudga yuboriladi.

#### **101-modda. Elektr, issiqlik energiyasi, gazdan foydalanish qoidalarini buzish**

Umumiy foydalanishdagi elektr, issiqlik, gaz tarmoqlariga o'zboshimchalik bilan ulanish yoki ulardan foydalanish qoidalarini boshqacha tarzda buzish yoxud elektr, issiqlik energiyasi, tabiiy gazni hisobga olish asboblari shu jumladan ularning plombalariga qasddan shikast yetkazish yoki bunday hisobga olish asboblari ko'rsatkichlarini o'zgartirish maqsadida ularga tashqaridan aralashish, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa yigirma baravaridan yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalarida qurilgan binolar hamda inshootlarni elektr energiyasi, issiqlik va gaz ta'minoti tashkilotlari tomonidan elektr, issiqlik va gaz tarmoqlariga o'zboshimchalik bilan ulash, mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining yetmish baravaridan sakson besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

## 2-savol. Profilaktika inspektorlarining ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni xujjatlashtirish tartibi



Profilaktika inspektorlari ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi har bir ishning holatini o'z vaqtida, har tomonlama, to'la va ob'ektiv ravishda aniqlab chiqish vazifasini tahlil qiladigan bo'lsak, bu huquqbuzarlik ishini to'g'ri ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan barcha holatlarni aniqlashni nazarda tutadi.

Bunday holatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilganligini aniqlash;
- ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etishda shaxsning aybdorlik darajasini aniqlash;
- ma'muriy huquqbuzarlikning ma'muriy javobgarlikni vujudga keltirishini aniqlash;
- mulkiy zarar keltirilganligini aniqlash;
- ma'muriy javobgarlikni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarning mavjudligini aniqlash;
- huquqbuzar to'g'risidagi, shuningdek, ish uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa ma'lumotlarni aniqlash;
- ishni to'xtatishga olib keladigan holatlarning mavjudligini aniqlash va boshqalar.

Profilaktika inspektori ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilayotganligini aniqlagan taqdirda g'ayrihuquqiy qilmishni to'xtatishni talab qiladi, huquqbuzarning shaxsini aniqlaydi, ma'muriy huquqbuzarlik guvohlarini topish, ularning ko'rsatmalarini qayd etish choralarini amalga oshiradi, ish bo'yicha aniqlanishi kerak bo'lgan holatlarni aniqlaydi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishga oid dalillar har qanday faktik ma'lumotlardan iborat bo'lib, profilaktika inspektori tomonidan shu ma'lumotlarga asoslanib, ma'muriy huquqbuzarlik holati yuz bergan yoki bermaganligini, muayyan shaxsning uni sodir etishda aybdorligini va ishni to'g'ri ko'rib chiqish uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa holatlarni qonunda belgilangan tartibda aniqlaydi. Ushbu ma'lumotlar quyidagi vositalar: ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma, ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning tushuntirishlari hamda

jabrlanuvchi, guvohlarning ko'rsatuvlari, ekspert xulosasi, ashyoviy dalillar, ashyolar va hujjatlarni olib qo'yish to'g'risidagi bayonnoma, ovozli yozuvlardan, videoyozuvlardan, kinotasvir va fotosuratlardan iborat materiallar, shuningdek boshqa materiallar bilan belgilanadi.

***Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritishda (zarur hollarda) profilaktika inspektori quyidagi hujjatlarni to'playdi:***

- huquqbuzarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar nusxasini;
- huquqbuzarlikka oid dalillar, ashyo va hujjatlarni olib qo'yish haqida rasmiylashtirilgan bayonnomalarni;
- huquqbuzarlik bo'yicha aniqlangan guvohlar bilan suhbatlashib, ulardan olingan tushuntirish xatlarini;
- ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qaror hamda ekspertning xulosasini;
- moddiy zarar miqdorini hamda huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash haqidagi hujjatlarni;
- huquqbuzarni muqaddam ma'muriy javobgarlikka tortilganligini tekshirish haqidagi talabnomani;
- qonun hujjatlariga muvofiq ish holatiga aniqlik kiritishga doir boshqa hujjatlarni.

Profilaktika inspektori ish yuritish jarayonida avvalo huquqbuzarning shaxsini aniqlashi, uning shaxsiga oid ma'lumotlar to'g'riligini (fuqarolik pasporti yoki manzil ma'lumotlar byurosi ma'lumotiga ko'ra) tekshirishi shart va ularning haqqoniyligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

Shaxsning xatti-harakatlarida ma'muriy huquqbuzarlik alomatlari mavjud bo'lgan taqdirda profilaktika inspektori tomonidan birinchi galda ushbu huquqbuzarlikni ko'rib chiqish qaysi organ mansabdor shaxsi vakolatiga kirishini aniqlashi lozim. O'zbekiston Respublikasi IIVning profilaktika inspektorlari tomonidan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish tartibini belgilovchi me'yoriy hujjatlarida O'zbekiston Respublikasi MJtKning 280-moddasi talablaridan kelib chiqqan holda belgilangan ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha bayonnoma tuzish, dastlabki hujjatlarni rasmiylashtirish va ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan yoki aniqlangan paytdan boshlab bir sutkadan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi MJtKning 248-moddasi bo'yicha ushbu ma'muriy huquqbuzarlikni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan organ yoki mansabdor shaxsga yuboradi.

O'z vakolatiga kiradigan barcha huquqbuzarliklar yuzasidan O'zbekiston Respublikasi MJtKning 280-moddasi asosida ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha bayonnomani tuzadi, zaruriy holatlarda O'zbekiston Respublikasi MJtK 285-moddasida talablari asosida ish yuritishni ta'minlash choralarini, shu jumladan MJtKning 286-moddasiga muvofiq va qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlar doirasida ma'muriy yo'l bilan ushlab turishni amalga oshiradi.

Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilganligi to'g'risidagi bayonnoma vakolatli mansabdor shaxs tomonidan tuziladi.

**Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzishga vakolati bo'lgan shaxslar -** Buzilishi ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqaradigan qoidalarga rioya etilishini tekshirish va (yoki) nazorat qilish qonunchilik bilan zimmasiga yuklatilgan tegishli organning vakolatli mansabdor shaxsi ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomani tuzadi.

**Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomaning mazmuni**

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomada: shu bayonnoma tuzilgan sana va joy, bayonnomani tuzgan shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi; huquqbuzarning shaxsiga oid ma'lumotlar; ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan joy, vaqt va bu huquqbuzarlikning mohiyati, ana shunday huquqbuzarlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi normativ hujjat; agar guvohlar va jabrlanuvchilar bo'lsa, ularning familiyalari va yashash manzillari; huquqbuzarning tushuntirishi; ishni hal qilish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlar ko'rsatiladi. Basharti huquqbuzarlik tufayli moddiy zarar yetkazilgan bo'lsa, bu ham bayonnomada ko'rsatiladi.

Bayonnoma uni tuzgan shaxs va ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs tomonidan imzolanadi; guvohlar va jabrlanuvchilar bo'lgan taqdirda esa - bayonnoma mazkur shaxslar tomonidan ham imzolanadi.

Huquqbuzarlik sodir etgan shaxs bayonnomani imzolashdan bosh tortgan taqdirda, bayonnomaga bu haqda yozib qo'yiladi. Huquqbuzarlik sodir etgan shaxs bayonnomaning mazmuni yuzasidan bayonnomaga ilova qilinadigan tushuntirish va mulohazalarini berishga, shuningdek mazkur bayonnomaga imzo chekishdan bosh tortish sabablarini bayon etishga haqlidir.

Bayonnomani tuzish vaqtida huquqbuzarga MJtKning 294-moddasida nazarda tutilgan uning huquq va burchlari tushuntiriladi va bu xususda bayonnomaga yozib qo'yiladi.

#### **294-modda. Ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning huquq va burchlari**

Ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs ish materiallari bilan tanishib chiqishga, izohlar berishga, dalillar keltirishga, o'z iltimosini bayon etishga, ishni ko'rib chiqish vaqtida advokatning yuridik yordamidan foydalanishga, o'z ona tilida so'zlashga va tarjimonning xizmatlaridan foydalanishga, ish yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan shikoyat berishga haqlidir.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs ishtirokida ko'rib chiqiladi. Mazkur shaxsga ishni ko'rib chiqish joyi va vaqti haqida xabar qilinganligi to'g'risida ma'lumotlar bo'lgan va undan ishni ko'rib chiqishni kechiktirish xususida hech qanday iltimos tushmagan hollarda, shuningdek MJtK 309<sup>1</sup>-moddasining birinchi qismida (*Maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan yo'l harakati qoidalari buzilganligi bo'yicha jarima solish to'g'risidagi qaror ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning ishtirokisiz chiqariladi*) va 309<sup>2</sup>-moddasining birinchi qismida (*O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali qayd etilgan bojxona to'g'risidagi qonunchilikning buzilishlari bo'yicha jarima solish haqidagi qaror ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning ishtirokisiz chiqariladi*) nazarda tutilgan hollardagina ish uning ishtirokisiz ko'rib chiqilishi mumkin.

Basharti sodir etgan huquqbuzarligi uchun MJtKda ma'muriy qamoqqa olish, ashyolarini musodara qilish yoki haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish choralarini qo'llash nazarda tutilgan bo'lsa, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish vaqtida ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning ishtirok etishi shart. Mazkur shaxs bunday ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqishda ishtirok etishdan bo'yin tovlagan taqdirda, u jinoyat ishlari bo'yicha sudning ajrimiga binoan ichki ishlar organi tomonidan majburan olib kelinishi mumkin.

#### **282-modda. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomani jo'natish**

Bayonnoma boshqa hujjatlar va ish bo'yicha ashyoviy dalillar bilan birga huquqbuzarlik sodir etilgan yoki aniqlangan paytdan boshlab bir sutkadan kechiktirmay ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan organ (mansabdor shaxs)ga yuboriladi.

#### **Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomaga quyidagilar ilova qilinadi:**

- 1) ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjatning ko'chirma nusxasi;
- 2) ichki ishlar organlarining ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning ilgari ma'muriy javobgarlikka tortilganligi fakti mavjudligi yoki mavjud emasligi to'g'risidagi ma'lumotnomasi;
- 3) ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning tushuntirishi;
- 4) jabrlanuvchining, guvohlarning ko'rsatuvlari, ekspertning xulosasi, agar ular mavjud bo'lsa;
- 5) ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilganligi faktini tasdiqlovchi boshqa materiallar.

MJKning 52-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomaga ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan hujjatlardan tashqari quyidagilar ilova qilinadi:

- 1) jabrlanuvchining arizasi;
- 2) sudga qadar tibbiy ekspertiza tayinlanganligi haqidagi qaror va ekspertlarning xulosasi;
- 3) jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish to'g'risidagi qaror.

#### **Voyaga yetmaganlarning ma'muriy huquqbuzarlik uchun javobgarligi**

Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslarga nisbatan Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyalar to'g'risidagi nizomda nazarda tutilgan choralar qo'llaniladi.

Ana shu shaxslar mazkur Kodeksning **61, 116<sup>1</sup>, 116<sup>2</sup>, 116<sup>3</sup>, 125, 125<sup>1</sup>, 126, 127, 128, 128<sup>1</sup>, 128<sup>2</sup>, 128<sup>3</sup>, 128<sup>4</sup>, 128<sup>5</sup>, 128<sup>6</sup>, 129, 130, 131, 132, 133, 134, 135, 135<sup>1</sup>, 136, 138, 183, 185, 185<sup>1</sup>, 185<sup>2</sup>, 185<sup>3</sup>, 194, 194<sup>1</sup>, 209<sup>1</sup>, 218, 220, 221** - moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etgan taqdirda, ular umumiy asoslarda ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

Sodir etilgan huquqbuzarlik xususiyatini va huquqbuzarning shaxsini hisobga olgan holda mazkur shaxslarga nisbatan (ushbu Kodeksning 194 va 194<sup>1</sup>-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklarni sodir etgan shaxslar bundan mustasno) ishlar voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha tuman (shahar) idoralararo komissiyalari ixtiyoriga berilishi mumkin, ushbu Kodeksning 61-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslarning ishlari esa shu komissiyalarga berilishi lozim.

#### **Mansabdor shaxslarning ma'muriy javobgarligi**



Mansabdor shaxslar boshqaruv tartibini, davlat va jamoat tartibini saqlash, tabiiy muhitni, aholi sog'lig'ini muhofaza qilish sohasida belgilangan qoidalarga va bajarilishini ta'minlash o'z xizmat vazifalariga kiradigan boshqa qoidalarga rioya etmaganlik bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganliklari uchun ma'muriy javobgarlikka tortilishlari lozim.

Doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo'yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, hokimiyat vakili vazifalarini bajaradigan yoxud davlat organlarida, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida, mulk shaklidan qat'i nazar, korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda tashkiliy-boshqaruv, ma'muriy-xo'jalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan shaxs, xuddi shuningdek xalqaro tashkilotda yoxud chet davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma'muriy yoki sud organida mazkur vazifalarni amalga oshiruvchi shaxs mansabdor shaxs deb e'tirof etiladi.

Davlatning biron-bir hokimiyat organi nomidan ish ko'rib, muayyan vazifalarni doimiy yoki vaqtincha amalga oshiruvchi va o'z vakolatlari doirasida ko'pchilik yoxud barcha fuqaro yoki mansabdor shaxslar uchun majburiy bo'lgan harakatlarni sodir etish yoki farmoyishlar berish huquqiga ega bo'lgan shaxs hokimiyat vakili deb e'tirof etiladi.

#### **Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganlik uchun quyidagi ma'muriy jazo choralarini qo'llanilishi mumkin:**

1) jarima;

2) ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni haqini to'lash sharti bilan olib qo'vish;

3) ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni musodara qilish;

4) muayyan shaxsni unga berilgan maxsus huquqdan (transport vositasini boshqarish huquqidan, ov qilish huquqidan) mahrum etish;

6) chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni O'zbekiston Respublikasi hududidan ma'muriy tarzda chiqarib yuborish.

#### **Ma'muriy javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:**



1) aybdorning o'z qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lishi;  
2) aybdorning huquqbuzarlikning zararli oqibatlari oldini olishi, yetkazilgan ziyonni ixtiyoriy ravishda to'lashi yoki keltirilgan zararni bartaraf qilishi;

3) huquqbuzarlikning kuchli ruhiy hayajon ta'siri ostida yoki og'ir shaxsiy, oilaviy yoxud boshqa sharoitlar yuzaga kelganligi oqibatida sodir etilishi;

4) huquqbuzarlikning tahdid yoki majburlov ta'sirida yoxud xizmat yuzasidan, moddiy yoki boshqa jihatdan qaramligi ta'siri ostida sodir etilishi;

5) huquqbuzarlikning voyaga yetmagan shaxs tomonidan sodir etilishi;

6) huquqbuzarlikning homilador ayol yoki o'n to'rt yoshgacha bo'lgan bolasini yakka o'zi tarbiyalayotgan shaxs tomonidan sodir etilishi.

#### **Ma'muriy javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:**

1) g'ayrihuquqiy harakatlarni to'xtatish vakolati bor shaxslar tomonidan qo'yilgan talabga qaramay, bunday harakatlarni davom ettirish;

2) ma'muriy jazo chorasiga tortilgan shaxsning bir yil mobaynida yana o'sha xildagi huquqbuzarlikni sodir etishi, xuddi shuningdek huquqbuzarlikning ilgari sudlangan shaxs tomonidan sodir etilishi;

3) voyaga yetmagan shaxsni huquqbuzarlikka tortish;

4) huquqbuzarlikning bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilishi;

5) huquqbuzarlikning tabiiy ofat sharoitida yoki boshqa favqulodda holatlarda sodir etilishi;

6) huquqbuzarlikning mast holda sodir etilishi.

#### **Ma'muriy jazo qo'llanish muddatlari**

Ma'muriy jazo huquqbuzarlik sodir etilgan kundan boshlab, davom etayotgan huquqbuzarliklar uchun esa, huquqbuzarlik aniqlangan kundan boshlab bir yildan kechiktirmay qo'llanilishi mumkin.

Jinoyat ishini qo'zg'atish rad etilgan yoki jinoyat ishi tugatilgan bo'lsa-yu, lekin huquqbuzarning harakatlarida ma'muriy huquqbuzarlik alomatlari mavjud bo'lsa, ma'muriy jazo chorasi jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish yoki jinoyat ishini tugatish to'g'risida, agar ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan muddatlar o'tmagan bo'lsa, qaror qabul qilingan kundan e'tiboran bir oydan kechiktirmay qo'llanilishi mumkin.

#### **Mustaqil tayyorgarlik uchun topshiriq:**

Mustaqil ta'limning mazmunini tinglovchilar ma'ruza va boshqa o'quv mashg'ulotlarda olgan bilimlarini mustaqil ta'lim jarayonida yanada chuqurroq o'zlashtirishlari va navbatdagi mashg'ulotga mo'ljallangan mavzu bo'yicha tayyorgarlik ko'rishlari tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi MJtKning tegishli bandlarini o'rganish va konspektlashtirish.




## 9-mavzu: Profilaktika inspektorlarining ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatlari hamda xujjatlashtirish tartibi

*Seminar mashg'uloti (2 soat)*

Ushbu o'quv mashg'uloti "**Kichik guruhlarda ishlash**" interfaol metodidan foydalanish orqali o'tkaziladi.

"Kichik guruhlarda ishlash" metodining bosqichlari



### *Guruhlarga topshiriqlar:*

1-guruhga topshiriq. O'zbekiston Respublikasi MJtKning 52 modda 2 qismi bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirish.

2-guruhga topshiriq. O'zbekiston Respublikasi MJtKning 183-moddasi bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirish.

3-guruhga topshiriq. O'zbekiston Respublikasi MJtKning 187-moddasi bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirish.

4-guruhga topshiriq. O'zbekiston Respublikasi MJtKning 194-moddasi bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirish.

### **Mustaqil tayyorgarlik uchun savollar:**

1. Ma'muriy huquqbuzarlik tushunchasi.
2. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma ko'rib chiqish uchun belgilangan tartibda sudga yuborish.
3. Profilaktika inspektorlarining ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish faoliyatining asosiy vazifalari.
4. Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritishda (zarur hollarda) profilaktika inspektori tomonidan to'planadigan hujjatlar.
5. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomaning mazmuni.
6. Ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning huquq va burchlari.

7. Voyaga yetmaganlarning ma'muriy huquqbuzarlik uchun javobgarligi.

8. Mansabdor shaxslarning ma'muriy javobgarligi.

## **9-mavzu: Profilaktika inspektorlarining ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatlari hamda xujjatlashtirish tartibi**

### *Amaliy mashg'uloti (2 soat)*

Amaliy mashg'ulot davomida tinglovchilar berilgan masalani yechishlari va hal etishlari, shuningdek profilaktika xizmatlari tomonidan profilaktika inspektorlarining ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish bo'yicha berilgan topshiriqlarni amalga oshirishda lozim bo'lgan vazifalarini ketma-ketlikda ko'rsatib berishlari lozim.

**Masala:** Mirzo Ulug'bek tumani, Universam dehqon bozori yonida joylashgan avtomobillar to'xtash joyida 1989 yilda tug'ilgan fuqaro Rustamov Obid Rustamovich "Korotov" arog'ini ochgan holda undan istemol qilayotganligi natijasida u o'zini boshqara olmayotganligi bo'yicha militsiya tayanch punktiga fuqaro A.Yunusov xabar berdi. Mazkur holat bo'yicha profilaktika inspektori kapitan huquqbuzarlik sodir etilgan joyga yetib keldi.

**Topshiriq:** Ushbu holat yuzasidan profilaktika inspektori ma'muriy bayonnomani tuzish vakolatiga egami?

**Masala:** Mirzo Ulug'bek tuman, Qora-su-3, dahasi 17-uy, 28-xonadonda yashovchi, "Qo'riqchi" xususiy qo'riqchilik firmasi qorovuli 1990 yilda tug'ilgan fuqaro Ni Sergey Andreevich 2022 yilning 10 sentabr Mirzo Ulug'bek tuman IIB navbatchilik qismiga telefon orqali Mirzo Ulug'bek tuman Qora-su-3 dahasida qurilishi tugallanmagan "Aloqa" instituti uchun Harbiy aloqalar ilmiy-uslubiy markazida tungi navbatchilik qilayotgan vaqtida fuqarolarning kirishi taqiqlangan mazkur binoga hech kimdan so'ramasdan devor orqali Mirzo Ulug'bek tuman, Qora-su-3 dahasi 9-uy, 10-xonadonda yashovchi, 1979 yilda tug'ilgan, xususiy tadbirkor fuqaro Xoliqov Jamol Nosirovich kirganligi va ular tomonidan ushlanganligini aytib xabar berdi.

**Topshiriq:** Ushbu holatda profilaktika inspektori tomonidan aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar va J.N. Xoliqovning ma'muriy huquqbuzarligini aniqlang hamda tegishli ma'muriy protsessual hujjatlarni rasmiylashtiring.

**Masala:** 2022 yilning 7 may kuni Toshkent shahar IIBBda shahar miqyosida «Arsenal» tadbiri o'tkazish jarayonida Mirzo Ulug'bek tumani 84-sonli IIOTP profilaktika inspektori kapitan A.A. Axmedovga tuman IIB JXX boshlig'i, mayor F.I. Qodirov tomonidan ov miltig'i egasi sifatida ro'yxatda turuvchi Alisher Navoiy ko'chasi, 25-xonadonda yashovchi Muhiddinov Mirza Miralievichning ov miltig'ini saqlash sharoitini tekshirish haqida maxsus topshiriq berildi. Topshiriqqa binoan profilaktika inspektori kapitan A.A. Axmedov tekshirish vaqtida TOZ-34 rusumli, 12 kalibrli, qo'sh og'izli, zavod raqami 90-55533 sonli o'qotar qurol, begonalar ko'zidan yiroqda, eshigi yaxshi qulflanadigan metall qutida, jangovar o'q-dorilardan alohida, bo'laklarga ajratilgan holda g'ilofda saqlanayotganligi, o'qotar qurol Mirzo Ulug'bek tuman IIBga ro'yxatga qo'yilgan va uni saqlashga M-20 sonli ruxsatnoma berilganligi, lekin uning muddati tugaganligini va M.M. Muhiddinov miltig'ini qayta ro'yxatdan o'tkazish qoidasini buzib O'zbekiston Respublikasi MJtKning 221-moddasida ko'rsatilgan huquqbuzarlikni sodir etganligini aniqladi.

**Profilaktika inspektorining harakatlarini aniqlang?.**

### **Mustaqil tayyorgarlik uchun savol:**

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksining 248-moddaning 4-bandida ko'rsatilgan 24 ta moddani konsp.

Tinglovchilar quyidagi savollarga javob topishi kerak:

1. Profilaktika inspektorining ma'muriy huquqbuzarliklarni aniqlashda asosiy faoliyat yo'nalishlari nimalardan iborat?

2. Ma'muriy huquqbuzarlik sub'ektini ayting va profilaktika inspektori qanday holatda ma'muriy bayonoma tuzish vakolatiga ega?
3. Profilaktika inspektori mansabdor shaxslarga nisbatan ma'muriy huquqbuzarligi uchun ma'muriy jazo qo'llashi mumkinmi?
4. Profilaktika inspektori vakolati doirasida nechta moddani ko'rib chiqadi?
5. Profilaktika inspektori ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilganda qaysi holatlarni o'rganishi lozim?

**10-mavzu: Ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etish sabablari va ularga olib kelgan shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga taqdimnoma kiritish tartibi.**

*Ma'ruza mashg'uloti (2 soat)*

**Reja:**

- 1-savol.** Taqdimnoma kiritishning huquqiy asoslari.
- 2-savol.** Sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha taqdimnoma kiritish tartibi.
- 3-savol.** Taqdimnomani rasmiylashtirish tartibi. Taqdimnoma kiritish va uni ko'rib chiqish yuzasidan kelib chiqayotgan muammolar.

**1-savol. Taqdimnoma kiritishning huquqiy asoslari.**



O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonunining 23-moddasida Huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi chora-tadbirlari belgilangan bo'lib, unda "Huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish hamda huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida taqdimnomalar kiritish" ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonunning 17 moddasida "Huquqbuzarliklarni, shuningdek ularning sabablarini va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida davlat organlariga, boshqa tashkilotlarga yoki mansabdor shaxslarga bajarilishi shart bo'lgan taqdimnomalar kiritish" ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2016 yil 27 noyabrdagi "Ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etish sabablari va ularga olib kelgan shart-sharoitni bartaraf etish to'g'risida korxonalar, muassasalar, tashkilotga taqdimnoma kiritish tartibini tasdiqlash haqida" gi 184-son buyrug'i qabul qilindi. Mazkur buyruq bilan:

- ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etish sabablari va ularga olib kelgan shart-sharoitni bartaraf etish to'g'risida korxonalar, muassasalar, tashkilotga taqdimnoma kiritish tartibi tasdiklandi;
- O'zbekiston Respublikasi IIV bosh boshkarma, boshkarma, mustaqil bo'limlari, talim muassasalari boshliqlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vaziri, Toshkent shahar, Toshkent viloyati IIBB, viloyatlar va Transportdagi IIB boshliklariga mazkur buyruq barcha shaxsiy tarkib tomonidan o'rganib chiqilishini tashkillashtirish masalasi yuklatildi;
- kelgusida ma'muriy huquqbuzarliklarning sodir etish sabablari va ularga olib kelgan shart-sharoitni bartaraf etish to'g'risida korxonalar, muassasalar, tashkilot rahbarlariga belgilangan shakl asosida taqdimnomalar kiritib borilishi belgilandi;
- ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etish sabablari va ularga olib kelgan shart-sharoitni bartaraf etish tug'risida korxonalar, muassasalar, tashkilot raxbariga taqdimnomalarni kiritish borasidagi faoliyatining ahvoli muntazam ravishda o'rganilib, monitoring kilib borilishi belgilandi.

«Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi, muvofiqlashtiruvchi organ yoki muassasalar ham ma'muriy huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, ularning sodir etilish

sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etish yuzasidan tegishli choralar ko'rish to'g'risidagi taqdimnoma kiritilgan hollarda ham taqdimnoma kiritilgan mansabdor shaxs taqdimnoma kelib tushgan kundan boshlab bir oy ichida uni kiritgan organ yoki muassasaga (mansabdor shaxsga) ko'rilgan choralar haqida ma'lum qilishi shart.

Ishni ko'rib chiquvchi organ (mansabdor shaxs), huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi, muvofiqlashtiruvchi organ yoki muassasaning xususiy ajrimi yoki yozma taqdimnomalarini bajarish choralarini ko'rmaslik, ushbu Kodeksning 181, 196-moddalarida belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi».

### **181-modda. Sudning xususiy ajrimi (qarori) bo'yicha choralar ko'rmaslik**

Mansabdor shaxs tomonidan sud chiqargan xususiy ajrimni (qarorni) ko'rib chiqmaslik yoxud ajrimda (qarorda) ko'rsatilgan qonunni buzish hollarini bartaraf etish choralarini ko'rmaslik, xuddi shuningdek xususiy ajrimga (qarorga) o'z vaqtida javob bermaslik bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

### **196-modda. Huquqbuzarlik sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va ichki ishlar organlarining yozma taqdimnomalarini bajarish choralarini ko'rmaslik**

Huquqbuzarlikni sodir etish sabablarini hamda uni sodir etishga olib keluvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va ichki ishlar organlarining yozma taqdimnomalarini bajarish choralarini ko'rmaslik mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

### **313-modda. Ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etish sabablari va ularga olib kelgan shart-sharoitni bartaraf etish to'g'risidagi taqdimnoma**

Ishni ko'rib chiquvchi organ (mansabdor shaxs) ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etish sabablari va ularga olib kelgan shart-sharoitlarni aniqlaganda bu sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf qilish yuzasidan choralar ko'rish to'g'risidagi taqdimnomani tegishli korxonaga, muassasa, tashkilot rahbariga kiritadi. Rahbar taqdim kelib tushgan kundan boshlab bir oy ichida uni kiritgan organga (mansabdor shaxsga) ko'rilgan choralar haqida ma'lum qilishi shart.

## **2-savol. Sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha taqdimnoma kiritish tartibi.**



Mazkur tartib O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga asosan ichki ishlar organlari xodimlarining, ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etish sabablari va ularga olib kelgan shart-sharoitni bartaraf etish to'g'risida tegishli korxonaga, muassasa, tashkilot rahbariga bajarilishi shart bo'lgan taqdimnoma kiritish faoliyatini belgilab beradi.

Ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etish sabablari va ularga olib kelgan shart-sharoitni bartaraf etish to'g'risida tegishli korxonaga, muassasa, tashkilot rahbariga bajarilishi shart bo'lgan taqdimnoma kiritish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, shuningdek mazkur tartib talablari asosida amalga oshiriladi.

Ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etish sabablari va ularga olib kelgan shart-sharoitni bartaraf etish to'g'risida tegishli korxonaga, muassasa, tashkilot rahbariga bajarilishi shart bo'lgan taqdimnoma kiritish chog'ida qonun xujjatlari talablariga rioya etilishi yuqori turuvchi vakolatli organlarning mansabdor shaxslari, shuningdek prokuror nazorati hamda shikoyat berish huquqi bilan ta'minlanadi.

Ichki ishlar organlari xodimlari ma'muriy huquqbuzarliklar yuzasidan taqdimnoma kiritishdan oldin huquqbuzarliklarning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergai shart-

sharoitlarni aniqlashlari shart.


Ichki ishlar organlari ma'muriy huquqbuzarlikka oid ishni ko'rib chiqish chog'ida uning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan mazkur huquqbuzarlik sodir etilishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida mazkur tartibning ilovasiga muvofiq ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etish sabablari va ularga olib kelgan shart-sharoitni bartaraf etish to'g'risida taqdimnoma kiritadi.

Taqdimnoma nusxasi ma'muriy huquqbuzarlikka oid ish yuzasidan to'plangan xujjatlarga qo'shib tikib qo'yiladi.

Ichki ishlar organlari xodimlari o'z faoliyat yo'nalishlarining yillik, yarim yillik, choraklik va ish taxlillari natijasida aniqlangan holatlar yuzasidan yoki davlat va jamiyat hayotidagi muhim masalalari bo'yicha ham tegishli korxonaga, muassasa, tashkilot rahbariga taqdimnoma kiritishi mumkin.

Taqdimnoma ichki ishlar organlarining boshlig'i, uning o'rinbosarlari hamda ichki ishlar organlari tayanch punktlari profilaktika (katta) inspektorlari tomonidan imzolanishi mumkin.

Ma'muriy huquqbuzarliklarni ko'rib chiqish jarayonida eng ko'p sodir etilayotgan huquqbuzarlik xolatlarining takrorlanishi kuzatilgan hamda ushbu holatlarni bartaraf etishga mas'ul shaxslar tomonidan mazkur holatga e'tiborsizlik bilan yondashganligi aniqlangan hollarda taqdimnoma kiritiladi.



Huquqbuzarliklarning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish to'g'risidagi taqdimnoma yuborilgan tegishli korxonaga, muassasa, tashkilot rahbari zarur choralarni ko'rishi va ko'rilgan choralarning natijalari to'g'risida kechi bilan bir oylik muddat ichida tegishincha taqdimnoma kiritgan ichki ishlar organini yozma tarzda xabardor qilishi shart.

Taqdimnoma bajarilmagan yoki yetarli darajada bajarilmagan taqdirda tegishli korxonaga, muassasa, tashkilot rahbari konunda nazarda tutilgan javobgarlikka tortiladi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining, ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etish sabablari va ularga olib kelgan shart-sharoitni bartaraf etish to'g'risida tegishli korxonaga, muassasa, tashkilot rahbariga kiritilgan taqdimnomalar va ularning bajarilganligi haqidagi ma'lumotlar alohida yig'ma jildda jamlab boriladi.

### **3-savol. Taqdimnomani rasmiylashtirish tartibi. Taqdimnoma kiritish va uni ko'rib chiqish yuzasidan kelib chiqayotgan muammolar.**

Ma'lumki, ichki ishlar organlari xodimlari o'z zimmlaridagi xizmat vazifalarini bajarish uchun berilgan vakolatlarini suiiste'mol qilmasliklari, aksincha har bir huquq va vakolat ortida xalq va davlat manfaati, Vatan oldidagi sharaflil burch va mas'uliyat turishini chuqur anglab yetishlari kerak.



Buning uchun esa, birinchi navbatda, ichki ishlar organlari xodimlari yuksak ma'naviyatli, vatanparvar, insonparvar, jismonan baquvvat, sog'lom hamda o'z kasbi va zamonaviy bilimlar majmuini puxta egallagan mutaxassis bo'lishlari kerak. Bu ichki ishlar organi har bir xodimining o'z nomini oqlashi, tom ma'noda xalq ishonchini qozonishi lozimligi va jamiyatda ma'naviyat, adolat qo'riqchilari sifatida namoyon bo'lishini anglatadi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kasbiy bilimlardan biri shubhasiz jinoyatchilikka qarshi kurash va ularning oldini olish, jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi psixologik bilimlar hisoblanadi. Har qanday huquqbuzarlikni keltirib chiqaruvchi psixologik omillarni bilish, ularni o'rganish va tahlil qilish, shuningdek turli toifadagi huquqbuzarlar bilan muomala qilishning psixologik jihatlarini o'zlashtirish va uni amalda qo'llay olish ichki ishlar organlari xodimlari, jumladan hududiy profilaktika inspektorlari faoliyatidagi muhim talablardan biri hisoblanadi.

Ichki ishlar organlari tizimida profilaktika faoliyati ko'p qirraligi hamda o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Sababi, huquqbuzarliklar profilaktikasi bilan shug'ullanuvchi har bir profilaktika inspektori xizmat jarayonida turli toifadagi fuqarolar bilan uchrashib, ular bilan muloqotga kirishadi, bu esa, o'z navbatida, xodimdan chuqur psixologik bilimlarni, ya'ni shaxslarning ruhiy holatlari, psixologik xususiyatlari, xarakteri va temperamentlarining o'ziga xos jihatlarini yaxshi bilishni taqozo etadi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda xodimlar birinchi navbatda fuqarolar xavfsizligi, tinchligi, haq-huquqi va erkinliklarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratishlari va xizmat vazifalariga mas'uliyat bilan yondashishlari talab etiladi, bu esa ulardan avvalo o'z kasbining bilimdoni, ustasi bo'lishni talab qiladi.

Xodim o'z kasbining bilimdoni bo'lishi uchun nafaqat yuridik fanlar, balki kishilarning ruhiy holati va kechinmalarini ham yaxshi bilishi kerak. Shuning uchun uning psixologiya ilmining sir asrorlaridan xabardor bo'lishi va shu asosda qonuniy xatti-harakatlarni amalga oshirishi taqozo etiladi.

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
(taqdimnoma kiritiladigan korxonalar,  
tashkilot, muassasa nomi)  
20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_

**Ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etish sabablari va ularga olib kelgan shart-sharoitni bartaraf etish to'g'risida  
TAQDIMNOMA**

\_\_\_\_\_ tomonidan (ichki ishlar organi nomi).  
huquqbuzarlikni ko'rib chiqqan mansabdor shaxs (F.I.O)

20 \_\_\_\_ yilning « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ kuni \_\_\_\_\_ yuzasidan  
(huquqbuzarlik sodir etilgan joy)

Huquqbuzarlik sodir etgan \_\_\_\_\_ ga nisbatan (F.I.O)  
rasmiylashtirilgan ma'muriy huquqbuzarlik tug'risidagi ish kurib chikildi.

Aniqlanishicha, \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
(huquqbuzarlikning kelib chiqish sababi, shart-sharoiti bayon etiladi)

Kayd etilganlarga kura fukaro \_\_\_\_\_

(F.I.O)

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning \_\_\_\_\_- moddasiga muvofiq ma'muriy javobgarlikka tortildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 313-moddasiga asoslanib,

#### **SO'RAYMAN:**

1. Mazkur taqdimnomani ko'rib chiqib, ma'muriy huquqbuzarlikning sodir etish sabablari va ularga olib kelgan shart-sharoitni bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar belgilashingizni.

2. Ushbu taqdimnoma bo'yicha ko'rilgan choralar yuzasidan bir oy muddat ichida yozma ma'lumot taqdim qilishingizni.

(mansabdor korxon nomi) ( I M Z O ) (FI.O)

### **Taqdimnoma kiritish va uni ko'rib chiqish yuzasidan kelib chiqayotgan muammolar.**



Olib borilgan tahlillar natijasida ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari profilaktika inspektorlari tomonidan ma'muriy huquqbuzarlikning sodir etish sabablari va ularga olib kelgan shart-sharoitni bartaraf etish yuzasidan taqdimnomalar kiritish masalalarida sustkashlikka yo'l qo'yilmoqda.

Profilaktika inspektorlarining ma'muriy hududda yashovchi fuqaroga nisbatan individual tashxis qo'yishga doir bilim va ko'nikmalarini shakllantirish lozim.

#### **Bu borada quyidagilarni amalga oshirish lozim:**

– profilaktika inspektorlari tomonidan ma'muriy hududda yashovchi fuqaroga nisbatan individual tashxis qo'yishning nazariy asoslarini yaratish;

– profilaktika inspektorlari tomonidan ma'muriy hududda yashovchi fuqaroga nisbatan individual tashxis qo'yish faoliyatiga doir o'quv-uslubiy qo'llanmalar tayyorlash va joylarga tarqatish;

– profilaktika inspektorlarining ma'muriy hududda yashovchi fuqaroga nisbatan individual tashxis qo'yishga doir bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga doir o'quv mashg'ulotlarini yo'lga qo'yish.

Ma'muriy huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, ularning sodir etilish sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etish to'g'risidagi xususiy ajrim va taqdimnoma kiritish asoslari va tartibining aniq belgilab qo'yilmaganligi natijasida ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiquvchi organlar organ (mansabdor shaxs)lar tomonidan o'z yurituvidagi ma'muriy huquqbuzarliklar yuzasidan taqdimnoma kiritilmay qolmoqda.

«Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi, muvofiqlashtiruvchi organ yoki muassasalar ham ma'muriy huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, ularning sodir etilish sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etish yuzasidan tegishli choralar ko'rish to'g'risidagi taqdimnoma kiritilgan hollarda ham taqdimnoma kiritilgan mansabdor shaxs taqdimnoma kelib tushgan kundan boshlab bir oy ichida uni kiritgan organ yoki muassasaga (mansabdor shaxsga) ko'rilgan choralar haqida ma'lum qilinmasdan qolmoqda.

Bugungi kunda respublikamizda jinoiy jazolar liberallashtirilishi munosabati bilan ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni keng qo'llanilmoqda. Biroq mazkur xolatlar bo'yicha o'zini o'zi boshqarish organlariga taqdimnomalar kiritish yo'lga qo'yilmagan. Natijada mazkur toifadagi shaxslar o'rtasida samarali profilaktik chora-tadbirlar amalga oshirilmay qolmoqda.

Amaliyotda aksariyat sudlar tomonidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud qarorlari nusxalarining tegishli IIBlarga o'z vaqtida yuborilmayotganligi sababli huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi, xususan, profilaktik hisobga olish ishlari yetarli darajada amalga oshirilmayotganligi bilan bog'liq salbiy holatlarni bartaraf etish va shaxslarni o'z vaqtida profilaktik hisobga olinishini ta'minlash maqsadida ma'muriy huquqbuzarliklarga oid ishlarni ko'rib chiquvchi organlar bilan Ichki ishlar vazirligining ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni profilaktik hisobga olish uchun asos bo'ladigan qarorni ichki ishlar organlariga o'z

vaqtida yuborish mexanizmini belgilab beruvchi qo'shma qarorini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

### **Mustaqil tayyorgarlik uchun topshiriq:**

Mustaqil ta'limning mazmunini tinglovchilar ma'ruza va boshqa o'quv mashg'ulotlarda olgan bilimlarini mustaqil ta'lim jarayonida yanada chuqurroq o'zlashtirishlari va navbatdagi mashg'ulotga mo'ljallangan mavzu bo'yicha tayyorgarlik ko'rishlari tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2016 yil 27 noyabrdagi "Ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etish sabablari va ularga olib kelgan shart-sharoitni bartaraf etish to'g'risida korxonalar, muassasa, tashkilotga taqdimnoma kiritish tartibini tasdiqlash haqida" gi 184-son buyrug'ini o'rganish va konspektlashtirish.

### **10-mavzu: Ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etish sabablari va ularga olib kelgan shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan korxonalar, muassasa, tashkilotlarga taqdimnoma kiritish tartibi.**

**Seminar mashg'uloti (2 soat)**

Ushbu o'quv mashg'uloti «*Suhbat*» interfaol metodidan foydalanish orqali o'tkaziladi.

Mashg'ulotda o'qituvchi va tinglovchilar o'rtasidagi dialogik xarakterga ega savol-javobga asoslanuvchi ushbu metod negizini jonli muloqot tashkil etadi. Metodning afzalligi suhbat jarayonida oydinlashmagan masalalar yuzasidan qo'shimcha savollar berish, tinglovchining fikrlashga undash imkoniyatining mavjudligi bilan belgilanadi. Ta'limiy munosabatning jonli muloqotga asoslanishi esa o'qituvchi va tinglovchilar o'rtasida ruhiy yaqinlikni qaror toptirib, faol fikr almashish imkonini beradi.

#### **Metodni qo'llashda quyidagi tartibda ish ko'riladi:**

O'qituvchi tinglovchilarni metod mohiyati bilan tanishtiradi

O'qituvchi mavzu yuzasidan tinglovchilar o'zlashtirishlari lozim bo'lgan masalalarga oid savollarni ishlab chiqadi

Tinglovchilar savollar bilan tanishtiriladi

Tinglovchilar savollar yuzasidan mulohaza yuritib, masala mohiyatini yoritishga kirishadi (agar tinglovchilarning javoblari qoniqarli deb topilsa, navbatdagi savol beriladi; javob qoniqarli deb topilmasa, u holda o'qituvchi tinglovchiga aynan mana shu masalani oydinlashtirishga yordam beradigan qo'shimcha savol beradi)

O'rganilayotgan masalaning mohiyati to'la yoritilgach, suhbat jarayoniga yakun yasaladi

O'qituvchi tinglovchilarning faoliyatini baholab, mashg'ulotga yakun yasaydi

#### **Savollar:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonunning 17 moddasida nimalar ko'rsatib o'tilgan?
2. Sudning xususiy ajrimi (qarori) bo'yicha choralar ko'rmaslik;
3. Huquqbuzarlik sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va ichki ishlar organlarining yozma taqdimnomalarini bajarish choralarini ko'rmaslik;



4. Taqdimnomada nimalar ko'rsatilishi kerak.

### Mustaqil tayyorgarlik uchun savollar:

1. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2016 yil 27 noyabrdagi "Ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etish sabablari va ularga olib kelgan shart-sharoitni bartaraf etish to'g'risida korxonalar, muassasa, tashkilotga taqdimnoma kiritish tartibini tasdiqlash haqida" gi 184-son buyrug'imazmun mohichtini o'rganish.

2. Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi, muvofiqlashtiruvchi organ yoki muassasaning xususiy ajrimi yoki yozma taqdimnomalarini bajarish choralarini ko'rmaslik.

3. Huquqbuzarlikni sodir etish sabablarini hamda uni sodir etishga olib keluvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va ichki ishlar organlarining yozma taqdimnomalarini bajarish choralarini ko'rmaslik.

4. Ichki ishlar organlari xodimlari ma'muriy huquqbuzarliklar yuzasidan taqdimnoma kiritishdan oldin huquqbuzarliklarning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlashlari.

### 11-mavzu: Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat o'rnatish tartibi.

*Ma'ruza mashg'uloti (2 soat)*

#### Reja:

**1-savol.** Ma'muriy nazoratning asosiy vazifasi, prinsipi va tushunchalari hamda ma'muriy nazorat o'rnatiladigan shaxslar, ma'muriy cheklovlar.

**2-savol.** Ma'muriy nazoratni o'rnatish tartibi, muddati va ma'muriy nazoratni amalga oshirish tartibi.

**3-savol.** Nazorat ostidagi shaxsning huquqlari, majburiyatlari va ma'muriy nazoratni amalga oshirishda ichki ishlar organlarining huquqlari, majburiyatlari.

#### 1-savol. Ma'muriy nazoratning asosiy vazifasi, prinsipi va tushunchalari hamda ma'muriy nazorat o'rnatiladigan shaxslar, ma'muriy cheklovlar.



O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 aprelda "Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.

Mazkur qonuni №-532 son bilan qabul qilingan bo'lib 4 ta bob 25 ta moddadan iborat. Ushbu Qonunning maqsadi jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

#### Ma'muriy nazoratning asosiy vazifasi.

Ma'muriy nazoratning asosiy vazifasi jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish maqsadida ularga yakka tartibda profilaktik ta'sir ko'rsatishdan iboratdir.

Ma'muriy nazoratning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- ➔ qonuniylik;
- ➔ demokratizm;
- ➔ adolatparvarlik;
- ➔ insonparvarlik;
- ➔ fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya qilish va ularni hurmat qilish;

- ➔ belgilanadigan cheklovlarning differensiallashganligi va individuallashtirilganligi;
- ➔ qonunga itoatkorlik xulq-atvorini rag'batlantirish.

### Asosiy tushunchalar.

#### Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

**ma'muriy nazorat** — nazorat ostidagi shaxslarga sud tomonidan belgilanadigan ma'muriy cheklovlarni qo'llashdan iborat tarbiyaviy-profilaktik ta'sir ko'rsatish choralari majmui;

**ma'muriy cheklov** — huquqlar va erkinliklarni vaqtinchalik cheklash yoki zimmaga majburiyatlar yuklatish bo'lib, ushbu cheklash yoki majburiyat yuklatish jazoni ijro etish muassasasidan ozod qilingan shaxsga nisbatan sud tomonidan belgilanadi;

**nazorat ostidagi shaxs** — o'ziga nisbatan ma'muriy nazorat amalga oshirilayotgan shaxs;

**nazorat ostidagi shaxsning yashash joyi (yashash joyi)** — nazorat ostidagi shaxs doimiy yoki vaqtincha propiska qilingan turar joy.

#### O'ziga nisbatan ma'muriy nazorat o'rnatiladigan shaxslar.



Ushbu Qonun 8-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lganda quyidagi voyaga yetgan shaxslarga nisbatan sud tomonidan ma'muriy nazorat o'rnatiladi:

- ➔ sud tomonidan o'ta xavfli residivist deb topilgan;
- ➔ og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan;
- ➔ har qanday qasddan qilingan jinoyatlar uchun ikki yoki undan ortiq marta ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan;
- ➔ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga binoan og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat hisoblanadigan qilmishlarni sodir etganlik uchun boshqa davlat hududida ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni o'tagan.

Ma'muriy nazorat sudlanganligi olib tashlangan yoki sudlanganlik holati tugallangan shaxslarga nisbatan o'rnatilishi mumkin emas.

Ma'muriy nazorat qoidalarini buzish uchun javobgarlik sub'ekti 18 yoshdan boshlanadi.

Nazorat ostidagi shaxslarga nisbatan sudning sodir etilgan qilmishning xususiyati hisobga olingan holdagi qarori asosida quyidagi ma'muriy cheklovlar belgilanishi mumkin:

yashash joyidan sutkaning belgilangan vaqtida tashqarida bo'lishni taqiqlash;

muayyan joylarda bo'lishni taqiqlash;

sud tomonidan belgilangan hudud doirasidan ichki ishlar organlarining ruxsatisiz chiqishni taqiqlash;

ro'yxatdan o'tish uchun har oyda bir martadan to'rt martagacha ichki ishlar organiga (ichki ishlar organining tayanch punktiga) kelish;

alkogolli ichimliklarni iste'mol qilishni taqiqlash.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan ma'muriy cheklovlar nazorat ostidagi shaxsning turmush tarziga, oilaviy ahvoriga, shuningdek uning shaxsini tavsiflovchi boshqa holatlarga qarab to'liq hajmda yoki alohida-alohida tarzda belgilanadi.

Ma'muriy cheklovlarning ro'yxati uzil-kesil bo'lib, unga qo'shimchalar kiritilishi yoki u kengaytirib sharhlanishi mumkin emas.

Qo'llaniladigan ma'muriy cheklovlar sud tomonidan ichki ishlar organining taqdimnomasiga yoki nazorat ostidagi shaxsning yoxud uning vakilining arizasiga, shuningdek mehnat jamoasining, jamoat birlashmasining va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining iltimosnomasiga binoan nazorat ostidagi shaxsning turmush tarzi va xulq-atvori haqidagi ma'lumotlar inobatga olingan holda qisman bekor qilinishi mumkin.

## 2-savol. Ma'muriy nazoratni o'rnatish tartibi, muddati va ma'muriy nazoratni amalga oshirish tartibi.



**Ma'muriy nazoratni o'rnatish tartibi.** Ma'muriy nazorat o'rnatish zarurligi to'g'risidagi asoslantirilgan taqdimnoma sudga quyidagilar tomonidan yuboriladi:

→ sud tomonidan o'ta xavfli residivist deb topilgan shaxslarga nisbatan ularni ozod etishdan kamida bir oy oldin jazoni ijro etish muassasasining boshlig'i tomonidan;

→ jazoni ijro etish muassasalarida turgan og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan yoxud har qanday qasddan qilingan jinoyatlar uchun ikki yoki undan ortiq marta ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxslarga nisbatan, agar ular jazoni o'tash davrida belgilangan tartibda saqlash rejimini qasddan buzuvchilar deb topilgan bo'lsa, ularni ozod etishdan kamida bir oy oldin jazoni ijro etish muassasasining boshlig'i tomonidan;

→ jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslarga nisbatan sudlanganlik holatining tugatilishi yoki sudlanganlikning olib tashlanishi muddatlari doirasida ichki ishlar organining boshlig'i tomonidan ushbu shaxslar jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilganidan keyin bir yil ichida ikki yoki undan ko'proq ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etganligidan dalolat beruvchi materiallar asosida.

Ma'muriy nazorat o'rnatish zarurligi to'g'risidagi taqdimnomada ma'muriy nazoratni o'rnatish zarurati, o'rnatiladigan ma'muriy cheklovlar yuzasidan takliflar va o'ziga nisbatan ma'muriy nazorat o'rnatilishi mumkin bo'lgan shaxsning o'zi tanlagan yashash joyi haqidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Agar jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilayotgan shaxsning ma'lum sabablarga ko'ra aniq turar joyi bo'lmasa, jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyati unga yashash joyi bilan ta'minlash, doimiy yoki vaqtinchalik propiska qilish hamda ishga joylashishga yordam berishni so'rab, shuningdek nogiron yoki og'ir kasalliklarga chalingan shaxslarni davolash masalalarini oldindan hal qilish to'g'risida tegishli mahalliy davlat hokimiyati organlariga, ichki ishlar organlariga va sog'liqni saqlash muassasalariga iltimosnoma yuboradi.

Ma'muriy nazorat o'rnatish zarurligi to'g'risidagi taqdimnoma olingan paytdan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining sudyasi tomonidan sud majlisida ichki ishlar organi vakilining majburiy ishtirokida va o'ziga nisbatan ma'muriy nazorat o'rnatish zarurligi to'g'risidagi taqdimnoma ko'rib chiqilayotgan shaxs ishtirokida yakka tartibda ko'rib chiqiladi.

Agar o'ziga nisbatan ma'muriy nazorat o'rnatish zarurligi to'g'risidagi taqdimnoma ko'rib chiqiladigan, sud majlisi o'tkaziladigan vaqt va joy haqida xabardor qilingan shaxs uzrsiz sabablarga ko'ra sud majlisiga kelmasa, shuningdek sud majlisini boshqa kunga qoldirish to'g'risida iltimosnoma taqdim etilmagan bo'lsa, taqdimnoma sud tomonidan ushbu shaxsning ishtirokisiz ko'rib chiqilishi mumkin.

Sudning ma'muriy nazorat o'rnatish to'g'risidagi qarorida ma'muriy nazoratni o'rnatish uchun asos, uning muddati va nazorat ostidagi shaxsga nisbatan o'rnatiladigan ma'muriy cheklovlar ko'rsatiladi. Agar ma'muriy nazorat jazoni ijro etish muassasasidan ozod etish chog'ida belgilangan bo'lsa, sudning ma'muriy nazorat o'rnatish to'g'risidagi qarorida nazorat ostidagi shaxs tanlagan yashash joyiga yetib keladigan muddat ham ko'rsatiladi.

Jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilayotgan shaxsning aniq yashash joyi ma'lum bo'lmagan taqdirda, sud uning ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llanishidan oldin yashagan oxirgi yashash joyi bo'yicha ma'muriy nazorat o'rnatish to'g'risida qaror qabul qiladi. Nazorat ostidagi shaxsning yashash joyi bo'lmagan taqdirda, sud mahalliy davlat hokimiyati organlariga nazorat ostidagi shaxsni turar joy bilan ta'minlash choralarini ko'rish majburiyatini yuklash to'g'risida qaror chiqaradi.

**Ma'muriy nazorat muddati.** Ma'muriy nazorat olti oydan bir yilgacha muddatga o'rnatiladi. Ma'muriy nazorat muddati ma'muriy nazoratni o'rnatish to'g'risida sud tomonidan qaror chiqarilgan paytdan e'tiboran, ma'muriy nazorat jazoni ijro etish muassasalaridan shaxsni ozod etish chog'ida o'rnatilgan hollarda esa, nazorat ostidagi shaxs tanlagan yashash joyiga yetib kelgan paytdan e'tiboran hisoblanadi.

**Ma'muriy nazorat muddatining o'tishi quyidagi hollarda to'xtatib turiladi:**

- ➔ nazorat ostidagi shaxsga qidiruv e'lon qilinganda;
- ➔ nazorat ostidagi shaxs sud tomonidan bedarak yo'qolgan deb topilganda.

Nazorat ostidagi shaxs ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan taqdirda, ma'muriy nazorat muddati ichki ishlar organining taqdimnomasi bo'yicha sud tomonidan olti oygacha bo'lgan muddatga, lekin sudlanganlik holatining tugallanishi yoki sudlanganlikning olib tashlanishi muddatidan ortiq bo'lmagan muddatga uzaytirilishi mumkin.

**Nazorat ostidagi shaxsga sudning ma'muriy nazorat o'rnatish, uning muddatini uzaytirish yoki ma'muriy cheklovlarni qisman bekor qilish to'g'risidagi qarorini e'lon qilish va topshirish.**

Nazorat ostidagi shaxs sud majlisida ishtirok etgan taqdirda sudning ma'muriy nazorat o'rnatish, uning muddatini uzaytirish yoki ma'muriy cheklovlarni qisman bekor qilish to'g'risidagi qarori nazorat ostidagi shaxsga sud tomonidan e'lon qilinadi.

Sudning qarori tegishincha jazoni ijro etish muassasasiga yoki nazorat ostidagi shaxsning yashash joyidagi ichki ishlar organiga keyinchalik nazorat ostidagi shaxsga tilxat olib topshirish uchun yuboriladi.

Sudning qarorini nazorat ostidagi shaxsga topshirish chog'ida uning huquq va majburiyatlari, o'ziga nisbatan belgilangan ma'muriy cheklovlarni buzganlik va zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarilmaganlik, shu jumladan ma'muriy nazoratdan bo'yin tovlash maqsadida yashash joyini o'zboshimchalik bilan tark etganlik uchun javobgarligi, o'ziga nisbatan ma'muriy nazorat jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilishidan oldin o'rnatilgan shaxsga esa, tanlagan yashash joyiga belgilangan muddatda yetib bormaganlik uchun javobgarligi tushuntiriladi.

**Jazoni ijro etish muassasasi tomonidan sudning ma'muriy nazorat o'rnatish to'g'risidagi qarorini yuborish.**

Jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyati jazoni o'tash davrida o'ziga nisbatan ma'muriy nazorat o'rnatilgan shaxsni jazoni ijro etish muassasasidan ozod qilishdan oldin nazorat ostidagi shaxsning tanlagan yashash joyidagi ichki ishlar organiga sudning ma'muriy nazorat o'rnatish to'g'risidagi qarorini ushbu shaxs yetib boradigan vaqt to'g'risida yozma ravishda xabar qilgan holda yuboradi.

**Ma'muriy nazoratni amalga oshirish tartibi.** Ma'muriy nazorat nazorat ostidagi shaxsning yashash joyidagi ichki ishlar organi tomonidan amalga oshiriladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

ma'muriy nazorat muddati mobaynida nazorat ostidagi shaxslarning hisobini yuritish, shu jumladan ularning turmush tarzi, xulq-atvori va niyatlari to'g'risida axborot to'plash;

nazorat ostidagi shaxsning ijtimoiy reabilitatsiyasi va ijtimoiy moslashuviga ko'maklashish;

nazorat ostidagi shaxsning o'ziga nisbatan belgilangan ma'muriy cheklovlarga rioya etishi va yashash, ish, o'qish yoki xizmat joyi bo'yicha zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

nazorat ostidagi shaxs bilan uning huquqbuzarliklar sodir etishining oldini olishga qaratilgan yakka tartibdagi profilaktika ishlarini amalga oshirish;  
nazorat ostidagi shaxsning o'ziga nisbatan belgilangan ma'muriy cheklovlarni buzganligi va zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi faktlarini aniqlash hamda hujjatlashtirish bo'yicha choralar ko'rish.

Yashash joyi o'zgargan taqdirda ma'muriy nazoratni nazorat ostidagi shaxsning yangi yashash joyidagi ichki ishlar organi amalga oshiradi.

Ma'muriy nazoratni amalga oshirish bo'yicha tadbirlarni o'tkazish davriyligi va vaqti sud belgilagan ma'muriy cheklovlardan, nazorat ostidagi shaxsning turmush tarzi, oilaviy ahvoli, xulq-atvoridan, shuningdek uning shaxsini tavsiflovchi boshqa holatlardan kelib chiqqan holda ichki ishlar organi tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

Ma'muriy nazorat nazorat ostidagi shaxsning bir maromdagi hayot faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi kerak va qoida tariqasida, uning ishdan, o'qishdan yoki xizmatdan bo'sh vaqtda amalga oshiriladi.

**Ma'muriy nazoratni tugatish tartibi.** Ma'muriy nazorat quyidagi hollarda tugatiladi:

- ➔ ma'muriy nazorat o'rnatilgan muddat tugaganda;
- ➔ sudlanganlik holati tugallangan yoki sudlanganlik olib tashlanganda;
- ➔ nazorat ostidagi shaxs ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan va jazoni o'tash joyiga yuborilganda;
- ➔ nazorat ostidagi shaxsga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilganda;
- ➔ nazorat ostidagi shaxs boshqa davlatga doimiy yashash joyiga chiqib ketganda;
- ➔ nazorat ostidagi shaxs vafot etgan yoki sudning uni vafot etgan deb topish to'g'risidagi qarori qonuniy kuchga kirganda.

Ushbu moddanning birinchi qismida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha ma'muriy nazoratni tugatish to'g'risida ichki ishlar organi tomonidan qaror chiqariladi.

Agar nazorat ostidagi shaxs huquqbuzarlik sodir etmayotganligi, o'ziga nisbatan belgilangan ma'muriy cheklovlarga rioya qilayotganligi hamda zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarayotganligi aniqlansa, shuningdek yashash, ish, o'qish yoki xizmat joyidan ijobiy tavsifnomalar mavjud bo'lsa, ma'muriy nazorat muddatining kamida yarmi o'tgach ichki ishlar organining taqdimnomasi yoxud nazorat ostidagi shaxsning yoki uning vakilining arizasi asosida, shuningdek mehnat jamoasining, jamoat birlashmasining va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining iltimosnomasiga ko'ra ma'muriy nazorat sud tomonidan muddatidan ilgari tugatilishi mumkin. Ma'muriy nazoratni muddatidan ilgari tugatish to'g'risidagi taqdimnoma, ariza yoki iltimosnoma o'n kunlik muddatda ko'rib chiqilishi lozim.

Ma'muriy nazoratni muddatidan ilgari tugatish to'g'risida sud tomonidan qaror chiqariladi, qaror nazorat ostidagi shaxsga e'lon qilinadi.

### **3-savol. Nazorat ostidagi shaxsning huquqlari, majburiyatlari va ma'muriy nazoratni amalga oshirishda ichki ishlar organlarining huquqlari, majburiyatlari.**

#### **Nazorat ostidagi shaxs quyidagi huquqlarga ega:**

- advokat xizmatlaridan foydalanish;
- ko'rib chiqilayotgan masala yuzasidan izohlar berish;
- dalillar taqdim etish;
- sudda ma'muriy nazorat o'rnatish va cheklovlar qo'llash to'g'risidagi materiallar bilan tanishib chiqish hamda ulardan zarur ma'lumotlarni yozib olish, materiallar va hujjatlardan texnika vositalari yordamida o'z hisobidan ko'chirma nusxalar olish yoki ulardagi ma'lumotlarni o'zga shaklda qayd etish;
- ma'muriy nazoratni muddatidan ilgari tugatish to'g'risida, shuningdek belgilangan ma'muriy cheklovlarni qisman bekor qilish haqida sudga bevosita yoki vakili orqali arizalar bilan murojaat etish;

sud majlisining bayonnomasi bilan tanishish hamda u bo'yicha o'z mulohazalarini bildirish;

sudning ma'muriy nazorat o'rnatish, u bilan bog'liq ma'muriy cheklovlar va uning muddatini uzaytirish to'g'risidagi qarori ustidan shikoyat qilish;

ish bo'yicha keltirilgan protestlar va kelib tushgan shikoyatlardan xabardor bo'lish va ularga nisbatan e'tirozlar bildirish;

yashash joyidan tashqarida bo'lish va (yoki) sud tomonidan belgilangan hudud doirasidan qisqa muddatga chiqish uchun ruxsatnomalar olish to'g'risidagi arizalar bilan ichki ishlar organlariga murojaat etish;

bevosita yoki vakili orqali ichki ishlar organlarining qarorlari va ular mansabdor shaxslarining ma'muriy nazoratni o'rnatish va amalga oshirish chog'idagi harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish.



### **Nazorat ostidagi shaxs quyidagi ma'muriy nazorat qoidalariga rioya etishi shart:**

jazoni ijro etish muassasasidan ozod qilinganidan keyin o'zi tanlagan yashash joyiga sud tomonidan belgilangan muddatda yetib borish;

jazoni ijro etish muassasasidan ozod qilinganidan keyin, shuningdek yashash joyi o'zgarganidan so'ng o'zi tanlagan yashash joyiga yetib kelgan kundan e'tiboran uch kun ichida hisobga qo'yilish uchun ma'muriy nazoratni amalga oshiruvchi ichki ishlar organiga kelish;

o'ziga nisbatan belgilangan ma'muriy cheklovlarga rioya etish;

ma'muriy nazoratni amalga oshiruvchi ichki ishlar organidan yashash joyidan tashqarida bo'lish va (yoki) sud tomonidan belgilangan hudud doirasidan tashqariga qisqa muddatga chiqish uchun ruxsatnoma olingan taqdirda, qisqa muddatga chiqilayotgan hududning ichki ishlar organini xabardor qilish;

qisqa muddatga chiqish joyidan qaytib kelganida doimiy yashash joyi bo'yicha ichki ishlar organini xabardor qilish;

ma'muriy nazoratni amalga oshiruvchi ichki ishlar organini ishga joylashganligi, yashash, ish, o'qish yoki xizmat joyi o'zgarganligi yoxud mehnat shartnomasi bekor qilinganligi to'g'risida uch kun ichida xabardor qilish;

yashash joyidagi ichki ishlar organiga ushbu organ tomonidan belgilangan muddatda chaqiruvga ko'ra borish;

o'ziga nisbatan belgilangan ma'muriy cheklovlarga rioya etishi va zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarish bilan bog'liq masalalar yuzasidan og'zaki va yozma tushuntirishlar berish.

### **Ma'muriy nazoratni amalga oshirishda ichki ishlar organlari quyidagi huquqlarga ega:**

nazorat ostidagi shaxsning xulq-atvori to'g'risida ish, o'qish yoki xizmat joyi ma'muriyatidan, jamoat birlashmasidan, yashash joyidagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organidan, shuningdek fuqarolardan ma'lumotlarni so'rash va olish;

nazorat ostidagi shaxsga uy-joy berish va uni ishga joylashtirish to'g'risida tegishli davlat organlariga, boshqa korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga iltimosnomalar yuborish;

profilaktik suhbat o'tkazish uchun nazorat ostidagi shaxsni uning yashash joyidagi ichki ishlar organlariga chaqirish, nazorat ostidagi shaxsning talabi bilan bunday suhbatlarni advokat, jamoatchilik, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organi vakillari yoki yaqin qarindoshlari ishtirokida o'tkazish;

nazorat ostidagi shaxsdan o'ziga nisbatan belgilangan ma'muriy cheklovlarga rioya etish hamda zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarish bilan bog'liq masalalar yuzasidan og'zaki va yozma tushuntirishlar talab qilish.

Ichki ishlar organlari ma'muriy nazoratni amalga oshirish bo'yicha alohida tadbirlarni o'tkazishda davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, boshqa tashkilotlar va fuqarolar bilan hamkorlik qilishi mumkin.

### **Ma'muriy nazoratni amalga oshirishda ichki ishlar organlarining majburiyatlari:**

nazorat ostidagi shaxsga uning huquqlari va majburiyatlarini tushuntirishi, shuningdek o'ziga nisbatan belgilangan ma'muriy cheklovlarni buzganlik hamda zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganlik uchun javobgarlik to'g'risida ogohlantirishi;

ma'muriy nazorat muddati mobaynida nazorat ostidagi shaxslarning hisobini yuritishi;

nazorat ostidagi shaxslarni o'zlari tanlagan yashash joyida propiska qilish va ularni ishga joylashtirish yuzasidan zarur choralar ko'rishi;

ma'muriy nazorat ostidagi shaxsning o'ziga nisbatan belgilangan ma'muriy cheklovlarga rioya etishi va yashash, ish, o'qish yoki xizmat joyi bo'yicha zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishi ustidan tizimli ravishda nazoratni amalga oshirishi;

nazorat ostidagi shaxs bilan uning huquqbuzarliklar sodir etishining oldini olishga qaratilgan yakka tartibdagi profilaktika ishlarini olib borishi;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilinganidan keyin yashash joylariga belgilangan muddatda uzrli sabablarsiz yetib kelmagan, shuningdek yashash joylarini o'zboshimchalik bilan tark etgan yoki sud tomonidan belgilangan hudud doirasidan ruxsatnomasiz chiqib ketgan nazorat ostidagi shaxslarning qidiruvini amalga oshirishi shart.

Ma'muriy nazoratni o'rnatish va amalga oshirish nazorat ostidagi shaxsning boshqa huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzmasligi, uning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitmasligi kerak.

### **Nazorat ostidagi shaxslarning qidiruvi.**



Nazorat ostidagi shaxs yashash joyini o'zboshimchalik bilan tark etganda, shuningdek jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilish chog'ida ma'muriy nazorat o'rnatilgan hollarda yashash joyiga belgilangan muddatda uzrli sabablarsiz yetib kelmaganda ichki ishlar organi nazorat ostidagi shaxsning turar joyi va yetib kelmaslik sabablarini aniqlash choralari ko'radi.

Nazorat ostidagi shaxsning qaerdaligi aniqlanmagan taqdirda ichki ishlar organi nazorat ostidagi shaxsning turar joyi va yetib kelmaslik sabablarini aniqlash bo'yicha ko'rilgan choralar haqidagi hujjatlar (dalolatnoma, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining ma'lumotnomasi, fuqarolarning yozma ko'rsatuvlari, ichki ishlar organi xodimining bildirgisi) bilan birga sudga unga nisbatan qidiruv e'lon qilish zarurligi to'g'risida taqdimnoma yuboradi.

Nazorat ostidagi shaxsga nisbatan qidiruv e'lon qilish zarurligi to'g'risidagi taqdimnoma sud tomonidan besh kunlik muddatda ko'rib chiqiladi.

Nazorat ostidagi shaxsga nisbatan qidiruv e'lon qilish to'g'risida sud tomonidan qaror qabul qilinadi.

Nazorat ostidagi shaxslarning qidiruvi ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladi.

### **Ichki ishlar organlari tomonidan nazorat ostidagi shaxslarga beriladigan ruxsatnomalar.**

Ma'muriy nazoratni amalga oshiruvchi ichki ishlar organi nazorat ostidagi shaxsga yashash joyidan tashqarida bo'lish va (yoki) sud tomonidan belgilangan hudud doirasidan qisqa muddatga chiqish uchun o'n kundan ko'p bo'lmagan muddatga quyidagi shaxsiy holatlar munosabati bilan ruxsatnoma beradi:

yaqin qarindoshining o'limi yoki og'ir kasalligi;

ishga joylashish yoki tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish zarurati;

ta'lim muassasalariga qabul qilish chog'ida kirish imtihonlarini topshirish zarurati.

Ushbu modda birinchi qismining birinchi xatboshisida ko'rsatilgan ruxsatnoma quyidagi hollarda bir oygacha bo'lgan muddatga berilishi mumkin:

nazorat ostidagi shaxsning tibbiy yordam olishi yoki sog'liqni saqlash muassasalarida davolanishdan o'tishi zarur bo'lganda;

tabiiy ofat yoki boshqa favqulodda vaziyatlar munosabati bilan yashash joyida bundan buyon istiqomat qilishning imkoni bo'lmasa;

sud tomonidan belgilangan hudud doirasidan tashqarida ta'lim olganda.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan muddat oshib ketgan taqdirda, ma'muriy nazorat nazorat ostidagi shaxsning turgan joyi bo'yicha amalga oshiriladi.

**Sudning, ichki ishlar organlarining qarorlari va ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish (protest keltirish).**

Ichki ishlar organlarining ma'muriy nazoratni o'rnatish va amalga oshirish bilan bog'liq qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan prokuror tomonidan protest keltirilishi yoki nazorat ostidagi shaxs yoki uning vakili tomonidan sud qarori nusxasi olingan kundan boshlab o'n kunlik muddatda bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat qilinishi mumkin.



Sudning ma'muriy nazorat o'rnatish, uning muddatini uzaytirish yoki uni muddatidan ilgari tugatish yoxud ma'muriy cheklovlarni qisman bekor qilish to'g'risidagi qarori ustidan shikoyat yoki protest yuqori turuvchi sud tomonidan ko'rib chiqiladi. **Shikoyat yoki protestni ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha sud tomonidan quyidagi qarorlardan biri chiqariladi:**

sudning qarorini o'zgarishsiz qoldirish to'g'risida;  
sudning qarorini o'zgartirish to'g'risida;  
sudning qarorini bekor qilish to'g'risida;  
sudning ma'muriy nazorat o'rnatishni rad qilish to'g'risidagi qarorini bekor qilish va ma'muriy nazorat o'rnatish haqida.

Shikoyat berilishi yoki protest keltirilishi ma'muriy nazoratning amalga oshirilishini sud ma'muriy nazoratni tugatish to'g'risida qaror chiqarguniga qadar to'xtatib turmaydi.

**Mustaqil tayyorgarlik uchun topshiriq:**

Mustaqil ta'limning mazmunini tinglovchilar ma'ruza va boshqa o'quv mashg'ulotlarda olgan bilimlarini mustaqil ta'lim jarayonida yanada chuqurroq o'zlashtirishlari va navbatdagi mashg'ulotga mo'ljallangan mavzu bo'yicha tayyorgarlik ko'rishlari tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 apreldagi "Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat to'g'risida"gi Qonunni o'rganish va tegishli bandlarini konspektlashtirish.


**11-mavzu: Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat o'rnatish tartibi**

**Seminar mashg'uloti (2 soat)**

Ushbu o'quv mashg'uloti «Savol-javob» interfaol metodidan foydalanish orqali o'tkaziladi..

«Savol-javob» metodi mavzuning tinglovchilar tomonidan o'zlashtirilish darajasini aniqlashga yordam beradi. Uni qo'llashning samaradorligi savol-javoblarning aniq, qisqa va tushunarli tarzda ifoda etilishi, aynan mavzuga doir bo'lishiga bog'liq.

Ta'lim jarayonida metodni qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:





### **Mashg'ulotning savollari:**

- 1-savol. Ma'muriy nazoratni o'rnatishning huquqiy asoslari.
- 2-savol. Ma'muriy nazoratning asosiy vazifasi.
- 3-savol. Ma'muriy nazoratning asosiy prinsiplari.
- 4-savol. O'ziga nisbatan ma'muriy nazorat o'rnatiladigan shaxslar.
- 5-savol. Ma'muriy nazorat chog'ida belgilanadigan ma'muriy cheklovlar.
- 6-savol. Ma'muriy nazoratni o'rnatish tartibi.
- 7-savol. Ma'muriy nazorat muddati.

### **Mustaqil tayyorgarlik uchun savollar:**

1. Nazorat ostidagi shaxsga sudning ma'muriy nazorat o'rnatish, uning muddatini uzaytirish yoki ma'muriy cheklovlarni qisman bekor qilish to'g'risidagi qarorini e'lon qilish va topshirish.
2. Ma'muriy nazoratni amalga oshirish tartibi.
3. Ma'muriy nazoratni tugatish tartibi.
4. Nazorat ostidagi shaxsning huquqlari, majburiyatlari va ma'muriy nazoratni amalga oshirishda ichki ishlar organlarining huquqlari, majburiyatlari.
5. Nazorat ostidagi shaxslarning qidiruvi.
6. Ichki ishlar organlari tomonidan nazorat ostidagi shaxslarga beriladigan ruxsatnomalar.
7. Sudning, ichki ishlar organlarining qarorlari va ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish (protest keltirish).

## **11-mavzu: Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat o'rnatish tartibi**

### *Amaliy mashg'uloti (2 soat)*

Amaliy mashg'ulot davomida tinglovchilar berilgan masalani yechishlari va hal etishlari, shuningdek profilaktika xizmatlari tomonidan profilaktika inspektorlarining jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat o'rnatish bo'yicha berilgan topshiriqlarni amalga oshirishda lozim bo'lgan vazifalarini ketma-ketlikda ko'rsatib berishlari lozim.

**Masala:** 2022 yilning 10 yanvar kuni Mirobod tumani, Muqimiy ko'chasi 87 uyda yashovchi, 1960 yil tug'ilgan fuqaro Latipov Botir Sobirovich qasddan ikkinchi marotaba o'g'rilik jinoyatini sodir etganligi uchun jinoyat ishlari bo'yicha Mirobod tumani sudi tomonidan O'zbekiston Respublikasi JKning 169-moddasi 3-qismi bilan 8 yilga ozodlikdan mahrum etish jazosiga tortildi.

U 2022 yilning yanvar oyida tayinlangan jazoni to'liq o'tab o'zining yashash joyiga qaytib keldi va profilaktika inspektori kapitan B.Murodovga uchradi. Shundan so'ng, profilaktika inspektori uni muqaddam sunlangan shaxs sifatida profilaktik hisob ro'yxatiga oldi. Biroq, u 2022 yilning 2 aprel kuni mayda bezorilik sodir etgani uchun Mirobod tuman jinoyat ishlari bo'yicha sudi tomonidan MJtKning 183-moddasi bilan 5 sutkaga ma'muriy qamoq jazosiga tortildi. 2022 yilning 5 noyabr kuni jamoat joyida spirtli ichimlik istemol etgani uchun profilaktika inspektori tomonidan O'zbekiston Respublikasi MJtKning 187-moddasi 1-qismi bilan jarima jazosiga tortildi.

**Topshiriq:** Fuqaro B.S.Latipovning ustidan ma'muriy nazorat o'rnatish mumkinmi? (Tinglovchilar mustaqil ravishda ushbu masalaning javobini daftarlariga qayd etadilar).

Mazkur holat bo'yicha profilaktika inspektorining ketma-ketlikdagi harakatlarini ko'rsating?

**Masala:** Ma'muriy nazoratda turuvchi muqaddam sudlangan B.S. Latipov 2022 yilning 20 oktabr kuni profilaktika inspektoriga murojaat etib, Toshkent viloyati Olmaliq shahrida

yashovchi 1990 yilda tug‘ilgan ukasidan telegramma olganligi va unda otasi Toshkent viloyati Olmaliq shahrida istiqomat qiluvchi 1969 yilda tug‘ilgan otasi Latipov Sobirning vafot etganligi haqida xabar berilganligini aytib, unga 2022 yilning 23, 24 va 25 oktabr kunlari Toshkent viloyati Olmaliq shahriga otasi fuqaro Latipov Sobirning marakalarini o‘tkazish uchun borib kelishga ruxsat so‘radi.

**Topshiriq:** Ushbu xolat yuzasidan profilaktika inspektorining harakatlarini ketma-ketlikda ko‘rsatin?

### **Mustaqil tayyorgarlik uchun topshiriq:**

O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 apreldagi “Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma’muriy nazorat to‘g‘risida”gi Qonunni o‘rganish va tegishli bandlarini konspektlashtirish.

Tinglovchilar quyidagi savollarga javob topishi kerak:

1. Qaysi toifadagi ilgari sudlangan shaxslarga nisbatan ma’muriy nazorat o‘rnatiladi?
2. Qaysi organ ma’muriy nazorat o‘rnatish uchun taqdimnoma kiritadi?
3. Ma’muriy nazorat o‘rnatish asoslari va tartibi qanday?
4. Ma’muriy nazoratni o‘rnatish va amalga oshirishda profilaktika inspektoriga qanday vakolat berilgan va vazifalari nimadan iborat?
5. Ma’muriy nazorat muddati qancha?
6. Ma’muriy nazoratni yechishning qanday asoslari mavjud?
7. Ma’muriy nazorat qoidalarini buzganlik uchun qanday javobgarlik belgilanadi?

## **12-mavzu: Profilaktika inspektorlarining mahallalarda joriy qilingan hokim yordamchilari va yoshlar yetakchilari bilan hamkorlikdagi faoliyati.**

*Ma’ruza mashg‘uloti (2 soat)*

**Reja:**

**1-savol.** Profilaktika inspektorlarining mahallalarda joriy qilingan hokim yordamchilari bilan hamkorlikdagi faoliyati.

**2-savol.** Profilaktika inspektorlarining mahallalarda joriy qilingan yoshlar yetakchilari bilan hamkorlikdagi faoliyati.

### **1-savol. Profilaktika inspektorlarining mahallalarda joriy qilingan hokim yordamchilari bilan hamkorlikdagi faoliyati.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “**Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida**”gi 2021 yil 3 dekabrda PF-29-son Farmoniga asosan aholining tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirishga moliyaviy ko‘maklashish, ularning daromadli mehnat bilan bandligini ta’minlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, mahallabay ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish orqali kambag‘allikni qisqartirish, respublika, viloyat, tuman va shaharlarda ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari va manzilli moliyaviy qo‘llab-quvvatlash instrumentlarini bevosita mahalla darajasiga tushirish maqsadida:



2022 yil 1 yanvardan boshlab har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi har bir mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi lavozimi ta’sis etildi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “**Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni**

**qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida**”gi 2021 yil 3 dekabrda PQ-31-son Qarori qabul qilindi.

**Quyidagilar hokim yordamchilarining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib belgilandi:**

mahallada istiqomat qiluvchi aholining oilaviy tadbirkorligini rivojlantirish, jumladan ularning hunarmandchilik, kasanachilik, tomorqadan samarali foydalanish, kichik ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va boshqa turdagi faoliyatni yo'lga qo'yishi uchun oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida kreditlar olishda ko'maklashish;

mahallaning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, kooperatsiya asosida tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish istagini bildirgan yetakchi tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratishni tashkil etish, ularga tadbirkorlik bilan mustaqil shug'ullanish tajribasiga ega bo'lmagan fuqarolarni o'z faoliyatini yo'lga qo'yishi uchun ularga biriktirish;

aholi tomorqalaridan samarali foydalanishni tashkil etish, uy sharoitida dehqonchilik, chorvachilik, parrandachilik, quyonchilik, asalarichilik, urug'chilik, ko'chatchilik, gulchilik kabi faoliyat turlarini yo'lga qo'yishga ko'maklashish;

mahalladagi ish bilan band bo'lmagan aholining tadbirkorlik va doimiy daromad keltiruvchi faoliyat bilan shug'ullanishini yo'lga qo'yish maqsadida ularga issiqxona qurish, tomorqasini sug'orish uchun vertikal sug'orish quduqlarini burg'ilash, qishloq xo'jaligi kooperativiga a'zo bo'lish, asbob-uskuna va mehnat qurollarini xarid qilish, bino va inshootning ijara to'lovi hamda kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qishi uchun subsidiyalar olishda ko'maklashish;

mahalladagi bo'sh bino va yer maydonlarini aniqlab, ularni belgilangan tartibda tadbirkorlik sub'ektlariga ajratish bo'yicha tegishli tashkilotlarga takliflar kiritish;

tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga to'siq bo'layotgan muammolarning (muhandislik-kommunikatsiya tizimlariga ulanish va ulardan foydalanish, turli xil faoliyatni yo'lga qo'yish uchun ruxsatnomalar va litsenziyalar olish, bo'sh bino va yer maydonlarini tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun ajratish va boshqalar) tegishli tashkilotlar tomonidan hal etilishini tashkil etish.

**Hokim yordamchilarining profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikdagi asosiy vazifalari:**



mahalladagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni xonadonbay o'rganish, jumladan aholining bandlik darajasini, oilalarning daromad manbalarini, tomorqa yerlaridan foydalanish holatini hamda daromadli mehnatga bo'lgan intilishi va ehtiyojlarini tahlil qilish;

mahallada tadbirkorlikni rivojlantirishning ichki imkoniyatlari, tadbirkorlik bo'yicha ixtisoslashuv va mehnat resurslarini inobatga olgan holda, uni rivojlantirishga turtki beradigan omillar va yo'nalishlarni belgilash, ularni ishga solish orqali mahallaning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash;

doimiy daromad manbaiga ega bo'lmagan va ishsiz aholining, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarning qiziqishlarini o'rganish orqali ularni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'rgatuvchi o'quv markazlariga yo'naltirish hamda o'qishni tamomlagan bitiruvchilarning bandligini ta'minlashga yordam berish;

mahalladagi mavjud bo'sh ish o'rinlarini hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mavsumiy ishchilarga bo'lgan talabini aniqlash orqali ishsizlarni, birinchi navbatda, «temir daftar», «ayollar daftari» va «yoshlar daftari»ga kiritilgan yoshlar va xotin-qizlarni bo'sh (vakant) ish o'rinlariga joylashtirish hamda haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish.

Hokim yordamchisi lavozimiga Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, tijorat banklari, iqtisodiy va investitsiya komplekslariga kiruvchi boshqa idoralar, ularning hududiy bo'linmalarida bo'lim (sho'ba) boshlig'idan past bo'lmagan lavozimda ishlovchi rahbar xodimlar, shuningdek, mahalliy hokimliklarning rahbar xodimlari tayinlanadi.

Hokim yordamchisi lavozimiga nomzodlar tegishli Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari boshchiligidagi tanlov komissiyalari orqali ochiq tanlovlar asosida ishga qabul qilinadi.

Nomzodlarning intiluvchanligi, maqsadga yo‘nalganligi, qobiliyati, tajribasi kabilarni inobatga olgan holda tadbirkorlar, boshqa soha vakillari, faol yoshlar, rahbarlik lavozimida faoliyat yuritmayotgan xodimlar va oliy ma‘lumotga ega bo‘lmagan fuqarolar ham ishga qabul qilinishi mumkin.

Vazirliklar, idoralar, tijorat banklari, mahalliy ijro hokimiyati organlari rahbarlariga hokim yordamchilari lavozimiga tayinlangan xodimlarning avvalgi ish joyidagi lavozimini ikki yilgacha muddatga saqlab qolish, mazkur davrda ushbu lavozimga boshqa shaxslarni muddatli mehnat shartnomasi asosida vaqtincha ishga qabul qilish tavsiya etildi.

#### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi hokim yordamchilarini:**

ish faoliyati natijalariga ko‘ra Milliy kadrlar zaxirasiga kiritish;

ikki yillik mehnat faoliyati natijalariga ko‘ra lavozimini oshirish yuzasidan vazirlik va idoralar, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga taklif kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining takliflariga asosan hokim yordamchilarini tanlovsiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri yuqori lavozimlarga o‘tkazishga ruxsat berildi.

#### **Hokim yordamchilari:**



mahalladagi ishsiz aholini ish bilan ta‘minlash, ularga doimiy daromad manbaini yaratishga ko‘maklashish uchun ustuvor ravishda mahalladagi muvaffaqiyatga erishgan tadbirkorlik sub‘ektlari bilan hamkorlikda faoliyatini olib boradi;

respublika vakillari bilan birgalikda o‘ziga birlashtirilgan mahallani rivojlantirish bo‘yicha 2022 yilga mo‘ljallangan «Yo‘l xaritasi»ni ishlab

chiqadi va ijrosini ta‘minlaydi;

ajratilayotgan resurslardan samarali foydalanish yuzasidan doimiy monitoringni amalga oshiradi;

amalga oshirilgan ishlar natijadorligi yuzasidan tuman (shahar) hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari bilan birgalikda doimiy ravishda hokimga hisobot berib boradi.



#### **Hokim yordamchilari o‘z vazifalarini amalga oshirishda foydalanadigan moliyaviy instrumentlarning 2022 yil uchun manbalari etib quyidagilar belgilandi:**

a) oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida ajratiladigan kreditlar — **10 trln so‘m**;

b) aholining bandligini ta‘minlash, ularning o‘zini o‘zi band qilishi, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yishi uchun ajratiladigan mablag‘lar — **1 218 mlrd so‘m**, shundan:

Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasidan ish bilan band bo‘lmagan aholiga tadbirkorlik qilish va o‘zini o‘zi band qilish uchun subsidiyalar, kredit resurslari va boshqa xarajatlar uchun — **785 mlrd so‘m**, ish bilan band bo‘lmagan aholini kasb-hunarga, tadbirkorlik va hunarmandchilikka o‘qishga yo‘naltirish uchun — **210 mlrd so‘m**;

Jamoat ishlari jamg‘armasidan ishsiz aholini haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb etish xarajatlari uchun — **222 mlrd so‘m**;

v) Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hisobidan ajratiladigan subsidiyalar — **50 mlrd so‘m**;

g) hokim yordamchilari tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun ko‘zda tutiladigan mablag‘lar — **250 mlrd so‘m**;

d) «Saxovat va ko‘mak» jamg‘armasi, «Ayollar daftari» jamg‘armasi, «Yoshlar daftari» jamg‘armasi — 851 mlrd so‘m miqdorida.

**Hokim yordamchilarining oylik ish haqi miqdori ular biriktirilgan mahalladagi xonadonlar soniga mutanosib ravishda quyidagicha belgilandi:**

xonadonlar soni **500 tagacha** bo‘lgan mahallada — mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 6 baravari miqdorida;

xonadonlar soni **501 tadan 1 000 tagacha** bo‘lgan mahallada — mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 6,5 baravari miqdorida;

xonadonlar soni **1 000 tadan ortiq bo‘lgan** mahallada — mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 7 baravari miqdorida.

## **2-savol. Profilaktika inspektorlarining mahallalarda joriy qilingan yoshlar yetakchilari bilan hamkorlikdagi faoliyati.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022 yil 19 yanvardagi PQ-92-son Qarori qabul qilindi.

Yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish, ta‘lim muassasalarida ma‘naviy-ma‘rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirish maqsadida:

har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi har bir mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etildi.

**Quyidagilar mahalladagi yoshlar yetakchisining asosiy vazifalari etib belgilandi:**



«Yoshlar balansi»ni shakllantirish, yoshlar to‘g‘risidagi zarur ma‘lumotlarni «Yoshlar daftari» va «Yoshlar portali» elektron platformalariga kiritib borish, ular bilan samarali ish tashkil qilish;

mahallalarda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy xalq o‘yinlari va sport turlarini yoshlar orasida ommalashtirish,

Besh muhim tashabbus loyihalari, yoshlar festivallari va boshqa madaniy-ma‘rifiy tadbirlarni amalga oshirish;

yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste‘dodi va tashabbuslarini rag‘batlantirish hamda hayotda o‘z o‘rnini topishlariga ko‘maklashish;

yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning intellektual jihatdan kamol topishini va ma‘naviy rivojlanishini ta‘minlash;

huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo‘lgan yoshlar bilan tizimli ishlash, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan, ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan yoshlarning ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya qilinishi va moslashuviga ko‘maklashish.

**Yetakchilar o‘ziga biriktirilgan mahallalarda faoliyatini quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshiradi:**

madaniyat va san‘atni targ‘ib qilish borasida — «San‘at g‘unchalari» ko‘rik tanlovi, maqom, baxshichilik va estrada bo‘yicha «Yoshlar ovozi», «Yosh musavvirlar» tanlovlari hamda «Kamalak yulduzlari» bolalar ijodiyot festivalini o‘tkazadi, shuningdek, yoshlar va bolalar teatr jamoalarini tashkil etadi;

sog‘lom turmush tarzi va sportni ommalashtirish borasida — mini-futbol, voleybol, basketbol, stol tennisi, velosport, yugurish, shaxmat, shashka, badminton, kamondan otish bo‘yicha musobaqalarni tashkil etadi, salomatlik uchun 5 000 qadam yurish marafoni hamda «Yosh ekolog» aksiyasini o‘tkazadi;

axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni tashkil qilish borasida — «Bir million dasturchi», «Dasturlashga birinchi qadam» loyihalarini amalga oshiradi, kibersport chempionati va «Axborot texnologiyalari bilimdoni» tanlovini o‘tkazadi;

ma'naviyat va kitobxonlikni targ'ib qilish borasida — «Zakovat» musobaqasi, «Quvnoqlar va zukkolar», «Zukko kitobxon», «Yosh kitobxon», «Yosh kitobxon oila», «Xorijiy tillar bilimdoni» va «Yosh poliglot» tanlovlari hamda «Munozara» intellektual va milliy xalq o'yinlarini tashkil etadi;

vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va huquqiy savodxonlikni oshirish borasida — «Yosh chegarachi», «Yosh qutqaruvchi», «Quvnoq startlar», «Temurbeklar», «To'maris malikalari», «Shunqorlar», «Yosh huquqshunos», «Yosh saylovchi», «Yosh deputat» tanlovlari hamda «Men ham askar bo'laman» aksiyalari va harbiy qismlarga sayohatlarni tashkil etadi;

tadbirkorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash borasida — «O'zbekiston uchun 100 g'oya» va «Mahallaning ishbilarmon tadbirkori» tanlovlari, «Biznesga birinchi qadam» grant loyihasi hamda muvaffaqiyatga erishgan tadbirkorlar bilan uchrashuvlarni tashkil etadi.

Har chorakda mahallada yoshlar siyosatini samarali amalga oshirishda yuqori natijadorlikka erishayotgan mamlakat bo'yicha eng ilg'or 100 nafar Yetakchilar bir oylik ish haqiga teng miqdorda bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlanadi;

faoliyatini samarali tashkil etayotgan, o'zining shaxsiy fazilatlarini bilan yoshlarga namuna bo'layotgan va ularga yetakchilik qilayotgan Yetakchilar «Yangi O'zbekiston islohotchisi» ko'krak nishoni bilan taqdirlanadi.

### **Shunday tartib o'rnatildiki, unga muvofiq:**

Yoshlarga beriladigan yordam turlari Yetakchining tavsiyasi asosida beriladi;



Yetakchi yoshlarning tadbirkorlik g'oyalarini amalga oshirish, ular faoliyatiga kredit, subsidiya va boshqa yordam choralarini jalb qilish bo'yicha mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari

bo'yicha hokim yordamchisi bilan hamkorlik qiladi;

Yetakchi yuqorida ko'rsatiladigan yordam turlarini berishni ko'zda tutilgan har bir murojaatning samaradorligi va maqsadga muvofiqligini chuqur o'rgangan holda ularni berish uchun mas'ul idora va tashkilotlarga o'z tavsiyasini taqdim etadi;

Yetakchi beriladigan tavsiyalarning asosiligi, haqqoniyligi va adolatligi uchun mas'ul hisoblanadi.

Yoshlar masalalari bilan shug'ullanish va hududlarda ushbu faoliyatni muvofiqlashtirish shaxsan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar, Toshkent shahar va tumanlar (shaharlar) hokimlari tomonidan amalga oshiriladi;

Yetakchilarning hamda Yoshlar ishlari agentligining mahalla va ta'lim muassasalarida yoshlar bilan ishlash bo'linmalari xodimlarining shtat birliklari umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi 10 008 nafar yoshlar yetakchilari shtat birliklarini qisqartirish hisobidan shakllantiriladi;

Yetakchi lavozimiga nomzodlar tumanlar (shaharlar) hokimlari boshchiligidagi tanlov komissiyalarini shakllantirish orqali ochiq tanlovlar asosida ishga qabul qilinadi;

Yetakchi lavozimiga yoshlar bilan ishlash tajribasiga ega, yoshlarni ergashtira oladigan, shaxsiy fazilatlarini bilan namuna ko'rsatgan, fidoyi, sadoqatli va vatanparvar nomzodlar tayinlanadi.

### **Yetakchining oylik ish haqi miqdori u biriktirilgan mahalladagi xonadonlar soniga mutanosib ravishda quyidagicha belgilandi:**

xonadonlar soni 500 tagacha bo'lgan mahallada — mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 5 baravari miqdorida;

xonadonlar soni 501 tadan 1 000 tagacha bo'lgan mahallada — mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 5,5 baravari miqdorida;

xonadonlar soni 1 000 tadan ortiq bo'lgan mahallada — mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 6 baravari miqdorida.

Yoshlar ishlari agentligiga faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlaridan kelib chiqib, Yetakchilarni har chorak yakuni bo'yicha oylik ish haqining 50 foizigacha miqdorda mukofotlash huquqi berildi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining **“Yoshlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”**gi qarori qabul qilingan.

Ushbu Qaror bilan **“Shaharcha, qishloq, ovul, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda mahallalar yoshlar yetakchisining huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida Yo'riqnoma”** tasdiqlandi.



Mazkur Yo'riqnoma shaharcha, qishloq, ovul, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda mahallalar yoshlar yetakchilarining ichki ishlar organlari profilaktika (katta) inspektorlari bilan yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

Yoshlar yetakchilari va profilaktika inspektorlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi, «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi va boshqa qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, boshqa qonunchilik hujjatlari, shuningdek mazkur Yo'riqnoma asosida o'z faoliyatini amalga oshiradi.

Yoshlar yetakchilari va profilaktika inspektorlarining yoshlar bilan ishlash faoliyati O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi hamda Ichki ishlar vazirligi tomonidan muvofiqlashtirilib boriladi.

Yoshlarning bandligini ta'minlash, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish tadbirlari “Yoshlar daftari” axborot-tahlil tizimi orqali amalga oshiriladi.

Yoshlar yetakchilari va profilaktika inspektorlarining yoshlar bilan ishlash faoliyatining asosiy yo'nalishlari.

**Yoshlar yetakchilari va profilaktika inspektorlarining yoshlar bilan ishlash faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilansin:**

yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish maqsadida mahallalarda ularning ro'yxatini shakllantirish, “Yoshlar daftari”ga kiritish, muammolarini o'rganish va tizimli hal etish;

yoshlarda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish, ularni kasb-hunarga o'rgatish va bandligini ta'minlash;

yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi ko'lamini kengaytirish, ularni sportga keng jalb qilish va hayotda o'z o'rinlarini topishlariga ko'maklashish;

yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga dahldorlik hissini oshirish, ular bilan “mahallabay” ishlash tizimini takomillashtirish;

yoshlarning madaniy saviyasini oshirish va ularni fidoyilik ruhida tarbiyalashga qaratilgan ijtimoiy aksiyalar, madaniy - ma'rifiy tadbirlar hamda tanlovlar tashkil etish;

yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikni kuchaytirish;

yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hamda vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ko'rsatuv va eshittirishlarni ommaviy axborot vositalarida muntazam namoyish etish.

Yoshlar yetakchilari va profilaktika inspektorlarining yoshlar bilan ishlash faoliyatining asosiy yo'nalishlariga qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa yo'nalishlari ham belgilab berilishi mumkin.

**Yoshlar yetakchilari va profilaktika inspektorlarining vazifalari:**

yoshlar bilan ishlash borasidagi hamkorligini ta'minlaydi;

yoshlarning ayrim toifalarini “Yoshlar daftari”ga kiritish bo‘yicha ro‘yxatlarini shakllantiradi, ularga psixologik yordam ko‘rsatadi, muammolarini o‘rganadi va bartaraf etishga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

yoshlarning oilalarini o‘rganadi, ularning oilasidagi ma‘naviy-ahloqiy muhitni sog‘lomlashtirish va nizoli holatlarning oldini olish, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

yoshlar o‘rtasida mehnat huquqlari muhofazasi bo‘yicha tushuntirish ishlarini tashkil etadi, ularni mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasb-hunarga o‘rgatish va bandligini ta‘minlashga ko‘maklashishga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Yoshlar ittifoqi uyushmagan yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida sport va jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishga, ijodiy to‘garaklar va turli, jumladan, xorijiy tillarni o‘rgatish o‘quv kurslariga keng jalb etadi;

«Yoshlar balansi»ni shakllantiradi, yoshlar to‘g‘risidagi zarur ma‘lumotlarni «Yoshlar daftari» va «Yoshlar portali» elektron platformalariga kiritib boradi, ular bilan samarali ishlashni tashkil qiladi;

Besh muhim tashabbus loyihalari, yoshlar festivallari va boshqa madaniy-ma‘rifiy tadbirlarni tashkil qiladi;

yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste‘dodi va tashabbuslarini rag‘batlantirish hamda hayotda o‘z o‘rnini topishlariga ko‘maklashadi;

yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning intellektual jihatdan kamol topishini va ma‘naviy rivojlanishini ta‘minlash;

huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo‘lgan yoshlar bilan tizimli ishlash, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan, ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan yoshlarning ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya qilinishi va moslashuviga ko‘maklashadi.

#### **Profilaktika inspektorlari:**

huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo‘lgan yoshlar ro‘yxatlarini shakllantiradi;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoshlarning ro‘yxatlarini shakllantiradi;

yoshlar o‘rtasidagi huquqbuzarliklar (ma‘muriy va jinoiy) statistikasini olib boradi, ularning oldini olish bo‘yicha manzilli tadbirlarni amalga oshiradi;

ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan yoshlarning ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya qilinishi va moslashuviga ko‘maklashadi;

huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo‘lgan yoshlar bilan tizimli ishlash, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan, ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan yoshlarning ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya qilinishi va moslashuvi bo‘yicha manzilli tadbirlar tashkil etilishida yoshlar yetakchilariga ko‘maklashadi.

#### **Yoshlar o‘rtasidagi kriminogen vaziyatidan kelib chiqqan holda mahallalarni toifalash.**

Yoshlar o‘rtasidagi kriminogen vaziyatidan kelib chiqib, mahallalar yoshlar o‘rtasidagi jinoyatchilik bo‘yicha quyidagi “qizil”, “sariq” va “yashil” toifalarga ajratiladi.

Mahallalarni yoshlar o‘rtasidagi huquqbuzarliklar holati bo‘yicha “qizil”, “sariq” va “yashil” toifalarga ajratish hisobot davridagi yoshlar tomonidan huquqbuzarlik sodir etish holati hamda ushbu huquqbuzarliklarni sodir etgan yoshlar va voyaga yetmaganlar (voyaga yetmagan, xotin-qizlar, ishsiz, ilgari sudlangan, mast holatda, profilaktik hisobda turgan, ma‘muriy nazorat ostida turgan, ruhiy holati buzilgan) tomonidan jinoyat sodir etilishiga imkon berganlik holatlari asosiy mezon hisoblanadi.

“Yashil” toifa mahallani belgilashda hisobot davrida mahalla hududida oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlar yoshlar tomonidan sodir etilmagan bo‘lishi mezon sifatida qaraladi.

“Sariq” toifa mahallani belgilashda mahallada sodir etilgan jinoyatlar tuman ko‘rsatkichi bilan solishtirilib, hisobot davrida yoshlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar tuman ko‘rsatkichiga teng yoki undan past bo‘lishi mezon sifatida qaraladi.

“Qizil” toifa mahallani belgilashda quyidagi mezonlarning bittasi mavjud bo‘lishi lozim:

mahallada sodir etilgan jinoyatlar tuman ko‘rsatkichi bilan solishtirilganda hisobot davrida yoshlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar tuman ko‘rsatkichiga nisbatan yuqori bo‘lganda;



mahallada alohida toifadagi yoshlar, ya'ni voyaga yetmagan, xotin-qizlar, ishsiz, ilgari sudlangan, mast holatda, ichki ishlar organlari profilaktik hisobida turgan, ma'muriy nazorat ostida turgan yoshlar tomonidan jinoyat sodir etish ko'rsatkichi ming aholi soniga nisbatan tuman ko'rsatkichi bilan solishtirilganda, hisobot davrida mahallada ushbu toifadagi yoshlar tomonidan jinoyat sodir etilishi tuman ko'rsatkichiga nisbatan yuqori bo'lganda.

### **Yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning barvaqt oldini olish borasidagi faoliyatni tashkil etish**

Yoshlar jinoyatchiligi bo'yicha "qizil", "sariq" va "yashil" toifadagi mahallalarning ro'yxatlari ichki ishlar organlarining huquqiy statistika bo'linmalari tomonidan shakllantiriladi.

Yoshlar jinoyatchiligi bo'yicha "qizil", "sariq" toifadagi mahallalarga har oyda tuman (shahar) sektor rahbarlari tomonidan tuman (shahar) mutasaddi idora va tashkilotlar mas'ul xodimlarini manzilli chora-tadbirlarni belgilash borasidagi ishlarni to'g'ri tashkil etish bo'yicha shaxsan mas'ul etib biriktiriladi.

Mahallalarga biriktirilgan mas'ullar sodir etilgan jinoyatlarning sabablari va shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan manzilli profilaktik tadbirlarni tashkil etish bo'yicha kunlik tahlil olib boriladi.

"Sariq" toifadagi mahallalarga biriktirilgan mas'ullar yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etishda quyidagi profilaktik tadbirlarni amalga oshiradi:

mahalla fuqarolar yig'ini raislari hamda mahalladagi yoshlar yetakchilarining ichki ishlar organlari hisobida turgan shaxslar bilan olib borilishi lozim bo'lgan ijtimoiy-profilaktik tadbirlarni hamkorlikda amalga oshirilishini tashkil etish;

mahalla hududida ma'muriy huquqbuzarlik va jinoyat sodir etgan yoshlarning ro'yxatini shakllantirish hamda ularning muammolarini aniqlab, bartaraf etish choralari ko'rish;

o'quv yili davomida umumta'lim maktablari hududida o'quvchilarning xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, maktabga kelib-ketish yo'llari va transport vositalarining to'xtash joylari nazorat qilinishini ta'minlash;

o'quv mashg'ulotlariga qatnashmay yurgan voyaga yetmaganlarni aniqlash va ta'lim jarayoniga qaytarish maqsadida mutasaddi tashkilot va idoralar bilan hamkorlikda reydlar o'tkazilishini hamda ta'lim-tarbiya berish borasidagi majburiyatlarini bajarmagan ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga nisbatan qonunchilikda belgilangan ta'sir choralari ko'rilishini tashkillashtirish;

jinoyat sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish borasida yoshlar o'rtasida jinoyat muhokamalari hamda "sayyor sud"lar o'tkazilishini tashkil etish;

mahallada keksa avlod vakillarini uyushmagan yoshlarga biriktirish choralari ko'rish;

mahalla hududi har bir oila kesimida o'rganilib, notinch yosh oilalar aniqlanishi, fuqarolar yig'inlari bilan birgalikda ularning maishiy va boshqa muammoli masalalarini hal etishga ko'maklashish choralari ko'rish;

ilgari sudlangan, ma'muriy nazoratda turuvchi, uzoq muddatga boshqa davlatlarga borib qaytib kelgan va jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan yoshlar hamda ularning oila a'zolari bilan yakka tartibda suhbatlar o'tkazish;

sog'liqni saqlash muassasalari hisobida turuvchi yoshlarni (giyohvandlar, spirtli ichimlikka ruju qo'yganlar, tajovuzkor ruhiy kasallar) tibbiyot xodimlari (patronaj) bilan birgalikda ijtimoiy moslashuviga qaratilgan chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi yakka tartibdagi ishlarni tashkil etish, tuzalish yo'liga o'tmagan va g'ayriijtimoiy xulq-atvorini davom ettirayotgan shaxslarni majburiy davolashga yuborishni tashkil qiladi;

muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan yoshlarni rehabilitatsiya qilish markazlariga, nazoratsiz yurgan voyaga yetmaganlarni voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlariga joylashtirish bo'yicha ishlarni tashkil qiladi.

Yuqorida ko'rsatilgan chora-tadbirlar bilan bir vaqtda "sariq" toifadagi mahallalarga biriktirilgan mas'ullar mahalla hududining joylashuvi, yoshlarning tarkibi va mentaliteti, ijtimoiy-siyosiy qarashlari va moddiy ahvolini inobatga olgan holda boshqa tegishli chora-tadbirlarni ham amalga oshirishi mumkin.

“Qizil” toifadagi mahallalarga biriktirilgan mas’ullar “sariq” toifadagi mahallalarda amalga oshirilishi ko’zda tutilgan profilaktik tadbirlar bilan bir qatorda quyidagilarni ham amalga oshiradi:

kelgusida yoshlar tomonidan jinoyat sodir etilishining takrorlanishini oldini olish uchun qo’shimcha kuch va vositalar, shu jumladan, ko’ngillilar, keng jamoatchilik hamda ommaviy axborot vositalari vakillarini jalb etish bo’yicha sektor rahbarlariga takliflar kiritish;

yoshlar tomonidan huquqbuzarlik sodir etilishi ehtimoli yuqori bo’lgan bozor, ko’ngilochar maskanlarida jinoyat va huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish, shuningdek jinoyat sodir etishga moyil ishsiz, ichkilikka ruju qo’yan, giyohvand, tajovuzkor ruhiy kasal yoshlar bilan huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar bilan hamkorlikdagi manzilli chora-tadbirlarni belgilash;

yoshlar tomonidan mast holatda jinoyat sodir etilishining oldini olish maqsadida ruxsatnomasi bo’lmagan savdo nuqtalarida spirtli ichimliklar sotilishining oldini olish maqsadida soliq organi xodimlari tomonidan qo’shma reydlar o’tkazilishini tashkil qilish;

“Fidokor yoshlar” jamoatchilik patrul guruhi a’zolarining mahalla hududidagi tungi patrullik yo’nalishlarini belgilash va tungi reydlar o’tkazilishini tashkil etish;

“oila-mahalla-maktab” konsepsiyasi asosida tizimli ishlarni amalga oshirish;



voyaga yetmaganlarning uzluksiz ta’lim olishini ta’minlash va bo’sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish orqali ularni ma’naviy-ahloqiy hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, tarbiyasiga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi, huquqbuzarliklar va g’ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishga jalb etadigan ota-onalar, ularning o’rnini bosuvchilar yoki boshqa shaxslarni aniqlash hamda bu toifa shaxslarga nisbatan qonuniy choralar ko’rishni tashkillashtirish;

ilgari sudlangan va ichki ishlar organlarining profilaktik hisobida turgan yoshlar tomonidan jinoyat sodir etilishini oldini olish maqsadida, ularga mahalladagi obro’li faxriylar, madaniyat va din vakillaridan iborat murabbiylar biriktirish, ilgari sudlangan yoshlarning oila a’zolari, yaqinlari bilan uzilgan aloqalarini qayta tiklash va jamiyatga qayta moslashuvini ta’minlash, oilaviy sharoitini o’rganish asosida ularning ishga joylashishida va ijtimoiy-maishiy turmushida yordam ko’rsatish, ular bilan yakka tartibdagi profilaktik tadbirlarni o’tkazish orqali har bir sodir etilgan jinoyati uchun jazo muqarrarligini tushuntirish;

ma’muriy nazorat ostida turuvchi yoshlar tomonidan jinoyat sodir etilishining oldini olish maqsadida ushbu shaxslarning xulq-atvorini yashash va ish joylarini muntazam ravishda nazorat qilib, tekshirib borish, ularga nisbatan ma’muriy yoki jamoatchilik kuzatuv ta’sirini o’tkazish choralari ko’rish, ularning jamiyatga zid turmush tarzi yuritishni to’xtatish, muntazam ravishda unga biriktirilgan murabbiylar orqali uning yurish-turishini nazorat qilib borish;

ma’muriy nazoratga olingan, ilgari sudlangan va boshqa profilaktik hisobda turuvchi yoshlar bilan yakka tartibdagi profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini tashkil etish.

### **Mustaqil tayyorgarlik uchun topshiriq:**

Mustaqil ta’limning mazmunini tinglovchilar ma’ruza va boshqa o’quv mashg’ulotlarda olgan bilimlarini mustaqil ta’lim jarayonida yanada chuqurroq o’zlashtirishlari va navbatdagi mashg’ulotga mo’ljallangan mavzu bo’yicha tayyorgarlik ko’rishlari tashkil etadi.


O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag’allikni qisqartirish bo’yicha davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlari to’g’risida”gi 2021 yil 3 dekabrda PF-29-son Farmoni, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag’allikni qisqartirish masalalari bo’yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 2021 yil 3 dekabrda PQ-31-son Qarori va O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 2022 yil 19 yanvarda PQ-92-son Qarorini o’qib o’rganish va tegishli bandlarini konspektlashtirish.

## 12-mavzu: Profilaktika inspektorlarining Mahallalarda joriy qilingan hokim yordamchilari va yoshlar yetakchilari bilan hamkorlikdagi faoliyati

Seminar mashg'uloti (2 soat)

Ushbu o'quv mashg'uloti "*Kichik guruhlarda ishlash*" interfaol metodidan foydalanish orqali o'tkaziladi.

### "Kichik guruhlarda ishlash" metodining bosqichlari



#### *Gruhlarga topshiriqlar:*

- 1-guruhga topshiriq. Hokim yordamchilarining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari.
- 2-guruhga topshiriq. Hokim yordamchilarining profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikdagi asosiy vazifalari.
- 3-guruhga topshiriq. Mahalladagi yoshlar yetakchisining asosiy vazifalari.
- 4-guruhga topshiriq. Yoshlar yetakchilari va profilaktika inspektorlarining yoshlar bilan ishlash faoliyatining asosiy yo'nalishlari.

#### **Mustaqil tayyorgarlik uchun savollar:**

1. Yoshlar o'rtasidagi kriminogen vaziyatidan kelib chiqqan holda mahallalar qanday toifalanadi?
2. Yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning barvaqt oldini olish borasidagi faoliyatni tashkil etish.

## 13-mavzu: Profilaktika inspektorining voyaga yetmaganlarni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga va ixtisoslashtirilgan o'quv tarbiya muassasasiga joylashtirish faoliyati.

*Ma'ruza mashg'uloti (2 soat)*

### Reja:

**1-savol.** Voyaga yetmaganlarni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirishning huquqiy asoslari.

**2-savol.** Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlarining asosiy vazifalari, funksiyalari va vakolatlari.

**3-savol.** Voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirishning huquqiy asoslari va joylashtirish tartibi.

**4-savol.** Ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnomaning sud tomonidan ko'rib chiqilishi.

### 1-savoli. Voyaga yetmaganlarni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirishning huquqiy asoslari



Ichki ishlar organlari profilaktika xizmatlari tizimida amalga oshirilgan islohatlarni amalga oshirish uchun qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning har biri o'ziga xos ahamiyatga ega, lekin Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risidagi qonun alohida ahamiyatga egadir.

Shu kungacha qabul qilingan qonun va qonun osti hujjatlari huquqbuzarliklar profilaktikasining alohida sohalarini belgilab bergan.

O'zbekiston Respublikasining «Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida»gi qonuni voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan - voyaga yetmagan, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oila, nazoratsiz, yakka tartibdagi profilaktika ishi, qarovsiz, g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarning tushunchalariga ta'rif berib, ushbu sohadagi huquqbuzarliklarni oldini olish yo'nalishlarini belgilab berdi. Masalan, qonunning 10-moddasida ichki ishlar organlari voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini o'z vakolatlari doirasida amalga oshirishlari, ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi maxsus bo'linmalari voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi bo'linmalaridan hamda voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlaridan iborat ekanligi belgilab berilgan.

2021 yil 3 avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **“Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”** 490-son qarori qabul qilindi. **Mazkur qarorga muvofiq;**

ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlarining asosiy vazifalari, funksiyalari, vakolatlari, ular faoliyatini tashkil etish hamda boshqarish tartibi, nazoratsiz va qarovsiz qolgan voyaga yetmaganlarni aniqlash, ularni markazga qabul qilish, ro'yxatga olish va saqlash tartibi, voyaga yetmaganlar bilan yakka tartibdagi profilaktika ishlarini tashkil etish va ularni markazdan chiqarish tartibini nazarda tutuvchi Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari to'g'risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlariga qabul qilingan bolalar birinchi navbatda yuboriladigan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari ro'yxati 2-ilovaga muvofiq;

Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlariga qabul qilingan bolalarni oziq-ovqat, birlamchi kiyim-kechak va ashyoviy ta'minot buyumlari bilan ta'minlash me'yorlari 3-ilovaga muvofiq;

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga joylashtirilgan, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvoldagi oilalarda yashayotgan va davlat yordamiga muhtoj bo'lgan voyaga yetmaganlarni kiyim-kechak, poyabzal va ashyoviy ta'minot buyumlari bilan ta'minlash me'yorlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlandi.



#### **Markazlar faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:**

qarovsiz bolalarning shaxsini aniqlash, ularning o'qishi va xulq-atvorini, oilasidagi muhitni hamda qarovsiz qolishiga sabab bo'lgan omillarni to'liq o'rganish;

qarovsiz bolalarning ijtimoiy-huquqiy holatiga baho berish va tibbiy tekshiruvdan o'tkazish natijasiga ko'ra ularni ota-onasiga (ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarga) topshirish yoki tegishli muassasalar (ixtisoslashtirilgan ta'lim, ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya, bolalar yoki sog'liqni saqlash muassasalari)ga joylashtirilishini tashkil etish;

qarovsiz bolalarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish, shu jumladan, ularni oziq-ovqat, birlamchi kiyim-kechak va ashyoviy ta'minot buyumlari bilan ta'minlash, vaqtincha saqlash va kasb-hunarga o'rgatish tadbirlarini tashkil etish.

#### **2-savol. Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlarining asosiy vazifalari, funksiyalari va vakolatlari.**

##### **Markazlarning asosiy vazifalari:**

qabul qilingan voyaga yetmaganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish; voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-pedagogik yordam ko'rsatish, ularning yoshiga xos bo'lgan psixofiziologik xususiyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari, ijtimoiy moslashuvi va reabilitatsiyasi bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

voyaga yetmaganlarda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini shakllantirish;

voyaga yetmaganlarga tibbiy-pedagogik yordam ko'rsatish, ularning hayoti va sog'lig'ini saqlash;

ijtimoiy jihatdan og'ir ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish;

voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha yakka tartibdagi profilaktika ishlarini tashkil etish.

Markazlar qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham amalga oshirishi mumkin.



#### **Markazlar o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:**

**a) qabul qilingan voyaga yetmaganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasida:**

voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmagan, ularning majburiy umumiy ta'lim olishiga to'sqinlik qilgan ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga nisbatan qonuniy chora ko'rilishida qatnashadi;

yetim bolalar va ota-onalar qarovsiz qolgan bolalarni qabul qilishda vasiylik va homiylik organlariga ko'maklashadi;

voyaga yetmaganlarning doimiy yoki vaqtincha yashash manzili bo'yicha oilasini o'rganish ishlarini tashkil etadi;

shaxsi aniqlanmagan voyaga yetmaganlar bo'yicha, uning ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar haqidagi ma'lumotlarni olish yuzasidan davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlariga hamda fuqarolik jamiyati institutlariga so'rovlar yuboradi;

**b) voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-pedagogik yordam ko'rsatish, ularning yoshiga xos bo'lgan psixofiziologik xususiyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari, ijtimoiy moslashuvi va rehabilitatsiyasi bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish sohasida:**

vakolatli organlar bilan hamkorlikda Markazlarga joylashtirilgan ijtimoiy jihatdan og'ir ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlar uchun ish joylari kvotasini belgilash bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

voyaga yetmaganlarning Markazlardan chiqarish davrida ularning voyaga yetganlari orasidan ihsiz bo'lganlarni ishga joylashtiradi yoki mehnat bozorining real talablaridan kelib chiqqan holda kasb-hunarga tayyorlash choralari ko'rish bo'yicha ishlarni tashkil etadi;

voyaga yetmaganlarning musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish maqsadida ular bilan Markazlarda ishlash uchun ijod sohasidagi malakali mutaxassislarni jalb qiladi;

voyaga yetmaganlarni jismoniy chiniqtirish va sport sohasidagi qobiliyatlarini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratish bo'yicha ishlarni tashkil etadi;

**v) voyaga yetmaganlarda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini shakllantirish sohasida:**



voyaga yetmaganlarga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, Konstitutsiya va qonunchilik hujjatlarining mazmun-mohiyatini yetkazadi;

voyaga yetmaganlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini oshirish choralari ko'radi;

voyaga yetmaganlar ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib boradi;

voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha huquqiy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil qiladi, shuningdek, har bir voyaga yetmagan bilan unda davlat ramzlari bilan faxrlanish tuyg'ularini shakllantirish orqali mamlakatga daxldorlik, vatanparvarlik hissini kuchaytirishga qaratilgan tarbiyaviy ishar olib borilishini ta'minlaydi;

**g) voyaga yetmaganlarga tibbiy yordam ko'rsatish, ularning hayoti va sog'lig'ini saqlash va muhofaza qilish sohasida:**

Markazlarni dori vositalari, tibbiy buyumlar va zarur tibbiy texnikalar bilan ta'minlash ishlarini sog'liqni saqlash sohasidagi davlat boshqaruvi organlari va sog'liqni saqlash muassasalari bilan hamkorlikda tashkil etadi;

respublika o'quv-tarbiya muassasalariga yoxud vazirlik va idoralar tasarrufidagi umumta'lim, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga joylashtirilishi rejalashtirilgan voyaga yetmaganlarni tibbiy tekshiruvdan o'tkazish yakuni bo'yicha ma'lumotlarni belgilangan tartibda ish hujjatlariga qo'shib yig'ib boradi;

**d) ijtimoiy jihatdan og'ir ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish sohasida:**

ijtimoiy jihatdan og'ir ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlarning sog'lom muhitda yashashini ta'minlash choralari qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi;

qabul qilingan voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligiga, huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlaydi

qabul qilingan voyaga yetmaganlar to'g'risida tegishli davlat organlari va boshqa tashkilotlarni xabardor qiladi;

**ye) voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha yakka tartibdagi profilaktika ishlarini tashkil etish sohasida:**

qabul qilingan voyaga yetmaganlar bilan profilaktika ishlarini olib borilishini tashkil etadi va nazorat qiladi;

yakka tartibdagi profilaktika ishlarini tashkil etish samaradorligini oshirish choralari ko'radi.

Markazlar qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.



**Markazlar o'ziga yuklangan vazifa va funksiyalarni amalga oshirish doirasida quyidagi vakolatlarga ega:**

→ uch yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarning shaxsini aniqlash, hayoti, sog'lig'ini muhofaza qilish yoki ular tomonidan takroran huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish maqsadida ularni kecha-kunduz qabul qilishni hamda vaqtincha saqlashni ta'minlash;

→ olib kelingan voyaga yetmaganlar bilan yakka tartibda profilaktika ishini olib borish, voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligi, huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishiga imkon yaratadigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bu haqda tegishli davlat organlari va boshqa tashkilotlarni xabardor qilish;

→ voyaga yetmaganlarni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalariga olib borish, shuningdek, ushbu muassasalarda saqlanayotgan voyaga yetmaganlarni joylashtirish bo'yicha boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish;

→ olib kelingan voyaga yetmaganlarni ijtimoiy himoya qilish choralari ko'rish, ular bo'yicha davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat va notijorat tashkilotlariga tegishli so'rovlar jo'natish va zarur ma'lumotlarni olish;

→ olib kelingan voyaga yetmaganlarni respublika o'quv-tarbiya muassasalariga yoxud vazirlik va idoralar tasarrufidagi umumta'lim, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga yuborilishi maqsadga muvofiqligi yuzasidan voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha hududiy idoralararo komissiyaga xulosa taqdim etish;

→ qonunchilik hujjatlariga muvofiq xalqaro hamkorlikni amalga oshirish.

Markaz qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Markazlar ularga olib kelingan voyaga yetmaganlar bo'yicha yuborilgan so'rovlar va boshqa ma'lumotlarni qonunchilik hujjatlarida belgilangan muddatlarda taqdim etmagan davlat organlari mas'ul shaxslarining harakati (harakatsizligi) to'g'risida tegishli Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar yoki Toshkent shahar prokuraturasini xabardor qiladi.

**Voyaga yetmaganlarni Markazlarga qabul qilish va ulardan chiqarish asoslari.**

**Markazlarga 3 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan quyidagi voyaga yetmaganlar kecha-kunduz qabul qilinadi:**

→ ota-ona yoki ota-ona o'rini bosuvchi shaxslar nazoratsiz va qarovsiz qolgan;

→ ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oilalarda yashayotgan hamda davlat va jamoatchilik yordamiga muhtoj bo'lgan;

→ ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalarini, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun ta'lim muassasalarini yoxud boshqa bolalar muassasalarini o'zboshimchalik bilan tark etganlar;

→ ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan qonunchilik hujjatlarida belgilangan yoshda bo'lganlar;

→ ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan, lekin jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan yoshga to'lmagan yoxud ruhiy holatining buzilganligi bilan bog'liq bo'lmagan holda rivojlanishda o'z yoshiga nisbatan ancha orqada qolishi oqibatida sodir etgan qilmishining ahamiyatini to'la ravishda anglab yetishga qodir bo'lmaganlar, agar voyaga yetmaganlarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni ta'minlash yoki ular tomonidan takroran ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilishining oldini olish zarur bo'lsa, shuningdek, voyaga yetmaganlarning

shaxsi aniqlanmagan yoxud uning aniq yashash joyi bo'lsa yoki o'zlari ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashamayotgan bo'lsa;

→ ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqaradigan huquqbuzarliklarni sodir etganlar, agar ularning shaxsi aniqlanmagan bo'lsa yoxud ularning aniq yashash joyi bo'lsa yoki o'zlari huquqbuzarliklar sodir etgan O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashamayotgan bo'lsa;

→ o'zining ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirilishi to'g'risidagi masalaning sud tomonidan ko'rib chiqilishini vaqtincha kutib turganlar;

→ sudning ajrimiga ko'ra ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga yuborilayotganlar.

### **Markazlardan voyaga yetmagan shaxsni chiqarish uchun quyidagilardan biri asos bo'ladi:**

→ voyaga yetmagan shaxsning ota-onasiga yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar (vasiylik yoki homiylik organi)ga topshirilishi;

→ respublika o'quv-tarbiya muassasasiga qabul qilinishi;

→ bolalar-mehribonlik uyiga qabul qilinishi;

→ ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasiga qabul qilinishi;

→ voyaga yetmagan shaxsda markazda qolishiga to'sqinlik qiluvchi kasallik aniqlanganligi sababli uni sog'liqni saqlash muassasasiga yuborilishi;

→ olib kelingan voyaga yetmagan shaxsning 18 yoshga to'lishi.

### **Nazoratsiz va qarovsiz qolgan voyaga yetmaganlarni aniqlash va ularni qabul qilish tartibi.**



Voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologlar ta'lim muassasalarida, profilaktika inspektorlari xizmat hududida, mahalla fuqarolar yig'inlari raislari oilalarda o'rganish (kuzatish) va profilaktik tadbirlarni amalga oshirish jarayonida qarovsiz bolalarni aniqlaydi.

Voyaga yetmagan shaxsning qarovsiz qolganligi davlat idoralari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolar tomonidan aniqlangan hollarda ular bu to'g'risida profilaktika inspektoriga xabar beradi.

Profilaktika inspektori birlamchi o'rganish natijalariga ko'ra bola qarovsiz qolganligi to'g'risida xulosaga kelgan taqdirda, ushbu xulosani mahalliy jamoat xavfsizligi xizmati boshlig'iga taqdim etadi, mahalliy jamoat xavfsizligi xizmati boshlig'i esa, xulosani ko'rib chiqib, bolani Markazga qabul qilish yuzasidan yo'llanma tayyorlaydi va uni Markazga yuboradi.

Markaz xodimlari 5 soat ichida maxsus avtotransport vositasida qarovsiz bola saqlanayotgan manzilga yetib kelib, uni qabul qilib oladi va belgilangan tartibda Markazga olib borib joylashtiradi.

Markaz boshlig'i hududiy ichki ishlar organlari rahbarining o'rinbosari — jamoat xavfsizligi xizmati boshlig'i (Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari — huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmasi boshlig'i)ga qarovsiz bola qabul qilinganligi haqida navbatchilik qismi orqali xabar beradi.

Markaz boshlig'ining so'roviga asosan hududiy sog'liqni saqlash muassasasi mutaxassislari 3 soat ichida Markazga yetib kelib, qarovsiz bolani belgilangan tartibda tibbiy tekshiruvdan o'tkazadi.

Tibbiy tekshiruv xulosasiga ko'ra qarovsiz bolaning davolanishga muhtojligi (aqliy va ruhiy rivojlanishda yoshiga nisbatan orqada qolgan, tan jarohati, kasalligi, homiladorligi) aniqlangan hollarda u davolanish uchun tegishli sog'liqni saqlash muassasasiga yoki aqliy va ruhiy rivojlanishda yoshiga nisbatan orqada qolayotgan bolalarga mo'ljallangan muassasaga joylashtiriladi.

Markaz 48 soat ichida qarovsiz bolaning shaxsini aniqlaydi, uning o'qishi va xulq-atvorini, oilasidagi muhitni hamda qarovsiz qolishiga sabab bo'lgan omillarni to'liq o'rganadi, bolaning ijtimoiy-huquqiy holatiga baho berish natijasiga ko'ra ijobiy xulosaga kelsa, uni ota-onasi (ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar)ga topshiradi.



Markazdan ota-onasi (ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar)ga topshirilgan bolaning o'qishi, xulq-atvori va oilasidagi muhit bir yil davomida voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologlar tomonidan mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash organlari bilan birgalikda monitoring qilib boriladi.

Monitoring davomida bolaning ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda qolayotganligi kuzatilsa, uni belgilangan tartibda Markazga qaytarish choralari ko'riladi.

Markaz bolaning ijtimoiy-huquqiy holatiga baho berish natijasiga ko'ra uning ijtimoiy jihatdan xavfli ahvoldagi oilada yashayotganligi va davlat yordamiga muhtojligi to'g'risida xulosaga kelsa, ushbu bolani Markazda 48 soatdan ortiq, biroq 30 kundan (zarurat bo'lganda 45 kundan) ko'p bo'lmagan vaqt davomida saqlash haqida sudga iltimosnoma kiritadi.

Ushbu iltimosnoma 24 soat ichida Markazda sayyor yoki onlayn shaklda o'tkaziladigan yopiq sud majlisida ko'rib chiqiladi.

Sud iltimosnomani ko'rib chiqish jarayonida qarovsiz bolaning ota-onasi (ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar) rozi bo'lmagan holda ham uni Markazga va kelgusida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasiga qabul qilish masalasini ko'rib chiqadi.

Qarovsiz bolaning doimiy yashash joyi boshqa mintaqa hududida bo'lsa, Markaz 48 soat ichida uni tegishli hududdagi Markazga olib borib topshiradi.

Voyaga yetmaganlarni 48 soatdan ko'p bo'lmagan muddatga Markazlarga qabul qilishga tuman (shahar) ichki ishlar organlari boshliqlari yoki Markaz boshlig'i yoxud uning o'rinbosarlarining qarori asos bo'ladi.

Voyaga yetmaganlarni 48 soatdan ko'p bo'lgan muddatga Markazlarga qabul qilish uchun sudning qonuniy kuchga kirgan ajrimi asos bo'ladi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalar tomonidan voyaga yetmaganlar nazoratsiz va qarovsiz qolganligi aniqlanganda voyaga yetmaganlar markazga qabul qilish uchun hujjatlarni rasmiylashtirish maqsadida tuman (shahar) ichki ishlar organlarining eng yaqin tayanch punktiga yoki Markazga olib kelinadi.

Voyaga yetmaganlarni markazlarga qabul qilish borasidagi tadbirlar mazkur Nizomga ilovaga muvofiq sxema asosida amalga oshiriladi.

Markaz boshlig'i yoki uning o'rinbosarlari voyaga yetmagan shaxs ushbu Markazga qabul qilinganligi to'g'risida mazkur Markaz joylashgan hududdagi prokurorni va voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyani zudlik bilan, lekin uzog'i bilan 24 soatdan kechiktirmasdan xabardor qiladi.

Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiya taqdim etilgan hujjatlarni zudlik bilan ko'rib chiqib, 48 soatdan ko'p bo'lmagan muddatda tuman (shahar) ichki ishlar organlari yoki markaz boshlig'ining yoxud uning o'rinbosarlarining voyaga yetmaganni Markazga qabul qilish to'g'risidagi qarorini kelishib beradi.

Voyaga yetmaganlar va ularning buyumlari Markazga joylashtirilishidan oldin bir jinsga mansub ikki yoki undan ortiq shaxslar ishtirokida shaxsiy ko'rikdan o'tkaziladi.

Shaxsiy ko'rik natijasida tan jarohati holatlari aniqlanganda ichki ishlar organlarining navbatchilik qismlariga xabar beriladi hamda Markazda saqlanishi man etilgan buyumlar olib qo'yiladi va o'tkazilgan shaxsiy ko'rik natijasiga ko'ra dalolatnoma rasmiylashtiriladi.

Markazga olib kelinishi taqiqlangan buyumlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlangan shaklda yuritiladi.

Pul mablag'lari yoki moddiy qiymatga ega bo'lgan buyumlar, hujjatlar, shaxsiy ashyolar va boshqa buyumlar Markazning ushbu buyumlarni saqlash uchun mas'ul etib tayinlangan xodimiga O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlangan shaklda rasmiylashtirilgan dalolatnomaga muvofiq vaqtinchalik saqlab turish uchun topshiriladi.

Markazga joylashtirilgan voyaga yetmaganlar to'g'risida ma'lumot ular Markazga olib kelingan kunning o'zida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlangan shaklda yuritiladigan voyaga yetmaganlarni ro'yxatga olish kitobiga qayd yozuvi kiritiladi.

Markazga qabul qilingan voyaga yetmaganlar 48 soatgacha Markazda saqlansa, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakldagi hisobga olish kartochkasi (elektron tarzda) to'ldiriladi, Markazga joylashtirilgan voyaga yetmaganlar 48 soatdan ortiq saqlansa, unga nisbatan Ichki ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlangan shaklda hisobga olish yig'ma jildi yuritiladi. Yig'ma jild elektron tarzda yuritilishi ham mumkin.

Jinoyat sodir etgan va jinoyat sodir etishda gumonlanayotgan, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar, shuningdek, tarkibida kuchli ta'sir qiluvchi moddalar mavjud bo'lgan dori vositalari yoki alkogol ichimliklar ta'sirida bo'lgan, nogironlik belgisi yaqqol ko'rinib turgan, aqli noraso bo'lgan voyaga yetmaganlar hamda 18 yoshga to'lganligini tasdiqlovchi hujjatlari bo'lgan shaxslar Markazga qabul qilinmaydi.

### **Markazlardan voyaga yetmagan shaxsni chiqarish asoslari.**

voyaga yetmagan shaxsning ota-onasiga yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar (vasiylik yoki homiylik organi)ga topshirilishi;  
respublika o'quv-tarbiya muassasasiga qabul qilinishi;  
bolalar-mehribonlik uyiga qabul qilinishi;  
ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasiga qabul qilinishi;  
voyaga yetmagan shaxsda markazda qolishiga to'sqinlik qiluvchi kasallik aniqlanganligi sababli uni sog'liqni saqlash muassasasiga yuborilishi;  
olib kelingan voyaga yetmagan shaxsning 18 yoshga to'lishi.

### **Voyaga yetmaganlarni Markazlarga qabul qilish asoslari.**

**Markazlarga 3 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan quyidagi voyaga yetmaganlar kecha-kunduz qabul qilinadi:**

ota-ona yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar nazoratisiz va qarovisiz qolgan;  
ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oilalarda yashayotgan hamda davlat va jamoatchilik yordamiga muhtoj bo'lgan;  
ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalarini, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun ta'lim muassasalarini yoxud boshqa bolalar muassasalarini o'zboshimchalik bilan tark etganlar;  
ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan qonunchilik hujjatlarida belgilangan yoshda bo'lganlar;  
ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan, lekin jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan yoshga to'lmagan yoxud ruhiy holatining buzilganligi bilan bog'liq bo'lmagan holda rivojlanishda o'z yoshiga nisbatan ancha orqada qolishi oqibatida sodir etgan qilmishining ahamiyatini to'la ravishda anglab yetishga qodir bo'lmaganlar, agar voyaga yetmaganlarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni ta'minlash yoki ular tomonidan takroran ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilishining oldini olish zarur bo'lsa, shuningdek, voyaga yetmaganlarning shaxsi aniqlanmagan yoxud uning aniq yashash joyi bo'lmasa yoki o'zlari ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashamayotgan bo'lsa;  
ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqaradigan huquqbuzarliklarni sodir etganlar, agar ularning shaxsi aniqlanmagan bo'lsa yoxud ularning aniq yashash joyi bo'lmasa yoki o'zlari huquqbuzarliklar sodir etgan O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashamayotgan bo'lsa;  
o'zining ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirilishi to'g'risidagi masalaning sud tomonidan ko'rib chiqilishini vaqtincha kutib turganlar;  
sudning ajrimiga ko'ra ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga yuborilayotganlar.

### 3-savol. Voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirishning huquqiy asoslari va joylashtirish tartibi.



O'zbekiston Respublikasining 2010 yil 29 sentabrda "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ-263-son Qonuni qabul qilingan.

Mazkur qonunning **5 bob 28, 29, 30, 31-moddalarida** voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish tartibi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 mayda "Ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-4342-son Qarori qabul qilindi.

Mazkur Qarorga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Bosh prokuratura va Ichki ishlar vazirligining Baxt shahridagi o'g'il bolalar maxsus kolleji, Qo'qon shahridagi maxsus yengil sanoat kolleji, Samarqand shahridagi 64-sonli o'g'il bolalar maktab-internati va Chinoz tumanidagi 5-sonli qiz bolalar maktab-internatining negizida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzurida Respublika o'g'il bolalar o'quv-tarbiya muassasasi hamda Respublika qiz bolalar o'quv-tarbiya muassasasini tashkil etish to'g'risidagi takliflariga rozilik berildi.

- Respublika qiz bolalar o'quv-tarbiya muassasasi Toshkent viloyati, Chinoz tumani, «Gulzorobod» mahallasi manzilida;

- Respublika o'g'il bolalar o'quv-tarbiya muassasasi Sirdaryo viloyati, Sirdaryo tumani, Baxt shahri «Tadbirkor» mahallasi manzilida joylashtirildi.

Respublika o'g'il bolalar o'quv-tarbiya muassasasi O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasiga;

Respublika qiz bolalar o'quv-tarbiya muassasasi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga birlashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va Ichki ishlar vazirligi tegishincha Respublika o'g'il bolalar o'quv-tarbiya muassasasi hamda Respublika qiz bolalar o'quv-tarbiya muassasasining o'z vaqtida to'liq ta'minoti va maishiy shart-sharoitlari yaxshilanishiga ko'maklashish, ushbu muassasalarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarining zamonaviy usul va shakllaridan foydalanilgan holda sog'lom va jismonan baquvvat, ruhan tetik, bilimli, vatanparvar, fidoyi, dunyoqarashi keng yoshlarni shakllantirish, tarbiyalanuvchilarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Respublika o'quv-tarbiya muassasalarida sifatli tarbiya va ta'lim jarayonini yo'lga qo'yish, tarbiyalanuvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning intellektual, jismoniy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga mas'ul hisoblanadi.

**Voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish tartibi.** Respublika o'quv-tarbiya muassasalariga **14 yoshga to'lgan va 18 yoshdan oshmagan** voyaga yetmaganlar joylashtiriladi;

#### Respublika o'quv-tarbiya muassasalariga quyidagilar:

- ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan, lekin jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan yoshga to'lmagan yoxud ruhiy kasallik bilan bog'liq bo'lmagan holda rivojlanishda o'z yoshiga nisbatan orqada qolishi oqibatida sodir etgan qilmishining ahamiyatini to'liq anglab yetishga qodir bo'lmagan;

- aybliligi to'g'risidagi masala hal qilinmay turib jinoiy javobgarlikdan ozod qilingan, materiallar voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyaga ko'rib chiqish uchun topshirilgan bo'lsa;

- Respublika o'quv-tarbiya muassasalariga joylashtirish tariqasidagi majburlov chorasi qo'llanilgan holda jinoiy jazodan ozod qilingan voyaga yetmaganlar;

- yakka tartibdagi profilaktika ishi olib borilayotganligiga qaramay muntazam ravishda huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir qilishni davom ettirayotgan voyaga yetmaganlar **sud qarori asosida joylashtiriladi.**

**Yuqorida ko'rsatilgan voyaga yetmaganlar faqat Respublika o'quv-tarbiya muassalariga o'qishga qabul qilinadi.**

- ota-ona yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar nazoratisiz va qarovsiz qolgan;

- ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oilalarda yashayotgan;


- davlat va jamoatchilik yordamiga muhtoj bo'lgan boshqa voyaga yetmaganlar ularning xulq-atvori, psixologik portreti, yoshi, iqtidori, qobiliyati, qiziqishlari va boshqa omillarni inobatga olgan holda voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha hududiy idoralararo komissiya tavsiyasiga asosan tegishli vazirlik va idoralar qarorlari (yo'llanmalari) asosida o'quv yili davomida vazirlik va idoralar tasarrufidagi umumta'lim yoki ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga joylashtiriladi.

Muassasalarga yuborilayotgan voyaga yetmaganlar ta'til vaqtida agar ularning ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga qaytarish imkoni bo'lmasa Muassasalarda o'quv jarayoni boshlangunga qadar tuman (shahar) hokimining qarori asosida tegishli xalq ta'limi organining yo'llanmasi bo'yicha vaqtincha «Mehribonlik» uylarida tarbiyalanadilar.

**Qarovsiz va nazoratsiz qolgan voyaga yetmaganlarni joylashtirish mumkin bo'lgan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari**

T/r	Vazirlik va idora nomi	Maktab-internatlar soni	Litseylar soni	Jami
1.	O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi	134	—	134
2.	O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi	28	—	28
3.	O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi	3	2	5
4.	O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi	—	3	3
5.	O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi	—	1	1
6.	O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi	1	—	1
7.	O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi	14	—	14
<b>Jami</b>		<b>180</b>	<b>6</b>	<b>186</b>

Vazirlik va idoralar tizimida yangi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tashkil etilgan taqdirda voyaga yetmaganlar ularga ham joylashtirilishi mumkin



**Voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi materiallarni tayyorlash**

Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiya voyaga yetmaganga nisbatan kelib tushgan uning aybliligi to'g'risidagi masala hal qilinmay turib rad qilingan yoki tugatilgan jinoyat ishi materiallarini yoxud o'ziga nisbatan yakka tartibdagi profilaktika ishi olib borilgan voyaga yetmaganning huquqbuzarligi yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlari to'g'risidagi materiallarni ko'rib chiqib, voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish yoki boshqa ta'sir choralarini qo'llash haqida qaror qabul qiladi.

Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiya voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnoma bilan sudga

murojaat qilish haqida qaror qabul qilgan taqdirda, ichki ishlar organlari bu haqda zudlik bilan xabardor qilinadi.

Ichki ishlar organlari voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnomani sudga yuborish uchun zarur bo'lgan materiallarni **o'n kun ichida** voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiya uchun tayyorlashi shart.

Ichki ishlar organlari tegishli davlat organlariga va boshqa tashkilotlarga zarur hujjatlarni taqdim etish to'g'risida so'rovlar yuboradi.

So'rovlar olingan kundan e'tiboran **besh kun ichida** bajarilishi kerak.

Sog'liqni saqlash muassasalari voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish mumkinligini aniqlash uchun uni tibbiy tekshiruvdan o'gkazadi.

Tibbiy tekshiruv vaqtida voyaga yetmaganda uning ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasida saqlanishi, tarbiyalanishi va ta'lim olishiga to'sqinlik qiladigan kasalliklar aniqlangan taqdirda, unga taalluqli materiallar boshqa ta'sir choralari qo'llash uchun voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyaga topshiriladi.

O'ziga nisbatan ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish haqidagi materiallar tayyorlanayotgan voyaga yetmagan ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirilishi yoxud ota-onasi yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarning nazoratiga topshirilishi mumkin bo'lib, ular voyaga yetmaganning munosib xulq-atvorda bo'lishini va sudning chaqiruviga binoan kelishini ta'minlashi shart.

Sudga kelishdan bo'yin tovlayotgan ota-ona yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar, shuningdek o'n olti yoshga to'lgan voyaga yetmaganlar majburiy keltirilishi mumkin.

Voyaga yetmaganlar, agar jinoyat ishini qo'zg'atish rad qilingan yoki jinoyat ishi tugatilgan yoxud jinoiy jazodan ozod qilingan paytdan e'tiboran bir yildan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa, ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirilmaydi.

#### **Voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnomani sudga yuborish**

Ichki ishlar organi boshlig'i yoki uning o'rinbosari voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish mumkinligi haqidagi masalani ko'rib chiqish uchun voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyaga quyidagi hujjatlarni yuboradi:

- ➡ voyaga yetmaganning o'qish (ish) joyidan ma'lumotnoma va tavsifnoma;
- ➡ voyaga yetmaganning oilaviy-maishiy turmush sharoitlarini tekshirish dalolatnomasi;
- ➡ ichki ishlar organining voyaga yetmagan tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar hamda shu sababli ko'rilgan ta'sir choralari haqidagi axborotni o'z ichiga olgan ma'lumotnomasi;
- ➡ sog'liqni saqlash muassasasining voyaga yetmaganning sog'lig'i holati hamda uni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish mumkinligi haqidagi xulosasi.

Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiya ko'rsatilgan hujjatlarni olgach, voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnomani olingan hujjatlarni, shuningdek jinoyat ishini qo'zg'atish rad qilingan yoki tugatilgan jinoyat ishi materiallarini ilova qilgan holda **uch sutkadan** kechiktirmay sudga yuboradi.

Ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga yo'llanadigan har bir voyaga yetmagan bola uchun ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik huquqbuzarliklarning profilaktikasi inspektori tomonidan **ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi xodimi ko'magida shaxsiy hujjatlar yig'ma jildi uchun quyidagi hujjatlar rasmiylashtiriladi:**

- jinoiy ishlar bo'yicha tuman (shahar) sudining voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish haqidagi ajrimi;
- tug'ilganligi haqidagi guvohnoma;
- ma'lumoti to'g'risidagi hujjatlar (mavjud bo'lsa);
- o'qish joyidan ma'lumotnoma va tavsifnoma;

- yashash joyidan ma'lumotnoma va tavsifnoma;
- voyaga yetmaganning yashash va tarbiyalanish sharoitlarini tekshirish dalolatnomasi;
- tegishli ma'lumotnomalar bilan birga tibbiy karta;
- sog'liqni saqlash muassasasining voyaga yetmagan shaxsning sog'lig'i va uni ixtisoslashtirilgan maktabga joylashtirish mumkinligi to'g'risidagi xulosasi;
- voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyaning Iltimosnomasi.

**Ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga yo'llanayotgan yetim bolalar va ota-ona qarovisiz qolgan bolalar uchun shaxsiy hujjatlar yig'ma jildlarida yuqorida ko'rsatilgan hujjatlardan tashqari quyidagi hujjat-lar ham bo'lishi lozim:**

- yetim bolalar hamda ota-ona qarovisiz qolgan bolalarga nisbatan vasiylik belgilash yoki ta'lim muassasasiga joylashtirish haqidagi tuman (shahar) hokimi qarorining nusxasi;
- ota-onasi yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar (pasportlar yoki ota-onasi o'lganligi haqidagi guvohnoma nusxasi, sud hukmlari yoki qarorlari, ota-onaning uzoq vaqtdan buyon kasalligi to'g'risidagi ma'lumotnoma va ota-onasi yo'qligini yoki ularning o'z bolalarini tarbiyalashga imkoni yo'qligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar);
- yaqin qarindoshlarining borligi va ularning yashash joylari to'g'risidagi ma'lumotnoma;
- voyaga yetmaganning ota-onasidan qolgan mol-mulki (agar mol-mulk mavjud bo'lsa) ro'yxati, mol-mulkning joylashgan joyi, uning saqlanishini ta'minlash uchun qanday chora-tadbirlar ko'rilgani, uning saqlanishi uchun javobgar shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar;
- turar joyning voyaga yetmaganga birkiritib qo'yilganligi to'g'risidagi hujjatlar (order, uy daftari, turar joy tarixi, tuman (shahar) yer resurslari va davlat kadastr bo'limidan turar joyning egasi va turar joyni xususiylashtirish fakti to'g'risidagi ma'lumotnoma);
- pensiya olayotgan voyaga yetmaganning pensiya daftarchasi, sudning bola foydasiga aliment undirish to'g'risidagi qarori nusxasi, jamg'arma daftarchasi.

#### **4-savol. Voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnomaning sud tomonidan ko'rib chiqilishi**



Voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnoma voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiya uni taqdim etgan paytdan e'tiboran **24 soat ichida** voyaga yetmaganning yashash joyidagi jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining sudyasi tomonidan yopiq sud majlisida yakka tartibda ko'rib chiqiladi.

O'ziga nisbatan ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnoma ko'rib chiqilayotgan voyaga yetmagan, uning ota-onasi yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar, prokuror, vasiylik va homiylik organining, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyaning vakillari sud majlisida ishtirok etishi shart.

Iltimosnomani ko'rib chiqishda ichki ishlar organining vakili va advokat ishtirok etishi mumkin.

Voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiya vakilining voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish zarurligini asoslab beradigan ma'ruzasidan boshlanadi. So'ngra prokuror, o'ziga nisbatan iltimosnoma ko'rib chiqilayotgan voyaga yetmagan, advokat, agar u sud majlisida ishtirok etayotgan bo'lsa, sudda hozir bo'lgan boshqa shaxslar eshitiladi, taqdim etilgan materiallar o'rganiladi.

Ajrim sudya tomonidan alohida xonada chiqariladi.

Voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqib, sudya quyidagi ajrimlardan birini chiqaradi:

Iltimosnomani qanoatlantirish va voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga mazkur majburlov chorasini qo'llash muddatini ko'rsatgan holda joylashtirish to'g'risida;

voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirmay turib tuzalishi mumkinligini tasdiqlovchi holatlar yoki uni mazkur muassasaga joylashtirishga to'sqinlik qiladigan sabablar sudya tomonidan aniqlangan hollarda, iltimosnomani qanoatlantirishsiz qoldirish va materiallarni voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyaga voyaga yetmaganga nisbatan boshqa ta'sir choralarini qo'llash uchun yuborish to'g'risida.

Sudyaning voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnomani qanoatlantirish yoki qanoatlantirishsiz qoldirish to'g'risidagi ajrimi u o'qib eshittirilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi va darhol ijro etilishi lozim.

Sudyaning voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnoma bo'yicha chiqargan ajrimi darhol mazkur ajrimni ijro etishni ta'minlovchi organlar va muassasalarga yuboriladi, voyaga yetmaganga, uning ota-onasi yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarga, vasiylik va homiylik organiga, advokatga, agar u sud majlisida ishtirok etgan bo'lsa, ma'lumot uchun yuboriladi.

Sudyaning voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnoma bo'yicha chiqargan ajrimi ustidan sudya mazkur ajrimni chiqargan kundan e'tiboran o'n kun ichida jinoyat ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudiga, jinoyat ishlari bo'yicha viloyat, Toshkent shahar sudiga voyaga yetmagan, uning ota-onasi yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar, vasiylik va homiylik organi, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiya hamda advokat tomonidan shikoyat berilishi yoki prokuror tomonidan protest bildirilishi mumkin.

Jinoyat ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudining, jinoyat ishlari bo'yicha viloyat, Toshkent shahar sudining sudyasi voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnoma bo'yicha chiqarilgan ajrim ustidan berilgan shikoyatni (protestni) shikoyat (protest) **kelib tushgan kundan e'tiboran o'n kun ichida ko'rib chiqadi va quyidagi ajrimlardan birini chiqaradi:**

→ sudyaning ajrimini o'zgarishsiz, shikoyatni (protestni) esa qanoatlantirishsiz qoldirish to'g'risida;

→ sudyaning ajrimini o'zgartirish to'g'risida;

→ sudyaning iltimosnomani qanoatlantirish va voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi ajrimini bekor qilish haqida;

→ sudyaning iltimosnomani qanoatlantirishsiz qoldirish to'g'risidagi ajrimini voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish masalasini hal qilgan holda bekor qilish haqida.

**Sudning voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnoma yuzasidan chiqarilgan ajrimini ijro etish**

Sudning voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnoma yuzasidan chiqarilgan ajrimining ijrosini quyidagilar ta'minlaydi:

*voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiya* - voyaga yetmaganga nisbatan ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa ta'sir choralarini qo'llashga taalluqli qismini;

*ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi* - voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga olib borishga taalluqli qismini;

*ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasi* - voyaga yetmaganni mazkur muassasada saqlash muddati mobaynida uning tuzalishi va ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya qilinishini ta'minlashga taalluqli qismini.

### **Mustaqil tayyorgarlik uchun topshiriq:**

Mustaqil ta'limning mazmunini tinglovchilar ma'ruza va boshqa o'quv mashg'ulotlarda olgan bilimlarini mustaqil ta'lim jarayonida yanada chuqurroq o'zlashtirishlari va navbatdagi mashg'ulotga mo'ljallangan mavzu bo'yicha tayyorgarlik ko'rishlari tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2010 yil 29 sentabrdagi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 3 avgustdagi "Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 490-son qarorini o'qib o'rganish va tegishli bandlarini konspektlashtirish.


O'zbekiston Respublikasining 2010 yil 29 sentabrdagi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 mayda "Ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-4342-son Qarorini o'qib o'rganish va tegishli bandlarini konspektlashtirish.

### **13-mavzu: Profilaktika inspektorining voyaga yetmaganlarni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga va ixtisoslashtirilgan o'quv tarbiya muassasasiga joylashtirish faoliyati.**

*Seminar mashg'uloti (2 soat)*

O'quv mashg'uloti "*Kichik guruhlarda ishlash*" interfaol metodidan foydalanish orqali o'tkaziladi.

#### **"Kichik guruhlarda ishlash" metodining bosqichlari**



#### ***O'quv mashg'ulotining guruhlarga topshiriqlari:***

1-guruhga topshiriq. Nazoratsiz va qarovsiz qolgan voyaga yetmaganlarni aniqlash va ularni qabul qilish.

2-guruhga topshiriq. Nazoratsiz va qarovsiz qolgan voyaga yetmaganlarni xujjatlashtirish.

3-guruhga topshiriq. Voyaga yetmaganlarni Markazlarga qabul qilish va ulardan chiqarish asoslari.

4-guruhga topshiriq. Markazlar faoliyatining asosiy yo'nalishlari.



5-guruhga topshiriq. Respublika o'quv-tarbiya muassasalariga joylashtiriladigan voyaga yetmaganlar.

6-guruhga topshiriq. Vazirlik va idoralar tasarrufidagi umumta'lim yoki ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga joylashtiriladigan voyaga yetmaganlar.

7-guruhga topshiriq. Ichki ishlar organlari tomonidan tegishli davlat organlariga va boshqa tashkilotlarga zarur hujjatlarni taqdim etish to'g'risida so'rovlar yuborish.

8-guruhga topshiriq. Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyaga yuboriladigan hujjatlar.

#### **Mustaqil tayyorgarlik uchun savollar:**

1. Markazlar o'ziga yuklangan vazifa va funksiyalarni amalga oshirish doirasidagi vakolatlari.
2. Markazlardan voyaga yetmagan shaxsni chiqarish uchun asoslar.
3. Voyaga yetmaganni tashqi kurikdan o'tkazish.
4. Voyaga yetmagandan tushuntirish xati olish.
5. Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi xodimi ko'magida shaxsiy hujjatlar yig'ma jildi uchun rasmiylashtiriladigan hujjatlar.
6. Iltimosnomani ko'rib chiqishda ichki ishlar organining vakilining ishtirok etishi.
7. Sudning voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnoma yuzasidan chiqarilgan ajrimining ijrosi.
8. Voyaga yetmaganning yashash va tarbiyalanish sharoitlarini tekshirish.

### **13-mavzu: Profilaktika inspektorining voyaga yetmaganlarni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga va ixtisoslashtirilgan o'quv tarbiya muassasasiga joylashtirish faoliyati.**

#### *Amaliy mashg'uloti (2 soat)*

Amaliy mashg'ulot davomida tinglovchilar berilgan masalani yechishlari va hal etishlari, shuningdek profilaktika xizmatlari tomonidan profilaktika inspektorlarining voyaga yetmaganlarni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga va ixtisoslashtirilgan o'quv tarbiya muassasasiga joylashtirish faoliyati bo'yicha berilgan topshiriqlarni amalga oshirishda lozim bo'lgan vazifalarini ketma-ketlikda ko'rsatib berishlari lozim.

**Masala:** 2022 yilning 20 yanvar kuni soat 18<sup>00</sup>larda Mirzo Ulug'bek tumani IIB 104-sonli IIOTPgga profilaktika inspektorining yordamchisi tomonidan taxminan 8–9 yoshlardagi nazoratsiz yurgan voyaga yetmagan bola olib kelindi. Profilaktika inspektori kapitan V. Murodov bola bilan suhbatlashish jarayonida uning shaxsini aniqlay olmadi.

*Tinglovchilar profilaktika inspektori sifatida shaxsi nomalum voyaga yetmagan ushlanganda uni Ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish Markaziga joylashtirish yuzasidan amalga oshiradigan ketma-ketlikdagi harakatlari va tegishli protsessual hujjatlarni rasmiylashtirishlari lozim.*

**Topshiriq:** Profilaktika inspektorining harakatlari ayting?

**Masala:** Mirzo Ulug'bek tuman "Katta qorasuv" mahallasi profilaktika inspektori kapitan B.Murodov tuman Xalq ta'limi bo'limi bilan birgalikda tumandagi 18-sonli o'rta ta'lim maktabida "Davomat" tadbiri o'tkazish jarayonida Qorasuv-2, 15-uy, 25-xonadonda yashovchi voyaga yetmagan 7-sinf o'quvchisi, 2011 yilda tug'ilgan Axmedov Nosir Samadovich 1 xaftadan buyon hech bir sabablarsiz o'qishga kelmayotganligini aniqladi.

*Tinglovchilar profilaktika inspektori sifatida Xalq ta'limi bo'limi xodimi bilan hamkorlikda "Davomat" tadbirini o'tkazish bo'yicha ketma-ketlikdagi harakatlari va voyaga yetmaganni o'qishga*

*kelmasligini aniqlash choralari ko'rish yuzasidan amalga oshiriladigan ishlarni yozma ravishda bayon etishlari hamda tegishli hujjatni tuzishlari lozim.*

**Topshiriq:** Profilaktika inspektori va VEO'NHPB inspektorining harakatlari ayting?

**Mustaqil ta'lim savollari:**

O'zbekiston Respublikasining Mamuriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 14, 47, 188, 188-moddalari va O'zbekiston Respublikasining 2010 yil 29 sentabrdagi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunini o'qish va konspektlashtirish.

Tinglovchilar quyidagi savollarga javob topishi kerak:

1. Voyaga yetmaganlar o'rtasida qanday turdagi huquqbuzarliklar sodir etilishi mumkin?
2. Voyaga yetmaganlar ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkinmi?
3. Profilaktika inspektorining boshqa sohaviy xizmatlar bilan qaysi toifadagi voyaga yetmaganlar o'rtasida profilaktik ishlarni tashkil etadi?
4. Profilaktika inspektori boshqa sohaviy xizmatlar bilan voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini qaysi yo'nalishlarda tashkil etadi?
5. Voyaga yetmagan shaxs jinoyat sodir etganda javobgarlikka tortiladimi?

**14-mavzu: Profilaktika inspektorining xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha himoya orderini berish faoliyati.**

*Ma'ruza mashg'uloti (2 soat)*

**Reja:**

**1-savol.** Ichki ishlar organlari tomonidan tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderini berish tartibi.

**2-savol.** Himoya orderining ijrosini ta'minlash tartibi.

**3-savol.** Himoya orderini berish faoliyati ustidan monitoring olib borish tartibi.

**1-savol. Ichki ishlar organlari tomonidan tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderini berish tartibi.**



O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 sentabrdagi «Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari tazyiq va zo'ravonlikdan ishonchli himoya qilinishini ta'minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 4 yanvardagi 3-son qarori qabul qilindi.

Ushbu qaror asosida "Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderini berish, ijrosini ta'minlash va monitoring olib borish to'g'risida Nizom" qabul qilindi.

Shu Nizom ichki ishlar organlari tomonidan tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderini, shuningdek tazyiq va zo'ravonlik sodir etgan yoki sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarga himoya orderining nusxasini berish tartibini belgilaydi.

Himoya orderi ushbu Nizomga seriya va raqamga ega bo'lgan, qat'iy hisobi yuritiladigan hujjat hisoblanadi.

Himoya orderi ichki ishlar organlarining tayanch punkti profilaktika (katta) inspektori tomonidan ushbu Nizomda keltirilgan sxemaga muvofiq beriladi.

Himoya orderi tuman (shahar) ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalarida yuritiladigan alohida daftarda qayd etiladi.

**Quyidagilar himoya orderini berish uchun asos hisoblanadi:**

→ tazyiq va zo'ravonlik qurbonining murojaati;

- ➡ jismoniy yoki yuridik shaxslarning xabarlari, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari va (yoki) ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalgan xabarlar;
- ➡ tazyiq yoki zo‘ravonlik sodir etish yoxud ularni sodir etishga urinish holatlarining vakolatli organlar va tashkilotlar xodimlari tomonidan bevosita aniqlanishi;
- ➡ davlat organlaridan va boshqa tashkilotlardan olingan materiallar.

Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilishni amalga oshiruvchi vakolatli organlar va tashkilotlar jabrlangan xotin-qizlar bo‘yicha ma‘lumotga ega bo‘lgach ushbu Nizomga muvofiq shakldagi xabarnomani darhol ichki ishlar organlariga taqdim etadi.

Xabarnoma qonun hujjatlariga muvofiq ichki ishlar organlari navbatchilik qismidagi daftarda qayd etiladi. Tazyiq va zo‘ravonlik to‘g‘risida xabar bergan shaxslar va tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlar to‘g‘risidagi shaxsga doir ma‘lumotlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qo‘riqlanadi.

Ichki ishlar organlarining navbatchilik qismida belgilangan tartibda qayd etilgan murojaatlar va xabarlar darhol profilaktika inspektoriga taqdim etiladi.

**Profilaktika inspektori ichki ishlar organlari navbatchilik qismlari tomonidan taqdim etilgan murojaatlar va xabarlarni 24 soat mobaynida o‘rganib chiqadi hamda o‘rganish davomida:**

- jabrlanuvchi va zo‘ravonlik sodir etgan shaxslar hamda boshqa shaxslar bilan holat yuzasidan suhbat o‘tkazadi;
- jabrlanuvchi va zo‘ravonlik sodir etgan shaxsning turmush tarzi, tazyiq va zo‘ravonlik sodir etilishining kelib chiqishi sabablari va shart-sharoitlarini o‘rganadi;
- jabrlanuvchi va zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish chora-tadbirlarini amalga oshiradi.

**Profilaktika inspektori murojaat va xabarlarni o‘rganish yakuni bo‘yicha:**

- tazyiq va zo‘ravonlik holatlari aniqlangan taqdirda — himoya orderini rasmiylashtiradi;
- zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarga himoya orderi berilganligi to‘g‘risida jabrlanuvchining roziligi bilan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini, shuningdek, boshqa tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilishni amalga oshiruvchi vakolatli organlar hamda tashkilotlarni xabardor qiladi;

- tazyiq va zo‘ravonlik holatlari aniqlanmagan taqdirda qonun hujjatlariga muvofiq tegishli choralarni belgilaydi hamda bu haqda fuqarolar yig‘ini raisi, fuqarolar yig‘ini raisining oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma‘naviy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari ishtirokida dalolatnoma rasmiylashtiradi;

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat belgilari aniqlangan taqdirda himoya orderini berish to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqish bilan bir vaqtda ish materiallarini jinoiy javobgarlik masalasini hal qilish uchun tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organga yuboradi.

O‘n sakkiz yoshga to‘lmagan jabrlanuvchilarning himoya orderini berish to‘g‘risidagi arizasi ularning qonuniy vakili yoki vasiylik va homiylik organining vakili ishtirokida ko‘rib chiqiladi.



Shaxs himoya orderini olishni va uni imzolashni rad etganda, profilaktika inspektori xolislar ishtirokida dalolatnoma tuzadi hamda uni ushbu xatti-harakatni davom ettirgan taqdirda qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortilishi to‘g‘risida rasmiy ogohlantiradi va bu haqda jabrlanuvchini xabardor qiladi.

Himoya orderi rasmiylashtirilganda barcha yozuvlar ko‘k (havorang) siyohli ruchkada, tushunarli qilib yoziladi.

**Himoya orderi uch qismdan iborat bo‘lib:**

birinchi qismi (asli) to‘ldirilgandan so‘ng jabrlanuvchilarga beriladi;

ikkinchi qismi (nusxasi) zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarga beriladi;

uchinchi qismi profilaktika inspektorida qoladi.

Himoya orderi o‘ttiz kun muddatgacha beriladi va ushbu order rasmiylashtirilgan paytdan e‘tiboran kuchga kiradi.

Profilaktika inspektori himoya orderi berilganidan so‘ng uch kun muddatda bu haqda tegishli tuman (shahar) ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi, tuman (shahar) ichki ishlar boshqarmasi (bo‘limi)ning huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘limi (bo‘linmasi, guruhi) boshlig‘ini xabardor qiladi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘limi boshlig‘i himoya orderini rasmiylashtirish uchun to‘plangan materiallarni o‘rganib, taraflar fikrini eshitgan holda profilaktika inspektorining himoya orderini berish to‘g‘risidagi qarorini bekor qilishga haqli.

## 2-savol. Himoya orderining ijrosini ta‘minlash tartibi.

Himoya orderida quyidagi cheklovlar nazarda tutilishi mumkin:

- tazyiq o‘tkazishni va zo‘ravonlik sodir etishni taqiqlash;
- tazyiq o‘tkazgan yoki zo‘ravonlik sodir etgan shaxsning tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuv-chilar bilan aloqasini taqiqlash (ish joylarida va ta‘lim muassasalarida tazyiq va zo‘ravonlik-dan jabrlanuvchining tazyiq o‘tkazgan va zo‘ravonlik sodir etgan shaxs bilan bilvosita aloqasiga yo‘l qo‘yiladi);
- tazyiq o‘tkazilgan va zo‘ravonlik sodir etilgan taqdirda tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchining hamda tazyiq o‘tkazgan va zo‘ravonlik sodir etgan shaxsning bir xonada birga bo‘lishini taqiqlash;
- tazyiq o‘tkazgan va zo‘ravonlik sodir etgan shaxsning zimmasiga tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchini davolash, unga maslahat berish, uni tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha maxsus markazga joylashtirish uchun xarajatlarning, yetkazilgan moddiy zararining o‘rnini qoplash, shuningdek, ma‘naviy ziyonni kompensatsiya qilish majburiyatini yuklash.

### Himoya orderi amal qilish davrida:

#### profilaktika inspektorlari:

- tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish, shu jumladan ularning sabablarini hamda shart-sharoitlarini aniqlash va bartaraf etish choralarini ko‘radi;

- xotin-qizlarga tazyiq o‘tkazayotgan va ularga nisbatan zo‘ravonlik sodir etgan shaxslar bilan muntazam

asosda profilaktika ishlarini olib boradi;

- himoya orderi talablarining ijrosi ustidan nazorat qiladi hamda uning talablarini buzgan zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarni javobgarlikka tortish yuzasidan o‘z vakolatlari doirasida choralar ko‘radi;

#### mehnat organlari:

xotin-qizlarga nisbatan ish joyida tazyiq va zo‘ravonlik o‘tkazilgan hollarda, bunday hollarga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan, shuningdek, xotin-qizlar bilan o‘zaro munosabatlar madaniyatini oshirish bo‘yicha tashkilotlarda profilaktika tadbirlarini o‘tkazadi;

himoya orderi talablariga rioya etmaslik holatlari aniqlagan taqdirda bu haqda profilaktika inspektoriga xabar beradi;

### **ta'limni davlat tomonidan boshqarish organlari hamda ta'lim muassasalari:**

ta'lim muassasalarida tahsil oluvchilar orasidan xotin-qizlarga nisbatan tazyiq o'tkazish va zo'ravonlik sodir etishga moyil shaxslar aniqlanganda ularning xulq-atvorini tuzatish, shuningdek, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanganlarini ijtimoiy reabilitatsiya qilish hamda moslashtirish chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanganlarning ta'lim muassasalarida bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazishini ta'minlash maqsadida tadbirlar tashkil etadi;

himoya orderi talablariga rioya etmaslik holatlari aniqlangan taqdirda bu haqda profilaktika inspektoriga xabar beradi;

### **davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari:**

tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish chora-tadbirlarini amalga oshiradi;

himoya orderi talablariga rioya etmaslik holatlari aniqlangan taqdirda bu haqda profilaktika inspektoriga xabar beradi.

### **fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari:**

xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishga doir tadbirlarni amalga oshirishda davlat organlariga ko'maklashadi;

xotin-qizlarga tazyiq o'tkazayotgan va ularga nisbatan zo'ravonlik sodir etgan shaxslar bilan olib boriladigan profilaktika ishlarida qatnashadi;

himoya orderining amal qilish muddati mobaynida tegishli hududda istiqomat qiluvchi zo'ravonlikni sodir etgan shaxs, shuningdek, jabrlanuvchi bilan kelgusida bunday hollarning oldini olish maqsadida mahalla faollari ishtirokida suhbatlar o'tkazadi;

bu haqda profilaktika inspektoriga xabar beradi.

#### **Himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirish tartibi.**

Himoya orderi amal qilishi davrida xavf bartaraf etilmagan bo'lsa, himoya orderining amal qilish muddati jabrlanuvchining arizasiga ko'ra ko'pi bilan o'ttiz kungacha uzaytirilishi mumkin.

#### **Profilaktika inspektori besh ish kuni mobaynida:**

himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risida jabrlanuvchining arizasini, shu jumladan, xavf bartaraf etilgan yoki etilmaganligini o'rganadi;

ushbu masala yuzasidan mazkur Nizomda ko'rsatilgan tegishli davlat organlari va tashkilotlarning fikri (xulosasi)ni oladi;

himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirish yuzasidan to'plangan ma'lumotlarni huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limi boshlig'iga kiritadi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limi boshlig'i ikki ish kuni mobaynida tegishli hujjatlarni o'rgangan holda himoya orderining amal qilish muddatini uzaytiradi yoki uzaytirishni rad etish to'g'risida asoslangan qaror qabul qiladi.

Himoya orderining amal qilish muddati uzaytirilgan taqdirda bu haqda amaldagi blankaga belgi qo'yilib, jabrlanuvchi va zo'ravonlik sodir etgan shaxslar tanishtiriladi hamda zo'ravonlik sodir etgan shaxslar zo'ravonlik xulq-atvorini o'zgartirish bo'yicha tuzatish dasturidan o'tishi to'g'risida ogohlantiriladi.

Himoya orderining amal qilish muddati uzaytirilgan davrda zo'ravonlik sodir etgan shaxslarga qo'shimcha cheklovlar yoki profilaktik chora-tadbirlar belgilanishi mumkin.

O'n sakkiz yoshga to'lmagan jabrlanuvchilarning himoya orderini uzaytirish to'g'risidagi arizasi ularning qonuniy vakili yoki vasiylik va homiylik organining vakili ishtirokida ko'rib chiqiladi.


#### **Himoya orderining amal qilishi quyidagi holatlarda tugatiladi:**

→ jabrlanuvchi himoya orderini tugatishni so'rab murojaat qilganda;

- ➡ himoya orderida belgilangan muddat (uzaytirilgan muddat) tugaganda;
- ➡ jabrlanuvchi yoki zo‘ravonlik sodir etgan shaxsdan biri sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilganda;
- ➡ sodir etgan jinoyati uchun jabrlanuvchi yoki zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarning biriga nisbatan qamoq ehtiyot chorasi qo‘llanganda;
- ➡ jabrlanuvchilar yoki zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarning biri sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etilganda;
- ➡ jabrlanuvchilar yoki zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarning biri majburiy davolanishga yuborilganda;
- ➡ jabrlanuvchi va zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarning biri qonun xujjatlariga muvofiq doimiy yashash joyidan uzoq muddatga boshqa mamlakatga chiqib ketganda;
- ➡ jabrlanuvchi va zo‘ravonlik sodir etgan shaxslardan biri vafot etganda.

Himoya orderining amal qilish muddati tugaganligi to‘g‘risida shu kunning o‘zida jabrlanuvchi va zo‘ravonlik sodir etgan shaxslar xabardor qilinadi.

### 3-savol. Himoya orderini berish faoliyati ustidan monitoring olib borish tartibi.



Himoya orderini berish faoliyati ustidan ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalari tomonidan monitoring olib boriladi.

Profilaktika inspektorlari tomonidan taqdim etilgan jabrlanuvchi, zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarga berilgan himoya orderi to‘g‘risidagi statistik ma‘lumotlar tuman huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘limlari tomonidan umumlashtirib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari va Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmalariga keyingi oyning 2-kuniga qadar taqdim etiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari, Toshkent viloyati va Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmalari huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmalari ushbu ma‘lumotlarni o‘rganib, umumlashtiradi va O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Huquqbuzarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasiga keyingi oyning 5-kuniga qadar taqdim etadi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘limi boshlig‘ining xotin-qizlarni tazyiqdan himoya qilish, shu jumladan, himoya orderini berish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan hisoboti har oyda tegishli tuman (shahar) ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi, tuman (shahar) ichki ishlar boshqarmasi (bo‘limi) boshlig‘i huzurida o‘tkaziladigan tezkor yig‘ilishlarda muhokama qilib boriladi.

#### Mustaqil tayyorgarlik uchun topshiriq:

Mustaqil ta‘limning mazmunini tinglovchilar ma‘ruza va boshqa o‘quv mashg‘ulotlarda olgan bilimlarini mustaqil ta‘lim jarayonida yanada chuqurroq o‘zlashtirishlari va navbatdagi mashg‘ulotga mo‘ljallangan mavzu bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rishlari tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 sentabrdagi «Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 4 yanvardagi 3-son qarori, ushbu qaror asosida “Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderini berish, ijrosini ta‘minlash va monitoring olib borish to‘g‘risida Nizom”ni o‘qib o‘rganish va tegishli bandlemlarini konspektlashtirish.

## 14-mavzu: Profilaktika inspektorining xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish bo‘yicha himoya orderini berish faoliyati

Seminar mashg‘uloti (2 soat)

Ushbu o‘quv mashg‘uloti “*Savol-javob*” interfaol metodidan foydalanish orqali o‘tkaziladi.

«Savol-javob» metodi mavzuning tinglovchilar tomonidan o‘zlashtirilish darajasini aniqlashga yordam beradi. Uni qo‘llashning samaradorligi savol-javoblarning aniq, qisqa va tushunarli tarzda ifoda etilishi, aynan mavzuga doir bo‘lishiga bog‘liq.

Ta‘lim jarayonida metodni qo‘llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

O‘qituvchi mohiyati yoritilgan mavzu yuzasidan savollar tayyorlaydi	1
O‘qituvchi savollarni tinglovchilar e‘tiboriga havola etadi	2
Tinglovchilar berilgan savollarga javob qaytarish orqali mavzuni o‘zlashtirganlik darajasini namoyish etadi	3
O‘qituvchi tinglovchilarning savol-javobdagi ishtiroklarini tahlil qilib, baholaydi va mashg‘ulotga yakun yasaydi	4

### *O‘vuv mashg‘ulotning savollari:*

1. Himoya orderini berish uchun asoslar;
2. Jabrlanuvchi va zo‘ravonlik sodir etgan shaxsning turmush tarzi, tazyiq va zo‘ravonlik sodir etilishining kelib chiqishi sabablari va shart-sharoitlarini o‘rganish;
3. Jabrlanuvchi va zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish chora-tadbirlari;
4. Tazyiq va zo‘ravonlik holatlari aniqlangan taqdirda - himoya orderini rasmiylashti;
5. Jabrlanuvchi va zo‘ravonlik sodir etgan shaxslar hamda boshqa shaxslar bilan holat yuzasidan suhbat;

### **Mustaqil tayyorgarlik uchun savollar:**

1. Zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarga himoya orderi berilganligi to‘g‘risida jabrlanuvchining roziligi bilan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini, shuningdek, boshqa tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilishni amalga oshiruvchi vakolatli organlar hamda tashkilotlarni xabardor qilish.
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat belgilari aniqlangan taqdirda — himoya orderini berish to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqish bilan bir vaqtda ish materiallarini jinoiy javobgarlik masalasini hal qilish uchun tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organga yuborish.
3. Shaxs himoya orderini olishni va uni imzolashni rad etganda amalga oshiriladigan xarakatlar.
4. Himoya orderi qismlari.

## 14-mavzu: Profilaktika inspektorining xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish bo‘yicha himoya orderini berish faoliyati.

Amaliy mashg‘uloti (2 soat)

Amaliy mashg‘ulot davomida tinglovchilar berilgan masalani yechishlari va hal etishlari, shuningdek profilaktika xizmatlari tomonidan profilaktika inspektorlarining xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish bo‘yicha himoya orderini berish faoliyati bo‘yicha berilgan topshiriqlarni amalga oshirishda lozim bo‘lgan vazifalarini ketma-ketlikda ko‘rsatib berishlari lozim.

**Masala:** Mirzo Ulug‘bek tumani Kora-su-2, 13-uy, 7-xonadonda yashovchi 1976 yilda tug‘ilgan fuqaro Erkin Ikromovich Axmedov 2015 yilning yanvar oyida “**Spirтли ichimlikka ruju qo‘ygan shaxs**” sifatida narkologiya despanisida ruyxatga olinib, 106-IIOTP profilaktika inspektori kapitan B.Murodov tomonidan profilaktik ishlar olib borilganligiga qaramasdan ijobiy tomonga o‘zgarmadi va Narkologiya dispanseri hisobidan yechilmasdan aksincha unga 1-darajali spirтли ichimlikka ro‘ju qo‘ygan bemor sifatida tashhiz qo‘yildi. Shuningdek ushbu holatdan xavotirga tushgan E.I.Axmedovning turmush o‘rtog‘i S.Axmedova 106-IIOTPGA kelib profilaktik inspektori B.Murodovga turmush o‘rtog‘ini majburiy davolash muassasasiga yuborib davolatishga yordam berishini so‘rab murojaat etdi.

*Tinglovchilar profilaktika inspektori sifatida shaxsni majburiy davolashga joylashtirish yuzasidan ketma-ketlikdagi harakatlarni yozma ravishda tahlil etib, shuningdek, turmush o‘rtog‘iga himoya orderini berish bo‘yicha tegishli protsessual hujjatlarni rasmiylashtirishlari lozim.*

**Topshiriq:** Profilaktika inspektorining harakatlarini ayting?

**Misol:** Mirzo Ulug‘bek tumani IIB 106-sonli IIOTP profilaktika inspektori kapitan A.Abdullaevga Mirzo Ulug‘bek tumani Muqimiy ko‘chasi, 66-uyda yashovchi, 1978 yilda tug‘ilgan, fuqaro Hamidova Ra‘no Qayumovna 2022 yil 24 dekabr kuni soat 21.30 larda turmush o‘rtog‘i Abdiev Anvar Yunusovich uyiga mast holda kelib janjal chiqarib, qo‘ni-qo‘shnilarning tinchini buzib, uni yuz qismiga qo‘li bilan urib tan jarohati yetkazganligi va turmush o‘rtog‘iga nisbatan qonuiy chora ko‘rilishini so‘rab murojaat qildi.

*Tinglovchilar profilaktika inspektori sifatida shaxsga qarshi va oila-turmush munosabatlari doirasida huquqbuzarlik sodir etilganligi aniqlanganda ketma-ketlikdagi harakatlarni yozma ravishda tahlil etishlari va huquqbuzar shaxsni javobgarlikka tortish yuzasidan tegishli protsessual hujjatlarning maketlarini tayyorlashlari lozim.*

**Topshiriq:** Profilaktika inspektorining harakatlarini ayting?

### Mustaqil ish topshirig‘i:

1. Profilaktika inspektorlarining xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish faoliyatining tushunchasi.
2. Profilaktika inspektorlarining xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish faoliyatida qo‘llaniladigan choralar.
3. Profilaktika inspektorlarining xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish faoliyatida hamkorligi.
4. Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olishga doir yakka tartibdagi chora-tadbirlar va ularning turlari



## 15-mavzu: Profilaktika inspektorlarining IIO sohaviy xizmatlari, davlat organlari hamda jamoat tuzilmalari bilan o‘zaro hamkorligi.

*Ma’ruza mashg‘uloti (2 soat)*

### Reja:

**1-savol.** IIO sohaviy xizmatlari, davlat organlari hamda jamoat tuzilmalari bilan o‘zaro hamkorligining huquqiy asoslari.

**2-savol.** Profilaktika inspektorlarining IIO sohaviy xizmatlari bilan o‘zaro hamkorligi.

**3-savol.** Profilaktika inspektorining davlat organlari, jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikdagi faoliyati.

### 1-savol. IIO sohaviy xizmatlari, davlat organlari hamda jamoat tuzilmalari bilan o‘zaro hamkorligining huquqiy asoslari.



Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ichki ishlar organlari tizimida olib borilayotgan islohotlardan fuqarolarni va jamiyatni terrorchilik, qo‘poruvchilik xurujidan, barcha shakldagi ekstremizm, uyushgan jinoyatchilik kabi jinoyat ko‘rinishlaridan ishonchli himoya qilishni ta‘minlaydigan tizimni shakllantirish, ichki ishlar organlarini shaxs huquqlari va erkinliklarini, jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini himoya qilishning ishonchli garoviga aylantirish asosiy maqsad qilib qo‘yildi.

Ushbu vazifani amalga oshirishning eng samarali usullaridan biri bu ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari o‘rtasida o‘zaro hamkorligini yaxshilash va uning yangi yo‘nalishlarini va usullarini rivojlantirishdan iborat.

Profilaktika inspektorlarining ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari xodimlari bilan hamkorlikda jamoat tartibi va fuqarolarning xavfsizligini ta‘minlash, huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshirish, huquqbuzarliklarning sabablari va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarini bartaraf etishdagi hamkorlik, ushbu faoliyat bilan shug‘ullanuvchi sub’ektlarning qonun va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlariga asoslanib, o‘zaro kelishilgan holda faoliyatning shakl va usullari, xizmat vakolatlaridan samarali foydalanishi bo‘lib, bunda ikki yoki undan ortiq xizmat, ya‘ni boshqaruvning bir-biriga bo‘ysunmagan alohida ishtirokchilari o‘z harakatlarini o‘zaro kelishib bajarishadi. Hamkorlikni tashkil qilishga ichki ishlar organlari tizimidagi mehnat taqsimoti, tarkibiy bo‘linmalar o‘rtasida vazifalar va majburiyatlarning taqsimlanishi kabi masalalarni qamrab olgan maqsadning vujudga kelishi sifatida ham qarash mumkin. O‘zaro hamkorlikning maqsadi boshqaruv tizimi oldida turgan umumiy vazifalarini hal etishda kuch va vositalarning to‘g‘ri taqsimlanishini anglatadi.

Profilaktika inspektorlarining ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari bilan keng ko‘lamli hamkorligi hozirgi kunda muayyan huquqiy asoslariga ega. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarni, yuridik kuchiga ko‘ra, qonunlar va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlariga ajratish mumkin.



Konstitutsiyamiz dunyo siyosiy xaritasida yangi suveren demokratik davlat – O‘zbekiston Respublikasi qaror topganligini qonunlashtirdi. O‘tgan yillar ichida Asosiy qonunimizga tayanib, respublikamiz ichki ishlar organlari tizimida bir qator islohotlar amalga oshirildi.

Konstitutsiyamizning 13-moddasida ko‘rsatilganidek, O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha‘ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Ularni ta‘minlash esa ichki ishlar organlarining shuning tarkibida profilaktika inspektorlarining asosiy vazifasidir.

O‘zbekiston Respublikasining qonunlari profilaktika inspektorlarining ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari bilan hamkorlik qilishini bevosita tartibga solishga xizmat qilmasada, ushbu sohadagi ayrim ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Shulardan biri

O‘zbekiston Respublikasining «Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan ayrim shaxslar ustidan ma‘muriy nazorat to‘g‘risida»gi 2019 yil 2 aprel kuni qabul qilingan Qonuni bo‘lib, unda ma‘muriy nazorat o‘rnatish tartibi va asoslari, bunday nazoratga olingan shaxslarga belgilanadigan cheklovlar, ichki ishlar organlari xodimlarining bu boradagi huquq va majburiyatlari, nazoratdagi shaxsning majburiyatlari hamda ushbu nazoratni amalga oshirish tartibi belgilab berilgan, shuningdek ichki ishlar organlari tayanch punkti sub‘ektlarining ilgari sudlanganlar tomonidan takroran jinoyatlar sodir etilishining oldini olish, ularning ijtimoiy moslashuvi bilan bog‘liq faoliyat tartibga solingan. Mazkur qonun jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslar ustidan ma‘muriy nazoratni ta‘minlash borasida profilaktika inspektorlarining ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari, xususan jinoyat qidiruv xizmati, patrul-post xizmati, probatsiya, yo‘l-patrul xizmati xodimlari bilan hamkorligining huquqiy asoslaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 11 sentabrdagi qonunida «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida»gi qonuni profilaktika inspektorlarining ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari bilan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish bilan bog‘liq faoliyatini va shu maqsad yo‘lidagi hamkorligini tartibga solsa, O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi ularning ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni birgalikda ko‘rib chiqish, bu borada hamkorlikni tashkil etish bilan bog‘liq faoliyatni belgilovchi asosiy normativ-huquqiy hujjatdir.

O‘zbekiston Respublikasining «Voyaga yetmaganlar nazoratsizligi va huquqbuzarliklarining profilaktikasi to‘g‘risida»gi 2010 yil 29 sentabr kunida qabul qilingan qonunlari profilaktika inspektorlarining ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari bilan voyaga yetmaganlarning huquq va erkinliklarini ta‘minlash, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ular o‘rtasida nazoratsizlik, qarovsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshirish hamda bu borada hamkorlikni tashkil etish bilan bog‘liq munosabatlarni huquqiy tartibga soladi. «Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi qonunda bolada huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish, bolalarning ijtimoiy ko‘nikmasiga, voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarni kamaytirishga ko‘maklashish bola huquqlarini himoya qilishga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari sifatida ko‘rsatilgan. Qonunda jinoiy javobgarlikka tortilgan va jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan, ixtisoslashtirilgan bolalar muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalarning ham ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar sifatida e‘tirof etilgani ichki ishlar organlari tayanch punkti sub‘ektlariga yanada katta mas‘uliyat yuklaydi.



O‘zbekiston Respublikasining “**Ichki ishlar organlari to‘g‘risida**” gi qonunining 9-moddasida; *“Ichki ishlar organlari o‘z faoliyatini ochiq va shaffof tarzda, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, boshqa tashkilotlar va fuqarolar, shuningdek ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda amalga oshiradi”*- deya keltirilgan.

**11-moddasida** esa *“Ichki ishlar organlari o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida, qonunchilikda belgilangan tartibda davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi hamda aniqlangan jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklarga oid mavjud materiallar to‘g‘risidagi axborotni almashishni, shu jumladan elektron shaklda almashishni, shuningdek boshqa axborotni almashishni amalga oshiradi.*

*Davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda, jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta‘minlashda, jinoyatlar va ma‘muriy huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularni fosh etishda, jinoyat ishlarini tergov qilishda, jinoyatchilarni qidirishda, bedarak yo‘qolganlarning turgan joyini aniqlashda, shuningdek huquqbuzarliklar profilaktikasida ichki ishlar organlariga o‘z vakolatlari doirasida ko‘maklashishi shart”*- deb belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi «**Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida**»gi qonunning 2 bobida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda muassasalar, ularning vakolatlari berilgan. Profilaktika inspektorlari ushbu idoralar bilan bevosita huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda hamkorlik qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi “**Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi PQ-2833 sonli qarorida;

*Huquqbuzarliklarning samarali profilaktikasini amalga oshirish davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa davlat tashkilotlari, shuningdek xo‘jalik boshqaruvi organlarining ustuvor vazifasi etib belgilandi.*

### Hamkorlikni tashkil etish prinsiplari:

- Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi;
- oldindan ishlab chiqilgan va kelishilgan reja asosida o‘tkazilishi;
- quyi organlarning yuqori organlarga bo‘ysunishi;
- belgilangan vakolat doirasidan chetga chiqmaslik;
- har qanday masalalarning uyushqoqlik va tezkorlik bilan hal etilishi.

### 2-savol. Profilaktika inspektorlarining IIO sohaviy xizmatlari bilan o‘zaro hamkorligi.



Profilaktika inspektorlari ichki ishlar organlari tayanch punkti negizida ichki ishlar organlarining quyidagi sohaviy xizmatlari xodimlari, bilan ma‘muriy hududda jamoat tartibini saqlash, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquqlarini, qonuniy manfaatlarini, mol-mulklarini turli xil jinoyiy tajovuzlardan himoya qilish hamda xavfsizligini, shuningdek, huquqbuzarlik profilaktikasini ta‘minlash borasidagi o‘zaro hamkorligini amalga oshiradi bular:

1. Jinoyat qidiruv xizmati;
2. Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash xizmati;
3. Tergovchi va surishtiruvchilar;
4. Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlari;
5. Jamoat tartibini saqlash xizmati;
6. Patrul-post naryadlari;
7. Yo‘l harakati havfsizligi xizmati;
8. Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish xizmati;
9. Probatsiya xizmati;
10. Ekspert-kriminalistika xizmati;
11. Navbatchilik qismi bilan.

Ushbu ichki ishlar organlarining har biri bilan profilaktika inspektorlarining ichki ishlar organlari tayanch punktida hamkorligini tashkil etishi va amalga oshirishini ko‘rib chiqamiz:

**1. Jinoyat qidiruv xizmati** xodimlari bilan hamkorligining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:



– shaxsga qarshi va mulkiy jinoyatlar, uyushgan jinoyatchilik va odam savdosi, giyohvandlik vositalari va psixotrop-moddalarning noqonuniy aylanishi, terrorizm va diniy ekstremizmning oldini olish, ularning sodir etilish sabablari va ularga imkon bergan sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;

– surishtiruv organlari, sud va tergovdan yashiringan shaxslarni, bedarak yo‘qolganlar qidiruvi hamda shaxsi noma‘lum murdalarni aniqlash;

– hududda sodir etilgan jinoyatlarni issiq izidan, tez va sifatli ochish, o‘tgan yillarda sodir etilib, ochilmay qolgan jinoyatlarni fosh etish, shuningdek boshqa noxush hodisa va holatlarning kelib chiqish sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash.

**2. Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash xizmati** xodimlari bilan hamkorligining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

– shaxsga qarshi va mulkiy jinoyatlar, uyushgan jinoyatchilik va odam savdosi, giyohvandlik vositalari va psixotrop-moddalarning noqonuniy aylanishi, terrorizm va diniy ekstremizmning oldini olish, ularning sodir etilish sabablari va ularga imkon bergan sharoitlarni aniqlash hamda bartarafetish;

– surishtiruv organlari, sud va tergovdan yashiringan shaxslarni, bedarak yo‘qolganlar qidiruvi hamda shaxsi noma’lum murdalarni aniqlash;

– hududda sodir etilgan jinoyatlarni issiq izidan, tez va sifatli ochish, o‘tgan yillarda sodir etilib, ochilmay qolgan jinoyatlarni fosh etish, shuningdek boshqa noxush hodisa va holatlarning kelib chiqish sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash.

**3. Tergovchi va surishtiruvchilar** bilan hamkorligining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

– tergov-tezkor guruhi rahbarining ko‘rsatmasi asosida hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish, sodir etilgan jinoyatlarni “issiq izi”dan ochishga xizmat qiluvchi dastlabki harakatlar va boshqa protsessual tadbirlarni amalga oshirish;

– ochilmay qolgan jinoyatlar bo‘yicha hamkorlikdagi ishlarni tashkil etish;

– O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunining 35-moddasi 3 va 4-bandlariga muvofiq, shaxsni profilaktik hisobga qo‘yish;

– birgalikdagi jinoyatlarning oldini olish va aholining huquqiy madaniyatini oshirib borish bo‘yicha ish olib borish.

**4. Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektori** bilan hamkorligining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

– voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi va huquqiy targ‘ibotni olib borish;

– voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasini amalga oshirish;

– ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmaganlar va oilalarni aniqlash hamda ular bilan yakka tartibda profilaktika ishlari olib borish;

– voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasini amalga oshirish;

– voyaga yetmaganlarni huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarini sodir etishga jalb qilayotganlarni, shuningdek voyaga yetmaganlarni ta‘minlash, tarbiyalash, ta‘lim berish, shaxsiy xavfsizligini, hayoti va sog‘lig‘i muhofaza qilinishini, nazoratsizligi va huquqbuzarliklarining profilaktikasini ta‘minlash bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishdan bo‘yin tovlayotgan, lozim darajada bajarmayotgan, ularning xulq-atvoriga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgan, ular bilan shafqatsiz muomalada bo‘layotgan ota-onalarni yoki ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxslarni aniqlash hamda ularga nisbatan qonuniy ta‘sir choralarini qo‘llash;

– voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklari yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlari to‘g‘risidagi materiallarni ko‘rib chiqish va ushbu jarayonda ishtirok etish.

**5. Jamoat tartibini saqlash xizmati xodimlari** bilan hamkorligining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

– ko‘chalar va boshqa jamoat joylarida sodir etilgan jinoyatlar, tezkor vaziyatning tahlilini olib borish, patrul-post naryadlarini postlar va patrullik yo‘nalishlariga joylashtirish dislokatsiyasini ishlab chiqish, shuningdek shahar, tuman hududida joriy sutkada xizmatni tashkil etish bo‘yicha qaror loyihasiga takliflar kiritish va uni tayyorlash;

– o‘tkaziladigan ommaviy tadbirlar vaqtida jamoat tartibi saqlanishini ta‘minlash;

– nazorat-litsenziyalash tizimi qoidalariga rioya etilishini tekshirib, nazorat qilib borish.

**6. Patrul-post naryadlari** bilan hamkorligining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- ko‘chalar va jamoat joylaridagi huquqbuzarlik, jinoyatlarning oldini olish, ularning sodir etilish sabablari va ularga imkon bergan sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;
- ichki ishlar organlarining profilaktik hisobida turuvchi shaxslar, ma’muriy nazorat ostida turgan shaxslarning o‘rnatilgan talablarga rioya etishlarini nazorat qilib borish;
- diniy-ekstremistik qo‘poruvchilik, terrorchilik faoliyati ko‘rinishlari, narkotik-moddalar, o‘qotar qurol-aslahalarni qonunga xilof ravishda o‘tkazish, shuningdek boshqa tajovuzlarni aniqlash va ularning sodir etilishiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish.

**7. Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati xodimlari** bilan hamkorligining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- haydovchi va yo‘lovchilarning yo‘llarda harakatlanish qoidalariga og‘ishmay rioya etishlariga xizmat qiladigan huquqiy targ‘ibot ishlarini olib borish;
- yo‘llarda harakat xavfsizligini ta‘minlash va yo‘l-transport hodisalarining oldini olishga doir amaliy chora-tadbirlarni bajarish;
- avtotransport vositalari bilan bog‘liq jinoyat, yo‘l-transport hodisasi sodir etib, voqea joyidan yashiringan yoki boshqa sabablarga ko‘ra qidiruvda bo‘lgan transport vositalari, ularning egalarini aniqlash va ushlab choralarni ko‘rish;
- hududdagi yo‘llarning talabga javob berishi, ularning yo‘l harakatini tartibga soluvchi vositalar bilan jihozlanganligini ta‘minlash.

**8. Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish xizmati xodimlari** bilan hamkorligining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- hududda istiqomat qiluvchi fuqarolarning pasport tizimi qoidalariga rioya etishlarini ta‘minlash;
- chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekistonda bo‘lish qoidalariga rioya etishlarini ta‘minlash;
- uzoq muddatga boshqa davlatlarga chiqib ketgan O‘zbekiston fuqarolarining hisobini yuritish;
- aholining fuqarolik bilan bog‘liq qonun hujjatlari talablariga og‘ishmay rioya etishlariga xizmat qiladigan huquqiy targ‘ibot ishlarini olib borish.

**9. Probatsiya xizmati xodimlari** bilan hamkorligining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- hududda axloq tuzatish ishlari, muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazolarni ijro etish va shartli hukm qilinganlarni nazorat qilish, bunday toifadagi shaxslarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish;
- Ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazo tayinlangan va shartli hukm qilingan shaxslarning profilaktik hisobini yuritish, ularning takroran jinoyat sodir etishlarining oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish.

**10. Ekspert-kriminalistika xizmati xodimlari** bilan hamkorligining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- hodisa sodir bo‘lgan joydagi jinoyat izlari va ashyoviy dalillarning sifatli olinishini ta‘minlash;
- jinoyat va ma’muriy huquqbuzarlik ishlariga aloqador izlar va dalillarni aniqlash, olish hamda ulardan foydalanishni o‘zaro o‘rganib, malakasini oshirib borish.

**11. Navbatchilik qismi bilan hamkorligi:**

- “Shakl-1” kitobiga korxonalar, tashkilot, muassasa va fuqarolardan tushgan jinotga oid ariza, shikoyat, xabarlar bo‘yicha chora-tadbirlar belgilashda;
- “Shakl-2” jurnaliga telefon, telegraf va boshqa signallar orqali voqea, hodisalar bo‘yicha hamda korxonalar, tashkilot, muassasa va fuqarolardan tushgan ariza, shikoyat, xabarlar bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar belgilashda;
- ma’muriy huquqbuzarlik hatti-harakatlari sodir etgan shaxslarni qonuniy chora ko‘rilgunga qadar IIB navbatchilik qismlarida ma’muriy tartibda ushlab turishda va ular bo‘yicha ma’muriy protsessual hujjatlarni rasmiylashtirishda;

– daydichilik va tilamchilikda gumon qilinib, IIB navbatchilik qismlariga olib kelingan shuningdek, shaxsi noaniq bo‘lgan fuqarolarni shaxsini aniqlash maqsadida belgilangan tartibda ma’lum muddatgacha ushlab turish jarayonida va ularni Reabilitatsiya Markazlariga joylashtirish bo‘yicha hujjatlar rasmiylashtirishda;

– “Kompeks” tadbirlar jarayonida profilaktika inspektorlarining ish natijalari bo‘yicha muntazam ravishda aniqlangan huquqbuzarliklar, ochilgan jinoyatlar va turli salbiy-itimoiy illatlar yuzasidan ko‘rilgan choralar haqida ma’lumotlar almashishlarida;

– hududdagi kriminogen holat va tezkor vaziyatlar haqidagi ma’lumotlarni olishda;

– bedarak yo‘qolgan shaxslar haqidagi ma’lumotlar bilan tanishishda va ularni qidirish jarayonida;

– ilgari sudlanganlar va ma’muriy nazoratda turuvchilar hamda boshqa toifadagi profilaktik hisobda turuvchi shaxslar haqidagi ma’lumotlar almashishda;

– jazoni ijro etish muassasalaridan, tergov xibsxonalaridan qochgan mahkumlarni ushlashda ya’ni, “Sirena” holati e’lon qilingan vaziyatlarda;

– jinoyat sodir etib voqea joyidan yashiringan va qurollangan jinoyatchilarni ushash uchun “Perexvat” holati e’lon qilingan vaziyatda;

– favqulotda holatlar: suv toshqini, qor ko‘chishi, kuchli jala, davul, yong‘in va boshqa tabiiy ofatlar yuz bergan vaziyatlarda o‘zaro ma’lumotlar almashishda;

– ommaviy tartibsizliklar, ruxsat etilmagan mitinglar va namoyishlar va boshqa Konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan holatlar yuz bergan vaziyatlarda operativ ma’lumotlar olib turishda;

Navbatchilik qismlarining uzatish kanallari orqali beriladigan telegramma (telefonogramma)larni kirish-chiqish kitoblariga qayd etadilar va tegishli xizmatlarga, shu jumladan profilaktika inspektorlari ga bu haqda yetkazadi. Tezkor navbatchi har doim “Trevoga” bo‘yicha shaxsiy tarkibga o‘z vaqtida xabar berish va yig‘ish, xodimlarni chaqirish, xabar berilishini nazorat qilishi lozim. Profilaktika inspektorlari IIB navbatchilik qismlari bilan aloqa vositalari orqali muntazam aloqada bo‘lishlari shart hisoblanadi.

### **3-savol. Profilaktika inspektorining davlat organlari, jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikdagi faoliyati.**



Davlatning alohida belgilaridan biri bu davlat organlarining mavjudligi bo‘lib, ular alohida funksiyalarni bajaradi. Demak, davlat hokimiyatining mamlakat butun hududiga tatbiq etilishi va davlat organlarining barcha aholi uchun umumiy majburiy qarorlar qabul qilishi bilan ifodalanadi. Bu esa davlat organlarining faoliyat yo‘nalishlarida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish vakolatini beradi.

Aynan shulardan kelib chiqib, profilaktika inspektori huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda davlat organlarining mavjud imkoniyatlaridan foydalanish zarurati kelib chiqadi va hamkorlikni talab etadi.

Profilaktika inspektori davlat organlari boshqaruv sohasidagi vakolatlari doirasidan kelib chiqib hamkorlikdagi ishlarni tashkil etadi va amalga oshiradi:

#### **Sud organlari bilan:**

- fuqarolarning, jumladan voyaga yetmaganlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish;

- ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish jarayonida huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslarga nisbatan ma’muriy javobgarlik choralari qo‘llanilishini ta’minlash;

- surunkali ichkilikbozlik, giyohvandlik va zaharvandlikka muhtalo bo‘lgan beomarlarni majburiy davolash muassasasiga yuborish;

- “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunning 35-moddasida ko‘rsatilgan toifadagi shaxslar, jumladan, ma’muriy huquqbuzarliklar sodir etgan, ehtiyot chorasi

qo'llanilgan va asosiy jazo qo'llanilmasdan aybdor deb topilganlarni ichki ishlar organlarida profilaktik hisobga olish;

- voyaga yetmagan shaxslarni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi yoki ixtisoslashtirilgan o'quv tarbiya muassasasiga joylashtirish;

- jazoni ijro etish muassasalaridan qaytib kelgan alohida toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat o'rnatish;

- tuman, shahar hududida sodir etilgan ayrim jinoyat va ma'muriy huquqbuzarliklar sudlar tomonidan joylardagi sayyor majlislarda ko'rib chiqish;

- fuqarolarning huquqiy madaniyatini shakllantirish.

#### **Prokuratura organlari bilan:**

- O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi qonunida belgilanganidek, prokuratura organlarining asosiy vazifalari qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilish;

- hududda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan huquqbuzarlik, jinoyat, boshqa noxush hodisa va holatlarning oldini olish, ularning sodir etilish sabablari va ularga imkon bergan sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;

- sodir etilgan jinoyatlarni, ayniqsa ularning prokuratura organlari tergoviga tegishlilarini ochish, shu maqsadda surishtiruv ishlarini olib borish; uchinchidan, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish hamda aholining huquqiy madaniyatni yuksaltirish;

- jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilganlar konstitutsiyaviy tuzumga qarshi xatti-harakatlari uchun jazoga tortilganlar va diniy ekstremistik oqim a'zolari bilan yakka tartibdagi profilaktik ishlarni amalga oshirish va ularni nazoratga olish;

- sodir etilgan og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar yuzasidan dalil va ashyolarni aniqlash, ularni javobgarlikka tortish choralarini ko'rish;

- jinoyatlarning sabab va sharoitlarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish choralarini ko'rish;

- mehnat qonunchiligiga muvofiq, korxonalar, tashkilot va muassasalarda ishlayotgan voyaga yetmaganlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish;

- yangi qabul qilingan qonunlar va qonun osti normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini fuqarolarga yetkazish hamda bu borada targ'ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirish.

#### **Davlat xavfsizlik xizmati bilan:**

- milliy xavfsizlikka tahdid soladigan illatlarning, jumladan diniy ekstremizm va terrorizmning oldini olish, ularning sodir etilish sabablari va ularga imkon bergan sharoitlarni aniqlash, ularni bartaraf qilish choralarini ko'rish;

- huquqiy targ'ibotni amalga oshirish;

- muqaddam tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlarni sodir etgan shaxslar bilan yakka tartibdagi profilaktikani tashkil etish;

- hududda sodir etilgan tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlarni ochish;

- davlat chegaralari daxlsizligini ta'minlash;

- ma'muriy hududda doimiy va vaqtincha yashayotgan chet el fuqarolarining yurish-turishlari, aloqalari, O'zbekistonda bo'lish qoidalariga rioya etishlarini kuzatib borish;

- tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar, milliy xavfsizlikka tahdid soladigan illatlar, xususan diniy ekstremizm, terrorizm, odam savdosining oldini olish maqsadida hududlarda ularning sodir etilish sabablari va ularga imkon bergan sharoitlarni aniqlash, ularni bartaraf qilish choralarini ko'rish;

- diniy ekstremizmning turli ko'rinishlari, jumladan diniy prozelitizm, diniy fanatizm, missionerlik, shuningdek nolegal diniy faoliyat bilan shug'ullanish, noqonuniy diniy saboq

berish holatlarini aniqlash maqsadida, tezkor tadbirlarni o'tkazash va aniqlangan aybdorlarni ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortish choralarini ko'rish;

- mamlakatimizning chegara hududlarida davlat chegaralarining daxlsizligini ta'minlash, ularni turli jinoiy maqsadlarda buzib o'tishga harakat qiluvchi, jumladan O'zbekiston hududiga giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni olib kirishga urinuvchi shaxslarni aniqlash va ushlab, shuningdek chegara tartibi qoidalari buzilishining oldini olish;

- mamlakatimizdagi tinchlik va osoyishtalikning qadriga yetish, uni asrash, milliy xavfsizlikka tahdid soladigan illatlar – diniy ekstremizm va terrorizmning oldini olish orasida hududdagi aholi turar joylari, ta'lim muassasalari va mehnat jamoalarida huquqiy targ'ibot ishlarini olib borish.

#### **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati organlari:**

- qo'riqlanuvchi shaxslarning manfaatlari, xavfsizligi va daxlsizligiga qarshi huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarning hisobini yuritadi.



#### **O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlari:**

- huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiradi, shu jumladan mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlaydi, bartaraf etadi;

- fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o'q dorilarini olish va ro'yxatdan o'tkazish (qayta ro'yxatdan o'tkazish) tartibiga fuqarolar hamda yuridik shaxslar tomonidan rioya etilishi ustidan nazoratni ta'minlaydi.

**Adliya organlari** bilan aholi o'rtasida umumiy profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishda imkoniyatlar yuqoridir. Respublikada olib borilayotgan targ'ibot-tashviqot mavzulari tub mohiyatidan kelib chiqib, ma'ruzalar o'qilishi, davra suhbatlarining tashkil etilishi va uchrashuvlar o'tkazilishi aynan adliya organi bilan tashkil etilishi samaradorligi yuqoridir.

#### **Davlat bojxona organlari bilan:**

- jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek, chet el fuqarolarining bojxona haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish;

- bojxona to'lovlarini undirish, bojxona nazoratidan o'tkazilishi shart bo'lgan tovarlar va transport vositalarining shunday nazoratdan o'tkazilishini ta'minlash;

- bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishining, shu jumladan kontrabandaning oldini olish, uni aniqlash va chek qo'yish hamda qonunda belgilangan boshqa vazifalarni amalga oshirish;

- bojxona nazoratidan o'tkazilishi shart bo'lgan tovarlar va transport vositalarining shunday nazoratdan o'tkazilishini ta'minlash;

- bojxona chegarasi va unga tutash hududlarda huquqbuzarlik, jinoyat va boshqa salbiy hodisalarning oldini olish, ularning sodir etilish sabablari va ularga imkon bergan sharoitlarni bartaraf qilish;

- bojxona chegarasi va unga tutash hududlarda sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish va hal etish, shuningdek sodir etilgan jinoyatlarni "issiq izi"dan ochish, shu maqsadda surishtiruv, tezkor-qidiruv tadbirlarini olib borish;

- bojxona organlari xodimlari bojxona komplekslari va bojxona postlaridan turli pornografik mazmundagi, zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi, milliy ma'naviyatimizga yot bo'lgan materiallar, jumladan jurnallar, CD, DVD disklar, kassetalar olib kirilishining oldini olish choralarini ko'rish;

- jismoniy shaxslar tomonidan bojxona postlari va aylanma yo'llar orqali O'zbekiston Respublikasining hududiga noqonuniy tovarlar olib kirilishining oldini olish, bu borada bojxona organlari xodimlari bilan zarur operativ ma'lumotlar almashish hamda bunday qonunbuzarliklarning oldini olish choralarini ko'rish maqsadida rejali va rejadan tashqari tekshiruv tadbirlari va qo'shma reydlar o'tkazish;

- jinoyat sodir etib yashiringan va qidiruvdagi boshqa shaxslarni aniqlash va qo'lga olish, o'g'irlangan, olib qochilgan avtotransport vositalarini ushlab choralarni ko'rish;



- bojxona postlari va aylanma yo'llar orqali sodir etiladigan odam savdosining, qurolaslahalar, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar olib kirilishi bilan bog'liq jinoyatlarning oldini olish choralari ko'rish.

#### **Soliq organlari bilan:**

- davlat soliq siyosatini amalga oshirish, soliqlarning to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni ta'minlash;

- soliqlarga oid huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish, pul mablag'larining g'ayriqonuniy aylanishi manbalariga barham berish, aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul tushumining to'liq va o'z vaqtida topshirilishi ustidan muntazam nazoratni ta'minlash;

- bozorlar va savdo komplekslarining moliya-xo'jalik faoliyati, ular tomonidan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

- aniqlangan huquqbuzarliklar bo'yicha surishtiruv o'tkazish, jinoyat ishlarini tergovga tegishligiga ko'ra huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshirish;

- aholining soliqqa doir huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan tashkiliy va targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish;

- soliq sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning sodir etilish sabablari va ularga imkon bergan sharoitlarni bartaraf etish hamda aniqlangan bu boradagi ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni hal etish;

- soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash va boshqa shu kabi jinoyat va ma'muriy huquqbuzarliklarni aniqlash hamda aybdorlarga tegishli choralarni ko'rish bo'yicha tekshiruv, qo'shma reyid va boshqa tadbirlarni o'tkazish;

- soliq sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning sodir etilish sabablari va ularga imkon bergan sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish, bu sohadagi tashkiliy, metodik va huquqiy muammolarni hal qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularning ijrosini ta'minlash;

- soliq to'lashdan bosh tortib kelayotgan fuqarolar bilan yakka tartibdagi profilaktik suhbatlar o'tkazish hamda ularning belgilangan soliq va majburiy to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishlarini ta'minlash choralari ko'rish;

- kontrabanda yo'li bilan olib kirilgan va boshqa belgilangan talablarga javob bermaydigan tovar mahsulotlari bilan savdo qilayotgan do'konlar va savdo shahobchalarini aniqlab, bu haqda hududiy soliq organlariga xabar berish orqali qonunbuzarliklarni sodir etayotgan fuqarolarga nisbatan qonuniy choralar ko'rilishini ta'minlash;

- alkogol va tamaki mahsulotlarini realizatsiya qilishga doir cheklashlarga rioya etishlarini ta'minlash, jumladan alkogol va tamaki mahsulotlarini yigirma yoshga to'lmagan shaxslarga sotish, aksiz markalari bilan tamg'alanmagan holda sotish, qolaversa ta'lim, sport muassasalari va diniy muassasalardan besh yuz metrdan kam masofa joylashgan savdo ob'ektlarida sotilishining oldini olish choralari ko'rish.

#### **Sog'liqni saqlash organlari bilan:**

- aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, shuningdek yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;

- surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka muhtalo bo'lgan bemorlar, ruhiy kasallar va boshqa shu kabi shaxslarning majburiy davolanishini ta'minlash;

- hayot va sog'liqqa qarshi qaratilgan jinoyat va ma'muriy huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning sodir etilish sabablari va ularga imkon bergan sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;

- hududda sodir etilgan hayot va sog'liqqa qarshi qaratilgan jinoyatlarni o'z vaqtida "issiq izi"dan ochish;

- xizmat hududida istiqomat qilib, uzoq muddatga xorijiy davlatlarga chiqqan va qaytib kelgan fuqarolarning OITS va boshqa xavfli yuqumli kasalliklarni orttirib olmaganligiga ishonch

hosil qilish va ulardan bunday kasalliklar tarqalishining oldini olish maqsadida, ushbu fuqarolarni hududiy sog'liqni saqlash muassasalari bilan hamkorlikda tibbiy ko'rikdan o'tkazish choralarini ko'rish;

- OITS va boshqa xavfli yuqumli kasalliklar aniqlangan taqdirda ularning majburiy davolanishlarini ta'minlash choralarini ko'rish;

- xizmat hududida odam savdosi jinoyatidan jabr ko'rgan fuqarolar aniqlanganda, ularni hududiy sog'liqni saqlash muassasasida tibbiyot ko'rikdan o'tkazish hamda zarurat tug'ilganida, odam savdosidan jabrlanganlarga yordam ko'rsatish va ularni himoya qilishga ixtisoslashtirilgan muassasalarga joylashtirish choralarini ko'rish;

- xizmat hududida aniq shaxs tomonidan tan jarohati yetkazilgan holatlarda, fuqaroga yetkazilgan jarohatning og'irlik darajasini aniqlashni so'rab, hududiy tibbiyot muassasalariga sud-tibbiy ekspertiza tayinlash choralarini ko'rish;

- zarur hollarda yetkazilgan jarohatning og'irlik darajasini belgilangan muddatda aniqlash maqsadida, profilaktika inspektori o'zi fuqaroni sud-tibbiy ekspertizaga olib borishni ta'minlash;

- tibbiyot muassasalaridan olingan xulosa asosida huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish yoki jinoyat ishini tergov organlariga oshirish choralarini ko'rish;

- mastlik holatini shuningdek ularda yaqqol ko'rinib turgan jarohatlarning darajasini va sabablarini aniqlash;

- surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka muhtal bo'lgan bemorlarni majburiy davolashga yuborish;

- ruhiy kasallarning ruhiy va salomatlik holatlari o'zgarib, tajovuzkorligi oshganda, o'ziga va yaqin atrofdagilarga xavf tug'dirganda, davolash uchun yuborish choralarini ko'rish;

- xavfli guruhga kiruvchi shaxslar, xususan fohishalar, igna orqali giyohvand moddalarini qabul qiluvchilar, besoqolbozlar aniqlanganda, profilaktika inspektori ularning teri-tanosil kasalliklari yoki OITS kasalligiga chalingan-chalinmaganliklarini aniqlash, zarurat tug'ilganda belgilangan tartibda davolash choralarini ko'rish;

- jamoat joylari va ko'ngilochar joylarda, bozorlar va savdo rastalarida, ta'lim muassasalari va aholi turar joylarida sanitariya va gigiena qoidalari, tozalik va obodonlashtirish talablariga rioya etilishini nazorat qilish;

- aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, shuningdek yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish maqsadida, hududiy sog'liqni saqlash muassasalari xodimlari bilan birgalikda ta'lim muassasalari, mehnat jamoalari va aholi turar joylarida davra suhbatlari o'tkazish.

#### **Ta'lim organlari bilan:**

- voyaga yetmaganlar va yoshlarning uzluksiz ta'lim olishlarini ta'minlash, ularni ijtimoiy-huquqiy himoyalash, huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish;

- voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarlik-larning profilaktikasini ta'minlash;

- voyaga yetmaganlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish;

- umumta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarda muntazam ravishda sababsiz o'qishga kelmaydigan, huquqbuzarlik va boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni sodir etishga moyil shuningdek fanlarni o'zlashtirishi past o'quvchilar bilan yakka tartibdagi profilaktik ishlarni olib borish;

- akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining mashg'ulotlarga qatnashmasdan, maqsadsiz daydib, vaqtlarini turli ko'ngilochar (internet klub, kafe va boshq.) maskanlarda o'tkazishining oldini olish maqsadida "Davomat", "O'quvchi" tadbirlarini tashkil etish;

- voyaga yetmaganlarning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, ularni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga, jumladan jinoyat sodir etishga, spirtli ichimlik va giyohvandlik moddalarini iste'mol qilishga, fohishalik bilan shug'ullanishga, tilamchilikka jalb etadigan ota-onalar, ularning o'rnini bosuvchilar yoki boshqa shaxslarni aniqlab, voyaga yetmaganlarni ularning ta'siridan asrash, bu toifa shaxslarga nisbatan tegishli qonuniy choralarini ko'rish;

- voyaga yetmaganlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ularni jismonan sog'lom, irodasi baquvvat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida sport musobaqalarini tashkil etish.

**Mehnat organlari bilan:**

- aholining ijtimoiy-huquqiy yordamga muhtoj qatlamlarini ish bilan ta'minlashga ko'maklashish;

- jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shab qaytgan, shuningdek ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarga hukm qilinganlarni ish bilan ta'minlashga yordam berish;

- mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilishga doir qonunlarga rioya etilishini nazorat qilish;

- voyaga yetmaganlar va yoshlarning ishga joylashishlariga yordam ko'rsatish;

- korxonalar, tashkilot va muassasalardagi mavjud bo'sh ish o'rinlari bo'yicha o'tkaziladigan mehnat yarmarkalariga hududdagi ishsiz, ishga joylashishga muhtoj fuqarolarning ishtirokini ta'minlash;

- jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shab qaytgan shaxslarni ijtimoiy muhofaza qilish, shuningdek ularning jamiyatga qayta moslashuviga yordam ko'rsatish, ish bilan ta'minlash, bir martalik moddiy yordam ko'rsatish choralarini ko'rish;

- mahalliy ommaviy axborot vositalari hamda ko'rgazmali reklamalar yordamida aholini ijtimoiy muhofaza qilish va ularni ish bilan ta'minlashga ko'maklashish bo'yicha tegishli tashviqot va targ'ibot ishlarini olib borish.

**O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlari** bilan ushbu sohadagi huquqbuzarliklar va ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish bo'yicha hamkorlikdagi ishlarni tashkil etish maqsadga muvofiq.

Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshirishda va jinoyatchilikka qarshi kurashishda jamoatchilik bilan hamkorligisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki hozirgi davrda huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshirishda va jinoyatchilikka qarshi kurashishda faqatgina ichki ishlar organlarining vazifalari emas, balki keng jamoatchilikning ham asosiy majburiyatlaridan biridir.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurilishi asosiy vazifalardan biri etib belgilangan, fuqarolik jamiyati esa, yuksak darajada uyushgan, tartibli munosabatlar tizimiga tayangan, o'zini o'zi boshqarish mexanizmlaridan iboratdir. Bu mexanizmlarni esa, asosan jamoat birlashmalari, jamoat tuzilmalari tashkil etadi. Shuning uchun ham profilaktika inspektorlarining fuqarolik jamiyati belgilarini tashkil etadigan jamoat birlashmalari bilan o'zaro hamkorligi samaralidir. Mamlakatimizda jamoat tuzilmalarining rolini oshirish maqsadida ko'pgina ishlar amalga oshirilib kelinmoqda, shu jumladan ularning huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshirish hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi vazifalari ham belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-sonli Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmon asosida profilaktika inspektorlari mahalla fuqarolar yig'ini raislarining huquq-tartibot masalalari bo'yicha o'rinbosari etib belgilandi. Mazkur tartib profilaktika inspektorlarining mahalla fuqarolar yig'inlari bilan hamkorligini yanada kuchaytirdi.

**Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan:**

- aholi, eng avvalo yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirishga qaratilgan tadbirlar, huquqiy targ'ibot ishlarini olib borish;

- axloq-odob doirasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish, voyaga yetmaganlar va yoshlarni ommaviy madaniyatning salbiy ta'sirlaridan himoya qilish;

- oila-turmush munosabatlari sohasida g'ayriijtimoiy xulq-atvor, qilmish, turmush tarzi va huquqbuzarliklarning profilaktikasi bo'yicha chora-tadbirlarni birgalikda ishlab chiqish va amalga oshirish;

- xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga, ularning jamiyat hayotidagi, oilada ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirishdagi, yosh avlodni tarbiyalashdagi rolini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning olib borilishida amaliy yordam ko'rsatish;

- mahallada xavfsizlikni ta'minlash maqsadida xonadonlarga kirib chiqib, fuqarolarning oilaviy turmush tarzini o'rganish va mavjud muammolarni tegishlilik bo'yicha hal etish choralarini ko'rish;

- fuqarolarga pasport tizimi qoidasiga amal qilgan holda yashashlari shartligi, doimiy yoki vaqtinchalik ro'yxatdan o'tmasdan yashashlariga yo'l qo'ymaslik, xonadonlarini noqonuniy ravishda ijaraga bermaslik yuzasidan tushuntirishlar olib borish;

- to'ylar va boshqa marosimlarni o'tkazish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirishda;

- atrof-muhitni muhofaza qilish, hududning sanitariya holati, uni obodonlashtirish hamda ko'kalamzorlashtirish masalalari yuzasidan o'z vakolatlari doirasida tegishli hududda joylashgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarni aniqlangan qoidabuzarliklar bo'yicha javobgarlikka tortish;

- tegishli hududda xavfsizlikni va jamoat tartibini saqlash, fuqarolar ogohliligini oshirish, tinchlik va barqarorlikni ta'minlash;

- ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning barvaqt oldini olish, bu borada aholi o'rtasida profilaktik targ'ibot tadbirlarini o'tkazish;

- fuqarolarda, ayniqsa voyaga yetmaganlar va yoshlarda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolar yig'inlarida huquqiy targ'ibot ishlarini tizimli amalga oshirish;

- voyaga yetmaganlar hamda yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarini hurmat qilish ruhida tarbiyalash, ongi va qalbida mustaqillik g'oyalari sodiqlik, milliy o'zlikni anglash, Vatanga muhabbat va uning taqdiriga daxldorlik, fidoiqlik hissini qaror toptirish va rivojlantirish, turli mafkuraviy tahdidlardan asrashga qaratilgan tadbirlarni o'tkazishda ishtirok etish;

- mamlakatimizda qaror topgan tinchlik, osoyishtalik va barqarorlik natijasida aholi farovonligi ta'minlanayotganligi, bu borada o'zining faol ishtiroki bilan munosib hissa qo'shish har bir fuqaroning vatanparvarlik va fuqarolik burchi ekanligini tushuntirish;

- fuqarolar yig'ini hududidagi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, obodonlashtirish hamda ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha qabul qilingan qonun hujjatlari talablari, umumdavlat hamda hududiy dasturlarda belgilangan chora-tadbirlar ijrosini ta'minlash va ushbu jarayonda keng jamoatchilik ko'magini shakllantirish ishlarini tashkil etish va amalga oshirish;

- fuqarolar tomonidan pasport tizimi, sanitariya, ekologiya, yong'in va harakat xavfsizligi qoidalariga rioya etilishi, elektrenergiya, tabiiy gaz va ichimlik suvidan foydalanganlik uchun to'lovlarning o'z vaqtida to'lanishi yuzasidan amalga oshirilayotgan tadbirlarda ishtirok etish;

- surunkali ichkilikbozlik va giyohvandlikni oldini olish choralarini ko'rish;

- voyaga yetmaganlarni salbiy ijtimoiy illatlar ta'siridan asrash choralarini ko'rish;

- notinch oilalarni, farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi yoki ular tarbiyasi bilan shug'ullanmaydigan ota-onalarni va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bilan profilaktik-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish;

- muqaddam sudlangan va jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirishda qatnashish;

- jismoniy shaxslarning huquqbuzarlik jabrlanuvchisiga aylanishi xavfini kamaytirishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etish;

- tabiiy ofatlar, ommaviy tartibbuzarliklar va boshqa favqulodda vaziyatlarda jamoat tartibini saqlash, favqulodda vaziyat xavfi tug'ilganda aholini o'z vaqtida xabardor qilish, aholi o'rtasida bunday vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishni targ'ib etish va ushbu holatlarni bartaraf etishda ko'maklashish;

- ish faoliyatida asosan tungi vaqtlarda hududlardagi jamoat joylari, mahalla ko'chalari, qarovsiz joylarda navbatchilik asosida jamoatchilik nazoratini olib borish.

### **Siyosiy partiyalar bilan:**

- aholining kam ta'minlangan qismini ijtimoiy qo'llab quvvatlash;
- aholi o'rtasida mavjud ijtimoiy-iqtisodiy va maishiy muammolarni hal etish;
- ilgari sudlangan va boshqa ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamiga uy-joy masalalarida yaqindan yordam ko'rsatish;
- aholi o'rtasida ishsizlikni bartaraf etish, bu borada yangi ishchi o'rinlar yaratish borasida davlat organlariga taklif va tavsiyalar kiritish;
- aholining pensiy va ish haqlarini oshirish yuzasidan davlat organlariga taklif va tavsiyalar kiritish.



### **Yoshlar ittifoqi bilan:**

- yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;
  - yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, shu jumladan huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish;
  - yoshlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish chora-tadbirlarini ko'rish;
  - yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;
  - yoshlar, ayniqsa ishsiz va ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lganlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish;
  - yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash;
  - yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'rvonlik va shafqatsizlik g'oyalari himoya qilish;
  - yoshlarda sog'lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish.
- Fuqarolar bilan hamkorligining asosiy yo'nalishlarga bo'lish mumkin:
- shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini g'ayrihuquqiy tajovuzlardan himoya qilish;
  - jinoyat va ma'muriy huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, ular haqida o'zaro axborotlar almashish;
  - ma'muriy hududda keng ko'lamdagi nazorat ishlarini amalga oshirish, o'z navbatida "o'z uyingni o'zing asra" degan so'zga amal qilgan holda fuqarolardan ko'ngillilari bilan birgalikdagi ishlarni tashkil etish va amalga oshirish;
  - ma'muriy hududda jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash;
  - ma'muriy hududda huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasini tashkil etish va amalga oshirish;
  - ma'muriy hududda pasport-viza va nazorat-litsenziyalash qoidalariga rioya etilishini ta'minlash jarayonida axborotlar almashish;
  - faoliyati taqiqlangan tashkilotlar, diniy-ekstremistik guruhlar va shu kabi faoliyatga aloqador bo'lgan shaxslarni aniqlash yuzasidan o'zaro axborotlar almashish;
  - ma'muriy hududda sodir etilgan jinoyatlarni aniqlash va fosh etish choralari ko'rishda axborotlar almashish;
  - jinoyat sodir etib sud va tergov organlaridan yashirinib yurgan, bedarak yo'qolgan shaxslar, axloq tuzatish ishlari tariqasida jazodan bo'yin tovlab yurgan mahkumlarni qidirib topish, shaxsi noaniq murdalarni shaxsini aniqlashda axborotlar almashish;
  - ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarga hukm qilingan shaxslarga nisbatan profilaktik-nazorat ishlarini amalga oshirishda axborotlar almashish;
  - huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda hamkorlikni ta'minlash;
  - huquqbuzarlikdan jabrlangan shaxslarga yordam ko'rsatish ishlarida ishtirok etish;
  - favqulodda hodisalar oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etish.

### Mustaqil tayyorgarlik uchun topshiriq:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentabr kunidagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-407-son qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2833 sonli qarorini o‘rganish.

### Nazorat uchun savollar.

1. IIO sohaviy xizmatlari, davlat organlari hamda jamoat tuzilmalari bilan o‘zaro hamkorligining huquqiy asoslari ayting.
2. Hamkorlikni tashkil etish prinsiplari nimalardan iborat?
3. Profilaktika inspektorlari IIONing qaysi sohaviy xizmatlari bilan o‘zaro hamkorlik qiladi?
4. Jinoyat qidiruv xizmati bilan qaysi yo‘nalishda hamkorlik qiladi?
5. Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash xizmati bilan qaysi yo‘nalishda hamkorlik qiladi?
6. Tergovchi va surishtiruvchilar bilan qaysi yo‘nalishda hamkorlik qiladi?
7. Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlari bilan qaysi yo‘nalishda hamkorlik qiladi?
8. Jamoat tartibini saqlash xizmati bilan qaysi yo‘nalishda hamkorlik qiladi?
9. Patrul-post naryadlari bilan qaysi yo‘nalishda hamkorlik qiladi?
10. Yo‘l harakati havfsizligi xizmati bilan qaysi yo‘nalishda hamkorlik qiladi?

### 15-mavzu: Profilaktika inspektorlarining IIO sohaviy xizmatlari, davlat organlari hamda jamoat tuzilmalari bilan o‘zaro hamkorligi.

#### Seminar mashg‘uloti (2 soat)

Ushbu o‘quv mashg‘uloti “Savol-javob” interfaol metodidan foydalanish orqali o‘tkaziladi.

«Savol-javob» metodi mavzuning tinglovchilar tomonidan o‘zlashtirilish darajasini aniqlashga yordam beradi. Uni qo‘llashning samaradorligi savol-javoblarning aniq, qisqa va tushunarli tarzda ifoda etilishi, aynan mavzuga doir bo‘lishiga bog‘liq.

Ta’lim jarayonida metodni qo‘llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

O‘qituvchi mohiyati yoritilgan mavzu yuzasidan savollar tayyorlaydi	1
O‘qituvchi savollarni tinglovchilar e’tiboriga havola etadi	2
Tinglovchilar berilgan savollarga javob qaytarish orqali mavzuni o‘zlashtirganlik darajasini namoyish etadi	3
O‘qituvchi tinglovchilarning savol-javobdagi ishtiroklarini tahlil qilib, baholaydi va mashg‘ulotga yakun yasaydi	4

### O‘vuv mashg‘ulotning savollari:

1. Yoshlar ittifoqi bilan hamkorligining asosiy yo‘nalishlari?
2. Siyosiy partiyalar bilan hamkorligining asosiy yo‘nalishlari?

3. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorligining asosiy yo'nalishlari?
4. Mehnat organlari bilan hamkorligining asosiy yo'nalishlari?
5. Ta'lim organlari bilan hamkorligining asosiy yo'nalishlari?
6. Sog'liqni saqlash organlari bilan hamkorligining asosiy yo'nalishlari?
7. Soliq organlari bilan hamkorligining asosiy yo'nalishlari?
8. Davlat bojxona organlari bilan hamkorligining asosiy yo'nalishlari?
9. Adliya organlari bilan hamkorligining asosiy yo'nalishlari?
10. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlari bilan hamkorligining asosiy yo'nalishlari?
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati organlari bilan hamkorligining asosiy yo'nalishlari?
12. Davlat xavfsizlik xizmati bilan hamkorligining asosiy yo'nalishlari?
13. Prokuratura organlari bilan hamkorligining asosiy yo'nalishlari?
14. Sud organlari bilan hamkorligining asosiy yo'nalishlari?
15. Ekspert-kriminalistika xizmati xodimlari bilan hamkorligining asosiy yo'nalishlari?
16. Probatsiya xizmati xodimlari bilan hamkorligining asosiy yo'nalishlari?
17. Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish xizmati xodimlari bilan hamkorligining asosiy yo'nalishlari?
18. Yo'l harakati xavfsizligi xizmati xodimlari bilan hamkorligining asosiy yo'nalishlari?
19. Patrul-post naryadlari bilan hamkorligining asosiy yo'nalishlari?
20. Jamoat tartibini saqlash xizmati xodimlari bilan hamkorligining asosiy yo'nalishlari?
21. Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektori bilan hamkorligining asosiy yo'nalishlari?
22. Tergovchi va surishtiruvchilar bilan hamkorligining asosiy yo'nalishlari?
23. Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash xizmati xodimlari bilan hamkorligining asosiy yo'nalishlari?
24. Jinoyat qidiruv xizmati xodimlari bilan hamkorligining asosiy yo'nalishlari?

#### **Mustaqil tayyorgarlik uchun topshiriq:**

O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonunining 10-moddasini o'qish va tahlil asosida konspektlashtirish

#### **Nazorat uchun savollar.**

1. Huquqbuzarliklar profilaktikasida ichki ishlar organlarning boshqa davlat organlari va jamoatchilik bilan hamkorlikdagi faoliyatini tartibga soluvchi normalarni o'zlashtirish.
2. Huquqbuzarliklar profilaktikasida ichki ishlar organlarning boshqa davlat organlari va jamoatchilik bilan hamkorlikdagi faoliyatida rasmiylashtiriladigan hujjatlar namunalari tayyorlash.
3. Huquqbuzarliklar profilaktikasida ichki ishlar organlarning o'rni hamda boshqa davlat organlari va jamoatchilik bilan hamkorlikdagi faoliyati bo'yicha muammoli vaziyatli nimalardan iborat.
4. Huquqbuzarliklar profilaktikasida ichki ishlar organlarning o'rni hamda boshqa davlat organlari va jamoatchilik bilan hamkorlikdagi yo'nalishlarni aniqlang.

## O'QUV MODULIDAN MAVZULAR BO'YICHA TAXMINIY TEST SAVOLLARI

### 1-mavzuga oid tahminiy test svollari:

1. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaysi qarori bilan belgilab berildi?
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2833-sonli qarori bilan nechta idoralararo komissiyalari tashkil etildi?
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2833-sonli qarori bilan tashkil etilgan idoralararo komissiyalarning hozirgi kunda faoliyat ko'rsatayotganlarini belgilang.
4. "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi to'g'risidagi" nizom qaysi me'yoriy xujjat bilan tasdiqlandi?
5. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi raisi kim?
6. Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi raisini belgilang.
7. Respublika idoralararo komissiyalarning shaxsiy tarkibi kim tomonidan tasdiqlanadi?
8. «Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni» haftaning qaysi kuni amalga oshiriladi?
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilingan sanani ko'rsating.
10. Tumanlarda voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalarning raisi kim hisoblanadi?

### 2-mavzuga oid tahminiy test svollari:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5005-sonli farmoni qachon qabul qilingan?
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaysi qarori profilaktika inspektorlarining IIO tayanch punktlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha huquqiy asos bo'lib hisoblanadi?
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2896-sonli qarori bilan qaysi Nizom qabul qilingan?
4. PQ-2896-son Qarorga ko'ra profilaktika inspektorlari har oyda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarida hisobot berishi qaysi sanadan boshlandi?
5. Tayanch punktlari tarkibini ko'rsating.
6. Profilaktika katta inspektorlari lavozimlariga ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalarida kamida ..... ish stajiga ega bo'lgan shaxslar tayinlanadilar.
7. Ichki ishlar organlari tayanch punkti va profilaktika inspektorlari faoliyatini tashkil etish va umumiy rahbarlikni kim amalga oshiradi?
8. Tayanch punktlari uchun yer maydoni va binolarni ajratish, qurilish, ta'mirlash va kapital ta'mirlash, shuningdek mebel bilan jihozlash ..... tomonidan mahalliy budjetdan ajratiladigan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.
9. Tayanch punktlarini zaruriy texnik vositalar, ko'rgazmali qo'llanmalar, xizmat hujjatlari va avtotransport vositalari bilan ta'minlash ..... tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan ajratiladigan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.
10. Tayanch punkti kimning balansida bo'ladi?

### 3-mavzuga oid tahminiy test svollari:

1. Ichki ishlar organlarining tayanch punktlari negizida mahalla huquq-tartibot maskanlari bosqichma-bosqich tashkil etilishi qaysi me'yoriy xujjatda belgilab qo'yildi?
2. Mahalla huquq-tartibot maskani to'g'risidagi Nizom IIVning qaysi buyrug'i bilan tasdiqlandi?
3. Dastlab mahalla huquq-tartibot maskanlari tashkil etiladigan xududlarni aniqlang?
4. Ichki ishlar organlarining eng quyi bo'g'inini ko'rsating.



5. Mahalla huquq-tartibot maskanining bevosita rahbari kim hisoblanadi?
6. Mahalla huquq-tartibot maskanining bevosita rahbari zimmasiga qanday mas'uliyat yuklanadi?
7. Mahalla huquq-tartibot maskani faoliyatiga yuklatilgan vazifalarning lozim darajada bajarilishi uchun kim shaxsan javobgar bo'ladi?
8. Mahalla huquq-tartibot maskani profilaktika inspektorining ish rejalari kim tomonidan tasdiqlanadi?
9. Profilaktika katta inspektori yo'qligida uning vakolatlari hududda kim tomonidan amalga oshiriladi?
10. Mahalla huquq-tartibot maskaniga xizmatga jalb etilgan xodimlarning kunlik ish taqsimoti kim tomonidan belgilanadi?

#### **4-mavzuga oid tahminiy test svollari:**

1. Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari faoliyatini tashkil etish tartibi qaysi IIVning buyrug'ida belgilangan?
2. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining qaysi moddalarida axloqqa qarshi huquqbuzarliklar uchun javobgarlik belgilangan?
3. Fohishalar, besoqolbozlar va tanosil kasalligiga chalingan shaxslar qanday toifaga kiradi?
4. Ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari tizimining eng yuqorisi qaysi idora xisoblanadi?
5. Ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari eng quyi tizimini ko'rsating.
6. Tayanch punktlari imkon qadar ularga birlashtirilgan hududning ..... joyda tashkil etilishi lozim.
7. Tayanch punktlarida profilaktika inspektorining xizmat xonasi devoriga ma'muriy hududning 130 sm x 200 sm o'lchamli xaritasi osib qo'yiladi.
8. Profilaktika inspektorlarida xizmat faoliyatini amalga oshirish vaqtida nimalar bo'lishi shart?
9. Profilaktika inspektori ma'muriy hududni profilaktik ko'zdan kechirishni ..... amalga oshiradi.
10. Profilaktika inspektori yil davomida barcha turar-joylarga kamida ikki marotaba tashrif buyurishi lozim

#### **5-mavzuga oid tahminiy test svollari:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonunining qaysi bobida "Huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi" ko'rsatilgan?
2. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonunining qaysi moddalari "Huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi"ni qamrab olgan?
4. Huquqbuzarliklar profilaktikasining sub'ektlari qanday tasniflanadi?
5. Ichki ishlar organlarida huquqbuzarliklarning oldini olish bilan dastlabki bosqichidan shug'ullanuvchi xizmatini ko'rsating.
6. Fuqarolarga nisbatan amalga oshiriladigan viktimologik profilaktikaning maqsadi nima?
7. O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni asosida Ichki ishlar organlarining tayanch punktida, fuqarolar yig'inida, ta'lim muassasalarida va korxonatashkilotlarda tashkil etilgan "aholi o'rtasidagi huquqiy targ'ibot" profilaktikaning qaysi turiga kiradi?
8. Huquqbuzarlik profilaktikasining turlarini ko'rsating?
9. Huquqbuzarliklar profilaktikasi turlarini amalga oshirish shakli qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan.
10. Huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasining shakllarini ko'rsating.

## **6-mavzuga oid tahminiy test svollari:**

1. Profilaktika inspektori ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladigan qanday maxsus hamda tezkor profilaktik tadbirlarda ishtirok etadi va huquqbuzarliklarning maxsus profilaktik chora-tadbirlarini o'ziga berilgan vakolat doirasida amalga oshiradi?
2. Ichki ishlar organlari huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasini qachon amalga oshirilishiga oshiriladi?
3. Maxsus profilaktik tadbirlar kimning buyrug'i, farmoyishi hamda ko'rsatmasi asosida tashkil etiladi?
4. Huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasini tashkil etishda "....."gi Qonuni talablaridan kelib chiqib amalga oshiriladi.
5. Huquqbuzarliklar profilaktikasi sub'ektlarining ayrim turdagi huquqbuzarliklar profilaktikasiga, bu turdagi huquqbuzarliklar sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishga, ayrim toifadagi shaxslarni aniklash va ularga profilaktik ta'sir ko'rsatishga qaratilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishga doir faoliyati- ..... deyiladi.
6. Respublika miqyosida o'tkaziladigan maxsus profilaktik tadbirlar.....?
7. «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonunining qaysi bobida maxsus profilaktik chora-tadbirlari ko'rsatilgan?
8. Huquqbuzarliklar profilaktikasining sub'ektlari qanday tasniflanadi?
9. Xavfli guruh deganda kimlarni tushunasiz?
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaysi qarori profilaktika inspektorlarining IIO tayanch punkti faoliyatini tashkil etish bo'yicha huquqiy asos bo'lib hisoblanadi?
11. Sub'ektlar tomonidan jinoyat, g'ayri-ijtimoiy harakatlar sodir etishga moyil shaxslarni jinoyat qonuni bilan ta'qiqlangan qilmishlardan to'xtatish va ijtimoiy ta'sirga muxtoj shaxslarni aniqlab ularga tarbiyaviy ta'sir o'tkazish qaysi profilaktika turiga kiradi?
12. Huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi chora-tadbirlari «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonunning qaysi bobida belgilangan?
13. Yakka tartibdagi jinoyatlar profilaktikasining ob'ektlarini ko'rsating.
14. Yakka tartibdagi profilaktik ta'sir usullaridan birini ko'rsating.
15. Huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi chora-tadbirlaridan ba'zilarini ko'rsating.
16. Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasalarning mansabdor shaxslari tomonidan chiqariladigan rasmiy ogohlantirish shakli hamda uni chiqarish tartibi qaysi meyoriy xujjat bilan tasdiqlangan?
17. Yakka tartibdagi profilaktikasi chora-tadbirlari qo'llanilayotgan shaxslarning huquqlaridan ayrimlarini ko'rsating.
18. Quyidagilardan qaysi biri Huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi chora-tadbirlariga kiradi?
19. Huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslarga nisbatan ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish chora-tadbirlari qonunchilikda belgilangan tartibda kim tomonidan qo'llaniladi?
20. Profilaktik ta'sir usullaridan majburlash deganda qanday xarakatlar amalga oshiriladi?

## **7-mavzuga oid tahminiy test svollari:**

1. Shaxsni profilaktik hisobga qo'yish to'g'risidagi qaror profilaktik hisobga qo'yilgan shaxsga qaysi paytdan e'tiboran kuchga kiradi?
2. Profilaktik hisobga qo'yilgan shaxsga nisbatan qachon ichki ishlar organlari tomonidan profilaktika ishi ochiladi?
3. Profilaktika inspektori profilaktik hisobga olingan shaxslar bilan yakka tartibda profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishda shaxsning qaysi asosiy xususiyatlariga e'tibor qaratishi lozim?
4. Qaysi toifa shaxslarga nisbatan profilaktik hisoblar yuritiladi?
5. Shaxsni profilaktik hisobdan chiqarish asoslarini ko'rsating?

6. "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunning qaysi moddasida profilaktik hisoblar yuritiladigan shaxslarning toifalari ko'rsatilgan?
7. Profilaktik hisoblarning yuritilishi maqsadini ko'rsating?
8. Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari tomonidan surunkali alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlikka muhtalo bo'lgan, tanosil kasalliklariga chalingan shaxslar hamda ruhiy kasallar ro'yxatlari sog'liqni saqlash muassasalaridan alohida so'rov xati orqali qaysi vaqtlarda rasman olib boriladi?
9. Shaxsni profilaktik hisobdan chiqarish asoslarini ko'rsating?
10. IIO tayanch punktlarida qaysi toifadagi huquqbuzarlik sodir etishga moil bo'lgan shaxslarning ro'yxati yuritiladi?

#### **8-mavzuga oid tahminiy test svollari:**

1. IIOTPda fuqarolarning og'zaki murojaatlari bo'yicha qabul qilish tartibini ko'rsating?
2. Profilaktika inspektorlari tomonidan jinoyatga oid arizalarni ko'rib chiqish muddatlarini aniqlang?
3. Profilaktika inspektorlari fuqarolarning og'zaki murojaatlari bo'yicha ularni qabul qilish tartibini aniqlang?
4. Fuqarolarning ariza va shikoyatlarining shakllarini ko'rsating?
5. Profilaktika inspektorlari tomonidan ariza va shikoyatlarning ko'rib chiqish muddatlarini ko'rsating?
6. Quyida fuqarolarning qaysi turdagi murojaatiga ta'rif keltirilgan "Fuqarolarning buzilgan huquqlari va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini tiklash to'g'risidagi talabi"?
7. Quyida fuqarolarning qaysi turdagi murojaatiga ta'rif keltirilgan "Fuqarolarning davlat va jamiyat faoliyatini takomillashtirishga doir tavsiyasi"?
8. Ko'rib chiqish profilaktika inspektorining vakolatiga kirmaydigan ariza kelib tushgan nima qiladi?
9. Profilaktika inspektorlari tomonidan fuqarolardan kelib tushgan takliflarni ko'rib chiqish muddatlarini ko'rsating?
10. Profilaktika inspektorlariga fuqarolarning murojaatlari berilishi tartibini aniqlang
11. Nazoratga olingan ariza va shikoyatlar uchun nechta nusxada kartochka to'ldiriladi?
12. Quyida fuqarolarning qaysi turdagi murojaatiga ta'rif keltirilgan "Fuqarolarning o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishda yordam ko'rsatish to'g'risidagi iltimosi"?
13. O'zbekiston Respublikasi IIVning jinoyatlarga oid arizalarni ko'rib chiqish tartibini belgilovchi buyrug'ini ko'rsating?
14. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasida fuqarolarning murojaat etish huquqlari ko'rsatib o'tilgan?
15. Profilaktika inspektorlari murojaatlarning ko'rib chiqishda ularning ahamiyati bo'yicha ajratishi mumkinmi?

#### **9-mavzuga oid tahminiy test svollari:**

1. Profilaktika inspektori O'zbekiston Respublikasi MJtKning nechanchi moddasining qaysi qismida berilgan vakolatlar doirasida ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida ishlarni ko'rib chiqadi?
2. Profilaktika inspektorlari MJtKning nechta moddasi bo'yicha vakolatlar doirasida ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida ishlarni ko'rib chiqadi ?
3. O'z. Res. MJtKning 113-moddasida qanday huquqbuzarlik uchun javobgarlik belgilangan?
4. O'z. Res. MJtKning 111-moddasida qanday huquqbuzarlik uchun javobgarlik belgilangan?
5. O'z. Res. MJtKning 114-moddasida qanday huquqbuzarlik uchun javobgarlik belgilangan?
6. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma ko'rib chiqish uchun ushbu Kodeksning ..... belgilangan tartibda sudga yuboriladi.

7. Elektr, issiqlik energiyasi, gazdan foydalanish qoidalarini buzish O'z. Res. MJtKning qaysi moddasida ko'rsatilgan?

8. Bayonnomani tuzish vaqtida huquqbuzarga MJtKning ..... nazarda tutilgan uning huquq va burchlari tushuntiriladi va bu xususda bayonnomaga yozib qo'yiladi.

9. MJtKning 52-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomaga, belgilangan hujjatlardan tashqari yana qanday xujjatlar ilova qilinadi?

10. Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan paytda ..... yoshga to'lgan shaxslar, MJtKda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

#### **10-mavzuga oid tahminiy test svollari:**

1. Ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etish sabablari va ularga olib kelgan shart-sharoitni bartaraf etish to'g'risida korxon, muassasa, tashkilotga taqdimnoma kiritish tartibi qaysi me'yoriy xujjatda belgilangan?

2. Sudning xususiy ajrimi (qarori) bo'yicha choralar ko'rmaslik MJtKning qaysi moddasida javobgarlik belgilangan?

3. Huquqbuzarlik sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va ichki ishlar organlarining yozma taqdimnomalarini bajarish choralari ko'rmaslik MJtKning qaysi moddasida javobgarlik belgilangan?

4. Rahbar taqdim kelib tushgan kundan boshlab ..... ichida uni kiritgan organga (mansabdor shaxsga) ko'rilgan choralar haqida ma'lum qilishi shart.

5. Taqdimnoma ..... tomonidan imzolanishi mumkin.

6. Taqdimnoma nusxasi ..... qo'shib tikib qo'yiladi.

7. Taqdimnomada nimalar ko'rsatilishi kerak?

8. Taqdimnoma kiritish huquqbuzarliklar profilaktikasining qaysi turiga kiradi?

9. Huquqbuzarlikni sodir etish sabablarini hamda uni sodir etishga olib keluvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va ichki ishlar organlarining yozma taqdimnomalarini bajarish choralari ko'rmaslik ..... ?

10. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 184-son buyrug'i qabul qilingan sanani ko'rsating?

#### **11-mavzuga oid tahminiy test svollari:**

1. Nazorat ostidagi shaxslarga sud tomonidan belgilanadigan ma'muriy cheklovlarni qo'llashdan iborat tarbiyaviy-profilaktik ta'sir ko'rsatish choralari majmui qanday ataladi?

2. Ma'muriy nazorat qoidalarini buzish uchun javobgarlik sub'ekti necha yoshdan boshlanadi?

3. Huquqlar va erkinliklarni vaqtinchalik cheklash yoki zimmaga majburiyatlar yuklatish bo'lib, ushbu cheklash yoki majburiyat yuklatish jazoni ijro etish muassasasidan ozod qilingan shaxsga nisbatan sud tomonidan belgilanishi qanday ataladi?

4. Ma'muriy nazoratdagi shaxs birinchi marta cheklovlarga rioya etmaganligi aniqlansa profilaktika inspektorlarining harakatini ko'rsating

5. O'ziga nisbatan ma'muriy nazorat amalga oshirilayotgan shaxs..... ?

6. Ma'muriy nazorat qancha muddatga o'rnatiladi?

7. Ma'muriy nazorat qaysi xollarda tugatiladi?

8. Ma'muriy nazorat muddatining o'tishi qaysi hollarda to'xtatib turiladi?

9. Ma'muriy nazorat o'rnatish asosini ko'rsating.

10. Ma'muriy nazorat chog'ida belgilanadigan ma'muriy cheklovlarni birini ko'rsating?

#### **12-mavzuga oid tahminiy test svollari:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PF-29-son Farmoni qachon qabul qilingan?

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-31-son Qarori qachon qabul qilingan?

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-92-son Qarori qachon qabul qilindi?
4. Hokim yordamchilarining asosiy vazifalaridan birini ko'rsating.
5. Mahalladagi yoshlar yetakchisining asosiy vazifalaridan birini ko'rsating.

### **13-mavzuga oid tahminiy test svollari:**

1. Voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirishning huquqiy asoslarini ko'rsating?
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi qarori bilan respublika qiz bolalar o'quv-tarbiya muassasasi qaysi manzilda joylashtirildi?
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi qarori bilan respublika o'g'il bolalar o'quv-tarbiya muassasasi qaysi manzilda joylashtirildi?
4. Respublika o'quv-tarbiya muassasalariga necha yoshdan voyaga yetmaganlar joylashtiriladi?
5. Ixtisoslashtirilgan o'quv tarbiya muassasasiga voyaga yetmagan shaxsni joylashtirish uchun ko'rsatilgan sub'ektlardan qaysi biri Iltimosnoma kiritadi?
6. Ichki ishlar organlari voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnomani sudga yuborish uchun zarur bo'lgan materiallarni necha kun ichida voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiya uchun tayyorlashi shart?
7. Voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnoma Voyaga yetmaganlar va yoshlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiya uni taqdim etgan paytdan e'tiboran, voyaga yetmaganing yashash joyidagi jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining sudyasi tomonidan yopiq sud majlisida yakka tartibda ko'rib chiqiladigan muddatni ko'rsating
8. Voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqib, sudya tomonidan chiqariladigan ajrimlardan birini ko'rsating
9. Iltimosnomani sudga yuborish qaysi qaror bilan tasdiqlangan «Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyalar to'g'risida»gi Nizomida belgilab berilgan komissiyaning vakolatlari asosida amalga oshiradi?
10. Sudga kelishdan bo'yin tovlayotgan ota-ona yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar, shuningdek .....ga to'lgan voyaga yetmaganlar majburiy keltirilishi mumkin.
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining qabul qilingan sanasi va raqamini ko'rsating?
12. Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlarining asosiy vazifalaridan ayrimlarini ko'rsating?
13. Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlariga voyaga yetmaganlar necha yoshda qabul qilindi?
14. Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlariga voyaga yetmaganlar kunning qaysi vaqtlarida qabul qilindi?
15. Markazlarga qaysi toyifa voyaga yetmaganlar qabul qilinadi?
16. Markazlardan voyaga yetmagan shaxsni chiqarish asosini ko'rsating?
17. Voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologlar qanday joylarda qarovsiz bolalarni aniqlaydi?
18. Profilaktika inspektorlari qanday joylarda qarovsiz bolalarni aniqlaydi?
19. Markaz xodimlari ..... maxsus avtotransport vositasida qarovsiz bola saqlanayotgan manzilga yetib kelib, uni qabul qilib oladi va belgilangan tartibda Markazga olib borib joylashtiradi.
20. Markaz ..... ichida qarovsiz bolaning shaxsini aniqlaydi.

#### **14-mavzuga oid tahminiy test svollari:**

1. Tazyiq – tushunchasiga izoh bering.
2. Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchi – tushunchasiga izoh bering.
3. Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchilarga himoya orderi qaysi idora tomonidan beriladi?
4. Himoya orderi qayerda qayd etiladi?
5. Himoya orderi qancha muddatga beriladi, zarur hollarda qancha muddatga uzaytirilishi mumkin?
6. Himoya orderining amal qilishi qanday holatlarda tugatiladi?
- 7..... zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarni javobgarlikka tortish yuzasidan o‘z vakolatlari doirasida choralar ko‘radi.
8. Profilaktika inspektori ..... ish kuni mobaynida himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirish to‘g‘risida jabrlanuvchining arizasini, shu jumladan, xavf bartaraf etilgan yoki etilmaganligini o‘rganadi.
9. Himoya orderi necha qismdan iborat bo‘ladi?
10. Himoya orderi qachondan kuchga kiradi?

#### **15-mavzuga oid tahminiy test svollari:**

1. Profilaktika inspektorlari jamoat tartibini saqlash xizmati xodimlari bilan quyida ko‘rsatilgan qaysi xolatda xamkorlik qiladi.
2. Fuqarolar tomonidan qonunsiz egallab olingan xonadondan sud qarori bilan ko‘chirib chiqarish vaqtida profilaktika inspektorining vazifasiga nimalar kiradi?
3. Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha profilaktika xizmatining tergov xizmati bilan hamkorligini aniqlang.
4. Ichki ishlar organlarining tayanch punktlari ta‘rifi to‘liq keltirilgan javobni aniqlang?
5. Tayanch punktlari faoliyatining asosiy maqsadini ko‘rsating?
6. II O‘lari tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha maxsus profilaktikani amalga oshirishda qaysi idora bilan hamkorlik qiladi ?
7. Profilaktika inspektori nazoratdagi shaxsga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatishda ko‘rsatilgan qaysi organ bilan hamkorlik qiladi?
8. Profilaktika inspektori uzoq muddatga ketgan shaxslar bilan ishlash faoliyatida Sog‘liqni saqlash organlari bilan qanday tartibda hamkorlik qiladi?
9. Profilaktika inspektorlari yo‘l harakati xavfsizligi xizmati xodimlari bilan quyida ko‘rsatilgan qaysi xolatda xamkorlik qiladi.
10. Profilaktika inspektorlari Ekspert-kriminalistika xizmati xodimlari bilan quyida ko‘rsatilgan qaysi xolatda xamkorlik qiladi.

## GLOSSARIY:

**Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni** - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi PQ-2833-sonli qarori bilan haftaning har payshanba kuni «Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni» etib belgilandi.

**Mahalla huquq-tartibot maskani** - mahalla va qishloqlarda jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini bevosita amalga oshiradigan, shuningdek, fuqarolarning xavfsizligi va osoyishtaligini ta'minlash borasida ichki ishlar organlari, boshqa huquq-tartibot organlari va jamoat tuzilmalarining mahallalar kesimida birgalikda ishlashini tashkil etadigan ichki ishlar organlarining eng quyi bo'g'inidagi tarkibiy tuzilmasi hisoblanadi.

**Huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi** – huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalarning huquqbuzarliklarning oldini olish, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish bo'yicha faoliyati huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi;

**Aybli viktimlik** - potensial qurbonning salbiy, huquq va axloq nuqtai nazaridan nomunosib xulqidan iborat bo'lib, u jinoyat sodir etilishiga imkon beradigan omil hisoblanadi. Masalan, yo'l-transport hodisalaridan fuqarolarning ko'pgina qismi yo'l qoidalariga rioya qilmaganliklari oqibatida jabrlanadilar.

**Aybsiz viktimlik** - umuman hayotda, xususan, jinoyatdan avvalgi vaziyatda ijtimoiy ma'qul axloqqa ega bo'lgan muayyan shaxsning (masalan, inkassator, mahalla posboni) mehnat yoki jamoat faoliyatining xususiyati yoxud psixofiziologik jihatlari (masalan, bola, qariya, bemorligi kabilar) bilan bog'liq.

**viktimlik darajasi kam bo'lgan shaxslar** – jismonan baquvvat, voqelikka to'g'ri yondashuvchi va boshqalar;

**viktimlik darajasi o'rtacha bo'lgan shaxslar** – neytral shaxslar, ya'ni o'zi nizoli holatni keltirib chiqarmaydigan, lekin nohaqlikka chidolmaydigan shaxslar;

**viktimlik darajasi yuqori bo'lgan shaxslar** – kasbi, ijtimoiy maqomi, biofiziologik xususiyati, moddiy ahvoli, ma'naviy-ruhiy belgilari kabilar bilan bog'liq holda huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimoli mavjud bo'lgan shaxslardir.

**Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi** – huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini amalga oshirish jarayonida ma'muriy hududda fuqarolarning yoki muayyan shaxslarning huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimolini kamaytirish maqsadida huquqbuzarliklarni sodir etilishida jabrlanuvchilarning tutgan o'rnini hamda jabrlanishning sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish hamda aholiga va uning alohida toifalariga jabrlanish xavfini tug'dirayotgan omillar va huquqbuzarliklar haqida ma'lumotlar berish, bu borada ularni ogohlikka va hushyorlikka chaqirish hamda xavfsizlik qoidalariga rioya etishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlaridan iborat.

**Profilaktik hisob** – bu jamiyatda yurish turish qoidalarini buzib, g'ayriijtimoiy harakat yoki harakatsizlik sodir etgan shaxslarni kelgusida qayta huquqbuzarliklar sodir etmasligini nazorat qilish hamda ularga ijtimoiy rehabilitatsiya va ijtimoiy moslashtirish choralari qo'llashni ta'minlash maqsadida yuritiladigan hujjat hisoblanadi.

**Ma'muriy huquqbuzarlik deganda** - qonunchilikka binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayrihuquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi.

**ma'muriy nazorat** — nazorat ostidagi shaxslarga sud tomonidan belgilanadigan ma'muriy cheklovlarni qo'llashdan iborat tarbiyaviy-profilaktik ta'sir ko'rsatish choralari majmui;

**ma'muriy cheklov** — huquqlar va erkinliklarni vaqtinchalik cheklash yoki zimmaga majburiyatlar yuklatish bo'lib, ushbu cheklash yoki majburiyat yuklatish jazoni ijro etish muassasasidan ozod qilingan shaxsga nisbatan sud tomonidan belgilanadi;

**nazorat ostidagi shaxs** — o‘ziga nisbatan ma‘muriy nazorat amalga oshirilayotgan shaxs;  
**nazorat ostidagi shaxsning yashash joyi (yashash joyi)** — nazorat ostidagi shaxs doimiy yoki vaqtincha propiska qilingan turar joy.

**ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmagan** — voyaga yetmaganning nazoratsizligi yoki qarovsizligi oqibatida uning hayoti yoki sog‘lig‘i uchun xavf tug‘diradigan yoxud uni ta‘minlash, tarbiyalash va unga ta‘lim berish talablariga javob bermaydigan sharoitda bo‘lgan yoxud huquqbuzarlik yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etayotgan voyaga yetmagan;

**ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan oila** — ota-ona yoki ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxslar voyaga yetmaganlarni ta‘minlash, tarbiyalash va ularga ta‘lim berish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishdan bo‘yin tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yoxud ularning xulq-atvoriga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgan yoki ular bilan shafqatsiz muomalada bo‘layotgan oila;

**nazoratsiz** — ota-ona yoki ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmaganni ta‘minlash, tarbiyalash va unga ta‘lim berish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishdan bo‘yin tovlaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik oqibatida xulq-atvori nazoratsiz qolgan voyaga yetmagan;

**qarovsiz** — aniq yashash joyi bo‘lmagan nazoratsiz qolgan voyaga yetmagan;

**g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar** — voyaga yetmaganning muntazam ravishda spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta‘sir etuvchi boshqa moddalarni iste‘mol qilishida, fohishalik, tilanchilik bilan shug‘ullanishida ifodalanadigan xatti-harakatlari, shuningdek o‘zga fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzadigan boshqa xatti-harakatlari.

**ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmagan** — voyaga yetmaganning nazoratsizligi yoki qarovsizligi oqibatida uning hayoti yoki sog‘lig‘i uchun xavf tug‘diradigan yoxud uni ta‘minlash, tarbiyalash va unga ta‘lim berish talablariga javob bermaydigan sharoitda bo‘lgan yoxud huquqbuzarlik yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etayotgan voyaga yetmagan;

**ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan oila** — ota-ona yoki ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxslar voyaga yetmaganlarni ta‘minlash, tarbiyalash va ularga ta‘lim berish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishdan bo‘yin tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yoxud ularning xulq-atvoriga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgan yoki ular bilan shafqatsiz muomalada bo‘layotgan oila;

**nazoratsiz** — ota-ona yoki ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmaganni ta‘minlash, tarbiyalash va unga ta‘lim berish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishdan bo‘yin tovlaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik oqibatida xulq-atvori nazoratsiz qolgan voyaga yetmagan;

**yakka tartibdagi profilaktika ishi** — ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmaganlar va oilalarni o‘z vaqtida aniqlash, shuningdek ularni ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya qilish hamda voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishining oldini olishga doir faoliyat;

**qarovsiz** — aniq yashash joyi bo‘lmagan nazoratsiz qolgan voyaga yetmagan;

**g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar** — voyaga yetmaganning muntazam ravishda spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta‘sir etuvchi boshqa moddalarni iste‘mol qilishida, fohishalik, tilanchilik bilan shug‘ullanishida ifodalanadigan xatti-harakatlari, shuningdek o‘zga fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzadigan boshqa xatti-harakatlari.

**jinsiy zo‘ravonlik** — xotin-qizlarga nisbatan ularning roziligisiz shahvoniy xususiyatga ega harakatlarni sodir etish orqali jinsiy daxlsizlikka va jinsiy erkinlikka tajovuz qiladigan zo‘ravonlik shakli, shuningdek zo‘rlik ishlatish yoki zo‘rlik ishlatish bilan tahdid qilish yoxud ayol jinsidagi voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan axloqsiz harakatlar sodir etish orqali uchinchi shaxs bilan jinsiy aloqa qilishga majburlash;



**jismoniy zo‘ravonlik** — xotin-qizlarga nisbatan og‘irligi turli darajada bo‘lgan tan jarohatlari yetkazish, xavf ostida qoldirish, hayoti xavf ostida qolgan shaxsga yordam ko‘rsatmaslik, zo‘ravonlik xususiyatiga ega boshqa huquqbuzarliklar sodir etish, jismoniy ta‘sir o‘tkazish yoki bunday ta‘sir o‘tkazishning o‘zga choralari qo‘llash bilan tahdid qilish orqali xotin-qizlarning hayoti, sog‘lig‘i, erkinligi hamda qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari va erkinliklariga tajovuz qiladigan zo‘ravonlik shakli;

**zo‘ravonlik** — xotin-qizlarga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta‘sir o‘tkazish yoki bunday ta‘sir o‘tkazish choralari qo‘llash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sog‘lig‘i, jinsiy daxlsizligi, sha‘ni, qadr-qimmatini va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g‘ayrihuquqiy harakat (harakatsizlik);

**iqtisodiy zo‘ravonlik** — xotin-qizlarga nisbatan turmushda, ish joylarida va boshqa joylarda amalga oshirilgan zo‘ravonlik shakli, xotin-qizlarning normal yashash va kamol topish uchun oziq-ovqat, uy-joy hamda boshqa zarur shart-sharoitlar bilan ta‘minlanishga bo‘lgan huquqini, mulk huquqini, ta‘lim olish hamda mehnatga oid huquqini amalga oshirishni cheklashga olib keladigan harakat (harakatsizlik);

**ish joyi** — o‘zi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq mehnat majburiyatlarini amalga oshirish yoki xizmat vazifalarini bajarish uchun bo‘lishi yoki borishi lozim bo‘lgan, ish beruvchi tomonidan bevosita yoki bilvosita nazorat qilinadigan joy;

**ruhiy zo‘ravonlik** — xotin-qizlarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha‘nini, qadr-qimmatini kamsitish, shuningdek ularning xohish-irodasini cheklashga qaratilgan boshqa harakatlarda ifodalanadigan zo‘ravonlik shakli, shu jumladan reproduktiv sohada nazorat qilish, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchida o‘z xavfsizligi uchun xavotir uyg‘otgan, o‘zini himoya qila olmaslikka olib kelgan yoki ruhiy sog‘lig‘iga zarar yetkazgan harakat (harakatsizlik);

**tazyiq** — sodir etilganligi uchun ma‘muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan, xotin-qizlarning sha‘ni va qadr-qimmatini kamsitadigan harakat (harakatsizlik), shilqimlik;

**tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchi** — o‘ziga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik sodir etilishi tahdidi ostida bo‘lgan yoki tazyiq va zo‘ravonlik natijasida jabrlangan ayol jinsidagi shaxs;

**tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish** — xotin-qizlarning hayoti, sog‘lig‘i uchun paydo bo‘lgan xavfni bartaraf etish, tezkor chora-tadbirlarni talab qiladigan hayotiy vaziyatlar yuz berganda xotin-qizlarning xavfsizligini ta‘minlash, shuningdek jabrlanuvchiga nisbatan tazyiq o‘tkazgan va zo‘ravonlik sodir etgan shaxsning takroran g‘ayriqonuniy xatti-harakatlariga yo‘l qo‘ymaslik maqsadidagi iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, tashkiliy, psixologik va boshqa tushdagi kechiktirib bo‘lmaydigan tadbirlar tizimi;

**tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish** — xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik sodir etishga olib keladigan sabablar hamda shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etishga, jamiyatda xotin-qizlarning zo‘ravonlikdan xoli bo‘lish huquqlaridan xabardorligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizimi;

**himoya orderi** — tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchiga davlat himoyasini taqdim etuvchi, xotin-qizlarga tazyiq o‘tkazayotgan yoki ularga nisbatan zo‘ravonlik sodir etgan shaxsga yoxud bir guruh shaxslarga nisbatan ushbu Qonunda belgilangan ta‘sir ko‘rsatish choralari.

**xavfli guruh** — o‘zining g‘ayriijtimoiy xulq-atvori tufayli o‘zga shaxslarga jinsiy aloqa yo‘li orqali yuquvchi kasalliklarni (OIV, zaxm, so‘zak va boshqalar) yuqtirish xavfi yuqori bo‘lgan fohishalar, besoqolbozlar va tanosil kasalligiga chalingan shaxslar;

**axloqqa qarshi huquqbuzarliklar profilaktikasi** — O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 189, 189<sup>1</sup>, 190, 191–moddalarida va Jinoyat kodeksi 128, 129, 130, 130<sup>1</sup>, 131 va 278–moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo‘llaniladigan huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasi tizimi.

**Huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi** – «Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning ayrim turdagi huquqbuzarliklar profilaktikasiga, bu turdagi huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishga, ayrim toifadagi shaxslarni aniqlash va ularga profilaktik ta'sir ko'rsatishga qaratilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishga doir faoliyat

**Huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi** - sub'ektlar tomonidan jinoyat, g'ayri-ijtimoiy xarakterli sodir etishga moyil shaxslarni jinoyat qonuni bilan taqiqlangan qilmishlardan to'xtatish va ijtimoiy ta'sirga muxtoj shaxslarni aniqlab ularga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishdan iborat.

**Ishontirish** - profilaktika qilinuvchiga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning asosiy metodi. Tarbiyalash-ishontirishdir. Ishontirish ish va so'z orqali amalga oshiriladi. Ishontirish usuli sof tarbiyaviy xususiyatga ega bo'lib, ular profilaktika qilinayotgan shaxsning huquqlarini aslo cheklamaydi. Jinoyatlarning yakka tartibdagi profilaktikasida qo'llaniladigan odatdagi ishontirish choralari suhbatlar, jamoat tashkilotlari va mehnat jamoalaridagi muhokamalar, jamoatchilik vakillaridan biriktirilgan murabbiylar kabilarni tayinlash kiradi.

**Rag'batlantirish**-profilaktik ta'sirning muxim metodlaridan bo'lib shaxsning ijobiy qarashlari, xizmatlarini takomillashtirish va mustaxkamlashga xizmat qiladi. Rag'batlantirish moddiy-ma'naviy bo'lishi mumkin. Profilaktika qilinayotgan shaxsning ijtimoiy muhit bilan munosabatini to'g'ri yo'lga qo'yishdan iborat. Masalan, Profilaktika qilinayotgan shaxsni ishga joylashtirishning o'zi yetarli emas, unga jamoa bilan til topishida, uning to'la huquqli a'zosiga aylanishida ko'maklashish zarur. Profilaktika qilinayotgan shaxsni guruhning salbiy ta'siridan ajratib olishning o'zi yetarli emas, balki unga ijobiy ta'sir ko'rsata oladigan guruhga kirishishiga xam yordamlashish kerak.

**Majburlash** - profilaktika qilinuvchiga tarbiyaviy ta'sirning yordamchi istisno tariqasidagi usulidir. U faqat boshqa metodlar samara bermaganda qo'llaniladi. Masalan muqaddam sudlanganlarni ma'muriy nazoratga olish, majburiy davolash muassasasiga yuborish, tajavuzkor ruxiy kasallarni kasalxonaga yotqizish.

**Yakka tartibdagi jinoyatlar profilaktikasining ob'ektlari**-ma'muriy xududda yashayotgan ichki ishlar idoralari profilaktik hisobida turgan muqaddam sudlangan shaxslar, ulardan ma'muriy nazorat ta'siri ostiga tushuvchilari, ma'muriy nazoratda turganlari, bedarak yo'qolganlar, qidiruvdagilar, so'qqabosh-yolg'iz yashovchilar, profilaktik xisobda turuvchi boshqa toifadagi shaxslar, nazorat-litsenziya faoliyatiga tegishli ob'ektlar, shaxslar (ov quroli egalari, bosmaxona, tipografiyalar, sauna, videosalon, disko-bar, inson sog'lig'iga xavfli ximikatlar, gazlar bilan ishlovchi tashkilotlar) va axolining ijtimoiy ta'sirga muxtoj qatlamlari

## **Adabiyotlar:**

### **I. Asosiy adabiyotlar:**

- X.T. Odilqoriyev, I. Ismailov, N.T. Ismoilov. Ma'muriy huquq: Darslik// – T., 2010.
- N.T. Ismoilov, D.D. Babaev. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish: O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, – 2014. – 118 b.
- X.X. Baxramov. Ichki ishlar idoralari tomonidan ma'muriy majburlash choralarini qo'llash asoslari va tartibi: O'quv qo'llanma – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014.– 66 b.
- I. Ismailov, M.Z. Ziyodullaev. Axborot-tahlil faoliyati asoslari: O'quv qo'llanma – T., 2015. – 78 b.
- I. Ismailov, M.Z. Ziyodullaev. Korrupsiyaviy huquqbuzarliklar profilaktikasi: O'quv qo'llanma – T., O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016. – 78 bet.
- I. Ismailov, J.S. Muxtorov, S.Xo'jaqulov. Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati: O'quv qo'llanma – T., O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017. – 82 bet.
- Y.S. Pulatov, I. Ismailov, A.A. Qurbanov. Ichki ishlar organlari faoliyati. Darslik. – T., 2018. – 407 b.
- O'zbekiston Respublikasida sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar: bugungi holati, muammo va yechimlari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. Toshkent, 2008. – 377 b.
- Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati: Ilmiy nazariy konferensiya materiallari to'plami. TDYui nashriyoti. Toshkent, 2011. – 230 b.
- Jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashning dolzarb masalalari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. Toshkent, 2015. 335 b
- Ekstremizm va terrorizm – taraqqiyot dushmani. Ichki ishlar tizimi xodimlari (profilaktika inspektorlari) uchun o'quv-amaliy qo'llanma. O'quv-amaliy qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 164 b.
- Huquqbuzarliklarning sabab va sharoitlarini aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etish. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017., 128 b.
- Yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017. 116 b.
- Ichki ishlar organlari tizimidagi tub islohotlar – xalq manfaatlariga xizmat qilishni ta'minlash kafolati. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2020., 331 b.
- Ichki ishlar organlari faoliyati. Darslik. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2020. 382 b.
- O'zbekiston ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilayotgan ma'muriy-huquqiy islohotlar: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2020. – 489 b.
- Ichki ishlar organlari xizmatiga kirish maxsus kursi. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish Instituti , 2021. 79 b.

### **II. Qo'shimcha adabiyotlar.**

#### **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:**

- Mirziyoyev Sh.M. Yerkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo yetamiz. – T., “O'zbekiston”, 2016. – 56 b.
- Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., “O'zbekiston”, 2017. – 48 b.
- Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T., “O'zbekiston”, 2017. – 104 b.
- Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T., “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.

Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom yettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T., “O‘zbekiston”, 2017. – 596 b.

Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan yeng oliy bahodir. – T., “O‘zbekiston”, 2018. – 512 b.

### **III. Normativ-huquqiy hujjatlar:**

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T: O‘zbekiston, 2023. – 76.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – T., 2021. – Lex.uz.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – T., 2021. – Lex.uz.

O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi.– T., 2021. – Lex.uz.

O‘zbekiston Respublikasining 2000 yil 15 dekabrda “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi O‘RQ-167-II-son qonuni.

O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – T., 2014. – № 20. – 221-m.

O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentabrda “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – T., 2016.– № 38.– 438-m.

O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – T., 2017.

O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 11 sentabrda “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – T., 2017.

O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 30 iyulda “Ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi O‘RQ-489-son qonuni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 maydagi “Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta‘minlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2940-son Qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 2017.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martda “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2833-son Qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 2017.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 aprelda “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, yerkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta‘minlashda ularning mas‘uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5005-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 2017. – № 15. – 243-m.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 aprelda “Ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2883-son Qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 2017.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 avgustda “Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3216-son Qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami.–2017.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 noyabrda “Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil yetish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3413-son Qarori - Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.11.2017 y., //lex.uz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 24 dekabrda “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4075-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 fevraldagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-4166-son qarori. //lex.uz

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 maydagi “Toshkent viloyatida huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari kuch va vositalarini boshqarishni sifat jihatdan yangi tizimini joriy yetish to‘g‘risida”gi PQ-4343-son Qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 06 martdagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6196-son Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF 27-son Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 apreldagi “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5050-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 15 apreldagi “Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy yetish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5076-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 20 yanvardagi “Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-10-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2021 yil 1 yanvardagi “Ichki ishlar organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2-son buyrug‘i.

#### **Yelektron ta’lim resurslari:**

1. <http://www.lex.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi).
2. <http://press-service.uz/uz> (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti).
3. [www.iiv.uz](http://www.iiv.uz)
4. <http://natlib.uz> (Alisher Navoiy Nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi).
5. <http://akadmvd.uz> (O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi).
6. <http://ziyonet.uz> (ZiyoNET ta’lim portali).
7. <http://utube.uz/ru> (Utube.uz ta’lim videoportali).
8. <http://book.uz/> (Elektron adabiyotlar kutubxonasi).
9. <http://www.xs.uz> («Xalq so‘zi» gazetasi).
10. <http://www.legislationline.org/ru> (Byuro po demokraticeskim institutam i pravam cheloveka OBSE).

---

---

**‘Ichki ishlar organlari profilaktika inspektori ofitserlik lavozimlariga qabul qilingan xodimlarni boshlang‘ich kasbiy tayyorgarlik o‘quv kursi’ning tasdiqlangan o‘quv dasturi asosida ‘Profilatika inspektori faoliyati’ nomli modulning**

**O‘QUV-USLUBIY MAJMUASI**

Muharrir N.Z. Tasimov

Bosishga ruxsat etildi\_\_\_\_\_2023-y. Nashriyot-hisob tabog‘i 3,5.  
Adadi\_\_\_\_\_nusxa. Buyurtma №\_\_\_\_. Bahosi shartnoma asosida

O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti,  
100213. Toshkent shahar. Husavn Boyqaro ko‘chasi, 27a-uy.